

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

UIF: 6.1

SJIF: 5.7

SIS: 1.2

Cite Factor: 0.89

2022/03

VOLUME 3

ISSUE 3



*We increase scientific
potential together!*

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences





ISSN 2181-1385

VOLUME 3, ISSUE 3

MARCH 2022



www.ares.uz

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov

Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

EDITORIAL BOARD

O. Ziyadullaev

Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

S. Madayeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

R. Bekmirzayev

Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute

G. Nurshiyeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan

G. Gaffarova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

Y. Safronova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

G. Ruzmatova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

B. Eshchanov

Associate Professor, Doctor of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical Sciences

N. Shermuhamedova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

B. Khusanov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

K. Bobokhudjayev

Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

K. Tulantayeva

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan

O. Naumenko

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS

M. Rakhimshikova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

M. Gulyamova

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University

N. Makhmudova

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

M. Sultonov

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute

N. Zolotyx

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

J. Kholmuminov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies

O. Hayitov

Associate Professor, Doctor of Psychological Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

A. Kholmakhmatov

PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

D. Bozorov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

D. Karshiyev

Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

T. Shevchenko

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

R. Ikramov

Associate Professor, Candidate of Juridical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

C. Nasritdinov

Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering

Z. Yakhshiyeva

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute

U. Khodjamkulov

Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

S. Botirova

Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

B. Yuldashev

Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute

Y. Islamov

Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

S. Allayarova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Djumabekov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 3, ISSUE 3, MARCH, 2022

K. Toshov

Senior Teacher, PhD, National University of Uzbekistan

T. Khojiyev

Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan

T. Kuyliyev

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Shofkorov

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

N. Kholikova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

I. Ergashev

Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan

J. Davletov

Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University

A. Makhmudov

Doctor of Philosophy in Economical Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

A. Yuldashev

PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

S. Pirmatov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Tashkent State Technical University

D. Otajonova

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

F. Rajabov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

J. Namozov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

N. Umarova

Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University

S. Toshtemirova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

U. Shermatova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

S. Akhunova

Associate Professor, PhD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

N. Juraeva

Senior Teacher, PD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Iskhakova

Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences, National University of Uzbekistan

D. Akhmedjonov

Associate Professor, Doctor of Technical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

U. Rustamov

Acting Associate Professor, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

I. Mambetov

PhD in Philological Sciences, Karakalpak State University

Z. Sanakulov

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

D. Sharipov

Senior Scientific Researcher, PhD in Technics, Tashkent University of Information Technologies

S. Korayev

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

O. Jabborova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

G. Tojiyeva

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

N. Abdulkhalikova

Acting Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical Institute

A. Yekabsons

Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

E. Maxkamov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical Institute

A. Seytov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical Institute

A. Tursunov

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Navoi State Mining Institute

N. Bobomuradov

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

M. Tadjibaev

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute

U. Kasimov

Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

Editorial Secretary: T. Madalimov

THE INFLUENCE OF LEARNING STYLES ON LANGUAGE TEACHING AT SECONDARY SCHOOL

Farida Djavairovna Akhmedjanova

Faculty of the English language I, Department of the English history and Grammar,
Samarkand State Institute of Foreign languages

axmedjanovafarida@gmail.com

ABSTRACT

Learning style refers to the ability of learners to perceive and process information in learning situations. One of the most important uses of learning styles is that it makes it easy for teachers to incorporate them into their teaching. There are different learning styles. Three of the most popular ones are visual, auditory, and kinesthetic in which students take in information. This study is an analysis of learning styles prevalent among secondary school students. It was conducted on three learning styles-visual, auditory and kinesthetic (VAK). It also tries to find out relation and effect of different learning styles on academic achievements of students. This article studies the role of learning styles on language teaching at secondary school. It is vital to mention that the work is devoted to highlight the effects of learning styles to improve learners' language skill.

Keywords: learning, learning style, academic achievement

INTRODUCTION

Every child follows its own unique way to learn and process information. They learn material in different ways. Some learn by oral repetition, some may learn by writing it out, while others may learn through practical work. Individuals thus differ in the way they learn. Learning style can be described as a set of factors, behaviours and attitudes that facilitate learning for an individual in a given situation. It is the ability of learners to perceive and process information in learning situations. Learning style is the characteristic cognitive, affective, social, and physiological behaviors that serve as relatively stable indicators of how learners perceive, interact with, and respond to the learning environment. Learning styles can be defined, classified, and identifies in many different ways. Generally, they are overall patterns that provide direction to learning and teaching. Learning style can also be described as a set of factors, behaviours



and attitudes that facilitate learning for an individual in a given situation.

MATERIALS AND METHODS

Styles influence how students learn, how teacher teach, and how the two interact. Each person is born with certain tendencies toward particular styles, but these biological or inherited characteristics are influenced by culture, personal experiences, maturity level and development. Style can be considered a 'Contextual' variable or construct because what the learner brings to the learning experiences is a part of the content as well as the important features of the learners experience itself. Each learner has distinct and consistent preferred ways of perceptions, organization and retention. Students learn differently from each other and it has been determined that brain structure influences language structure acquisition. It has also been shown that different hemispheres of the brain contain different perceptions avenues. Some researchers claim that several types of cells present in some brains are not present in others are responsible for different pattern of perception among individuals. Some students are visual learners, while others are auditory or kinesthetic learners. Visual learners learn visually by means of charts, graphs, and pictures. Auditory learners learn by listening to lectures and reading. Kinesthetic learners learn by doing. Students can prefer one, two, or three learning styles. Because of these different learning styles, it is important for teachers to incorporate in their curriculum activities related to each of these learning styles so that all students are able to succeed in their classes. While we use all of our senses to take in information, we each seem to have preferences in how we learn best. In order to help all students learn, we need to teach to as many of these preferences as possible (Cuaresma, 2008). When we think about a typical class room situation, it is rare to find all three of these approaches to learning incorporated into a class. While it may seem impossible to do this, it can be done through thoughtful planning and preparation. It does force us to conceptualize the class differently with a focus on the variety of ways in which students learn. The various inventories on learning styles allow teachers to gain insight into which areas they can use further development in and which are already well developed (Cuaresma, 2008).

One of the most significant advances in education has come from a considerable amount of research done in the area of learning styles which recognizes that the students in classrooms have variety of different learning profiles. Some of the dimensions



which have been investigated in the area of learning style are perceptual learning styles, field dependence/independence, analytic/global learning styles and reflective/ impulsive learning styles. Some of the benefits of increasing learners' awareness of their own learning styles: "higher interest and motivation in the learning process, increased student responsibility for their own learning, and greater classroom community. These are affective changes, and the changes have resulted in more effective learning" (Reid, 1999). Gardner's research has shown that human cognitive ability is pluralistic rather than unitary and that learners of any subject will make greater progress if they have the opportunity to use their areas of strength to master the necessary material. He recommends that teachers use a wide variety of ways to deal with the subject because "genuine understanding is most likely to emerge and be apparent to others (Gardner, 1991). In the classroom it is possible to motivate learners by activating multiple ways of meaning-making through the use of tasks relating to the different intelligences. Providing a variety of language activities that stimulate the different tools or intelligences proposed by Gardner (1999) makes it possible to engage multiple memory pathways necessary to produce sustained deep learning (Schumann, 1997). In order to achieve the ultimate goal of student learning it is important to use a combination of teaching methods and to make the classroom environment as stimulating and interactive as possible. Students learn in many different ways According to Dunn and Dunn (1978), only 20-30% of school age children appear to be Auditory learners, 40% are visual learners, and 30-40% is tactile/kinesthetic or visual/tactile learners. Barbe and Milone (1981) stated that for school children the most frequent modality strengths are visual (30%) or mixed (30%), followed by auditory (25%), and then by kinesthetic (15%). Price, Dunn, and Sanders (1980) found that very young children are the most tactile/kinesthetic, that there is a gradual development of visual strengths through the elementary grades, and that only in fifth or sixth grade can most youngsters learn and retain information through the auditory sense. Carbo (1983), investigating the perceptual styles of readers, found that good readers prefer to learn through their visual and auditory senses, while poor readers have a stronger preference for tactile and kinesthetic learning.

RESULTS AND DISCUSSION

Learning style has an important place in the lives of individuals. When the individual knows his/her learning style, s/he will integrate it in the process of learning so s/he will learn

more easily and fast and will be successful. Another advantage of the identification of the own learning style by the student is that it will help the student to become an effective problem solver. The more successful the individual is at solving the problems s/he faces, the more control s/he will take over his/her own life.

It is important that individuals receive education in areas suitable for their learning styles. A person educated in an area having no relationship to his/her learning style may lack confidence and s/he may be less successful; s/he may as a result become frustrated. Knowledge of learning style also provides information to the student as to why s/he has learnt in a different way than others. It helps to control the process of learning. It is vital because one of the most important signals in learning is to learn to be autonomous, that is, for the individual to take responsibility for his/her own learning. Because of this, s/he should know what learning style is. This has to be part of the learning process to enable the individual to obtain knowledge, which constantly shifts and changes, without any help from others.

Briefly, confidence in learning will consistently rise when learners know how to learn. Learning to learn and grasping knowledge in a suitable manner will lessen the need for an overbearing control by teachers. At this point, teachers guide the students. The students take responsibility for their learning, they are at the center of the process and everything is under their control. They search answers to the problems and benefit from their unique performances and preferences in their learning styles. Those people will identify their aims, unlike those whose learning style preferences are not identified. They know what they want to learn and “how”. This awareness will change their perspectives on learning new things.

CONCLUSION

Learning style, which can be counted as one of the techniques used for recognizing individuals, will especially assist the teachers in getting to know the group of students in front of them and pave the way for them to become much more effective. Research on this subject has suggested that the students who have experienced this learning process and approach will be more successful. This could have a great impact on learning. To achieve this success, both teachers and students should undertake many responsibilities, but the heaviest responsibility is on the teachers. The teachers should match teaching style and learning tasks to individual learners' preferred styles and provide a range of input styles and learning tasks so that the learners will



sometimes get a task in their preferred style, sometimes in the other styles, so that they can improve. Lastly, the teachers should help the students to move from one less successful style to another by using teaching styles and thinking skills. The teachers should be concrete and practical, concerned with application. They should support the students' imagination, creativity and exploration of new possibilities. In other words, the teachers should teach them to be critical and challenging. It is not so difficult to understand the learning styles and recognize them. The important thing is to recognize the students' learning style. Studying with knowledge of the learning style helps an individual to reach his/her goals quickly.

REFERENCES

1. Erden, M. and S. Altun, 2006. Learning Styles. İstanbul: Morpa Culture Publications. ISBN:9752844863.
2. Kazu, I.Y., H. Kazu and O. Ozdemir, 2005. The effects of mastery learning model on the success of the students who attended usage of basic information technologies course. Educ. Technol. Soci., 8: 233-243. http://www.ifets.info/journals/8_4/21.pdf
3. Özbek, Ö., 2007. Determination of primary school students: Learning styles. Proceeding of the 16th National Education Sciences Congress, Sept. 5-7, Gaziosmanpaşa University, Tokat, ISBN: 978-975-7328-43-8, pp:173-176.
4. McCarthy, B., 1987. The 4MAT System: Teaching to Learning Styles with Right/Left Mode Techniques. 2nd Edn., Excel, Inc., Barrington, ISBN: 0960899200, pp: 220.
5. McCarthy, B., 1982. Improving staff development through CBAM and 4MAT. Educ. Leadership, 40: 20-25

MAHATMA GANDINING INSON TABIATI HAQIDAGI QARASHLARI

Sherdor Ne'matjonovich Po'latov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq falsafasi va madaniyati
kafedrasi tayanch doktoranti
sherdorpulatov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mahatma Gandi o'zing dunyoqarashi va falsafiy g'oyalarida inson masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Chunki, uning g'oyaviy negizida inson eng muhim omil sifatida ko'riladi. Uning ta'limotida gumanizm g'oyalarining shakllanishi o'z o'zidan paydo bo'lmadi. U o'zidan avvalgi diniy ta'limotlarga, g'oyaviy nazariyalarga va faylasuf, mutafakkirlar qarashlariga tayandi.

Kalit so'zlar: Mahatma Gandi, Hind falsafasi, falsafa, inson, insonparvarlik, tabiat, inson, axloq, haqiqat.

ABSTRACT

In his worldview and philosophical ideas, Mahatma Gandhi focuses on the issue of humanbeing. Because at its core, human is seen as the most important factor. The formation of humanist ideas in his teachings did not arise spontaneously. He relied on the teachings of his predecessors, ideological theories, and the views of philosophers and thinkers.

Keywords: Mahtama Gandhi, Indian philosophy, philosophy, human, humanity, nature, morality, truth.

KIRISH

Mahatma Gandi, mumtoz hind tizimining asosi bo'lgan, insonni butun borliq deb bilgan. Gandi inson faqat biologik mavjudot yoki shunchaki fizik-kimyoviy birikma ekanligiga ishonmagan. Uning uchun inson ma'naviy mohiyatga egadir. Gandi uchun "mavjud bo'lish" emas, balki (kelib chiqish) "yetishib chiqish" muhimroqdir. Bunga gandishunos Raghavan Iyer quyidagicha izoh berdi: "U inson o'zining mohiyatida qanday ekanligi va o'zi haqidagi yolg'on g'oyasi tufayli kim bo'lib yetishishi, u kim bo'lishi kerakligi va

uning qonunlar bilan boshqarilgan koinotdagi o‘rni tufayli kim bo‘lib yetishib chiqishiga juda aniq ishonch bilan boshladi”.¹ Shuningdek, Gandi insonda Xudoning mavjudligiga ham ishongan. Shunday qilib, inson tabiatan ilohiydir. Bu insonni ruhiy mavjudotga aylantiradi. Gandining fikriga ko‘ra, ilohiyotning mavjudligi turli odamlarda farqlanadi. Shu sababli, u biron bir kishiga yoki narsaga sig‘inishdan bosh tortadi. U yagona xudo haqida fikr ham yuritadi. U shunday degan: “Xudo nafaqat butun koinotga, balki jonzotlarga ham xos bo‘lganligi sababli, biron bir odam yoki ob‘ektni ilohiylashtirish masalasi tug‘ilmaydi. Har bir insonda ilohiy narsa bor”². Yagona narsa shundaki, ba’zilarida ilohiylik ko‘proq, boshqalarida esa kamroq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, Mahatma Gandi asarlari obyektiv ochib berildi. Tarixiylik, Mahatma Gandi yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Mantiqiylik izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Tizimlilik, M. K- Gandhi, *Non-violence in Peace and War*, vol. I, Ahmedabad, 1962, ctp. IX., M. K- Gandhi, *Truth is God*, Ahmedabad, 1957, ctp. 10, Dharendra Mohan Datta “*The Philosophy of Mahatma Gandhi*” 1953, Pyarelal, Mahatma Gandhi. *The Last Phase*, vol. 1, Ahmedabad, 1956, M. K- Gandhi, *All Men are Brothers*, Paris, 1958, M. K- Gandhi, *Truth is God*, D. G. Tendulkar, Mahatma Volume 1-8: *Life of Mohandas Karamchand Gandhi*, Anil Dutta Mishra, *Fundamentals of Gandhism*, (New Delhi; Mittal Publication, 1996), M.M. Sankhdher, *Understanding Gandhi Today*, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996). asarlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gandiga ko‘ra, inson tabiati eng muhim xususiyati bo‘lgan ilohiy tabiatini anglaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir insonda mavjud bo‘lgan Ilohiy unsurlardan to‘g‘ri foydalanilsa, insoniyat samodagi jannatni yerga olib kela oladi.³ Inson hayvon sifatida shafqsiz, ammo ruhiy shaxs sifatida u zo‘ravon emas. Aynan uning o‘z ilohiy mohiyatini anglashi, uni barcha tirik jonzotlarga rahm-shafqat qilishga, hamda fikrda, so‘zda va ishda zo‘ravonlik ishlatmaslikka undaydi. Ma’naviy kuchga ega bo‘lish uchun, Gandi jismoniy kuchni o‘ziga bo‘ysundirishni taklif qildi. U:

¹ Raghavan Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in *Gandhi Marg*, Journal of the Gandhi Peace Foundation, (New Delhi: Gandhi Peace Foundation), Vol. 6, No. 2, April 1962, p. 134

² Mahadev Desai, *The Diary of Mahadev Desai*, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1932), p 35
26 *Young India*, 4.8.1927, p. 107

³ Lala Gopal Prasad, *Religion, Morality and Politics According to Mahatma Gandhi*, (New Delhi: Classical Publishing Company, 1991), p.3.



“Tanangizni zabt etganingiz sari ruhingizning kuchi ortadi”⁴, dedi. Ma’lum bir bosqichdan so‘ng, tana ruhning o‘shiga mutanosib ravishda kamayadi.

Gandining so‘zlariga ko‘ra, inson shuningdek tana, aql va ruhning kombinatsiyasidir. U ruhni juft bo‘lmagan, abadiy, hamma narsani biluvchi, hamma joyda mavjud va hamma narsaga qodir deb biladi. Gandi, shuningdek, odam ongli ravishda ilohiy bo‘lsa-da, o‘zining kundalik hayotida ezgulikdan ko‘ra ko‘proq boshqa fazilatlarni o‘ziga singdirishini aniqladi. Inson ko‘pincha xudbin, ishonchsiz, o‘zini aldashga qodir, loqayd, shaxvatparast va kuchga chanqoqdir deb hisoblagan. Gandi inson tabiatining yetarli darajada qorong‘i tomonini ko‘rgan⁵. Shu munosabat bilan u shunday fikr bildirdi: “Men achchiq tajribalarni boshdan kechirdim, ba’zida barmoqlarimni qattiq kuydirdim. Men mutlaqo aybsiz deb o‘ylagan odamlar buzuq bo‘lib chiqdi. Yomonlikning ildizi bizning tabiatimizda chuqur yotganini payqadam”⁶. Ushbu achchiq tajribalar uni inson nomukammal ekanligini va xatoga yo‘l qo‘yishligini aytishga majbur qildi. U butunlay yaxshi yoki yomon bo‘lgan inson yo‘qligiga ishongan. Odamlar orasidagi farq turida emas faqatgina darajadadir: “Bizning har birimiz yaxshilik va yomonlikning aralashmasidirmiz. ...Insonlar orasidagi farq, darajadagi farqdir”⁷.

Gandi shuningdek, Xudo va insonning ajralmas birligiga ishongan. U quyidagicha ta’kidlagan: “Men advayta (अद्वैत: “birlik”)ga ishonaman, men Xudo va insonning muhim birligiga va shu munosabat bilan barcha tirik mavjudotlarga ishonaman”⁸. U Xudo va odamlar o‘rtasidagi metafizik birlikka ishonganligi sababli, inson va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ilohiy deb ta’riflagan. U Xudoning birodarligini tan olib: “Butun hayot aslida birdir”⁹ dedi. U so‘zlarini davom ettirib: “Biz hammamiz bitta Xudoning farzandlarimiz va shuning uchun inson tabiati hamma joyda bir xil”¹⁰ dedi. Odamlarning ilohiy tengligini tavsiflash uchun daraxtning metaforasidan foydalanib, u shunday dedi: “Biz hammamiz tanasini yerning tubida joylashgan ildizidan yulib olib bo‘lmaydigan ulug‘vor daraxtning barglarimiz. Eng kuchli shamol uni harakatga keltira olmaydi”¹¹. So‘ngra, ummon metaforasidan foydalanib: “Biz bu cheksiz rahm-shafqat ummonidagi

⁴Young India, 4.8.1927, p. 107

⁵See Ram Rattan, “Gandhi’s Concept of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep publications, 1996),p.206.

⁶M.K. Gandhi, *Satyagraha in South Africa*, Trans, by V.G. Desai, (Madras: S. Ganesan, First Edition 1928), p. 371

⁷ Harijan, 10.6.1937,pp. 158-159.

⁸ Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep Publications,1996),p.212

⁹ Pyarelal, Gandhiji’s Correspondance with the Government, 1942-1944, (Ahmedabad:Navajivan Publishing House, 1945), p.88.

¹⁰ Harijan, 13.4.1940,p.92.

¹¹ Ibid, 28.7.1946,p.236.



tomchilarmiz”¹² dedi. Haqiqatni ijtimoiy hodisa deb e’lon qilishga yordam bergan narsa, bu insonning ilohiy tengligiga bo’lgan ishonch edi va u shunday dedi: odamlarning ovozi – bu Xudoning ovozidir.¹³

Gandi hech qachon inson tabiatiga bo’lgan ishonchini yo’qotmagan. U inson tabiatining asosiy yaxshiliklariga chuqur ishongan. Ayrim Gandi tanqidchilari uni insondan juda ko’p narsa kutganlikda va inson tabiatining kamchiliklarini ko’rmaganlikda aybladilar. Ammo Gandi inson tabiatini sinchkovlik bilan o’rganganini va amaldagi idealist ekanligini ko’p marta aytgan. Darhaqiqat, u inson tabiatini chuqur bilar edi va inson tabiati doimo pastga qarab rivojlanishga moyil ekanligiga ishonishdan bosh tortdi. Inson tabiati har qanday ezgu va do’stona amallarga javob berishga majbur edi. Uning fikriga ko’ra, “agar siz odamlarga ishonch va muhabbat bilan murojaat qilsangiz, siz o’n ming karra ko’proq mehr qaytdi”.¹⁴ Darhaqiqat, u doimo insonning cheksiz mehribonligiga ishongan. U bir marotaba: “Hech qachon insoniyatga bo’lgan ishonchni yo’qotmang. Bir nechta iflos tomchilar insoniyat ummonni buzolmaydi”¹⁵ deya ta’kidlagan. Bularning barchasi Gandi inson tabiatiga chuqur ishonishini anglatardi. Shuningdek, 1926 yilda u shunday degan edi: “Men inson tabiati doimo tanazzulga moyil ekanligiga ishonishdan bosh tortaman”¹⁶. 1927 yilda u yana shunday dedi: “Menga o’xshagan odamlar o’zlarining qarama-qarshi g’oyalarga qaramay inson tabiatiga bo’lgan ishonchlariga yopishib olishadi”¹⁷.

Uning inson haqidagi falsafasida biz insonning buyuk kelajagi borligiga va u yuksak va olijanob taqdirga intilayotganiga ishonganligini ko’rdik. Gandi insonning kuchidan ham xabardor bo’lib, Insonga nafaqat tabiat qonuniga binoan parchalanishi mumkin bo’lgan jismoniy tanasi, balki ongli tanasi ham hissiyotlar va shunga o’xshash boshqa ruhiy fazilatlar berilgan deb hisoblagan.

Mashhur sotsiolog P.A. Sorokin ta’kidlaydi: “Hissiy madaniyati insondagi hamma narsani qamrab olishga karakat qiladi, uni mutloqlashtirish esa, odamni oddiy yarim mexanik, yarim psixologik organizm darajasiga tushirdi, har qanday ilohiy uchqundan, mutlaq qadriyatdan, olijanob va muqaddas narsadan mahrum etadi”.¹⁸ Demak, odamning materialistik talqini mutloqlashtirish insonni kamsitadi. Inson

¹² Ibid, 12.10.1947,p.368.

¹³ Ibid, 17.5.1942,p.156.

¹⁴ M.K.Gandhi, Speeches and Wirifings of Mahatma Gandhi, (Madras:G.A. Natesan& Co, 1934),p. 407.

¹⁵ Quoted by Jaladhar Pal, (ed.), *The Moral Philosophy of Gandhi*, (New Delhi: Gyan Publishing House, 1998), p. 287

¹⁶ Raghavan N. Iyer, “ Gandhi’s View of Human Nature” in S. Mukhejee & S. Ramaswamy, *Facets of Mahatama Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture*, (*New Delhi: Deep & Deep Publications,1998*) p.8

¹⁷ Ibid.

¹⁸ Sorokin, P.A., *The Social and Cultural Dyanamics*, London, Peter Owen, 1957, P.625./// //Nirupama Chatterjya //dessert// Gandhi’s concept of individual and society// Thesis submitted to Gauhati University for the award of the Degree of Doctor of Philosophy (Arts) D ate: 08/05/2006 p 107

shunchaki hayvon emas, chunki u axloqiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va ma’naviy intilishlar haqida gapiradi.

Gandi evolyutsiyaning sistematik nazariyasini shakllantirmagan. Uning evolyutsiyaning yakuniy maqsadi ham Moksha (ozod bo‘lish मोक्ष) bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini anglash - bu hayotning maqsadi. U “men” ning birligini va “men” ning mutlaq “men” bilan birlashishini o‘z ichiga oladi. U barcha odamlarga xos fazilat sifatida uxlab yotgan ahimsaning izchil va bosqichma-bosqich rivojlanishini tavsiflaganda evolyutsiyaning biologik kontseptsiyasini eslatib o‘tdi.

Gandining fikriga ko‘ra, “inson ruhi uning ijtimoiy va siyosiy qayta qurish rejasidagi asosiy toifadir”¹⁹. Biroq, keng ma’nodan, inson tafakkur tarixida inson tabiatini anglashga ikki xil urinishlar bo‘lgan. Bir urinish uni yomonlash, qora rangga bo‘yash, boshqalari esa uni ko‘tarish va ideal qilishga urinish edi²⁰.

Gandi insoniyatga nisbatan passiv va fatalistik mavjudot sifatida an’anaviy qarashni qabul qilmadi. Uning uchun inson tobora yuqoriroqqa ko‘tarilishga harakat qiladigan dinamik jonzotdir. Shu sababli u doimo “odamlarning yaxshiliklariga murojaat qilib, shunga yarasha javob kutgan”²¹. U yana shunday dedi: “Mening kuch ishlatmaslik qobiliyatiga bo‘lgan ishonchim inson tabiatining doimiy noaniqligi nazariyasini rad etadi”²². Garchi u inson tabiatining hayvonlarga xos tomonini qabul qilgan bo‘lsa-da, u insonning ongli ravishda o‘zini yaxshi tomonga o‘zgartira olish qobiliyatiga ishongan. Bu aniq ma’nodan evolyutsiyon nazariya tarafdori deb xulosa qilib bo‘lmaydi. U aytadi: “Inson rivojlanishda yuqoriga ko‘tarilish yoki pastga tushish yo‘llaridan birini tanlashi kerak, lekin unda hayvonlarga xos bo‘lgan hususiyatlar borligi sababli, unga ko‘tarilishdan ko‘ra pasayish yo‘nalishini tanlash osonroq, ayniqsa, qachonki pastga tushish unga chiroyli ko‘rinishda taqdim etilganda”²³.

Biroq, odam bu moyillikni o‘zida boshqarishga harakat qiladi. U shunday deb yozgan edi: “Biz hayvoniy qo‘pol kuch bilan tug‘ilganmiz, lekin bizda yashayotgan Xudoni anglash uchun tug‘ilganmiz. Bu insonni hayvondan ajratib turuvchi afzallik tomonidir”²⁴. Garchi Gandi insonning shunday kelib chiqishini tan olgan bo‘lsa-da, “Inson tabiati mohiyatan johil emas. Shavqatsiz tabiat muhabbat ta’siriga berilishi mumkin. Siz hech qachon inson tabiati borasida umidsizlikka tushmasligingiz

¹⁹ Majumdar H.T., Mahatma Gandhi, Ahmedabad., 1963, P.85.

²⁰ Tiwari, K.N., World Religions and Gandhi, CPH, ND, P.43

²¹ Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit, p. 117

²² *Harijan*, 7.6.1942, p. 177

²³ Rahavan N. Iyer “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover. Op.cit., p. 211

²⁴ *Harijan*, 2.4.1938, p. 65.

kerak”²⁵. U uchun inson yaxshi, chunki u ilohiy va barcha mavjudotlar bilan, ayniqsa, butun insoniyat bilan o‘z qarindoshligini anglashga qodir.

Shu bilan birga, Gandi ham barcha odamlarni, nomukammal deb hisoblagan. U shunday dedi: “Hech kim nuqsonsiz emas, hatto Xudoning bandalari ham. Ular, mukammal ekanliklari uchun emas, balki o‘z xatolarini bilishlari uchun va doimo o‘zlarini tuzatishga tayyor bo‘lganliklari uchun Xudoning bandalaridir”²⁶. Inson o‘zining hayvonlarga xos qudratini sevgi, fidoyilik, o‘z-o‘zini inkor etish bilan yengib o‘tishi va shu bilan haqiqiy insoniyatini, unda yashaydigan ilohiylikni anglashi kerak. Biroq, inson tabiatini qo‘pollikdan axloqiylikka o‘zgartirish oson ish emas. Buning uchun inson doimo harakat qilishi kerak. Gandishunos olim Anil Datta Mishra quyidagicha izoh bergan: “Gandi odamni shafqatsizdan axloqiy va ma’naviy tomonga o‘zgarishi oson ish emas deb hisoblaydi. Zo‘ravonliksizlik ruhiy holatiga erishish uchun juda mashaqqatli izlanish kerak. U ma’naviy barkamollikka erishish uchun bir necha hayotga ega bo‘lishni afzal ko‘radi. U inson tabiatini boshqarishni tavsiya qilgan ekan, majburiy repressiya bo‘lmasligi kerak, deb hisoblaydi. Bu zararli ta’sirga olib keladi. Har bir inson o‘z ixtiyoriy harakatlari bilan rivojlanishi kerak. Inson qanchalik buzuq bo‘lmasin, u haqiqatni amalda qo‘llash va zo‘ravonlikdan bosh tortish orqali o‘zini tuzatishi mumkin. Hech bir odam uni qutqara olmaydigan darajada yomon emas”²⁷. Gandi inson tabiatini isloh qilish mumkinligiga umid qilgan. U shunday deb yozgan edi: “Men qaytarib bo‘lmaydigan optimistman. Mening optimizmim mening imonimga, kuch ishlatmaslikni rivojlantirish uchun insonning cheksiz imkoniyatlariga asoslangan”²⁸. Gandi ta’kidlashicha, inson himsa yoki zo‘ravonlikni kamaytirish natijasida kannibalizmdan sivilizatsiyalashgan hayotgacha rivojlangan, va ahimsa sari intilmoqda. Bularning barchasi Gandi uchun inson tabiati harakatsiz yani statik emas, balki harakatchan ekanligidan ishonchli tarzda dalolat beradi. Uning fikriga ko‘ra, “Bu dunyoda harakatsiz narsa yo‘q, hamma narsa o‘zgarishda. Agar taraqqiyot bo‘lmasa, orqaga qaytish muqarrar”²⁹.

Gandi inson nafaqat xatolarga moyil, shuningdek, nafaqat xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, balki o‘z xatosini tuzatish qobiliyatiga ega ekanligiga ishongan: “Ruh hammadada birdir. Shuning uchun uning imkoniyatlari hamma uchun bir xildir”³⁰. Gandi “Yosh Hindiston” jurnalida da shunday deb yozgan edi: “Mening hayotimni

²⁵ S. Mukhejee and S. Ramaswamy, *Facets of Mahatma Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture*, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1998), p. 8

²⁶ Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit., p. 118

²⁷ Anil Dutta Mishra, *Fundamentals of Gandhism*, (New Delhi: Mittal Publication, 1996), p. 34

²⁸ D.G. Tendulkar, *Mahatma: Life of Mohandas Karamchand Gandhi*, (New Delhi: The Publications Division, Ministry of Information and Broadcasting, Govt. of India, December 1938), Vol. 5, p. 17

²⁹ *Harijan*, 11.8.1940, p. 245

³⁰ *Harijan*, 18.5.1940, p.254



boshqaradigan ideallar umuman insoniyat tomonidan qabul qilinishi uchun taqdim etiladi. Har qanday erkak yoki ayol, men kabi ayni harakat qilsa, hamda umid va iymonni rivojlantirsa, men ega bo'lgan narsaga erishishi mumkinligiga shubham yo'q"³¹. U so'zlarini davom ettirib: "Va men shuni tasdiqlaymanki, men qiladigan ishlarni hamma bajarishi mumkin, chunki men juda oddiy odamman, xuddi ko'pchiligimiz singari vasvasaga va zaiflikka ham duchor bo'laman"³². Va yana: "Men bolaligimdan ta'lim oldim va insoniyatning asosiy fazilatlarini odamlarning eng quyi qatlami yetishtirishi mumkinligi haqidagi haqiqatni o'z tajribamda boshdan kechirdim. Aynan mana shu imkoniyat insonni Xudoning boshqa barcha mavjudotlaridan ajratib turadi"³³. Bularning barchasi insonning dinamik tabiatiga ega ekanligiga bo'lgan ishonchini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuning uchun u shunday dedi: "Inson tabiati qat'iy ravishda belgilab qo'yilmagan va insonning xulq-atvori juda katta o'zgarishlarga duch kelgan va qodir"³⁴. Gandi 1900-yillarning boshlarida odamlarning xatti-harakatlarini o'rgangan va atrof-muhit odamlarning xulq-atvorini shakllantirishda katta rol o'ynaydi, deb ta'kidlagan amerikalik psixolog Jon B. Uotsonning fikriga qo'shiladi.

Gandi atrof muhitning inson xarakterini shakllantirishga ta'siri kattaligini tan oladi. U shunday dedi: "Atrof-muhit haqiqatan muhim rol o'ynaydi"³⁵. Uning so'zlariga ko'ra, inson o'z muhitining ta'sirini o'zgartirishga qancha urinmasin, hech kim uning ta'sirini butunlay yo'q qila olmaydi. Inson atrof-muhit bilan ta'sirlanganligi sababli, Gandi iroda namoyon bo'lishiga katta e'tibor bergan. Shuning uchun u shunday deydi: "Inson haqiqatan ham odatiga ko'ra yashayotganligini anglab, uning uchun iroda mashqlari bilan yashash yaxshiroq deb o'ylayman"³⁶. Uning fikriga ko'ra, inson o'zi-o'ziga ko'maklashish va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega. U, 1936 yil iyun oyida "Harijon" jurnalida aytganidek, o'z-o'ziga ko'maklashish doktrinasini anglaganlar o'zlarining muvaffaqiyatsizligi uchun o'zlarini ayblashadi. U aytadi: "Inson "Bu noto'g'ri, bu noto'g'ri", deya boshladi. Ilgari esa, u o'zini tutishini oqlar edi, endilikda, na o'zini, na qo'shnilarining xatti-harakatlarini oqlamaydi. U xatolarini tuzatmoqchi"³⁷.

Yuqoridagi inson mohiyati haqidagi fikrlar, Gandi an'anaviy hindistonlik taqdir yoki qismat tushunchasini qabul qilmaganligini va inson o'zini o'zi o'zgartirishi va shu bilan o'z taqdirini belgilashi mumkinligiga ishonganligini

³¹ *Young India*, Vol. II, p.204.

³² *Young India*, Vol. II, p.517.

³³ *Harijan*, 16.5.1936, p. 109

³⁴ Gopinath Dhawan, *The Political Philosophy of Mahatma Gandhi*, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1951) p. 10

³⁵ Quoted by M.M. Sankhdher, *Understanding Gandhi Today*, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996), p. 71

³⁶ D.G. Tendulkar, *Mahatma*, op.cit., p. 13.

³⁷ Verinder Grover op. tit., p. 215



anglatadi. Insonning ushbu dinamik elementi unga: “Qiyinchiliklarni yengish inson uchun imtiyozdir”³⁸, deb aytishga imkon berdi.

Gandi shuningdek, inson vasvasaga duchor bo‘lishini tan oldi. Inson vasvasalarga qarshi turish va ularga qarshi kurashish uchun aql kuchidan foydalanishi kerak. “U o‘z tasavvurining tashqi dushmanlari bilan jang qiladigan, va son-sanoqsiz dushmanlarga barmog‘ini ko‘tarishga o‘jiz, yoki undan ham yomoni, ularni do‘stlar deb xato qiladigan jangchi emas”³⁹. U yana bir bor, odamning ongli ravishda bu vasvasalarga qarshi tura olish qobiliyatiga ishongan.

XULOSA

Shunday qilib, umuman, Gandi insonning ma’naviy tabiatiga; inson o‘zligini anglash imkoniyatiga ega ekanligiga; inson tabiatan harakatchan (dinamik) va statik emas ekanligiga; inson atrof-muhit ta’sirida bo‘lishiga qaramay, u o‘z irodasi va mustaqil faoliyati orqali atrof-muhitni o‘zgartirish qobiliyatiga egaligiga; inson nafaqat nima yaxshi va nima yomonligini bilishga qodirligi, balki, shuningdek, yomonlikdan qochish va yaxshilikni qabul qilish qobiliyatiga egaligiga; va u ongli ravishda o‘zini yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkinligiga ishongan. Gandi tomonidan anglangan inson tabiati haqidagi barcha bu g‘oyalar inson tabiatining yana bir so‘nggi va asosiy xususiyati, ya’ni uning ongi borligini anglatadi.

REFERENCES

1. Raghavan Iyer, “Gandhi’s view of Human Nature” in Gandhi Marg, Journal of the Gandhi Peace Foundation, (New Delhi: Gandhi Peace Foundation), Vol. 6, No. 2, April 1962, p. 134
2. Mahadev Desai, The Diary of Mahadev Desai, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1932), p 35
3. Lala Gopal Prasad, Religion, Morality and Politics According to Mahatma Gandhi, (New Delhi: Classical Publishing Company, 1991), p.3.
4. Young India, 4.8.1927, p. 107
5. See Ram Rattan, “Gandhi’s Concept of Human Nature” in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep publications, 1996), p.206.
6. M.K. Gandhi, Satyagraha in South Africa, Trans, by V.G. Desai, (Madras: S. Ganesan, First Edition 1928), p. 371
7. Harijan, 10.6.1937, pp. 158-159.

³⁸ D.G. Tendulkar, *Mahatma*, op.tit., p. 267

³⁹ Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover (ed.), *M.K. Gandhi*, op. cit., p. 14



8. Raghavan N. Iyer, "Gandhi's view of Human Nature" in Verinder Grover (ed), M.K.Gandhi, (New Delhi: Deep&Deep Publications,1996),p.212
9. Pyarelal, Gandhiji's Correspondance with the Covermment, 1942-1944, (Ahmedabad:Navajivan Publishing House, 1945), p.88.
10. Harijan, 13.4.1940,p.92.
11. Ibid, 28.7.1946,p.236.
12. Ibid, 12.10.1947,p.368.
13. Ibid, 17.5.1942,p.156.
14. M.K.Gandhi, Speeches and Wirifings of Mahatma Gandhi, (Madras:G.A. Natesan& Co, 1934),p. 407.
15. Quoted by Jaladhar Pal, (ed.), The Moral Philosophy of Gandhi, (New Delhi: Gyan Publishing House, 1998), p. 287
16. Raghavan N. Iyer, " Gandhi's View of Human Nature" in S. Mukhejee & S. Ramaswamy, Facets of Mahatama Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications,1998) p.8
17. Sorokin, P.A., The Social and Cultural Dyanamics,London,Peter Owen, 1957, P.625./// //Nirupama Bhattacharyya//dessert// Gandhi's concept of individual and society// Thesis submitted to Gauhati University for the award of the Degree of Doctor of Philosophy (Arts) D ate: 08/05/2006 p 107
18. Majumdar H.T., Mahatma Gandhi, Ahmedabad., 1963, P.85.
19. Tiwari, K.N., World Religions and Gandhi, CPH, ND, P.43
20. Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit, p. 117
21. Harijan, 7.6.1942, p. 177
22. RahavanN. Iyer "Gandhi's View of Human Nature" in Verinder Grover. Op.cit., p. 211
23. Harijan, 2.4.1938, p. 65.
24. S. Mukhejee and S. Ramaswamy, Facets of Mahatma Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1998), p. 8
25. Quoted by K. Munirathnam Chetty, op. cit., p. 118
26. Anil Dutta Mishra, Fundamentals of Gandhism, (New Delhi; Mittal Publication, 1996), p. 34
27. D.G. Tendulkar, Mahatma: Life of Mohandas Karamchand Gandhi, (New Delhi: The Publications Division, Ministry of

- Information and Broadcasting, Govt, of India, December 1938), Vol. 5, p. 17
28. Gopinath Dhawan, The Political Philosophy of Mahatma Gandhi, (Ahmedabad: Navajivan Publishing House, 1951), p. 107
 29. Quoted by M.M. Sankhdher, Understanding Gandhi Today, (New Delhi: Deep & Deep Publications, 1996), p. 71
 30. D.G. Tendulkar, Mahatma, op.cit., p. 13.
 31. Verinder Grover op. tit., p. 215
 32. D.G. Tendulkar, Mahatma, op.tit., p. 267
 33. Raghavan N. Iyer, “Gandhi’s View of Human Nature” in Verinder Grover (ed.), M.K. Gandhi, op. cit., p. 214.



XORAZM OLTI YARIM MAQOM USULLARI HAQIDA

Rustam Kurbonboyevich Boltayev

Urganch Davlat universiteti katta o'qituvchisi

rustam_boltaev@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'zbek xalqining qadimdan ma'lum bo'lgan Xorazm "Tanbur chizg'ilari" asosida yozilgan Xorazm olti yarim maqomlaridagi usullar va Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobida keltirilgan usullar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maqomi Rost, Tarje'i Rost, peshravi Rost va Peshravi Gardun, Muhammasi Ushshoq, Saqili Navo.

KIRISH

O'zbek mumtoz maqom san'atining asosining birinchisi parda(lad), ikkinchi usul tashkil etadi. Maqom nomi bilan parda va usul nomi qayd qilinib kelingan. Masalan Maqomi Rost, Tarje' Rost, Peshravi Gardun va Peshravi Rost, Murabba'i Komil va h.k. Tarje', Gardun kabi atamalar usulni bildiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Davlat Al-Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan XIX-asrning ikkinchi yarmida ishlanib xonga tuxfa qilingan nusxalardan biri inventar № 7406 raqamli xattot X. Muxrkon ko'chirgan "Xorazm tanbur chizg'ilari" kitobi saqlanmoqda. Bu berilgan maqom usullarini tahlil qilganimizda Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodalar "Xorazm musiqiy tarixchasi" risolasida keltirilgan Tanbur maqomlari usullari ro'yxatida berilgan usullar tarkibidan tubdan farq qiladi. Ushbu risolada 13 ta maqom usullari keltiriladi. Inventar № 7406 raqamli kitobda esa 21 usul nomi keltiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki amaliyotda ishlatilgan usullar soni ko'proq bo'lgan.

Ushbu maqolada Xorazm olti yarim maqomlaridagi usullarni tahlili, nazariy asoslari va tarkibiy tomonlariga e'tibor qaratdik. Ijrochilik masalalari aynan inventar № 7406 raqamli xattot X. Muxrkon ko'chirgan "Xorazm tanbur chizg'ilari" kitobida berilgan maqom usullari va Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodalar "Xorazm



musiqiy tarixchasi” risolasida keltirilgan Tanbur maqomlari usullarining bog‘liq va farqli tomonlarini ko‘rib chiqdik va bu tahlil va taqqoslash asosida maqom usullariga doir ma’lumotlarni tikladik.

Rost maqomidan Mansur; Maqomi Rost, Tarje’ Rost, Peshravi Gardun va Peshravi Rost, Murabba’i Komil, Muxammas Rost, Musaddasi Rost, Musabba’i Rost, Saqil Rost, Iyfori Rost.

Navo maqomidan Mansur; Peshravi Navo, Nim Saqil Navo.

Segoh maqomidan Mansur; Maqomi Segoh, Se usuli, Chor usuli, Xafifi Segoh.

Dugoh maqomidan Mansur; Tarje’i Dugoh, Zarbul fath, Samoiy Dugoh, Foxita zarb.

Buzruk va Iroq maqomlari Mansur; Maqom Buzruk, Nufurdam.

Xorazm musiqiy tarixchasida Xorazm olti yarim maqomi tartibidagi Rost, Panjgoh, Segoh, Dugoh maqomlari usullaridan keltirilgan jadvali mavjud.

Rost maqomi chertim (Mansur); Maqomi Rost, Tarje’ Rost, Peshravi Rost, Saqili Rost, Muhammasi Rost.

Rost maqomi aytim (Manzum); Suvori Rost, Talqini Rost. Nasri Ushshoq. Ifori.

Panjgoh maqomi Mansur; Se usuli.


Segoh maqomidan Mansur; Hafifi Segoh.

Dugoh maqomidan Mansur; Samo’iy Dugoh, Paxta zarb Dugoh.


Tahlil va natijalar. Bundan ko‘rinib turibdiki Rost maqomi chertim (Mansur) yo‘lida musiqashunos olimlar ijod qilgan Murabba’i Komil, Muxammas Rost, Musaddasi Rost, Musabba’i Rost asarlar kiritilmagan. Navo maqomidan Peshravi Navo, Nim Saqil Navo. Segoh maqomidan esa Chor usul. Dugoh maqomidan Tarje’i Dugoh, Zarbul fath. Buzruk va Iroq maqomlarida keladigan Nufurdam usullari kiritilmagan.

Bu yerda faqat nomlaridagi farqlarni ko‘rib turibmiz. Endi ichki tuzilishiga ham bir nazar tashlasak.


Maqomi Rostb usuli 2 qo‘lyozmada bir xil va ular bir-biriga to‘g‘ri keladi, Tarje’i Rost usulida farq bor. Xorazm musiqiy tarixchasida; taq, gup, gup shaklida yozilgan. Buni notada aks etilishi quyidagicha



Tarje'i Rost usuli tuzilishini Muhrkon nushasidagini ko'rsak. Taqa gup, gup




Tarje'i Rost Xorazm tanbur chizg'ilarida nota matni bilan kelishi




Amaliyotda ishlatilishiga qaraganda inventar №7406 raqamli qo'lyozmada berilgan usul haqiqatga yaqin desak mubolog'a bo'lmaydi.

Xorazm musiqiy tarixchasida Peshravi Rost usuli: gup-taq-taq taq, gup * gup *



Inventar №7406 raqamli qo'lyozmada Peshravi Rost usuli:



Peshravi Rost va Peshravi Gardun Xorazm tanbur chizg'ilarida nota matni bilan kelishi



Peshravi Rost va Peshravi Gardun usuli ikkala nusxada ham umumiy hajmi bir xil, lekin ichki tuzilishi tubdan farq qiladi.

Chunki 4/4 o'lchovida ikkita kuchli xissa bor. Birinchisi kuchli xissa uchinchisi nisbatan kuchli xissa. Bundan kelib chiqadiki $4/4+4/4= 8/4$ usul davomida 4 kuchli xissa xosil bo'lib turibdi, aslida esa uchta kuchli xissasi bor. 2/4 o'lchovida bitta kuchli xissa, 3/4 o'lchovida esa bitta. Kuy usuli umumiy hajmi $2/4+3/4+3/4= 8/4$ o'lchovida.

Katta usullardan birini Muxammasi Rost usuli tahlil qiladigan bo'lsak quyidagicha ko'rinish xosil bo'ldi. Xorazm musiqiy tarixchasi kitobida kelgan 5. Muxammasi Rost usuli: gup taqqa taq taq gup * taq gup taq * gup gup taq taqqa taqqa gup * taqqa taqqa gup * taq gup taq taq taq taq

gup taq-qa taq taq gup taq gup taq gup gup taq taq-qa taq-qa gup
taq-qa taq-qa gup taq gup taq taq taq taq

Inventar №7406 raqamli qo'lyozmada Muxammasi Rost usuli:

A) B) C) D) E)

Qiziqarli tomoni shundaki Xorazm musiqiy tarixchasi kitobida usulning davomiyligi 2/4 o'lchovida 14 takti tashkil qiladi.


X. Muhrkon nusxasida esa 2/4 o'lchovida 16 takti tashkil qiladi.

M.M. ♩ = 40

1-xona



Yana bitta katta usul haqida soʻz yuritadigan boʻlsak bu Saqil usuli. Bu usulda 2/4 oʻlchovida 24 takt, 48 zarb, 96 naqra boʻlishi lozim. Xorazm musiqiy tarixchasida 4. Saqili Rost usuli: gup * taq taq gup * taqqa-taqqa- taq-taq gup * taqqa taqqa gup * taq * taq * gup * gup * taq * taqqa taq taqqa taq gup taq gup taq taqqa gup taq *. Nota shaklida quyidagicha



Inventar №7406 raqamli qoʻlyozmada Saqili Navo usuli:



Qiziqarli tomoni shundaki Xorazm musiqiy tarixchasi kitobida usulning davomiyligi 2/4 oʻlchovida 19 takti tashkil qiladi.

X. Muhrkon nusxasida esa 2/4 oʻlchovida 24 takti tashkil qiladi va Saqili Navo ohanglarida usulning kelishini koʻrsak.

M.M. ♩ = 50

1-xona

Bozgo'y

Yana bir qiziqarli tomoni shundaki Shashmaqom cholg'u (Mushkilot) yo'llarida Saqil kuyi ohanglarida usul bir xona to'liq davom etadi. Bozgo'y ham 24 takt davomiyligida ijro qilinadi. Xorazm olti yarim maqomi esa Shashmaqom tuzilishiga o'xshamaydi, ya'ni umumiy hajmi 24 takt bo'ladi. Xona 16 takt Bozgo'y esa xona ichida 8 takti tashkil qilib. Xorazm olti yarim maqomini ishlagan musiqashunos, sozanda va xonandalar Buxoro Shashmaqomining aynan o'zini

ko‘chirib qo‘ygan emaslar, bu ohang yo‘nalishlariga ishlov berib boshqacha uslubda ohanglari Xorazmga xos qilib ishlanganligining guvohi bo‘lamiz.

XULOSA

Тадқиқотимизда муаммоли масала аниқланди – халқ таълими тизими малака ошириш жараёнида жисмоний тарбия ўқитувчиси касбий компетентлигини ривожлантириш ва такомиллаштириш бўйича бир бутун амалий-педагогик жараённи ташкил қилиш. Бунда биз педагогик жараённинг яхлит хусусиятлари ва унинг нафақат шахснинг алоҳида функциялари ва хусусиятларига, балки умуман шахсга таъсири ҳақидаги ҳолат, қоидаларига риоя қилдик.

Бундан ташқари, жисмоний тарбия ўқитувчиси педагогик жараёнини ташкил қилиш педагогик моделини ишлаб чиқишда лойиҳалашнинг мазмуний асослари сифатида таклиф қилган педагогик фаолиятнинг шахсга йўналтирилган компонентлари тизимини танладик, булар:

1. **Шахсий-мотивацион компонент** – таълим фаолиятининг мотивланганлигини (далилланганлиги) кўзда тутуди: ўқув ва касбий фаолиятнинг шахсий маъносининг шаклланиши; шахснинг касбга йўналганлигини ривожлантириш, унинг шахсий ва касбий ўз-ўзини аниқлаши, ўз-ўзини рўёбга чиқариши; таълим фаолиятида ўз-ўзини ташкил қилишни ва ўз хулқ-атвори ўзи тартибга солишни ривожлантириш; ўз касбий тайёрлигини ўзи баҳолашни ривожлантириш.

2. **Шахсий-фаолиятли (коммуникатив) компонент** – фаолият субъекти шахснинг ривожланишини кўзда тутуди: таълимнинг шахсга йўналтирилганлиги орқали

инсонпарварлик жиҳатдан тайёрликнинг қадриятли-мақсадли функциясини амалга ошириш; шахсий маъно ҳосил қилиш ва педагог касби кадрлилигини онгли тушуниб етиш асосида мустақиллик, ҳаракатларнинг ихтиёрий, эркинлигини, таълимий ҳаракатларни танлашни шакллантириш ва ривожлантириш; тингловчилар ўқув фаолиятини тартибга солишнинг алоқага асосланган усулини ўзлаштириш; шахсга йўналтирилган таълим технологияларини тизимли қўллаш; шахснинг ёшига оид, типологик ва шахсий ўзига хос хусусиятларига йўналганлик асосида педагогик мулоқотнинг индивидуаллаштирилган усуллари қўллаш; ўқув фаолиятига ахборот-предметли таъсир қилиш ва уни психологик жиҳатдан тартибга солиш мақсадида шахсларо ва касбий-педагогик мулоқотларнинг умумий қонуниятлари асосида педагогик мулоқотни амалга ошириш.

3. Когнитив-креатив (маданиятшуносликка оид) компонент – маданиятшуносликка асосланган ёндашувни кўзда тутди: илмий билимларнинг тизимлилиги ва касбий амалиёт асосида илмий дунёқарашни шакллантириш; таълим жараёнининг мақсадли функциясининг субъект томонидан идрок қилинишининг малака оширишнинг қадриятли-мақсадли функцияси билан тенглик асосида бир-бирига бўйсунуши; таълим мақсадларини шахсий ва касбий ўз-ўзини аниқлаш жиҳатдан англаш; предметли касбий ва психологик-педагогик соҳаларнинг тингловчилар томонидан ўзлаштирилиши; касбий фаолиятга шахсий ахборотли тайёрлиги, касбий ҳаракатларнинг эркин танланиши, касбий билим ва кўникмаларни такомиллаштириш аҳамиятининг тингловчилар томонидан анланганлиги; тафаккурнинг касбий жиҳатдан тизимлилигини, ижодий фаолликнинг эгилувчанлиги, танқидийлигини, креатив индивидуалликни ривожлантириш; касбий рефлексивлик ва ўз-ўзини тузатишни шакллантириш; фаолият мақсадлари ва шарт-шароитлари мотивланганлиги асосида ўз-ўзини ташкил қилишни, ўқув ва касбий қийинчиликларни енгиш билан боғлиқ шароитларда, ўз-ўзини баҳолашнинг мослиги асосида шахс томонидан ўз-ўзини тартибга солишини шакллантириш.

4. Касбий-ижтимоий компонент (фуқароликка йўналганлик) – меъерий, ахлоқий, ҳуқуқий маданиятнинг ривожланишини кўзда тутди: касбий ва шахсий хулқ-атворни белгиловчи ахлоқий-сиёсий эътиқод ва ҳис-туйғуларни тарбиялаш.

Шундай қилиб, шахсий-касбий мақсадлар ва ижтимоий қадриятлар, жисмоний тарбия ўқитувчисининг ижтимоий-



маданий мослиги асосида касбий-ролли функциясининг шаклланиш жараёни содир бўлади. Бундан ташқари, касбий-педагогик функцияларни амалга оширишда хулқ-атворнинг ижтимоий-ахлоқий меъёрлари ривожланади. Шунингдек тингловчиларнинг кадриятларга йўналтирилган ўзаро таъсирлар ва ўз-ўзини тартибга солишни амалга ошириш учун шахсий ва касбий жавобгарлиги тарбияланади. Бундан ташқари, касбий фаолият жараёнида фуқаровий, ҳуқуқий ва ахлоқий жавобгарлик шакллантирилади.

Фаолиятли ёндашув контекстида малака оширишнинг аниқ иштирокчисининг (яъни жисмоний тарбия ўқитувчиси) индивидуал фаолияти, унинг шахсий ривожланишининг устувор шартлари ҳамда халқ таълими тизимида унинг касбий компетентлигининг таркиб топиши ва ривожланиши сифатида, эътиборимизнинг объекти бўлди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Жисмоний тарбиянинг таркибий қисми бўлган спорт ва унинг барча жиҳатлари ғалабага интилишни, юқори натижаларга эришишни тарбиялайди, инсоннинг жисмоний, руҳий ва ахлоқий сифатларини сафарбар қилишга кўмаклашади, фуқаролар ижодий умрини узайтиради ва саломатлигини мустаҳкамлайди, буларнинг барчаси ошиб бораётган рақобат маромида айниқса муҳим аҳамият касб этади. Аҳоли кенг оммасининг жисмоний тарбия ва спортга жалб қилинганлиги, шунингдек халқаро спорт мусобақаларидаги муваффақиятлар ҳар қандай мамлакатнинг яшовчанлиги ва маънавий кучидан далолат беради. Малака оширишда жисмоний тарбия ўқитувчиси касбий компетентлигини ривожлантириш ва такомиллаштириш жараёнини ташкилий-методологик таъминлаш ҳамда бу жараённи аниқ педагогик технологиялар билан таъминлаш моделини амалга оширилгандан сўнг, халқ таълими тизимида жисмоний тарбия ўқитувчилари касбий компетенцияларининг ривожланиш даражасини аниқлаш ва диагностика қилиш зарурати юзага келди.

Жисмоний тарбия ўқитувчилари малаксини ошириш тизими қуйидаги вазифаларни ҳал қилишга қаратилган бўлиши керак, булар:

- ўқитувчининг эркин, кўп векторли, шахсга йўналтирилган ва касбий ўсишига шароитлар яратиш;
- малака оширишнинг умумий мазмунли векторининг биринчи навбатда таълимни модернизациялашнинг асосий текширилган йўналишларга қаратилганлиги;



- ўқитувчилар тажрибасини (шу жумладан малакасини оширувчи) актуаллаштирилиши ва кўп жиҳатли диссеминацияси;
- ўқитувчи томонидан ўз малакасини доимий ва объектив равишда баҳоланиши учун шароит яратиш;
- малака оширишга ижодий, индивидуал ёндашувни таъминлаш омиллари сифатидаги интерфаоллик, модуллик, лойиҳавийлик, дистантлик ва узлуксизликни амалга ошириш.

ХУЛОСА

Ишнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, жисмоний тарбия ўқитувчиси яхши саломатлик эгаси бўлиб, ўзини тегишли ҳолатда сақлаб туриши шарт. Унга ақлий, эстетик, экспрессив, ташкилотчилик ва айниқса, коммуникатив қобилиятлар керак. Жисмоний тарбия ўқитувчисини ажратиб турувчи жиҳатлари, бизнинг назаримизда, кузатувчанлик, чидамлик, вазминлик, ҳазилкашлик, меҳрибонлик, оптимистик рух, мустақиллик, масъулият, киришимлик, хуш кўриш, ҳамдард бўлишга тайёрлик кабилар ҳисобланади. Ўқувчилар кайфиятларини фарқлаш, уларнинг индивидуал ва ёшига оид қобилиятларини ўрганиш ва ҳисобга олиш муҳим аҳамият касб этади.

REFERENCES

1. Гафиатулина Н.Х. Здоровье как ценность в среде учащейся молодежи: Монография – Ростов-на-Дону: РАС ЮРГУЭС, 2009. – 166 с.
2. Пономарев И.Е., Литвинов В.А., Пономарев О.И. Состояние общества, здоровье человека и проблемы воспитания, образования и оздоровления студентов средствами физической культуры // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2016. №4.
3. Ольховская Е.Б., Сапегина Т.А. Профессионально-образовательный потенциал физической культуры в высших учебных заведениях: монография. Екатеринбург, 2008. 103 с.
4. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития: методология, теория, практика: монография. Екатеринбург, 2011. 345 с.
5. Ефремова Н.Ф. Современные текстовые технологии в образовании: учеб. изд. М., 2003. 176 с.
6. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. М., 2005.

ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ЎЛКАДА ГЕНДЕР САВОДХОНЛИККА ОИД ҚАРАШЛАРИ

Умидбек Маматкаримов

Тарих фани ўқитувчиси

umidbekmamatkarimov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола XIX аср охири XX аср бошларида Туркистон жадид маърифатпарварларининг хотин қизлар масаласида қарашлари, хусусан жамият ҳаётида хотин-қизлар ўрни ва роли, уларнинг саводхонлик даражаси, бу борада жадидларнинг олиб борган саъйи ҳаракатлари, хотин –қизлар билимли қилиш, янги усул мактабларига уларни жалб этиш каби қарашлари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Отинойилар, жадид мактаблари, Садриддин Айний, Фитрат, Беҳбудий, тарбия.

JADID ENLIGHTENERS 'VIEWS ON GENDER LITERACY IN TURKESTAN

ABSTRACT

The article describes the views of the Jadid enlighteners of Turkestan on the problem of women in the late 19th - early 20th centuries, in particular, the role and place of women in society, the level of their literacy, and the efforts of the Jadids in this direction. views were analyzed such as improving their education, attracting them to schools of new methods.

Keywords: Atyns, Jadid schools, Sadriddin Aini, Fitrat, Behbudi, education.

КИРИШ

Ҳозирги кунда юртимизда хотин – қизларнинг ўрни, уларнинг жамият ҳаётида нуфузини ҳар томонлама ошириш, уларнинг таълим олиши, уларни иш билан таъминлаш, уларнинг мавқеини ошириш масаласида самарали ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М.Мирзиёев хотин –қизлар масаласига тўхталар экан, ўз нутқларида шундай фикрларни билдирадилар «оналар ва болалар соғлиғини муҳофаза қилиш, аёлларнинг турмуш шароитларини ҳисобга олган ҳолда , иш билан таъминлаш , опа –сингилларимизнинг



оғирини энгил қилиш учун ҳар томонлама имконият яратиш, хотин – қизларнинг ижтимоий- сиёсий ҳаётимиздаги ўрни ва нуфузини ошириш бўйича давлат сиёсатини давом эттиришни биз ўзимизнинг энг муҳим вазифамиз деб биламиз»[1, 12] фикрлари хотин қизлар нуфузини, мавқеини ҳар томонлама тиклаш долзарб аҳамаият касб этишини кўрсатади.

Бундан қарийб 1 аср муқаддам Туркистон ўлкасида тараққийпарвар жадиждлар жамият ҳаётида кўплаб масалалар сингари хотин – қизларнинг жамиятда нуфузини кўтариш, уларнинг таълим олиши, ҳуқуқлари, умуман жамиятда хотин –қизларга нисбатан қараш ва муносабатни ўзгартириш, аввало уларни билимли қилиб тарбияш масаласида олдинги қаторда туриб бу қарашларни амалга ошишига сабабчи бўлдилар. Демак, ҳозирги даврда хотин-қизларнинг жамият ҳаётида ўрни масаласи қандай муҳим аҳамият касб этса, XIX аср охири XX аср бошларида ҳам ўз долзарблиги билан ажралиб турган. Мазкур вазиятни ўрганиш, таҳлил қилиш, жадиждларимиз қарашларини илмий муомалага киритиш бугунги кунда ҳам долзарб вазифалардандир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мақола умумқабул қилинган тарихий методлар- тарихийлик, қийсий-мантиқий таҳлил, кетма—кетлик, холислик тамойиллари асосида ёзилган. Унда Туркистон ўлкаси жадиждларининг хотин-қизлар саводхонлиги масаласида қарашлари ёритилган.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси жадиждчилик тўғрисида кўплаб илмий тадқиқотлар, асарлар эълон қилинган жумладан Шухрат Ризаев «Жадижд драмаси» (Т.Шарқ, 1997) «Жадиждчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақил тараққиёт учун кураш» (Тошкент «Университет» 1999.), «Ўзбекистоннинг янги тарихи.Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида» (Шарқ, Т., 2000), «Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадиждчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик)» (Т, «Маънавият», 2001), Туркистон жадиждчилиги ва истиқлол муаммолари. Илмий мақолалар тўплами.(С, 1996), Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақида янги мулодазалар (Т, «Фан», 1997), Зиёев. Ҳ. «Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш»(Т.: Шарқ, 1998), Зиёева. Д. Туркистон миллий-озодлик ҳаракати(Т, “Адабиёт ва санъат, 2000), Аъзамхўжаев С. «Туркистон бирлиги учун (мустақиллигимиз тарихидан саҳифалар)»(Т, «Фан», 1995), Аъзамхўжаев С. «Туркистон мухторияти»(Т, «Маънавият»,2000),



Абдуазимова Н. «Ўзбекистон журналистикасининг шаклланиши ва равнақи: (XIX аср охири - XX аср боши)» (Т, «Фан», 1998), Д. Ражабованинг «Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин қизлар масаласи» номли тадқиқот ишлари ҳисобланади

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

XIX аср охири XX аср бошларида ўлкадаги маънавий ҳаётга назар ташлайдиган бўлсак, XIX аср охири - XX аср бошларида оммалашган отинчилик қизлар учун бошланғич таълим вазифасини адо этди, уларга бибиҳалифа ёки бибиотинлар дарс берганлар. Мактаб йилларида қизлар ўз бибиотинлари бошчилигида асосан, “ҳафтияк “ни Куръонинг 2-3 сурасини ўқиб ўрганганлар. Куръоннинг бошқа сураларини эса уйларида ўргатишган. “қизлар учун илм мутлақо ортиқча. қизларни тикиш, бичиш ва тўқишга ўргатинглар, ўқиш ва ёзишни четга суриб қўйинглар, - деган жамоатчилик фикрининг мавжудлиги адабиётларда келтирилади. Камдан-кам қизлар ўқишга ўргатилади, ундан ҳам кам ҳодисаларда ёзишга, қизларнинг кўпчилиги асосан кундузги ибодат, намоз ўқиш билан банд эди. Туркистондаги мактабларда қизлар кўпроқ форс ва турк шеърийатини ўрганиб, ёзувга кам эътибор берганлар. Мактабларни тугатишлари билан қизларнинг ўқишига яқун ясалган. Баъзи жойларда қизлар мактаби бўлсада, ота- оналар бир йилдан кейиноқ қизларининг ўқишини тўхтатиб қўяр, одатда уларни жуда ёш турмушга бериб юборардилар. Буларнинг барчаси XIX аср охири XX аср бошларида туркистон мактаб – маорифининг ўзига хос хусусиятларидан бири эди

Исмоилбек Гаспринский 1884 -йил « усули жадид » мактабини очиб, маориф тизимини ислоҳ этиш борасида ғояларини «Таржимон» газетасида эълон қилиб, маориф тизими олдида ҳал этиш керак бўлиб турган вазифалардан бири - қизлар маорифига ҳам алоҳида эътибор бериш лозимлигини [2, 34] таъкидлаган.

Жадидлар фарзандлар тарбияси аёллар кўлида эканлиги алоҳида таъкидлаганлар, Садриддин Айний бу ҳақида қуйидаги фикрни билдирган эди: «Агарда хотун киши тарбият топган, саводли бўлса, фарзандини ҳам тарбият қилиб тараққийлик одами қиладур » [3, 5]. Бу тарбияда айниқса, болалар билан кўпроқ шуғулланадиган она ҳал қилувчи аҳамиятга эга ҳамда онанинг бола тарбиясига эътиборсизлик билан қараши фожиали оқибатларга олиб келиши мумкинлиги жадидлар томонидан эътироф этилган.

Абдурауф Фитрат келажак авлодларнинг онгсиз, иродасиз, тарбиясиз, нодон ва жоҳил бўлмасликлари учун хотин-қизлар ўқимишли, соғлиқни сақлаш ва болалар тарбиясидан хабардор бўлишлари кераклигини[4, 56] зарур деб билади. У тарбияни жуда муҳим ижтимоий ҳодиса, жараён деб билади ва унда «Оиладаги мушкул вазифа гўдак таваллудидан сўнг эр-хотин бўйнига тушадиган фарзанд тарбиясидир»,[4, 65] деб уқтиради. Умуман олганда, жадидларнинг оила масаласидаги қарашларида Фитратнинг «Биринчи тарбия (оила тарбияси) тарбиянинг энг муҳими ҳисобланади. Унинг таъсири одам табиатига мустаҳкам ўрнашади »[5, 89] - деган фикри асос бўлиб хизмат қилади.

Фитрат илм диний ва дунёвий ишларни бажариш учун зарур эканлигини, қизлар аввал савод ва ҳисобни, кейин диний илмларни ўрганишларини таъкидлаган. «Улар бирор касбни эгаллашлари учун, албатта, олий илмлардан бирини, яъни табобат, ҳандаса, тарбия, ҳуқуқ каби илмларни эгаллашлари зарур »[4, 18] -деб айтган. Шунинг асос сифатида қабул қилиб, қизларнинг ўқишлари учун жадидлар мактаблар очиб, уларнинг сонини кўпайтириш кераклигини тарғиб этадилар. Бу йўлда улар эски турмуш, эски ахлоқ нормалари, қизларни зўрлаб эрга беришга қарши чиқадиладар.

Жадидлар оила ва жамиятда ўқимишли аёлнинг ўрни мавқеи ўзгача эканлигини тушунтиришга ҳаракат қилганлар. Бу ҳақида манбалардан қуйидагаларни билиш мумкин: « хотинларни ўқитмоқ ва уларнинг оқилларини жило бермак ва эрлари бирла яхши муомалалар қилмоқ ва болаларини тарбият қилмоқни яхши билмақлари хусусида таълим албатта зарурдир »[5, 110] .

Жадидлар ўз маблағлари ҳисобидан янги усул мактабларини очиб, уларда ўғил ва қиз болаларнинг бирга ўқишларини ташкил эта бошладилар. Шундай мактаблардан бирида Абдулқодир Шакурий Самарқандда ўғил ва қиз болаларни бирга ўқита бошлади, қизларга унинг хотини дарс беришга кўмаклашган[6, 178]. Абдулқодир Шакурийнинг бундай иши маҳаллий бойлар, руҳонийларнинг норозилигага сабаб бўлган. Шундай бўлсада, бундай мактаблар Туркистоннинг бошқа шаҳарларда ҳам очила бошлаган.

Тошкентдаги Эшонхўжа Хонхўжаев янги усул мактабида 3 та қиз, Собиржон Раҳимовнинг мактабида 15 та қиз ўқиган[7,304]. Қўқон шаҳрининг Ғалчасой маҳалласида Муҳаммаджон Холиқий 1913-йилда дастлаб « усули жадид », кейин эса қизлар мактабини ҳам ташкил қилган. Унда синглиси Солияхон Абдухолик қизи ўқувчиларга сабоқ



берган . Абдулла Авлоний мактабида ҳам қизлар ўғил болалар билан ёнма-ён ўтириб, таҳсил олган[7, 307].

Таваллонинг «қариндош ва ҳамшаҳарларимиз мазлума қизлар тилидан» шеърида[8,67] қизлар улардан «ҳалокатдан» «маломатдан» қутқаришни ўқиштишни, эрк ва ҳурлик беришни сўрайдилар. Ҳаттоки, келажакда оила, тенглик ва саодатли, муҳаббатли ва садоқатли турмуш масаласини ўртага қўядилар.

Жадидларнинг қарашларида жамият ривожланишини тўхтатаётган хотин-қизлар ижтимоий ҳаёти билан боғлиқ иллатлар: маърифат қолоқлиги, қайғу-кулфат, уруғчилик ва ўрта асрдан сақланиб қолган муносабатлардан қутулиш йўл-юриқлари ўз аксини топгандир. Жадидлар фикрича , хотин-қизлар ўз аёллик ҳуқуқини англаб , талаб қилиши, тиклашга интилиши, уни тубан кимсалардан ҳимоялаши жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси бўлиши учун диний ва дунёвий билим имкониятларидан фойдаланиш шароитлари яратилиши зарур. Шундай бир шароитда даврнинг илғор зиёлиларидан Зухриддин Фатҳиддинзода, Рауф Музаффарзода, Абдулла Авлоний, Тавалло, Чўлпон, Убайдулло, Ҳамза, Мирмуҳсин, Нозимахоним, Лайлихоним кабилар ўша даврда газеталарнинг вақтли матбуот саҳифаларида ўзбек хотин-қизлари маънавий, ижтимоий, сиёсий ҳаётини, кундалиқ турмушини, уларнинг илм-фанга, ҳунарга, жамиятдаги тузумга бўлган муносабатларини ёритиб беришга бағишланган бир туркум публицистик мақолалар ёзиб чоп эттирдилар[9, 123]. Туркистон жадидларининг отаси бўлган Бехбудий миллатнинг кўзини очиш , асрий қуллик исканжасидан озод этиш, йўлларини, аввало, халқ маънавий жиҳатларини ўстириш билан боғлади[10,12]. Биринчидан, диний, ва дунёвий билимларни мукамал ўқитадиган янги жадид мактаблари ташкил этиб, миллатнинг келажаги бўлган фарзандларни комиллик даражасига кўтариш . Иккинчидан, журналлар ташкил қилиб омма онгини ошириш , Учинчидан , театр турупалари ташкил қилиб , халқнинг баъзи ёмон иллатларини фож этиб маданий оширишни мақсад қилиб олди.

Бехбудий бола тарбиясида оиланинг, мактабнинг ролини кўрсатар экан , уларнинг жисмоний, гигиеник тарбиясига ҳам эътибор қаратмоқ лозим эканлигини ўқтиради. Бундай қарашларни унинг «Ҳифзи сиҳат оила» (оиланинг саломатлигини сақлаш) мақоласида баён этади[11,81- 82] . «Болаларнинг ёш вақтларидан ишқий ғазаллар ўқишларига йўл қўймаслик, керак дейди . Айниқса, қизлар тарбияси ҳақида гапириб , бунда ўта эҳтиёткорлик лозим дейди . Ўн тўрт ёшга тўлган



қизларни бу вақтда ниҳоят диққат билан ўтазиб, уларни зоҳирий ва ботиний ва тарбияларини ҳифзи сиҳат ва шариат таклифиға мувофиқ этмоқлари керак. Бу ҳолда қизларни вужудини қувватсиз этадурган ҳар хилтаомлардан сақлаб ҳам иссиқ либосларни кийғизмоқ керак »[11, 81-82]- дейди ўз мақоласида. Бехбудий тўй – маракаларга кетадиган бефойда пулларга болаларни ҳукумат мактабларига бериб, бу пулдан талабаларни Макка ва Мадина, Миср , Истанбул ва Россия дорилфунун ва дорусанолариғига юборилиб , диний , дунёвий ва замонавий одамлар етиштиришни ёқлаб чиқади .

«Туркистон вилоятининг газетаси»нинг[12, 131] биргина 1908- йилдаги бир неча сонларида эълон қилинган ҳуқуқшунос муаллим ва шоир Иброҳим Давроннинг «Ҳақ сўз » (37-сон), “ Мирза Тошпўлат Алимбой ўглининг « Заифаларга эрлар баробарида ҳуқуқ берилсин деган зотларга очиқ хат » (81-сон), «Бир мусулмон имзоси » остида босилган « Эски ҳаммом, эски тос » (82-сон), Имомали Буроновнинг «Тилсиз хотин » (83-сон), Файзуллоҳнинг «Хотинларга илм лозимми?» (1909, 62-сон), « Хотинлар эркаклар билан баробар эмас » (1912, 72-сон), «Хотун киши қози бўла оладими?» (1912, 54-сон), «Бир мусулмоннинг тенг ҳуқуқлилиқ тоғрисида ёзгани » (1913, 91-93-сонлари), «Мусулмонлар овози (хотин-қизларга тенг ҳуқуқ берилиши тўғрисида)» (1914, 4-сон) каби публицистик мақолаларида Туркистон ижтимоий-маиший ҳаётининг асосий муаммоларидан бўлган маҳаллий хотин-қизларнинг ҳақ-ҳуқуқи ва маорифи масаласи ҳақида баҳслар юритилади.

1917 йилги Россияда ва асосан Туркистонда бўлаётган сиёсий воқеалар юқорида таъкидланган масалаларда асосий роль ўйнади. Чунки, Думага бўлаётган сайловларда хотин-қизларнинг иштироки ҳам асосий роль ўйнашини жадидлар ёқлаб чиқдилар. 1917 - йил 20 августда Марғилон шаҳрида маҳаллий «Шуруйи Ислом» ташкилоти фаоллари йиғилиши федералистлар фирқаси шубаси тузиш муносабати билан қабул қилинган қарорининг 4 бандида қуйидагилар ёзилганди: «Миллатнинг йигирма ёшга этуб ақليات пайдо қилғон ҳар бир фарзанди: эр бўлсун, хотун бўлсун, - синф, дин ва мазҳаб айримасига боқмасдан сайламак ва сайланмак ҳақиқатга мойилдир »[13,78]. Шунинг учун ҳам Туркистон жадидлари вақтли матбуот саҳифаларида ўз мақола ва чиқишларида хотин-қизларнинг сайлов жараёнида фаол иштирок этиши, сиёсий мустақиллик ва демократияни жорий этиш билан боғлиқ ишлар, кўп партиявийликнинг ва кенг жамоатчилик фаоллигининг ўта зарурлиги, улар ўртасидаги келишмовчиликлар ва қарама-қаршилиқлар салбий оқибатларини тарғиб этдилар.

Лекин, жадид- қадим низолари сабабли «Уламо»чилар аёлларнинг сайловларда қатнашиши масаласида зиддиятлар юзага келди. Жумладан, Бу ҳақида андижонлик тараққийпарвар Шамс Нажмий: «Ажабо қачонлардан бери тўй, аза, маърака, сир, зиёфат, мозорларга чиқиб юрган хотинларни ихтисоб этмаган зотлар, энди ўз дини ва миллий ҳуқуқларимизни қўлга келтирмоқ учун аёлларнинг бундай одоб ва ахлоқ доирасида сайловга қатнашмоқларига не қаршилиқ кўрсатурлар» [14, 5] - деб ҳисоблайди.

Ҳаттоки, Исмоилбек Гаспринский ҳам «Дору р-роҳат» асарида ҳам амирнинг рафиқаси Хадичабонунинг давлатни бошқариш ишларига аралашини, аёллар қози (судья) каби турли вазифаларда ишлаши тўғрисида ёзар экан, бу билан хотин-қизларнинг ижтимоий фаолиятида эркаклардан кам иш бажармаслигини кўрсатади» [15, 68] - деб ёзади.

Шунинг учун ҳам жадидлар мусулмон хотин-қизларини озодликка чиқаришга, тенг ҳуқуқли бўлишга, шу билан тараққиёт йўлига, илм-фан, маърифатга, дунёвий ишларни ўрганишга чақирганлиги, ундаганлиги уларнинг хизматлари беқиёслигини кўрсатарди. Энг асосийси, эркаклар билан тенг ҳуқуқда жамоат ишларида қатнашишлари, сайловларда иштирок этишлари учун қилган саъй-ҳаракатлари Туркистон маърифатпарварларнинг шарқ мамлакатларида биринчилардан бўлиб интиланлигини кўрсатарди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шунини айтишимиз мумкинки, жадид зиёлилари хотин – қизларнинг маънавий салоҳиятини ошириш учун, аввало, мактаб таълимини йўлга қўйиш, уларга таълим беришда диний фанлар билан бир қаторда дунёвий фанларни ўқитиш, дунё янгиликларидан хабардор қилиш учун эса газета, журналлар нашр эттириб, жаҳон мамлакатларидаги хотин – қизларнинг қандай ютуқларга эришаётганини кўрсатиб, уларни ўз ҳақ-ҳуқуқини талаб қила оладиган, сиёсий эркинликларга эга шахс қилиб тарбилашни ўз олдида мақсад қилиб қўйдилар, зеро келажак авлоднинг тарбияси биринчи навбатда шу хотин – қизлар қўлида эди.

REFERENCES:

1. Мирзиёев. Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз. -Т.: Ўзбекистон. 2016. Б -12.(
Mirziyoev. Sh. Together we will build a free and prosperous democratic state of Uzbekistan. -T.: Uzbekistan. 2016. B -12.)



2. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспиринский – Т.: Мерос. 1992. 34 б.(Qosimov B. Ismoilbek Gaspirinskiy - T. : Meros. 1992. 34 p)
3. Айни. С . Мусулмонлар ҳаёти Туркистон вилоятининг газетаси. 1906. 16-19 июл. Б- 5.(Exactly. S. Muslim Life Turkestan Regional Newspaper. 1906. July 16-19. B- 5.)
4. Фитрат А. Оила ва оилани бошқариш тартиблари. / Маъсул муҳаррирлар Д.А.Алимова; Тарж. Ш.Воҳидов. – Т.: Маънавият. 1998. Б- 56.(Fitrat A. Family and family management procedures. / Responsible editors D.A.Alimova; Tarj. Sh.Voxidov. - T. : Spirituality. 1998. B- 56.)
5. Фитрат А. Танланган асарлар: 2 т. / Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов ва бошқ.: Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев; Масъул муҳаррирлар Н.Каримов, - Т.: Маънавият. 2000. Б- 89.(Fitrat A. Selected works: 2 t. / Editorial Board: O. Sharafiddinov and others: Prepared for publication and author of comments H. Boltaboev; Responsible editors N.Karimov, - T. : Spirituality. 2000. B- 89.)
6. Жаҳид маърифатчилик ҳаракатининг ғоявий асослари. –Т. «Тошкент ислом университети».2016. б – 178.
7. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик.- Т.: «Маънавият», 2002. Б- 304.(Qosimov B. National awakening: courage, enlightenment, devotion.- T. : «Spirituality», 2002. B- 304.)
8. Жабрдийда ёзувчилар халқ хизматида. Таҳрир ҳайъати: Б.Хасанов ва б. Масъул муҳарир: Б.Хасанов.- Т. «Фан». 2013. Б- 67.(In the victim, the writers are in the public service. Editorial Board: V. Khasanov and b. Responsible editor: V.Khasanov.- T. "Fan". 2013. B- 67.)
9. Ражабова Д. Туркистон жаҳидларининг қарашларида ёшлар ва хотин – қизлар масалалари.(XIX асрнинг охири - XX аср бошлари). Тарих фанлари номзод даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т. 2003. Б- 123.(Rajabova D. Issues of youth and women in the views of Turkestan Jadids (late XIX - early XX centuries). Written dissertation for a PhD in History. T. 2003. B- 123.)
10. Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Масъул муҳаррирлар: Б.Хасанов, Н.Каримов.- Т. 2014. Б 12.(The role of Behbudi's heritage in the promotion of national ideas. Responsible editors: V.Khasanov, N.Karimov.- T. 2014. B 12.)
11. Бехбудий М. Танланган асарлар. // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар:Б.Қосимов- 2- нашри, тузатилган ва тўлдирилган.Т.: «Маънавият», 1999. Б- 81- 82



12. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нодир нашрлар зали миллий матбуот библиографияси каталоги. Тошкент. 2010 й. Б- 131.
13. Аъзамхўжаев .С. Туркистон мухторияти.-Т.: Маънавият. 2000. Б- 78.
14. Шамс Нажмий. Сайлов муносабати ила хотунлар масаласи //1917 .25 июл (Shams Najmiy. The issue of women in connection with the election // 1917 .25 July)
15. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспиринский – Т.: Мерос. 1992. 68 б.(Qosimov B. Ismoilbek Gaspirinskiy - T .: Meros. 1992. 68 p)



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ПРЕЗЕНТАЦИЙ НА УРОКАХ ХИМИИ ДЛЯ НЕПРОФИЛЬНОЙ ХИМИИ

Айпара Джолдасовна Курбанова

Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области

АННОТАЦИЯ

Для нехимических специальностей уроки химии иллюстрируются и иллюстрируются с использованием компьютерных технологий, мультимедийных элементов и педагогических методов обучения. В то же время говорится, что такие занятия помогают ученикам развивать свои интеллектуальные способности.

Ключевые слова: компьютерные технологии, мультимедийные средства, технология проблемного обучения, металлы, обучение.

USE OF MULTIMEDIA PRESENTATIONS IN CHEMISTRY LESSONS FOR NON-SPECIALIZED CHEMISTRY

ABSTRACT

For non-chemistry majors, chemistry classes are illustrated and illustrated using computer technology, multimedia elements, and pedagogical teaching methods. At the same time, it is said that such activities help students develop their intellectual abilities.

Keywords: computer technology, multimedia tools, problem-based learning technology, metals, training.

ВВЕДЕНИЕ

Для специальностей, не связанных с химией, цель химического образования состоит в том, чтобы учащиеся овладели основами химии и научились понимать окружающую среду с химической точки зрения. Учащиеся развивают свои интеллектуальные способности, наблюдая, понимая, экспериментируя, измеряя, сравнивая и противопоставляя, анализируя, синтезируя и т. д. Химическое образование направлено на развитие интеллекта учащихся, логического, образного, теоретического и других форм мышления[1]. Активность мыслительных процессов напрямую связана с интересом к предмету. Использование



информационных средств обеспечивает реализацию таких принципов обучения, как научность, наглядность, доступность, активность и самостоятельность. К наиболее эффективным формам представления учебного материала следует отнести мультимедийные презентации. Я пытаюсь представить материал к занятию ввиду презентации как систему ярких опорных образов, наполненных исчерпывающей структурированной информацией в алгоритмическом порядке. В этом случае включаются в работу различные каналы восприятия у студентов, что позволяет заложить информацию не только в фактографическом, но и в ассоциативном виде в память студентов. Цель такого представления учебной информации я вижу, прежде всего, в формировании у студентов интеллектуальные системы мысли образования[2].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Подача учебного материала в виде мультимедийной презентации сокращает время обучения, высвобождает ресурсы здоровья молодёжи, позволяет построить учебно-воспитательный процесс на основе психологически корректных режимов функционирования внимания, памяти, мыслительной деятельности, и педагогических взаимодействий, построение процесса обучения с позиции целостности[3].

Я считаю, что использование презентаций целесообразно на любом этапе изучения темы и на любом этапе занятия: при объяснении нового материала, закреплении, повторении, контроле. При этом презентация выполняет различные функции: преподавателя, рабочего инструмента, объекта обучения, сотрудничающего группу или подгруппу[4].

При использовании мультимедиа-презентаций в процессе объяснения новой темы достаточно линейной последовательности кадров, в которой могут быть показаны самые выигрышные моменты темы. На экране могут также появляться определения, схемы, которые ребята списывают в тетрадь (при наличии технических возможностей краткий конспект содержания презентации может быть распечатан для каждого студенту), тогда как преподаватель, не тратя время на повторение, успевает рассказать больше. В своей практике я использую созданные специально для конкретных занятий мультимедийные конспекты-презентации, содержащие краткий текст, основные формулы, схемы, рисунки, видеофрагменты, анимации[5]. Так, например, при изучении



в 1 курсе темы «Металлы и их свойства», объяснение нового материала сопровождается мультимедийной презентацией, состоящей из слайдов в которых дается определение основным понятиям (электропроводность, пластичность, металлический блеск и т.д), приведены схемы классификаций металлов по различным показателям, статические и динамические изображения металлов, видеофрагмент – образование металлической связи [6].

МЕТАЛЛЫ В ПРИРОДЕ

Металлы в природе встречаются в 3-х формах:

1. В свободном виде
2. Как в свободном, так и в виде соединений
3. Только в виде соединений

Только в соединениях	Как в свободном так и в виде соединений	Главным образом в виде соединений	Только в свободном виде
Li K Ca	Ni Sn Pb	Cu Ag Hg	Au Pt
Na Mg Al			
Mn Zn Cr			

Самый распространенный металл на Земле – алюминий (более 8% от земной коры).

СПОСОБЫ ПОЛУЧЕНИЯ МЕТАЛЛОВ

1. Пирометаллургия - восстановление металлов из руд при высоких температурах с помощью восстановителей (углерода, оксида углерода(II), водорода, магния, алюминия).
2. Гидрометаллургия – растворение природного соединения металла с последующим восстановлением его из раствора.
3. Электрометаллургия - способ получения металла с помощью электрического тока (электролиз).

Занятия закрепления, обобщения и систематизации знаний – это занятия, требующий от учителя постоянного внимания к ответам учащихся с целью глубокого понимания учащимися темы (или раздела). Использование для этого презентации может происходить по-разному. Можно вывести на экран проблемные вопросы и постепенно приходить к их решению всем классом, можно создать игровую ситуацию с использованием иллюстративного материала [7]. Проблемное обучение пронизывает весь курс химии. Кроме того, изучение химии сопровождается созданием на занятиях проблемных ситуаций и постановкой проблемных вопросов. Практически изучение всей темы построено на выдвижении гипотез, создании проблемных ситуаций, постановке проблемных вопросов и поисков ответов на эти вопросы, путей разрешения проблемных ситуаций [8].

После таких занятий изученный материал остаётся у студентов в памяти как яркий образ и помогает преподавателю стимулировать познавательную активность студента[9].

Компьютерные презентации - эффективный метод представления и изучения любого материала. При представлении материала в графиках, картинках, таблицах, тезисах, виртуальных моделях включаются механизмы не только звуковой, но и зрительной и ассоциативной памяти. Возможность вставлять в презентацию любые объекты делает ее особенно привлекательной при изучении сложных тем,

если необходимо показать модели (молекулы, строение атома, строение кристаллических решеток), процессы (механизмы признаки реакций, ход реакций, растворение веществ, явление гибридизации, диссоциации и т.д.). Например, на первых этапах изучения органической химии трудность представляет пространственное строение молекул[10]. Рисунки в учебнике - плоские, двумерные. Пространственный образ приходится додумывать, воображать. В случае использования компьютерных технологий любой объект может быть представлен не только в строго определенной, зафиксированной форме на плоскости, его можно перемещать в пространстве и рассматривать под разными углами. Но я считаю, что главное достоинство компьютерного проектирования на уроке химии – его использование при рассмотрении взрыва и пожароопасных процессов, реакций с участием токсичных веществ, радиоактивных препаратов, словом, всего, что представляет непосредственную опасность для здоровья обучаемого[11].



Использование компьютерных презентаций на уроках позволяет сделать преподавание химии содержательнее, интереснее, эмоциональнее, нагляднее, эффективнее. Презентация органично вписывается в структуру занятия, сопровождая лекцию[12].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Практически все средства обучения, кроме химического эксперимента, могут заменить слайды презентации. Если целью электронной презентации является замена бумажного плаката слайдами, то использование мультимедийной техники в данном случае не оправдано теми затратами, которые прилагает учитель для подготовки к уроку. Если же необходимо на уроке использовать несколько перечисленных средств в комплексе, если имеющиеся таблицы, схемы,



рисунки устарели или не отвечают замыслу учителя, то презентация – современное решение вопроса. Это уместно в частности потому, что не переключает внимание учащегося на технические паузы: вывешивание плаката, включение кодоскопа, видеоманитофона и т.д. Нужно отметить, что положительный эффект будет только в том случае, если презентация применяется не едино разово, а систематически[13].

Весь занятий, по моему мнению, не должен быть сосредоточен на презентации. Слайды презентации можно использовать во время объяснения, закрепления или создавать проблемную ситуацию на уроке. Учитель вполне может включить и эксперимент, и записи на доске (особенно если их могут сделать учащиеся), и показ моделей.

Практически бесценным подспорьем в работе учителя химии являются информационные веб-ресурсы. Это и специализированные порталы «В помощь учителю», и сайты учебно-методических изданий, научных и учебных учреждений, коммерческих организаций. При создании презентаций я очень часто использую следующие сайты: <http://www.chemnet.ru> (здесь можно найти последние новости российского химического образования, полезную информацию для школьников, большое количество ссылок на различные научные и учебные ресурсы), <http://www.alhimik.ru> (на сайте выложено большое количество учебных, методических, научно-популярных и занимательных материалов по химии), <http://him.1september.ru> (раздел «Я иду на урок химии» содержит тематическую подборку учебных, дидактических и методических материалов по основным темам школьного курса химии) и многие другие[14].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Различные формы работы с ИКТ я применяю при проведении занятий изучения нового материала, контроля знаний, умений и навыков, повторения и обобщения. Для демонстрации сложных экспериментов использовала не только презентации созданные собственноручно, но и готовые ЦОРы.

ИКТ я использую на уроках:

- урок изучения нового материала «Химическая связь», «Вода в природе. Свойства воды», «Жесткость воды»
- обобщающий урок по теме «Классы неорганических веществ»,

«Химическая кинетика. Химическое равновесие»



- Внеклассное мероприятие «Нитраты: вред или польза?», «Минеральные удобрения»

Занятий с применением ИКТ позволяют разнообразить формы изучения и контроля знаний, увеличить объем рассматриваемого материала, вызывают интерес у студентов, развивают коммуникативные навыки. ИКТ помогают сделать занятия более интересными, содержательными, целостными, современными.

REFERENCES

1. Кругликов В. Н., Платонов Е. В., Шаранов Ю. А. Методы активизации познавательной деятельности. С.- Пб.: Знание, 2006.
2. Дендебер С.В., Ключникова О.В. Современные технологии в процессе преподавания химии. Развивающее обучение, проблемное обучение, проектное обучение, кооперация в обучении, компьютерные технологии. М.: 5 знания, 2007.
3. Богомоллова О.В. Об организации проектной деятельности учащихся. Журнал Химия в школе.2008. №2
- 4.Badalova S.I., Komilov K.U. Intellectual training of students of technical institute.// Academic Research in Educational Sciences. 2020. Vol. 1 No. 1.
- 5.Yadgarov B., Komilov K.U. Applying ICT for improvement general chemical education// Society and innovations. 2021. №4. Стр. 257-261.
- 6.Atqiyayeva S. I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». 2021. №10. Стр. 684-692.
- 7.Аллаев Дж. Использование личностно-ориентированного обучения на занятиях химии/ Материалы международной конф. Проблемы современного непрерывного образования: Материалы Международной научной конференции по инновациям и перспективам. Т., 2019. том 1. Стр. 366.
- 8.Badalova S.I, Komilov K.U. Case technology in chemistry lessons// Academic Research in Educational Sciences.2020. Vol. 1 No. 1, Page 262-265.
9. Ёдгаров Б. Применение ИКТ для улучшения общего химического образования// Общество и инновации. 2021. №4. Стр. 258-263.
- 10.Рустамова Х.Н., Эштурсунов Д.А. Роль информационных и коммуникационных технологий в обучении общей и неорганической химии// "Экономика и социум". 2021. №5(84).



11. Komilov K.U. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic research in educational sciences. 2021. № 6. Page 436-443.

12. Atqiyayeva, I. S., Komilov, Q. O., Fayziyev, X. O. Kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo‘llanilishi. academic research in educational sciences// 2021. 2(Special Issue 4), 47-52. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-4-47-52>

13. Komilov, K. U. Umumiy va anorganik kimyoni o‘qitish jarayonida talabalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish. academic research in educational sciences// 2021. 2(Special Issue 4), 73- 78. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-4-73-78>.

14. Matyakubov A. Umumiy va anorganik kimyoni o‘qitish jarayonida talabalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish// Jamiyat va innovatsiy jurnali. 2021. №5. 571-577 betlar.



СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАР ШАРОИТИДА БАҲОРГИ НЎХАТДА ВЕГЕТАЦИЯ ДАВРИ ВА БИОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ

Д. Ў. Жўраева

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти таянч докторанти

А. А. Абдиев

Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти доценти

АННОТАЦИЯ

Мақолада нўхатнинг хориждан келтирилган ҳамда маҳаллий нав ва тизмаларини баҳорги муддатда экиб ўрганилганда, ўсув даври давомийлиги, шунингдек, ўсимлик бўйи, дон сони ва дуккаклар сонига иқлим шароитларининг таъсири ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: вегетация даври, ўсимлик бўйи, дон сони, дуккаклар сони, иссиқликка чидамлилик.

КИРИШ

Кўпгина нўхат етиштирувчи мамлакатларда нўхатни баҳорда экишга одатланган. Шу сабабли ҳам айрим қурғоқчилик йилларида нўхатдан жуда кам ҳосил олинади. Кейинги йилларда нўхатни кеч кузда, қишда ва эрта баҳорда экиш агротехникасини ишлаб чиқиш бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Дастлабки натижалар бўйича нўхат қишда ёки кузда экилса 50 – 100% фойда олиш мумкинлиги ўрганилган (Балашова, 2003).

Агар нўхат мақбул муддатларда экилса ҳаво ҳароратининг ошиб кетишигача ҳосили шаклланиб улгуради. Нўхат эрта гуллайди, гуллаш даври ҳам узокроқ давом этади. Юқори ҳосил етиштиришнинг асосий кўрсаткичи бўлган намлик ва ҳаво ҳароратининг етарли даражада бўлиши, вегетация даврининг ҳам бирмунча давомли бўлиши билан баҳоланади. Бундай қулай шароитда нўхатнинг ер устки ва илдиз тизими яхши ривожланади, илдизда кўпроқ туганак бактериялар тўпланади, кучли шохланиб, бўлиқ ва йирик дон ҳосил қилади [1].



АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

И. Х. Ҳамдамов, Н. Ж. Ходжаева, С. Б. Мустанов (2005) лар нўхатни Самарқанд вилояти Ургут тумани тоғолди адир худудидаги суғориладиган бўз тупроқлар шароитида баҳорда ҳар хил муддатларда экиб, ўсимликнинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсирини ўрганган [2].

Тадқиқотлар хулосаларига кўра, нўхат уруғлари эрта баҳорда экилганда

Entry	Name	Униб чиқиш, сана	Пишиш, сана	Пишишга а бўлган кун	Бир туп ўсимликда дуккаклар сони, дона				Бир туп ўсимликда ги донлар сони, дона
					1 донли	2 донли	3 донли	Жам и	
1	Полвон (ст)	24 мар	14 июн	82	28	3		31	34
2	Зумрад (ст)	25 мар	14 июн	81	30	3		33	36
3	Обод (ст)	24 мар	14 июн	82	36	2		38	40
4	KR20-LCAYT-RF-2	23 мар	10 июн	79	49	3		51	54
5	KR20-LCAYT-RF-3	24 мар	10 июн	78	50	2		52	54
6	KR20-LCAYT-RF-5	23 мар	10 июн	79	66	6		72	78
7	KR20-LCAYT-RF-6	23 мар	8 июн	76	51	2		53	55
8	KR20-LCAYT-RF-9	24 мар	8 июн	76	44	5		49	54
9	KR20-LCAYT-RF-14	22 мар	7 июн	76	46			46	46
10	KR20-LCPYT-RF-22	25 мар	6 июн	73	41			41	41
11	KR20-CAT-4	23 мар	14 июн	84	70			70	70
12	KR20-CAT-31	24 мар	10 июн	78	20	39	3	62	106
13	KR20-CAT-34	22 мар	6 июн	77	30	5		35	41
14	KR20-CAT-35	23 мар	10 июн	79	51	10		61	71
15	KR20-CICTN-3	24 мар	10 июн	78	53	2		55	57
16	KR20-CICTN-11	24 мар	7 июн	75	22	16	1	39	58
17	KR20-CICTN-14	22 мар	13 июн	83	38	4		42	46
18	KR20-CIEN-LS-12	24 мар	6 июн	75	56			56	56
19	KR20-CIEN-LS-14	23 мар	7 июн	75	53	2		55	56
20	KR20-CIEN-LS-34	24 мар	12 июн	80	40	19		59	78
	Юқори кўрсаткич	25 мар	16 июн	86					106
	Ўртача кўрсаткич	23 мар	10 июн	79					47
	Паст кўрсаткич	22 мар	6 июн	73					24
	ЭКФ 0,05 ц/га			2,82					
	ЭКФ 0,05 (%)			3,6					
	CV (%)			2,2					

уруғларнинг униб чиқиши учун энг яхши шароитлар яратилади, шунингдек, вегетация даврида ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланишининг янада яхшиланишига ёрдам беради. Кеч муддатда экиш билан тупроқдан намликнинг интенсив буғланиши содир бўлади, уруғларнинг униб чиқиши сусаяди, тупроқда намлик етишмаслиги юқори ҳаво ҳарорати ва кучли куруқ шамол билан қўшилади, бу ўз навбатида

ўсимликларнинг ҳосилдорлигини пасайишига олиб келади [3].

Хориждан келтирилган ҳамда маҳаллий нўхат нав ва тизмалари Жанубий деҳқончилик ИТИ нинг Қарши туманида жойлашган тажриба даласида экиб ўрганилди. 50 та нав ва тизмалар 5 м² пайкалчада, 3 қайтариқда 4-5 см чуқурликда экилди. Экиш 1 март кунда амалга оширилди. Андоза навлар сифатида маҳаллий Полвон, Зумрад ва Обод навлари олинди.

Барча дон ва дуккакли экинларининг асосий ривожланиш даври март-май ойлари ҳисобланади. Ушбу даврда ҳавонинг нисбий намлиги ҳам муҳим аҳамиятга эга. 2021 йил мавсумида ёғин миқдориға мос равишда феврал ойдан бошлаб ҳавонинг нисбий намлиги пасайиб борди. Март ойининг биринчи ҳафтасида экилиб, ўрганилган тажрибада ҳаво нисбий намлигининг пастлиги ва ёғин миқдорининг кам бўлганлиги, нав ва тизмалар орасидан иссиқликка чидамли бўлган ўсимликларни табиий равишда ажратиб олишга сабаб бўлди. Тадқиқот давомида намуналарнинг ривожланиш фазалари 6 та фазаларга бўлиниб қайд этиб борилди. Тажрибадаги ўсимликларда униб чиқиш 22-25 март санасига тўғри келди.

Уруғлар 21-24 кунда тўлик униб чиққанлиги кузатилди.

1-жадвал.

Нўхат нав ва тизмаларининг ўсув даври ҳамда биометрик ўлчов натижалари (Қарши, 2021 йил).

Тўлик шохланиш фазаси униб чиқишдан 20-25 кун ўтгач қайд этилди. Бу 12-20 апрел кунларига тўғри келди.

Нав ва тизмаларининг ўсув давридаги олиб борилган кузатувларга кўра, гунчалаш фазаси 27- апрелдан 8- май оралиғида ўтганлиги қайд этилди.

Гуллаш даври 4-16 май кунлари оралиғида давом этди. Гунчалашдан гуллаш фазасига ўтишда 12 кундан 16 кун мобайнида давомийлик аниқланди. Андоза Полвон ва Зумрад навида гуллаш санаси 15 майда, Обод навида 12 майда қайд этилди.

Нўхат нав ва тизмаларининг гуллашдан дуккаклаш фазасига ўтиши 17 майдан 23 май кунлари орасида кузатилди. Униб чиқишдан дуккаклашгача бўлган давр 55-61 кундан иборат бўлди.

Дуккакли ўсимликларда ўсув даврининг сўнгги фазаси тўлик пишиш 6-16 июн кунларида аниқланди. Андоза навлар Полвон, Зумрад ва Обод навларида тўлик пишиш санаси 14 июнга тўғри келди.

Ўсимликларда тўлиқ пишишгача бўлган кунлар ҳисоблаб чиқилганда, вегетация даври давомийлиги 73 кундан 86 кунгача бўлганлиги аниқланди.

Полвон ва Обод навларида ўсув даври давомийлиги 82 кунни, Зумрад навида 81 кунни ташкил қилди. Андоза навларга нисбатан энг эрта пишган тизмалар сони 32 тани ташкил қилган. 17 та тизмалар энг эрта пишган бўлиб, ўсув даври 76-77 кундан иборат бўлди. Кечпишар тизмалар сони эса 5 та эканлиги кузатилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тажриба даласида ўсимликлар бўйи, дон сони ва дуккаклар сони бўйича ҳам ўлчовлар ўтказилди.



Ўсимлик бўйи ҳар бир нав ва тизманинг ўзига хос хусусияти бўлиб, ўзгариб туради. Андоза нав Полвонда ўсимлик бўйи 33 см, Зумрад навида 39 см, Обод навида 32 см гача бўлди. Ушбу андоза навлар кузги муддатда экилгандагига нисбатан бироз паст бўйли бўлганлиги аниқланди. Бунга баҳор ойларида ҳаво хароратининг қуруқ ва иссиқ келганлиги таъсири кузатилган. Ўсимликларнинг ўртача бўйи 30 см дан 48 см гача бўлганлиги қайд этилди.

Шунингдек, 1, 2 ва 3 донли дуккаклар сони аниқланди. 2 донли дуккаклар сони бўйича KR20-CAT-31, KR20-CICTN-11 тизмаларида юқори кўрсаткичлар кузатилди. Умумий дуккаклар сони бўйича андоза навларга таққослаганда, 25 та тизмаларда устунлик аниқланди.

Бир туп ўсимликдаги донлар сони 24 тадан 106 тагача борлиги аниқланиб, дала дафтарига белгилаб борилди. Энг кўп дон сони KR20-CAT-31 тизмасида 106 тани ташкил қилди. Битта ўсимликдаги донлар сони 23 тизмада андоза навларга қараганда, юқори натижаларни намоён қилди.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, нўхат ҳосилдорлиги ўсимликдаги дуккаклар сони билан узвий боғлиқ кўрсаткич бўлиб, нафақат дон сони, ўсимлик бўйи ҳам экиш муддатлари таъсирида ўзгариши олиб борган тадқиқотларимизда кузатилди. Иссиқликка чидамлилиқ хусусиятларига кўра KR20-CIEN-LS-34, KR20-LCAУТ-RF-9, KR20-LCPУТ-RF-19, KR20-CIEN-LS-14, KR20-CIEN-LS-28 тизмалари танлаб олинди ва селекция ишларига жалб қилинди.

REFERENCES

1. Олейник П. П. Рекомендации по возделыванию нута на богарных землях Узбекистана. НИИБЗ. – Ташкент, 1972. – С.13-14.
2. Ҳамдамов И. Ҳ., Ходжаева Н. Ж., Мустанов С.Б. Разветие и урожайность сортов нута при различных весенних сроках посева // Фан чорраҳалари. Илмий тўплам. – Самарқанд, 2005. – 123-137 б.
3. Елжан Е. и др. Урожайность и экономическая эффективность возделывания нута в условиях юга Казахстана //Евразийский союз ученых. – 2016. – №. 2-5 (23). – С. 62-64.



САБЗИ УРУҒИНИ ЭКИШ МАШИНАСИННИНГ КОНСТРУКТИВ СХЕМАСИНИ ЯРАТИШ

Комил Дуллиевич Астанақулов

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институти” миллий тадқиқот университети, Техника фанлари доктори
komil_uzmei@mail.ru

Атабек Бердибой ўғли Бабажанов

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институти” миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни
бошқариш институти стажер-ўқитувчиси
otabekbabojanov93@gmail.com

Комилжон Орифжон ўғли Имомов

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институти” миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни
бошқариш институти талаба
imomovkomiljon1410@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада 2018-2020 йилларда сабзавот экинлари экилган майдонлар бўйича таҳлили келтирилган бўлиб. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики 2018-2020 йилларда сабзи экилган майдон 60 % га ошганини кўриш мумкин. Бу натижалардан келиб чиқадики сабзи уруғини экадиган замонавий агротехник талабларга жавоб берадиган. Янгича ечимларга эга бўлган сабзи уруғини экиш машинасининг конструкцияси келтирилган бўлиб, агротехник талабларга жавоб берадиган машинанинг технологик иш жараёнини амалга ошириш бўйича қисқача келтирилган.

Калит сўзлар: Сабзавот экини, сабзи, машина, замонавий, уруғ, экиш, пушта, экиш аппарати.

CREATING A STRUCTURAL SCHEME OF A SEEDER FOR CARROTS

ABSTRACT

The article provides an analysis of the areas sown with



vegetable crops in 2018-2020. The results of the analysis show that in 2018-2020, the area under carrots can be increased by 60%. From these results it follows that the sowing of carrot seeds meets modern agrotechnical requirements. The design of a carrot seeder with new solutions is given, a brief description of the implementation of the technological process of the machine that meets agrotechnical requirements is given.

Keywords: Vegetables, carrots, machine, modern, seeds, sowing, germination, sowing machine.

КИРИШ

Бутун дунёда йилдан йилга аҳолини ўсиб бориши табора жадаллашмоқда, биз биламизки инсонийатнинг овқатланиш жадвалида табиий маҳсулотларнинг ўрни жуда катта. Бундан келиб чиқадики сабзавот маҳсулотларини етиштириш йилдан йилга ошиб бормоқда бу эса қишлоқ хўжалигини шу билан бир қаторда сабзавотчилик соҳасини ривожлантиради. Бу ривожланишни республикамиз миқёсида кўриб чиқадиган бўлсак.

Республикамиз иқтисодиётида қишлоқ хўжалиги тармоғи алоҳида ўрин тутди. Аҳолининг озиқ-овқат таркибидаги маҳсулотлар шу соҳада етиштирилганлиги, инсон ҳаётида зарур бўлган витаминлар, оксиллар ва микроэлементлар, чорва ва ўсимликлар таркибида бўлмагани учун бу тармоқни ривожлантиришга талаб катта. Қолаверса, қишлоқ хўжалиги Ўзбекистон иқтисодиётини яхшилашда ҳал этувчи устун тармоқдир.

Республикамиз қишлоқ хўжалигида пахтачилик билан бир қаторда ғаллачилик, сабзавотчилик, полизчилик, боғдорчилик, чорвачилик, асаларичилик ва балиқчиликда сифатли маҳсулотлар етиштириш ва уни қайта ишлашни кўпайтириш учун илғор технологиялар ва уларни таъминлайдиган замонавий машиналар кенг жорий этилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ


The article describes the construction of an automatic adjustment device for the frequency speed of 12-volt three-phase motors using the LM324 chip based on local conditions.

Keywords: LM 324 microscheme, 12V, motors, frequency rate, adjustment, automatic device


KIRISH

Hozirgi kunda bolalarimiz oʻynaydigan parklarda har xil turdagi doimiy tok bilan xarakterlanadigan skutir velosipedlar, 48V doimiy 3-fazali inverterlar quyilgan xar xil turdagi mashinachalarni chet davlatlardan sotib olinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Taʼminlovchi kuchlanishning chastotasini oʻzgartirib asinxron motorning tezligini rostlash, tezlikni rostlash usullari ichida iqtisodiy jihatdan eng samarali usuldir. Tezlikni chastotani oʻzgartirib rostlaganimizda butun tezlikni rostlash diapazoni oraligʻida asinxron motorning sirpanishi uncha katta boʻlmagan oʻzgarma qiymatda qolishi natijasida motorning isrof quvvati katta boʻlmaydi. Tezligi chastotani oʻzgartirib boshqariladigan asinxron elektr yuritmalarning statik va dinamik xususiyatlari oʻzgarma

tok elektr yuritmalari bilan deyarli monand bo‘ladi. Rotor chulg‘amlari qisqa tutashtirilgan asinxron motorlarning o‘zgaras tok motorlarga nisbatan 1,5 – 2 martaba yengil bo‘lishi va deyarli 3 barobar arzonligini hisobga oladigan bo‘lsak, unda chastota bo‘yicha boshqariluvchi asinxron elektr yuritmalarning sanoatda kelajakda qo‘llanilishi imkoniyatlari xali juda keng ekanligi yaqqol ko‘rinadi.



1-Elektromexanik chastota o‘zgartkichning blok sxemasi

Bu avtomatik qurilmani motorlarini chastota tezligini oshiruvchi invertorlarini mahaliy sharoitdan kelib chiqib o‘z qo‘limiz bilan yasashni maqsad qildik.

Bu avtomatik qurilmada asosiy elementlar LM324 mikro sxema va 6-dona IRF-540 MOSFET tranzistorlari xisoblanadi.

LM324 mikro sxemaga ta‘rif beradigan bo‘lsak bu mikro sxema 14-ta oyoqchadan iborat bo‘lib 4-chi oyoqchasi 9V musbat kuchlanish hisoblanadi.


11-chi oyoqchasi -9v manfiy kuchlanish hisoblanadi. 9,6,2, oyoqchalaridan ma‘lumotlar qabul qiluvchixisoblanadi.

LM324 mikro sxema 10,5,3 oyoqchalari manfiy qutbga ulanadi. LM324 mikro sxemani 8,7,1 oyoqchalari esa qurilmadagi $T_1, T_2, T_3, T_4, T_5, T_6$ IRF540 tranzistorlarni asosida signallar kombinasiyasini hosil qiladi. Bu avtomatik qurilma 48 v doimiy kuchlanishdan 3-faza o‘zgaruvchan kuchlanishni 6-dona IRF540 tranzistorlarga 2-rasmdagi grafikga xosil bo‘lgan signallar orqali 3-rasmda 3-faza tok ishlab chiqaradi. Bu motorlar chastota tezligini boshqarish qurilma 9V barqororlashgan doimiy tok bilan ishlaydi.


Qurilmada ishlatiladigan elementlar.

1. $R_1=10K$ o‘zgaruvchan qarshilik.
2. $R_2=1K$
3. $R_3=1K$
4. $R_4=1M$
5. $R_5=220K$
6. $R_6=1K$
7. $R_7=1M$
8. $R_8=220K$
9. $R_9=1M$
10. $R_{10}=220K$
11. $R_{11}=100K$
12. $R_{12}=4,7K$
13. $R_{13}=4,7K$
14. $R_{14}=33K$

15.LED=3X3V 16.IRF540 tranzistor 6-dona 17.Transformator 12v 1-dona 18.Diod kuprik 3A 1-dona 19.KP7809 1-dona 20.C₁,C₂,C₃ 1 MKF 16 V 21.C₄=10 MKF 16V 22.C₅=25V 2000MKF 23.D₁=1N4004




2-rasm



3-rasm

4-rasmda barqarorlashtiruvchi element orqali barqaror tok olishga erishamiz.



4-rasm

Ushbu qurilmani mahalliy sharoitdan kelib chiqib avtomatlashtirish orqali kam harajat qurilmaga ega bo`lamiz. Shu avtomatik qurilmalarni o`z qo`limiz bilan yasasak davlatimiz iqtisodiga foyda keltirgan bo`lamiz.

REFERENCES

1. Xoshimov O.O., Imomnazarov A.T. Elektromexanik qurilma va majmualarning elementlari. -124 b.
2. 7.Imomnazarov A.T. Ekektromexanik tizimlaming elementlari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - 155 b.
3. <https://www.joyta.ru/5974-operacionnyj-usilitel-lm324-primery-primeneniya/>
4. <https://www.radiolibrary.ru/reference/transistor-mosfet/irf540.html>

TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH

Aziz Yokubjonovich Shadiyev

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsent v.b.

Zuxriddin Najim o'g'li Rashidov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola uzluksiz ta'limda shaxsga yo'naltirilgan faollikni rivojlantirishga qaratilayotgan ma'lumotlardan iborat.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, pedagogika, adaptiv, differensial, individual

ABSTRACT

This article contains information aimed at the development of personality-oriented activities in continuing education.

Keywords: teacher, student, pedagogy, adaptive, differential, individual.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati hayot faoliyatining barcha sohalarida qimmatli o'zgarishlar kechmoqda, bu esa o'z navbatida bo'lajak professionalni shakllantirishga yangicha yondashuvni talab etadi. Bizning davrimiz uchun farqli tomoni ta'lim sifatidagi o'zgarishlar – uning yo'naltirilganligi, maqsadi, mazmuni barchasi bo'lajak mutaxassisni “Shaxsning erkin rivojlanishi”, ijodiy tashabbuskorligi, ta'lim olishning mustaqilligi, raqobatbardoshligi, kabi sifatlarini nazarda tutadi. Respublikamizda mustaqillik yillarida o'quvchilar iqtidori, qiziqish va qobiliyati asosida ixtisoslashtirilgan ta'limning tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'kidlab o'tish kerakki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deganda, biz ko'proq o'quvchilarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyojlarini nazarda tushunamiz. Bunda ta'limning mazmuni o'quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo'naltirilishi, uning qiziqishlari va



layoqatini qo‘llab-quvvatlash bosh maqsad qilib belgilanadi. Uning qiziqishlari, fantaziyasi aniq maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z manfaatlarini fanlardan Davlat ta‘lim standartlari talablari asosida nafaqat minimal darajadagi balki, maksimal darajadagi bilimlarni egallash bilan himoya qilishga qodir bo‘lishi lozim. Buning uchun esa, o‘qituvchilar tomonidan ularning intilish va qiziqishlarini rag‘batlantirib borish talab etiladi. Bunday yondashuv orqali ta‘lim jarayonini amalga oshirishda o‘quvchining bilim olish jarayonini o‘z ichiga olgan, “o‘qituvchi” – “o‘quvchi” – “o‘qituvchi”-“ota-ona” munosabati hamkorligi va erkin tanlash prinsipi uni tanlagan sohasi bilan shug‘ullanishdan zeriktirmaydi, bilimlarini takomillashtirish sari undaydi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha ko‘pgina pedagog olimlar tomonidan ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- hamkorlik pedagogikasi;
- adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi;
- o‘yin texnologiyasi; rivojlangan o‘qitish texnologiyasi;
- muammoli o‘qitish texnologiyasi;
- differensial o‘qitish;
- individual o‘qitish texnologiyasi.

O‘tgan davrlar ta‘lim tizimiga nazar tashlasak, o‘quvchiarga ta‘lim va tarbiya berish avtoritar ta‘lim metodlariga asoslangan bo‘lib, u o‘quvchini itoatkor, o‘zgarlar fikriga bo‘ysinuvchan shaxs sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan edi. Bunda o‘qituvchi - “buyuruvchi”, o‘quvchi -“bajaruvchi” mexanizm kabi edi. Hozirgi paytda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi ta‘lim islohotlari barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan demokratik ta‘lim metodlariga asosdagi milliy modelning joriy etilishi bilan ahamiyatlidir. Demokratik ta‘lim metodlari o‘qitish jarayonida o‘quvchi fikrining hurmat qilinishi, uning har bir tushunchani o‘zlashtirishda faol mushohada etishi, o‘qituvchi fikrini tahlil qilishi va o‘zi asosli deb topgan fikrlarnigina qabul qilish mumkinligiga asoslanadi. Bu g‘oyalarni amalga oshirishdagi muammo respublikamizda haligacha avtoritar metodlardan demokratik ta‘lim metodlari o‘tish mexanizmi ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi. Aytish joiz bu borada joriy etilayotgan o‘quvchilar bilimini baholashning reyting tizimi, test mezonlarining keng joriy etilishi, o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashdagi erkinliklarni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirishning yutuqlari sifatida qayd etish mumkin.

O'qituvchi o'quvchini sust tinglovchidan dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi uzluksiz ta'limda katta ahamiyatga ega. Bunga o'quvchining o'z egallayotgan bilimi va qobiliyatiga ishonch hissini oshirishi o'ta ta'sirchan omildir. Ushbu vazifani amalga oshirishning har bir bosqichida o'quvchining jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanish darajalari tahlil qilinib, zaruriy tavsiyalarni berib, pedagogik qo'llab-quvvatlash, uning faoliyatiga zarur vaziyatlarda tuzatish va qo'shimchalar kiritib borish zarur. O'quvchining shaxsiy mustaqil bilish faoliyati ularning ichki motivatsiyasi yuqori darajada bo'lganda faol va samarali bo'ladi. Bilish va ijodiy faoliyatga nisbatan motivatsiya darajasini oshirishning samarali vositasi - muammoli o'qitish usuli ta'limda samarali qo'llash hisoblanadi.

Agar o'quvchi o'z o'quv faoliyatining mohiyatini ko'ra olmasa, u o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi. Shuning uchun o'quv material mazmuni avval o'qituvchi tomonidan ijobiy o'zlashtirilib, qayta ishlanib, undan o'quvchini qiziqtiradigan, shaxsiy tajribasiga mos kelib, fikrini qo'zg'aydigan, hayajonga soladigan xos jihatlar belgilab yetkazilgandagina natijasi samarali bo'lishi isbotlangan. Ana shundagina o'quvchi o'zini ushbu hodisalarning bevosita ishtirokchisi va ijodkori sifatida hisoblaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Faol ta'lim metodlarini qo'llash jarayonining xarakterli xususiyati shaxsning axborotlarni o'zlashtirishdagi barcha imkoniyat va malakalar umumiy majmua sifatida qaralishidir. Axborotlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga eshitish va ko'rish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ijodiy mushohada qilish, so'zlab berish, jismoniy harakatlar bajarish kabilar, malakalar sifatida esa loyihalash, harakatlanish, tasavvur qilish, nutq, sezgi organlari faoliyati nazarda tutiladi. Sanab o'tilgan imkoniyat va malakalar majmuasini faol ta'lim metodlari yordamida rivojlantirishda qisqa vaqtga mo'ljallangan, ta'lim mazmuniga ko'ra strukturalangan, barcha guruh a'zolarining faolligini ta'minlovchi, sodda mashqlardan foydalaniladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil-ijodiy izlanishlariga yo'naltirilgan to'garaklarga jalb qilish, mazmun va shakli jihatidan turlicha bo'lgan faoliyat turlari ham estetik ijtimoiy fikrlash bilan birga o'zaro muvofiqlikni keltirib chiqaradi. Muammoli masalalarni qo'yish, ularni mustaqil ijodiy hal qilish yoshlarning qo'shimcha bilimlarga ega bo'lishiga, dunyoqarashga oid masalalarni rivojlanishiga o'zlarini fikrlarini isbotli himoya qilish ko'nikmalari va malakalarini shakllanishga yordam beradi. Darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari mashg'ulotlar asosan



individual, guruh hamda ommaviy shakllarda amalga oshiriladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, darsdan tashqari faoliyat o'quvchilarda dunyoqarashning nafaqat g'oyaviy asoslarini shakllantiradi, balki uni amaliy harakatiga aylanishini ta'minlaydi. Bunda sust tinglovchi va kuzatuvchi rovida qolib ketmaydi; u bilimlarni mustaqil va erkin egallashga kirishadi, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy axborotlarni tushunishga harakat qiladi, o'zi o'zlashtirilgan sifatlarning tengdoshlari orasidagi faol targ'ibotchisiga aylanadi.

XULOSA

Uzluksiz ta'limda shaxsga yo'naltirilgan faollikni rivojlantirishga qaratilayotgan muammoni hal qilish uchun axborotning tarbiyaviy samarasini oshirish bilan birga izlanish, bahs-munozalari, o'zaro bilim almashish kabi faol shakl va uslublaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular o'quvchilarni yangi bilim va tushunchalarni mustaqil topishiga, o'z qarashlari va g'oyalarini himoya qilishga, dunyoqarashi va tasavurlarini o'rtoqlari bilan almashinishga o'rgatadi. Bunda ijodiy fikrlash, tasavvurlarni rivojlantirish, fikrlar tafovuti va xilma-xilligi, kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, topqirlik, idroklilik, zukkolik va zehni tarbiyalash talab etiladi.

REFERENCES

1. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:TDPU, 2003.
3. Xo'jayev N. va boshqalar. «Yangi pedagogik texnologiyalar». «Fan», 2002.
4. Baubekova G.D., Xalikova G.M. Obrazovaniye: opit, problemu, perspektivu. T., 2001.
5. G. K. Selevko. Sovremennyye obrazovatelnie texnologii. M. 1998
6. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000
7. Farberman L.B, Musina R.G. Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T. 2002.
8. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.
9. Bogolyubov V.I. Evolyutsiya pedagogicheskix texnologiy // Shkolnie texnologii. 2004. № 4.S.12-21.
10. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax/Uchebnoye posobiye// Pod obshey redaktsiyey akademika S.S.Gulyamova. - T.:TGEU, 2005.



MOTIVATION AS A TOOL OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Sabina Sobirjonovna Mirbabayeva

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

ABSTRACT

Motivation in teaching is one of the foundations of successful mastery of the subject. In this article, the author examines the approaches of domestic and foreign specialists in the field of psychological and pedagogical aspects of teaching foreign languages. Motivation to study English in educational establishments is defined as a transitional concept, that is, it depends on both the students themselves and the teacher. The paper focuses on ways to form and maintain students' interest in the English language. The author pays attention to both the psychological features of the teacher's work with students, as well as types of tasks that contribute to increasing the motivation of students.

Keywords: motivation, tool, learning, foreign, language, teaching, methodology.

INTRODUCTION

The most effective way to maintain motivation can be considered training built around intrigue and problematic issues. Also the necessity of students' autonomy in the educational process is substantiated in order to develop students' activity and independence. Strategies for forming and maintaining interest in acquiring knowledge can be successfully applied in the practice of teaching foreign languages at a university. Motivation is one of the most important factors in successful learning, and teachers often discuss how they know how to motivate their students. What does this mean? Some try to increase interest in the discipline being studied by making certain demands; someone expresses dissatisfaction with the failure of students, others remain calm; some talk to a group, others to an individual student. Which strategy is more effective? Referring to the educational process, where one of the important components is educational motivation and the motive of teaching, it is appropriate to define these concepts. The motivation of learning is a system of goals, needs and motives that encourage a person to acquire knowledge, skills and methods of cognition, to consciously relate to learning, to be active in educational activities. The motive of teaching is the orientation of the student to various aspects of educational activity, the



motivation for active and independent mastery of knowledge and skills. The motive from a psychological point of view is a multidimensional phenomenon. Therefore, it cannot be interpreted unambiguously, since it is only one of the types of motives, along with needs, goals, aspirations, interests and intentions.

Next, we will focus on the most influential studies of foreign authors in the field of motivation to learn foreign languages.

As it is known, social and cultural factors have an impact on learning a foreign language. Given this fact, Robert Gardner he proposed the most influential theory about motivation to learn a second foreign language. In it, the scientist highlights socio-psychological aspects, since the attitude of students to the language being studied and the community speaking this language strongly influences the desire to learn a particular language. The coexistence of various linguistic (English and French) communities in Canada drew the researcher's attention to the importance of integrative motivation, which implies the desire of students to learn a foreign language based on positive feelings towards a group of people, in particular which is spoken in this language. Gardner also defines instrumental motivation – when a language is studied based on practical considerations, for example, because of the opportunity to get a better job, a high salary or pass an exam.

MATERIALS AND METHODS

An important addition to Gardner 's concept can be considered the concept of “linguistic self-confidence”, introduced by Richard Clement. This term is interpreted by the authors as confidence that a person is able to achieve the set results, achieve goals and competently perform the proposed tasks.

Another significant idea about the structure of educational motivation belongs to American psychologists Edward Desy and Richard Ryan. In they created the theory of intrinsic and extrinsic motivation, argues that students interested in academic tasks and results, and receiving pleasure and satisfaction from getting knowledge more likely to be more successful with students than those studying for promotion – good grades, or to avoid punishment on the part of parents or school.

In the early 90s of the XX century, it was suggested that a change in the paradigm of the study of educational motivation and the expansion of motivational concepts in relation to the practice of teaching foreign languages is required. In the early 90s of the XX century, it was suggested that a change in the paradigm of the study of educational motivation and the expansion of motivational concepts in relation to the practice of



teaching foreign languages is required. Thus, the results of Clement's research showed that integrative motivation, "linguistic self-confidence" and the educational atmosphere are the most influential factors, which also confirmed the importance of further psychological and pedagogical research.

Significant contribution to the study of motivation to study a foreign language was introduced by a British scientist of Hungarian origin Zoltan Dernei. He expanded the focus of studying this issue and proposed a more complex structure of motivation to learn a foreign language. He identifies three levels of motivation: the level of language (culture, society, intellectual and pragmatic values), the level of the student (individual characteristics of the student "linguistic self-confidence") and the level of the educational situation (components related to the course of study itself - programs, teaching materials, methods, tasks, components affecting the personality of the teacher – his behavior, style and practice of conducting classes). Z. Dernei also draws attention to another important feature of educational motivation - instability and change over time. This means that it changes over the entire time of learning a foreign language.

RESULTS AND DISCUSSION

The concept of motivating teaching of a second foreign language by Zoltan Derne and was taken as a basis, where he identified four successive stages: the creation of basic motivational conditions, the generation of initial motivation, the maintenance of motivation, the formation of a positive attitude towards academic performance among students [23, p. 524]. Let's look at each of them and back them up with examples from educational practice.

1. Creation of basic motivational conditions

This includes the proper behavior of the teacher, a pleasant and supportive atmosphere in the classroom, a cohesive study group with acceptable standards of behavior. To implement this approach in practice, the teacher should give students their own example of interest in their subject. The personality of the teacher, his passion for the subject play a very important role, especially in the initial courses. It is unlikely that a student will be able to get full knowledge from a teacher who knows his subject perfectly well, but is burdened by his work. In addition, it is extremely important to establish a good relationship with students, which implies trust and mutual understanding. All kinds of information posted on the bulletin board are suitable for this, for example, a teacher's greeting, a birthday greeting or a successful defense of a project in



English. This will help the students themselves to show their achievements in various subjects. Also, social networks can serve as a platform for communication between a teacher and a student, and mutual assistance. Let's add to the above that the study group as a whole has a powerful influence on its members and even can largely determine the individual preferences of each student [23, p. 527]. A group acquires motivational value when it consists of cohesive people. Therefore, the role of the teacher in creating such a team is especially important. The organization of a friendly unified "team" of students can, for example, facilitate the exchange of information about each other, the history of the group, that is, when students are connected by common memories, encouragement by the teacher of group assignments, extracurricular activities (trips to cinema, museums, theaters) or overcoming difficulties together (whether it's difficult tasks or passing a difficult exam). Thus, a friendly atmosphere in the group can have a beneficial effect on the motivation of each student.

2. Generation of initial motivation

In this case, such aspects as the creation of a positive image of a community speaking a particular language, respect for the language and culture itself, and the orientation of students to success are important. The motivation to learn a new language is also determined by the specifics themselves the subject. It is well known that any language is something more than communication and is part of the cultural heritage of the people who speak it. Accordingly, the desire to comprehend a foreign language can be influenced by the attitude to culture, traditions, and people who use it. Such cultural conditionality can influence both positively (when the student is interested in the culture of the country) and negatively (when this culture is not accepted) on the motivation of teaching.

Thus, for example, Zoltan Dernei talks about the unsuccessful experience of studying the Russian language under the influence of a negative attitude to culture. For ten years, he barely mastered the alphabet [21, p. 14]. Thinking in this way, the teacher should actively increase the positive attitude of students to the language and culture being studied. In the case of the language of international communication, which is English, the situation is different. So, a teacher can appeal to the well-known and immutable fact that English has become the official language in many areas – in the international academic community, business, tourism. In the modern world, knowledge of this language is necessary for future study abroad, building a successful career, doing business, traveling, and the like.

3. Maintaining motivation

Taking into account the fact that motivation is characterized by variability and impermanence, the teacher needs to resort to a number of actions, such as: creating a pleasant and stimulating learning process, offering tasks that arouse interest in students, maintaining their positive social image, encouraging their autonomy, forming and maintaining the image of a "possible Self" within the framework of the theory of Z. Dorney "motivational self-image system in the context of learning a foreign language" (L2 motivational self system) and, of course, promote close cooperation between students. In the aspect of "home reading", when choosing works, it is important to take into account that they are relevant to the students' experience and relevant to various aspects of their lives. It is desirable that the book addresses the problems that the current generation of students is facing or may face. The key point is the ability to appeal to your own experience, make projections on your life and thereby express it in your speech.

One example is the novel "Reluctant fundamentalist" by the American writer of Pakistani origin Mohsin Hamid (2007). The main character of the work is a young Pakistani Genghis who comes to The United States from Pakistan to realize the "American dream" and regain for themselves and their families the position of middle-class people lost at home. To do this, he studies hard at Princeton University and, after graduating with honors, gets a job at a prestigious company as a financial analyst. The author shows the thorny path of a young Pakistani in American society, notes the impact of the events of September 11, 2001 on the course of world politics, and also puts Genghis before a difficult choice between America and his country. Having discussed in detail the training materials used, let's return to the strategies for maintaining motivation. So, in order to maintain a positive social image in students, conditions are needed where they could show their talents and show their strengths. A good way to implement this strategy can be considered dramatizations or performances in which each student can be given the role of the main character in turn.

4. Formation of students' positive attitude to academic performance

It is well known that the way students relate to their past academic achievements largely determines their future approach to completing tasks. It may seem strange, but their assessment of their own academic performance depends not only on the absolute, objective indicator of their success, but also on the subjective interpretation of these results. Using appropriate strategies, a teacher can help his students see their academic

performance in a more positive way to get more satisfaction from success and progress in studies, as well as to find a constructive explanation for failures. The mistakes made should not "stifle" the initiatives of students.

Therefore, the right approach is chosen by those teachers who do not use a red pen or pencil when checking notebooks, since it is very unpleasant for a person to get a job that is full of bright corrections and immediately gives a signal that the result is unsatisfactory. That is, it is already visually possible to negatively adjust the student. While corrections with a simple pencil do not differ so much from the text written with a pen and therefore will not cause a strong negative reaction. It is even worth going from the opposite and emphasizing not only mistakes, but, for example, well-expressed thoughts in an essay, the correct translation of a sentence if it is complex. Thus, students see that the teacher is not only the person who notes mistakes, but also the one who is able to notice and appreciate both the abilities of students and the originality of thought.

CONCLUSION

To conclude, the level of motivation not only characterizes the trainees, but also the teacher, that is, this is what motivates students for any activity. A teaching assistant can open up "new horizons" or prospects for students when mastering a foreign language. Also, during the long-term interaction of the teacher and the student, some personal qualities of the latter may change. It follows from this that motivation is a transitional concept. Moreover, it is dynamic, that is, it can change over time, especially in cases of long-term study of a foreign language language and needs to be maintained. Understanding the concept of motivating teaching and its subsequent application in the practice of teaching a foreign language can significantly increase the effectiveness of the educational process.

REFERENCES

1. Clément, R., Gardner, R. C., & Smythe, P. C. Motivational variables in second language acquisition: A study of francophones learning English // Canadian Journal of Behavioural Science. 1977. № 9. p. 123-133.
2. Clément, R., Dörnyei, Z., Noels, K. A. Motivation, self-confidence and group cohesion in the foreign language classroom // Language Learning. 1994. – vol. 44. p. 417-448.



3. Crookes, G., & Schmidt, R. W. Motivation: Reopening the Research Agenda // Language Learning. 1991. – vol.41.№4. - p. 469-512.

4. Deci, E.L. and Ryan, R.M., Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: Plenum Press, 1985. 371 p.

5. Dörnyei Z., Ottó I. Motivation in action: A process model of L2 motivation // Working Papers in Applied Linguistics. 1998. №4. Thames Valley University, London. p. 43-69.

6. Dörnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press, 2001. 164 p.

7. Dörnyei, Z. The L2 motivational self system. <http://www.zoltandornyei.co.uk/uploads/2009-dornyei-mm.pdf>

8. Dörnyei, Z. Motivation in Second Language Learning. <http://www.zoltandornyei.co.uk/uploads/2014-dornyei-cengage.pdf>

9. Gardner, R. C. Social psychology and second language learning: The role of attitude and motivation. London: Edward Arnold, 1985. 208 p

МУЛЬТИМЕДИИ В РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

С. Х. Конева

Старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низами

АННОТАЦИЯ

Использование новых информационных технологий позволяет существенно повысить интерес обучающихся к учебе, а, следовательно, и улучшить качество знаний обучающихся.

Мультимедийная презентация, методические приёмы использования медийных средств обучения и требования к её созданию.

Ключевые слова: Мультимедийная презентация, педагогика, методика, технология.

ВВЕДЕНИЕ

Презентации - средство развития познавательной активности обучающихся при изучении предмета, наглядность, дающая возможность преподавателю выстроить объяснение на занятии логично, научно с использованием видефрагментов. При такой организации материала включаются следующие виды памяти обучающихся: зрительная, слуховая и моторная. Презентация дает возможность рассмотреть сложный материал поэтапно, обратиться не только к текущему материалу, но и повторить предыдущую тему. При закреплении можно более детально остановиться на сложных вопросах, вызывающих затруднения у обучающихся. Использование анимационных эффектов способствует повышению интереса обучающихся к изучаемой теме.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Мультимедиа в переводе с английского означает «много средств»: звук, видео, графика, текст. Проведение занятий с наглядной компьютерной демонстрацией помогает обучающимся лучше запоминать материал, более глубоко проникать в суть изучаемого вопроса.

Мультимедийная технология - это как объяснительно-иллюстративный метод обучения, основным назначением



которого является организация усвоения обучающимися информации путем сообщения учебного материала и обеспечения его успешного восприятия, усиливающегося при подключении зрительной памяти. С методических позиций мультимедиа имеют следующие демонстрационные преимущества: дозирование информации; предоставление информации в трехмерном пространстве в соответствии с особенностями процесса обучения; безограниченное использование; разнообразные формы организации познавательной деятельности: фронтальная, групповая, индивидуальная; использование различных видео фрагментов, картинки, схемы, диаграммы, показ опытов.

Преобладают три основных способа (подхода) использования мультимедиа на занятии:

1. Иллюстративный (традиционный) - удачно подобранный визуальный ряд иллюстрирует традиционный рассказ преподавателя. Обучающиеся на первых порах заворожено следят за меняющимися по мановению руки преподавателя «картинками», часто при этом, «забывая» воспринимать (а то и просто слушать). Как правило, дальше этого использование мультимедиа не идет. В лучшем случае этот же визуальный ряд затем используется при не менее традиционном опросе или обобщении. К тому же рано или поздно наступает привыкание и восприятие «картинок» тоже притупляется.

2. Схематичный (по Шаталову). В основу обучения положено конструирование опорных конспектов или структурно-логических схем. Использование мультимедиа в данном случае лишь расширяет возможности построения таких схем. Они становятся более наглядными, яркими, дополняются движущимися элементами, все теми же «картинками». В общем, более или менее полно используются возможности программного обеспечения (как правило, Power Point).

3. Интерактивный метод - сочетание в себе элементов иллюстративного и схематичного подходов. Разница заключается в том, что использование разнообразного визуального материала, схем и анимаций сочетается, дополняется привлечением документов, отрывков из разнообразных источников. Как правило, использование такого подхода требует очень высокого уровня компетентности преподавателя. Информация, изображения должны быть яркими, создавать определенный образ эпохи, должны отличаться определенной «символичностью». Но самое главное в таком подходе - высокий уровень

методической обработки материала. Он и дается, собственно, в таком сочетании, чтобы вызвать активность обучающимися, спровоцировать их на сопоставление, размышление, дискуссию.

Мультимедийная презентация наиболее оптимально и эффективно соответствует дидактической цели занятия, которая включает в себя:

1. образовательный аспект - восприятие обучающимися учебного материала, осмысление связей и отношений между объектами изучения;

2. развивающий аспект - развитие у обучающихся познавательного интереса, умения обобщать, анализировать, сравнивать, активизация их творческой деятельности;

3. воспитательный аспект - формирование научного мировоззрения, умения четко организовывать самостоятельную и групповую работу, воспитание чувства взаимовыручки, способности к взаимопомощи.

Слайд-презентации очень удобно использовать при подготовке занятий, так как слайды можно подготовить для занятия в целом или для каждого его этапа. При этом необходимо соблюдать ряд основных требований. Слайд должен содержать минимально возможное количество слов. Для надписей и заголовков следует употреблять четкий крупный шрифт, ограничивать использование текста. Лаконичность - одно из исходных требований при разработке учебных программ. Предпочтительнее выносить на слайд предложения, определения, слова, термины, которые обучающиеся будут записывать в тетради, прочитывать их вслух во время демонстрации презентации.

Для лучшего усвоения обучающимися знаний следует предлагать слайды, оформленные в одном тоне. Для фона лучше использовать спокойные холодные тона: зеленый, фиолетовый, синий. Для оформления фона можно использовать различные картинки, но так, чтобы фоновый рисунок не отвлекал внимание обучающихся от текста.

Чертежи, рисунки, фотографии и другие иллюстративные материалы должны по возможности иметь максимальный размер, равномерно заполнять все экранное поле. Нельзя перегружать слайды зрительной информацией.

Звуковое сопровождение слайдов не должно быть резким, отвлекающим. На просмотр одного слайда следует отводить достаточно времени, чтобы обучающиеся могли сконцентрировать внимание на экранном изображении, проследить последовательность действий, рассмотреть все элементы слайда, зафиксировать конечный

результат, сделать записи. При использовании на занятии мультимедиа ресурсов преподаватель получает возможность легко менять формы учебного взаимодействия с обучающимися. Такие как смена фронтальных, групповых и индивидуальных форм работы с аудиторией, варьирование доли самостоятельности обучающихся, индивидуализация обучения на основе учета познавательного стиля обучающихся, представление обучающемуся возможности работать в индивидуальном темпе и т.п., а также применять новые формы учебного взаимодействия обучающихся между собой.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Преимущества мультимедийных технологий по сравнению с традиционными неоспоримы и многообразны. Такие как наглядное и более доступное представление материала, возможность более эффективной проверки знаний, развитие абстрактного мышления по средству образов, многообразие организационных форм в работе обучающихся и методических приемов в работе преподавателя.

При работе с мультимедиа – технологией можно использовать следующие методические приемы на занятии:

1. Использование мультимедиа преподавателем: отключить звук и попросить обучающегося прокомментировать процесс, остановить кадр и предложить продолжить дальнейшее протекание процесса, попросить объяснить процесс или ответить на сопутствующие вопросы;

2. Использование компьютера обучающимися: при изучении текстового материала можно: заполнить таблицу, составить краткий конспект, найти ответ на вопрос;

3. Контроль знаний: тесты с самопроверкой;

4. Выступление обучающихся с мультимедийной презентацией: развивает речь, мышление, память, учит конкретизировать, выделять главное, устанавливать логические связи;

5. Оказать учебно-методическую помощь обучающимся в самостоятельной работе над учебным материалом,

6. Сформировать навыки самостоятельной работы с учебным материалом с использованием ИКТ;

В связи с разнообразием методических приемов выделяют следующие этапы информатизации преподавания:

1. Использование электронных учебников и образовательных ресурсов на электронных носителях в качестве наглядных пособий, с их иллюстративными, анимационными возможностями;

2. Использование программных ресурсов для создания собственных учебных пособий с помощью программ Microsoft Power Point, Microsoft Publisher, Adobe Photoshop и т.д.;

3. Применение учебных проектов, руководство исследовательской учебной и внеурочной деятельностью обучающихся, участие в дистанционных олимпиадах, конференциях;

4. Создание целостной методической системы, органично включающей все пройденные этапы.

Учитывая все процессы информатизации предмета, информационные компьютерные технологии позволяют решать следующие задачи:

- построить открытую систему образования, обеспечивающую каждому обучающемуся собственную траекторию обучения;
- коренным образом изменить организацию процесса обучения обучающихся, формируя у них системное мышление;
- рационально организовать познавательную деятельность обучающихся;
- использовать компьютеры с целью индивидуализации учебного процесса и обратиться к принципиально новым познавательным средствам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В отличие от обычных технических средств обучения ИКТ позволяют не только насытить обучающегося большим количеством готовых, строго отобранных, соответствующим образом организованных знаний, но и развивать интеллектуальные, творческие способности обучающихся, их умение самостоятельно приобретать новые знания, работать с различными источниками информации.

REFERENCES

1. Educational software components of tomorrow website // <http://www.escot.org>
Бент Б. Андерсен, Катя Ван ден Бринк. Мультимедиа в образовании: специализированный учебный курс. - М.: Дрофа, 2007.

2. Бороненко Т.А., Рыжова Н.И. Методика обучения информатике. Специальная методика: Учебное пособие для студентов. - Санкт-Петербург, РГПУ им. А.И. Герцена, 1999.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. - М.: Академия, 2003.
4. Кречман Д.Л., Пушков А.И. Мультимедиа своими руками. - СПб.: БХВ, 1999.
5. Луговая А.В. К вопросу об отборе содержания обучения мультимедиа технологиям будущих учителей информатики // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия «Информатика и информатизация образования». - М.: МГПУ; Курск: КГУ, 2006. - С. 118-121.
6. Осин А.В. Мультимедиа в образовании: контекст информатизации. - М.: Издательский сервис, 2004.
7. Шафрин Ю.А. Информационные технологии. Ч. 1. - М.: Бином. Лаборатория знаний, 2004.



ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР: ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ

Нилуфар Сабирбаевна Дусчанова

ТАТУ Урганч филиали академик лицейи ўқитувчиси

E-mail: hojamqulov77@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада анъанавий ва замонавий педагогик ёндашувлар асосида олиб бориладиган дарс машғулоти ўзаро солиштирилган. Шунингдек, замонавий педагогик ёндашувларни уйғунлаштириш асосида ташкил қилинадиган дарс машғулотларининг афзалликлари очиқ берилган. Мақоладаги фикрлар умумий характерга эга бўлиб, барча фанлардан ташкил қилинадиган дарс машғулоти татбиқ қилиш мумкин.

Калит сўзлар: анъанавий таълим, шахсга йўналтирилган ёндашув, компетенциявий ёндашув, акмеологик ёндашув.

MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES: A COMPARATIVE ANALYSIS

ABSTRACT

This article compares lessons based on traditional and modern pedagogical approaches. The advantages of lessons based on a combination of modern pedagogical approaches are also revealed. The ideas in the article are of a general nature and can be applied to lessons in all disciplines.

Keywords: traditional education, personality-oriented approach, competence-based approach, acmeological approach.

КИРИШ

Замонавий дунёда жамиятнинг ҳар томонлама ривожланиши таълим мазмуни ва сифати билан боғлиқ эканлиги ўз исботини топиб бормокда. Бутун дунёда юз бераётган глобаллашув жараёнларининг таълим соҳасига ҳам жадал суръатларда кириб келиши, ахборот оқимининг кўплиги, инновацион технологияларнинг шиддатли ривожланиши, албатта, таълим мазмунида ҳам шунга мос ўзгаришлар бўлишини тақозо қилади. Таълимнинг бугунги кундаги вазифаси соҳага қўйилган давлат сиёсатини амалга ошириш, кадрлар тайёрлаш бўйича давлат талабларни сифатли бажариш, ўқув адабиётларининг замонавий авлодини яратиш,



ўқитувчи-мураббийларнинг методикасини узлуксиз такомиллаштириш, ўқувчиларга шахсга йўналтирилган таълим технологиялари асосида дарс бериш каби педагогиканинг методологик аҳамиятга эга муаммолари билан бевосита боғлиқ. Ушбу муаммоларнинг ҳал қилиниши таълим мазмунига қўйилаётган давлат талабининг сифатли бажарилишини таъминлайди, таълим беришнинг асосий концептуал масалаларининг ижобий ечимига сабаб бўлади. Бу эса фан методологияси ва методологик тадқиқи билан боғлиқ жараёнлардир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Умуман, методология тадқиқи рационал ёндашиладиган, мураккаб, кўпқиррали илмий-ижодий фаолиятдир. Фан методологиясининг тадқиқи унинг ривожланиш қонуниятлари, объектни илмий концепция нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш бўйича мураккаб саволларга жавоб топишга ёрдам беради. Фан методологияси борасидаги фикрлар “методология”, “тадқиқот методи” ва “методика” тушунчаларининг ўзаро муносабатида диалектик алоқадорликни юзага келтиради.

Методология тадқиқотчининг назарий ва амалий фаолиятини ташкил этиш, тиклаш тамойиллари ва усуллари тизими ҳамда бундай тизим ҳақидаги таълимотдир.¹ Методологияни методлар ҳақидаги таълимот ёки ялпи-умумий билиш методи ёки воқеа ва ҳодисаларни илмий билиш, унинг моҳиятини англаш ва уни ўзгартиришнинг алгоритмидир, дейиш ҳам мумкин. Умуман, методология методларга ва воқеликка қандай ёндашиш йўлини ўргатади. Демак муайян фаннинг назарий ва амалий қонуниятларига ёндашув усуллари, уни тадқиқ этиш методлари тизими методология тушунчаси остида ойдинлашади.

Тадқиқот методи ўрганилаётган ҳодисанинг моҳияти ҳақидаги умумий назарий ғоялардан келиб чиқадиган тадқиқот йўлидир. Тадқиқот методлари тадқиқотчига ўрганилаётган объектни белгиланган мақсадга мувофиқ тадқиқ этишнинг энг оқилона усуллари тизимидир. Тадқиқот методлари учта йирик турга бўлинади: 1. Эмперик тадқиқот методлари. 2. Эмперик-назарий тадқиқот методлари. 3. Назарий тадқиқот методлари.

Методика ҳар қандай мақсадли ҳаракатларни амалга ошириш тартиби, тайёр алгоритмидир. Методика усул ва вазифаларни аниқ қўйиши билан методдан фарқ қилади.

¹ Тўраев Б. У ким, бу нима? Методология. qomus.info.
онлайн энциклопедия. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/metodologiya-uz/>



Фаннинг методологик тадқиқида бу тушунчалар ўз даражасига эга. Методология ушбу тушунчаларнинг асосини ташкил қилади. Метод учун методика, методика учун тадқиқот методлари ва ўз навбатида тадқиқот методлари учун методология асос вазифасини бажаради.

Замонавий педагогик ёндашувлар ва педагогиканинг замонавий парадигмалари муаммоси мамлакатимизда Б.Ходжаев, Л.Г.Бобоходжаева, Х.А.Шайхова, Г.Ҳ.Тиллаева, Н.Индиаминов, Б.Бабажанов каби тадқиқотчиларнинг; хорижда И.С.Якиманская. С.Морозов, Д.Смолякова, Н.Мeyer, А.Кlapper каби олимларнинг ишларида ёритилган.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Педагогика фани ижтимоий онг шаклларида бири сифатида доимо ўсиш, ўзгариш ва такомиллашишда давом этмоқда. Ҳар бир даврнинг ўз ўрганиш муаммолари, унга ёндашув усуллари, илмий тадқиқот методологияси бир-биридан фарқ қилади. Айни пайтда ҳар бир давр учун умумий қонуниятлар мавжудки, улар методологиянинг таянч тамойиллари ва концепциясини ташкил қилади.

Шахсга йўналтирилган таълим технологиясида инсонпарварлик ғояси педагогика ва психология билан бирлашиб, муайян уйғунликни намоён қилади. Мазкур технологиянинг самарали ишлаши учун ўқувчи иқтидори муҳим аҳамиятга эга. Анъанавий педагогик технологиялардан фарқли равишда шахс йўналтирилган таълим технологиясининг марказида ўзининг максимал имкониятларини ишга солиб билим олишга интилиш, янги тажриба-синовларни қабул қила олиш, ҳар хил вазиятларда мустақил қарор қила олиш, ностандарт фиклаш каби фазилатларга эга ўқувчи шахси туради.

Шахсга йўналтирилган таълим қуйидаги хусусиятларга эга:

- ўқувчиларнинг таълимдаги мустақиллигини таъминлаш, улар учун маъқул бўлган методларни танлаш;
- ўқувчиларнинг мавжуд билим ҳамда салоҳиятларига, тажрибаларига ишонч билдириш;
- ўқувчиларнинг ижтимоий хусусиятлари ва турмуш тарзини ҳисобга олган ҳолда ўз “мен”ини намоён қилишга бўлган интилишини рағбатлантириш;
- ўқувчиларнинг эмоционал ҳолати, шунингдек, уларнинг маънавий-ахлоқий қадриятларини ҳисобга олиш;

- ўқувчиларнинг таълим олиш стратегиясига хос бўлган ўқув кўникмаларини мақсадли шакллантириш;
- таълим жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи вазифаларини қайта тақсимлаш: ўқитувчининг етакчилик ролини чеклаш, унга ёрдамчи, маслаҳатчи сифатида қараш.

Шахсга йўналтирилган таълим технологиясининг асосий тамойили ўқувчи шахсиятидаги индивидуалликни тан олишдир. Шахс йўналтирилган таълим ёндашуви вариантлик ва ақл тавсифи тамойиллари асосида иш кўради. Бунда **вариантлик** ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятлари ва тажрибаларига қараб барча учун бир хил бўлмаган таълимнинг турли моделларидан фойдаланиш (ушбу тамойилнинг татбиқи бўйича масъулият ўқитувчида қолади.) ни аниқлаш, **ақл тавсифи** бу ўқувчиларнинг билиш, биргаликда ҳаракат қилиш ва борлиқни эмоционал ўзлаштириш жараёнига қаратилган технологиядир.

Шахсга йўналтирилган таълим модели боланинг шахсий хусусиятларини очиқ бериш ва ривожлантириш учун зарур шарт-шароитларни (ижтимоий, педагогик) яратишга қаратилган. Бу моделда асосий тушунчалар қуйидагилар: талабанинг субъект сифатидаги тажрибаси, шахсий ривожланиш траекторияси ва ақлий танлов.

Шахсга йўналтирилган таълимнинг анъанавий таълимдан фарқи қуйидагилардан иборат (1-расм):

Анъанавий ёндашув	Шахсга йўналтирилган ёндашув
Таълимга муайян қолипга туширилган жараён сифатида қаралади (ўзининг аниқ тартиб-қоидаларига эга)	Таълим ўқувчига индивидуал муносабат, уни шахс сифатида такомиллаштириш бўйича педагогик қўллаб-қувватлашга қаратилади
Ўқувчининг ривожланиш вектори олдиндан ўрнатилган бўлади	Ўқитиш учун зарур бўлган ривожланиш векторини олдиндан белгиламайди, балки ривожланиш вектори учун барча зарур шарт-шароитларни яратади

Барча учун умумий, ягона ва мажбурий бўлган ақлий ривожланиш йўли белгиланади	Ҳар бир ўқувчининг мавжуд салоҳиятидан келиб чиқиб индивидуал қобилиятларини такомиллаштириш, шахс сифатида ривожланишига кўмаклашиш
Таълимнинг ривожланиш вектори олдиндан белгиланади	Ривожланиш вектори талабанинг ривожланишига ёрдам берувчи педагогик таъсирларни аниқлашга қурилади
Таълимга олдиндан белгиланган хусусиятларга эга шахсни шакллантириш вазифаси қўйилади	Таълимга ўқувчининг шахсий ривожланишини таъминлаш, стратегик фаолият қобилиятини ривожлантириш, ижодкорлик, танқидий фикрлаш тизими, ўз-ўзини аниқлаш қобилияти, ўз-ўзини ривожлантириш, ижобий “Мен”ини англаш вазифаси қўйилади

1-расм. Шахсга йўналтирилган таълимнинг анъанавий таълимдан фарқи

Шахсга йўналтирилган ёндашув асосидаги педагогик технологиялар қуйидагилар:

- Шахсга йўналтирилган таълим (Якиманская И.С.).
- Ўз-ўзини ривожлантириш таълим технологияси (Селевко Г.К.).
- Инсонпарвар шахсият технологияси.
- Ўйин технологиялари.
- Индивидуал таълим технологияси (Амноашвили. Ш.А.).

Шахсга йўналтирилган дарс машғулоти анъанавий дарсдан, аввало, ўқитувчи-ўқувчиларнинг ўзаро муносабатлар турини ўзгартириши билан фарқланади. Жамоавий ёндашув услубидан ўқитувчи ҳамкорлик услубига ўтади, ўқувчининг фаолият жараёни сифати натижаларнинг кўплигига эмас, балки таҳлилга кўпроқ эътибор қаратилиши билан ажралиб туради. Ўқувчи дарс жараёнида тиришқоқ таълим олувчидан ижодкор таълим олувчига ўзгаради. Дарс жараёни ривожлантируви мақсадининг хусусиятлари ҳам ўзгаради. Энг асосийси, ўқитувчи вазифаси нафақат билим бериш, балки ўқувчилар шахсининг ривожланиши учун муносиб шароит яратишдан ҳам иборат бўлади.



Қуйида анъанавий ва шахсга йўналтирилган дарслар ўртасидаги асосий фарқлар кўрсатилган (2-расм).

Анъанавий дарс	Шахсга йўналтирилган дарс
Барча болаларга билим, кўникма ва малакаларнинг белгиланган миқдорини ўргатади	Ҳар бир боланинг ўз шахсий тажрибасининг самарали тўпланишига кўмаклашади
Ўқув вазифаларини, болаларнинг иш шаклини белгилайди ва уларга топшириқларни тўғри бажариш намунасини кўрсатади	Болаларга турли тарбиявий вазифалар ва иш шакллари танлашни таклиф этади, болаларни бу вазифаларни ҳал этиш йўллари мустақил топишга ундайди
Болаларни ўзи таклиф этаётган ўқув материалга қизиқтиришга ҳаракат қилади	Болаларнинг реал манфаатларини аниқлаш ва улар билан ўқув материални танлаш ва ташкил этишни мувофиқлаштиришга интилади
Иқтидорли болалар билан индивидуал машғулотлар олиб боради	Ҳар бир бола билан индивидуал иш олиб боради
Болалар фаолиятини режалаштиради ва бошқаради	Болаларнинг ўз фаолиятини режалаштиришига ёрдам беради
Болалар иши натижаларини баҳолайди, йўл қўйилган хатоларни қайд этади ва тузатади	Болаларни ўз ишлари натижаларини мустақил баҳолашга ва йўл қўйилган хатоларни тузатишга ундайди
Синфдаги хулқ-атвор қоидаларини аниқлайди ва уларнинг болаларга мослигини назорат қилади	Болаларни хулқ-атвор қоидаларини мустақил ишлаб чиқишга ва уларнинг мувофиқлигини назорат қилишга ўргатади
Болалар ўртасида пайдо бўлган низоларни ҳал қилади: айбсизларни рағбатлантиради ва айбдорларни жазолайди	Болаларни улар ўртасида юзага келадиган низоли вазиятларни муҳокама қилишга ва уларни ҳал қилиш йўллари мустақил излашга ундайди

2-расм. Анъанавий ва шахсга йўналтирилган дарслар ўртасидаги асосий фарқлар

Ўқитувчининг дарс машғулотигади шахсга йўналтириш фаолияти йўналишлари:

- дарс давомида барча ўқувчиларнинг меҳнатига нисбатан ижобий эмоционал муносабатни яратиш;
- ўқувчиларга дарс бошида нафақат мавзу, балки дарс давомида ўқув фаолиятини ташкил этиш бўйича маълумот бериш;
- ўқувчиларга ўқув материалнинг тури ва шаклини (оғзаки, график, шартли-мажозий) танлашга имкон берувчи технологиялардан фойдаланиш;
- муаммоли ижодий вазифалардан фойдаланиш;
- ўқувчиларни топшириқларни бажаришнинг турли йўллари танлаш ва мустақил ишлатишга ундаш;
- дарс машғулотига жавоб берган ўқувчиларни баҳолаш (рағбатлантириш) да уларнинг нафақат тўғри жавоблари, балки қандай мулоҳаза юритгани, қандай усулдан фойдалангани, нима учун хато қилгани ва бунга олиб келган сабабларни таҳлил қилиш;
- дарс охирида болалар билан нафақат нималарни ўрганганини муҳокама қилиш, балки дарс жараёнида нималар маъқул (ёки номаъқул) бўлгани ва яна нимани хоҳлашларини, қанақа йўللاردан фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги ҳақида ўқувчиларнинг фикрини ўрганиш;
- дарс охирида ўқувчига берилган баҳони турли параметрларда: тўғрилиқ, мустақиллик, оригиналлик, ижодий ёндашгалиқ бўйича изоҳлаш;
- уй вазифаси топшириғини фақат мавзу ва топшириқлар доирасини белгилаб бериш билан эмас, балки уни бажаришнинг оқилона йўллари хам тушунтириш.

Бундай дарс машғулотларида фойдаланиладиган дидактик материалнинг мақсади ўқув дастурини ишлаб чиқиш, ўқувчиларга керакли билим, кўникма ва малакаларни ўргатишдан иборат.

Шахсга йўналтирилган таълимда дидактик материалнинг турлари ўқув матнлари, топшириқ карточкалари, дидактик тест кабилардан иборат. Вазифалар мавзу бўйича, мураккаблиқ даражаси бўйича, фойдаланиш мақсади бўйича кўп даражали, табақалаштирилган, индивидуал ёндашув, ўқувчи ўқув фаолиятининг етакчи турини (когнитив, коммуникатив, ижодий) ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилади.

Бу ёндашувнинг марказида билим, кўникма, малакаларни ўзлаштиришда эришилганлик даражасини баҳолаш қобилияти туради. Ўқитувчи ўқувчилар ўртасида



карточкаларни тарқатади, уларнинг билиш хусусиятлари ва имкониятларини билиб олади, нафақат билим олиш даражасини аниқлайди, балки ҳар бир ўқувчининг шахсий хусусиятларини ҳисобга олади, фаолиятнинг шакл ва усулларини танлаш орқали унинг ривожланиши учун энг муносиб шароитни яратади.

Шахсга йўналтирилган таълим технологияси ўқув матни, ундан фойдаланиш учун дидактик ва методик материаллар, ўқув мулоқоти турлари, ўқувчининг шахсий ривожланишини назорат қилиш шакллари махсус қуришни ўз ичига олади.

Ўқувчиларнинг олган билимлари кундалик ҳаётнинг реал вазиятларида фойдаланишлари учун асқотиши керак. Бунинг учун таълимда компетенциявий ёндашувни қўллаш мақсадга мувофиқ. “Компетенция” лотин тилидан олинган бўлиб, “ўз касбига яроқли, лойиқ” деган маънони англатади. Компетенция нафақат олинган назарий билим, кўникма ва малакаларнинг мажмуаси, балки эгалланган назарий ва амалий билим, кўникма ва малакалар мажмуини амалиётга мустақил ва ижодий қўллай олиш даражасидир. Шу пайтгча илмий адабиётларда мавжуд бўлган “профессионализм” тушунчаси эндиликда “компетенция” тушунчаси билан ўрин алмашмоқда. “Профессионализм” тушунчаси фақат муайян фан ёки соҳа бўйича чуқур малакага эга бўлишдир. “Компетенция” тушунчаси эса нафақат касбий малакаларни, балки психологик ва қисман фалсафий билим, кўникма ва малакаларни ҳам эгаллаш зарурлигини тақозо қилади. Компетенциянинг амалий аҳамияти касбий билимлар ва танланган фан бўйича фаолият юритиш учун зарур малакалар йиғиндисиде кўзга ташланади.

Бугунги кунда педагогика назарияси ва амалиётида “компетентлик” ва “компетенция” тушунчалари ўзаро муқобил тушунчалар сифатида ишлатилади. Аслида бу иккита тушунча бир-биридан фарқ қилади. Компетенция ўқувчи ёки ходимнинг касбий таёргарлик даражасига қўйилган талабни, компетентлик эса ўқувчи ёки ходимнинг худди шу талабларга жавоб берувчи сифатни англатади. Немис олими Хилберт Мейр ўқувчи ва ўқитувчининг компетенцияларини ўзаро фарқлайди ва бу атамани, айниқса, ўқувчига йўналтириш лозимлигини таъкидлайди:

– компетентли ўқувчи “қуруқ билим” соҳиби бўлиб қолмасдан, ўз билимларидан юзага келадиган вазиятларда етарлича фойдалана олади, у хотирасида тез тикланадиган (фаол) билимлар мазмунига эга.

– компетентли ўқитувчи эса педагогик фаолиятида ўзига ишонган ҳолда, ўзини қийнамасдан (соғлигини асраган ҳолда) назокат билан дарс бера олади. Бундан ташқари, у таълимдаги қийинчиликларни англаган ҳолда ўз устида ишлашга тайёр туради.

Компетенция сўзининг умумийлик маъноси, унинг муайян системани ташкил қилиши, бу системадаги тушунчаларни алоҳида ажратиб олган ҳолда машқ қилиб бўлмаслиги, бир сўз билан айтганда, унинг қобилиятлар жамламаси эканлиги эътироф этилган.²

Америкалик олим Ж. Равен компетентлиликнинг 37 турини таъкидлаб ўтади.³

Компетенциявий таълим амалиётга йўналтирилган таълим бўлиб, анъанавий таълимдан муайян хусусиятларига кўра фарқ қилади. Бу фарқларни қуйидагиларда кўриш мумкин: 1. Анъанавий таълимда ўқувчи объект, компетенциявий таълимда эса субъект. 2. Анъанавий таълимда ўқитувчи асосий билим берувчи, компетенциявий таълимда модератор, фасцилитатор. 3. Анъанавий таълимда ўқитувчининг етакчилигига асосланган методлар, компетенциявий таълимда эса интерактив методлар. 4. Анъанавий таълимда маъруза машғулоти вербал усулда, компетенциявий таълимда интерактив усулда амалга оширилади.

Таълимга компетенциявий ёндашувда фақат таълимнинг мазмуни эмас, уни ташкил этиш жараёнлари, воситалари, технологиялари ҳам ўзгаради. Мазкур ёндашув ўқувчининг билим, кўникма, малака каби сифатлари билан бирга унинг шахсий сифатларини ҳам такомиллаштиришга қаратилади.

Бугунги кун педагогикасида таълим самарадорлигини оширишга қаратилган янги ёндашувлардан яна бири акмеологик ёндашув ҳисобланади. Унинг асосий вазифаси таълим ва тарбия жараёнининг юксак поғонага кўтарилишдаги турли жиҳатларини ўрганишдан иборат. Акмеологиянинг мазмун-моҳияти инсоннинг ҳар-бир касб-хунарни билим орқали чуқур эгаллаши, унинг жамият ривожини, миллат равнақини, турмуш фаровонлигини ҳамда ижтимоий тараққиётнинг иқтисодий, сиёсий, маънавий-ҳуқуқий жиҳатларига ижобий таъсирини кучайтиришга хизмат қилишини чуқур англаш, ўз ижодий

² Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009

³ Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009

фаолиятини, касб-хунар соҳасидаги бурч ва масъулиятини адо этишга сарфлаш мақсадида мукамаллик ва камолотга эришишни ўрганишдан иборат.⁴

Г.Ҳ.Тиллаеванинг фикрича эса “Акмеология табиий, умумжамоа ва инсоний қоидалар асосида касбий маҳоратнинг юксак муваффақиятга эришиш ҳақидаги фандир ва инсоннинг етуклик босқичида ривожланиш қонунлари ва механизмини ҳамда асосан бунданда юксакроқ даражаларни эгаллаш феноменологиясини ўрганади.⁵

Умуман, акмеология бирор касбга, бирор соҳага меҳр қўйиб, билим ва тажрибага таяниб, мақсад сари интилиб яшашни англатади.

Акмеологик ёндашувга асосланган таълимнинг афзалликлари қуйидагилардан иборат:

- касбий кўникмаларни муваффақиятли эгаллашга эришиш, меҳнат фаолиятига кўникиш даврини қисқартириш, таълим ва тарбиянинг узвийлигини таъминлаш;

- ўқувчиларда қайта фикрлаш, ижодий ва ностандарт тафаккур тарзи, таълимнинг ички эҳтиёжга айланишига эришиш кўникмаларининг шаклланиши.

Таълимда акмеологик ёндашувнинг мақсади ҳар қандай ҳаётий вазиятларда ўқувчининг мустақил ва тўғри қарор қабул қилишга ўргатиш, ижодий ва креатив фикрлаш қобилиятини ривожлантиришдан иборат.

Адабиётларда ушбу замонавий ёндашувларнинг ҳар бири ўзига хос белги ва хусусиятларга эга алоҳида технологиялар эканлиги айтиб ўтилган.⁶ Мазкур замонавий ёндашувлар таълимни ўқувчи шахсига йўналтириш билан боғлиқ умумий хусусиятларга эга. Шу жиҳатдан олиб қаралганда компетенциявий, акмеологик ва эврестик методларни алоҳида белгиларга эга ёндашувлар сифатида “шахсга йўналтирилган таълим технология” тушунчасида бирлаштириш ҳам мумкин.

Дарс машғулоти ижодий ва интеллектуал жараён бўлиб, уни муайян ёндашув ва қолипларга солиш, олдиндан режалаштирилган вазиятларни тўлиқ идора қилиш, ўқувчиларга нисбатан бир хил методикада ёндашиш қутилган натижани бермайди. Таълимда шахсга йўналтирилган, компетенцияли ёки

⁴ Шайхова Х.А. Маънавият – камолот кўзгуси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009, -Б. 115.

⁵ Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 31-бет.

⁶ Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 192.;

Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18-22 бетлар; Основы

личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином.

Лаборатория знаний», 2011; Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ.Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5.



акмеологик ёндашувлар педагогик жараёнга нисбатан умумий ёндашувни белгилаб бериши билан аҳамиятли. Аммо дарс машғулоти фақат муайян бир ёндашув асосига қуриш мақсадга мувофиқ эмас. Ҳар бир дарс машғулоти мавзу, вазият ва руҳий ҳолат нуқтаи назаридан алоҳида мустақил ҳодисалар бўлиб, унда умумий ёндашув тамойилларини сақлаган ҳолда мавжуд вазиятга мос метод ва усулларни қўллаш ўқитувчининг педагогик маҳоратига боғлиқ. Шу жиҳатдан олиб қаралганда, муайян дарс машғулоти ёки умуман таълим жараёнини уйғунлашган (аралаш) таълим ёндашувларига асосан олиб бориш ўқитувчининг дарс машғулотида кўзлаган мақсадига эришувини таъминлашга хизмат қилади.

Таълимда шахсга йўналтирилган, компетенциявий ва акмеологик ёндашувлар ёндашувлар ўзаро бир-бирини тўлдиради. Мазкур ёндашувларни бирлаштирувчи жиҳатлар қуйидагилардан иборат:

- анъанавий таълимнинг мақбул томонларини сақлаган ҳолда унга дарс машғулотида ўқувчини фаоллаштириш билан боғлиқ янги методларни киритиш;
- ўқувчи билан индивидуал тартибда ишлаш метод ва технологияларини такомиллаштириш;
- машғулотлардаги назарий билимларнинг амалий аҳамиятига эътиборни кучайтириш;
- машғулот жараёнида ўқитувчининг авторитар фаоллигини камайтириш, унинг модиратор, ташкил қилувчи ва маслаҳатчи сифатидаги фаоллигини ошириш;
- ўқувчиларнинг мустақил ишлашлари, берилган топшириқларга нисбатан ижодий ёндашиш кўникмаларини шакллантириш;
- таълим жараёни субъекти ва объекти ўртасида интерактив муносабатни йўлга қўйиш;
- ўқувчи шахсини таълим жараёнининг марказига қўйиш;
- таълимни жараёнини ташкил қилишда муайян қолиплардан фойдаланмаслик;
- таълимга ижодий жараён сифатида қараш.

Ушбу умумий жиҳатлар мазкур ёндашувларни таълим жараёнида аралаш (уйғунлашган) ҳолда қўллаш тўғрисидаги назариянинг тўғри эканлигини асослайди. Бу жараёнда замонавий технологияларнинг белгиларида ўзаро сингишишни кузатиш мумкин (3 ва 4-расмлар)

Мазкур ёндашувлар асосида таълим жараёнини ташкил қилиш, албатта, шунга мос муҳитни шакллантиришни тақозо қилади. Бунинг учун, аввало, ўқитувчининг ўзи, ўқувчилар жамоаси ушбу ёндашувларнинг моҳиятини англаб олишлари лозим. Замонавий методик ёндашувлар муҳити синфда ва ундан ташқарида бўлган барча жараёнларни қамраб олиши лозим.



3-расм. Шахсга йўналтирилган ва компетенциявий ёндашувларнинг уйғунлиги



4-расм. Шахсга йўналтирилган ва акмеологик ёндашувларнинг уйғунлиги

Замонавий методик ёндашувлар ҳамкорлик технологиясига асосланади. Мазкур технология таълим берувчи ва олувчи ўртасидаги тенглик, демократия ва субъектлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни маъқуллайди. Ҳамкорлик технологиясига асосланган ва замонавий ёндашувларни уйғунлаштириб ташкил қилинган дарс машғулотларида қуйидаги метод ва технологиялардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ: “Танқидий тафаккур”, “Жамоада ўқитиш”, “Кичик гуруҳларда ҳамкорликда ўқитиш”, “Кичик гуруҳларда ижодий изланишни ташкил этиш”, “Нуктаи назаринг бўлсин”, “Биргаликда ўқиймиз”, “Ўз ўрнингни топ” ва ҳоказо. Мазкур метод ва технологиялар ўқувчи шахсидаги ўз-ўзини баҳолаш, иқтидорни рўёбга чиқариш, танқидий тафаккур, муайян компетентликни шакллантириш ва ҳодиса ва жараёнларга нисбатан креатив ёндашув, тез ва тўғри қарор қабул қилиш кўникмаларини шакллантиришга ёрдам беради.



ХУЛОСА

Умуман, бугунги кун педагогикасида билимлар ўргатишдан кўра уларни ўрганишга ўргатиш кўпроқ аҳамиятли ҳисобланади. Анъанавий таълимдаги ўқувчиларга тайёр билимларни ўргатиш уларда масала ва ҳодисалар моҳиятини англашга нисбатан ижодий ёндашувни назарда тутмайди, фақат мавжуд билимларни ёдлаш, уларни амалиётга жорий этиш билан чекланади. Аммо билим олиш жараёни икки босқичдан иборатлигини: биринчи босқич билимларни эгаллаш, иккинчи босқич ундан хулосалар чиқариш ва амалиётда қўллаш эканлигини ҳисобга олсак, бу усул тугалланмаган методика сифатида ўзини оқламаслиги маълум бўлади. Билим билим учун хизмат қилмас экан, унинг оддий информациядан фарқи қолмайди. Таълимда замонавий ёндашувлар сифатида қаралаётган шахсга йўналтирилган, компетенциявий ва акмеологик ёндашувлар мазкур тумтоқ методикага қарши қўйилади. Уларга ўқувчиларнинг шахс ва муайян касб эгаси сифатидаги компетенциявий шакллантириш билан боғлиқ қатор муаммоларнинг илмий ва амалий ечими сифатида қараш, таълим жараёнига татбиқ этиш, шубҳасиз, таълимнинг олдида қўйилган замонавий талабларнинг қондирилишини таъминлайди.

REFERENCES

1. Тўраев Б. У ким, бу нима? Методология. qomus.info. онлайн энциклопедия. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/metodologiya-uz/>
2. Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009
3. Шайхова Х.А. Маънавият – камолот кўзгуси. – Т,: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009, -Б. 115.
4. Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари. – Т,: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 31-бет.
5. Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18-22 бетлар;
6. И.С.Якиманская / Основы личностно-ориентированного образования. / – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011;
7. Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ. Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5.

МОДУЛЛИ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЛАБОРАТОРИЯСИ ВА АДАБИЙ ТАЪЛИМ

Шахло Исамиддиновна Ботирова

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти профессори,
педагогика фанлар доктори (DSc)

АННОТАЦИЯ

Педагогик таълим инновацион кластери доирасида Чирчиқ давлат педагогика институти мактабгача таълим муассасалари фаолиятини ичдан ўрганиш, у ердаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш мақсадида “Модулли мактабгача таълим лаборатория” инновацион тажриба майдончалари фаолияти йўлга қўйилди. Мақолада модулли мактабгача таълим лабораторияси лоҳияси кенг ёритиб берилган ҳамда унда адабий таълимнинг аҳамияти муҳокама қилинган. Модулли мактабгача таълим лабораториясида адабий таълим машғулотларини педагогик таълим кластери воситасида ташкил қилиш объект (тарбияланувчилар) учун кенг имкониятларни яратиши таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: модул, мактабгача таълим, лаборатория, педагогик таълим инновацион кластери, адабий таълим.

КИРИШ

Таълим тизимида мактабгача таълим босқичи энг муҳим бўғинлардан бири ҳисобланади. Аммо йиллар давомида ушбу таълим босқичини ислоҳ қилиш, мактабгача таълим муассасаларига қамровни ошириш, уларнинг моддий-техник базасини замон талабларига мослаштириш масаласига кам эътибор қаратилди. 2017 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3305-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирлигини ташкил этиш тўғрисида” Президент Қароридан кейин таълим тизимининг қуйи бўғинига эътибор кучайди. Бунинг натижасида фарзандларимизни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси кескин ошмоқда.

Педагогикага тегишли адабиётларда қобилият инсоннинг шахсий салоҳияти, имкониятлари эканлиги айтилади. Дарҳақиқат, қобилият билимдан кескин фарқланади: билим мутолаа натижаси ҳисобланади, қобилият эса шахсининг психологик ва физиологик тузилишининг хусусияти саналади. Қобилият инсон томонидан кўникма ва малакаларнинг эгалланиши жараёнида такомиллашиб боради.



Ҳар қандай қобилият тури шахсга тегишли мураккаб психологик тушунчадан ташкил топган бўлиб, у фаолиятнинг талабларига мутаносиб хусусиятлар тизимини ўз ичига олади. Шу боис қобилият деганда бирорта хусусиятнинг ўзини эмас, балки шахс фаолиятининг талабларига жавоб бера оладиган ва шу фаолиятда юқори кўрсаткичларга эришишни таъминлашга имконият берадиган хусусиятлар синтезини тушунмоқ лозим.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Педагогик таълим инновацион кластери доирасида Чирчиқ давлат педагогика институти мактабгача таълим муассасалари фаолиятини ичдан ўрганиш, у ердаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш мақсадида “Модулли мактабгача таълим лаборатория” инновацион тажриба майдончалари фаолияти йўлга қўйилди. Бундай тажриба майдончалари институтнинг профессор-ўқитувчилари талабалар билан биргаликда муайян муаммонинг ечимига қаратилган илмий лойиҳалар устида иш олиб бориш имкониятини беради. “Модулли мактабгача таълим лаборатория”ларида институтнинг илмий салоҳияти ва мактабгача таълим муассасалари тарбиячи-педагоглариининг тажрибасини бирлаштириш орқали натижага эришиш назарда тутилган.

Педагогик таълим инновацион кластери амалий лойиҳа доирасида таълим турларининг ўзаро ҳамкорлиги ва интеграциясини таъминлаш билан боғлиқ илмий тадқиқот йўналишларини белгилаб олиш мақсадга мувофиқ. Хусусан, тадқиқотимиз натижаларига кўра “Модулли мактабгача таълим лабораторияси” лойиҳаси доирасида қуйидаги йўналишларда тадқиқотлар олиб борилиши мақсадга мувофиқ деб топилди:

1. Мактабгача таълим йўналишида дуал таълимнинг илмий-педагогик асосларини яратиш.
2. Мактабгача таълим ёшидаги болалар психологияси ва қобилиятларини аниқлаш.
3. Тарбияланувчиларнинг жисмоний ва ақлий ўсиш динамикаси мониторинги.
4. Мактабгача таълим тизимида мавжуд муаммоларнинг ечимига доир илмий-амалий лойиҳаларни тажриба-синовдан ўтказиш.

Мактабгача таълим ўзига хос ёндашувни талаб қилади. *Катта ёшдагилар қийинчилик билан ўрганадиган нарсаларни, болалар ўйнаб илғаб олишади. Ушбу жараённинг асоси айнан таълимни ўз вақтида бера бошлашдадир. Сўнгги*



тадқиқотларда инсон миясининг имкониятлари ниҳоятда кенглиги, таълим ва тарбия болага қанчалик эрта берилса, у шунчалик ўзининг ижобий самарасини бериши исботланмоқда.

“Модулли мактабгача таълим лаборатория”ларда амалга оширилаётган лойиҳалар бола руҳияти ва имкониятлари билан боғлиқ юқоридаги тадқиқотлар самарасига бизни яқинлаштиради, масалани бевосита кузатиш жараёнида тадқиқ этиш имкониятини беради.

Педагогик таълимнинг жамият барқарор ривожланишидаги юқори ижтимоий аҳамияти билан боғлиқ замонавий талаблар, тизимдаги муаммолар ва уларни ҳал қилишда таълим, фан ва ишлаб чиқариш бўғинлари ўртасидаги ўзаро яқдилликнинг етишмаслиги бугунги кунда узлуксиз педагогик таълимни кластер ривожланиш моделига ўтказиш заруратини тақозо этмоқда. Педагогик таълим инновацион кластери муайян географик ҳудуднинг рақобатбардош педагог кадрларга бўлган эҳтиёжларини қондириш мақсадида бир-бири билан узвий алоқадаги тенг ҳуқуқли алоҳида таълим субъектларининг, технологияларнинг ва инсон ресурсларининг интеграциялашувини кучайтирувчи механизм бўлиб, у инновация ва интеграция жараёнлари билан бевосита боғлиқ.

Модулли мактабгача таълим лабораторияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” ҳамда мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналишлари ва асосий принциплари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, ҳозирги мураккаб глобаллашув шароитида мактабгача таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш билан боғлиқ долзарб вазифалар ҳамда уларни ҳал этишнинг усул ва йўллари илмий нуқтаи назардан тадқиқ этиш, соҳага инновацион технологияларни жалб қилиш ва таълим турлари ўртасидаги муносабатларни педагогик таълим кластер методи асосида ривожлантириш мақсадларини кўзлайди.

Педагогик таълим инновацион кластери бир гуруҳ таълим субъектларининг инновацион маҳсулотни яратишга ва унинг рақобатбардошлигини оширишга имкон берадиган янги тизим бўлиб, у соҳанинг миллий ва минтақавий даражада ривожланиши учун кучли рағбат беради. Шунга кўра кластер ёндашуви фан ва таълимни, пировардида, амалиётда жамиятни



ривожлантириш учун янги имкониятларни излаш ва уларни амалиётга татбиқ этиш имкониятини беради. Кластер доирасида бир нечта субъектларни ўзаро интеграциялаш жараёни мураккаб, кўп тармоқли илмий-амалий жараёндир. Ўзаро боғлиқ бир нечта фаолият турларини умумий мақсад атрофида бирлаштириш аниқ ҳисоб-китобларни ва илмий ечимларни, натижаси кафолатланган лойиҳаларни талаб қилади ва шундагина кластер субъектларининг ишончини қозонади. Шундай экан, педагогик таълим инновацион кластери доирасидаги илмий-педагогик лойиҳаларни амалда синаб кўриш муайян тажриба-майдончалари бўлишини талаб этади. Мактабгача таълим модулли лабораториси бу борада асосий бўғинлардан бири ҳисобланади.

Лойиҳанинг долзарблиги ва илмий янгилиги. Мамлакатимиз мактабгача таълим тизимида мавжуд камчиликлар, мактабгача ёшдаги болаларни қамраб олиш кўрсаткичларининг пастлиги ва муассасаларда таълим ва тарбия жараёни сифатининг пастлиги бугунги кунда мактабгача таълим муассасалари фаолиятини тубдан такомиллаштиришни тақозо қилмоқда. Узоқ йиллар давомида мазкур соҳага кам эътибор қаратилиши натижасида соҳани илмий тадқиқ этиш борасида ҳам турғунлик даври кузатилди. Мактабгача таълим муассасалари учун тарбиячи-педагогларни тайёрлаш масаласи бу борадаги алоҳида муаммолардан бири ҳисобланади. Дуал таълим асосида талабаларнинг эгаллаган назарий билимларининг амалиётга татбиқини бевосита кузатиш, соҳада мавжуд муаммоларни олий таълимнинг илмий салоҳияти ва мактабгача таълим муассасаларининг тажрибаси асосида ечимини топишнинг зарурати мазкур лойиҳанинг долзарблигини белгилайди.

“Модулли мактабгача таълим лабораторияси” миллий педагогикамизда янги тушунча. Бу лойиҳа талабаларга боғчалардаги таълим ва тарбия жараёнини бевосита кузатиш ҳамда мактабгача таълим педагогикаси ва боғча ёшидаги болалар психологияси билан боғлиқ илмий-амалий лойиҳалар, тадқиқотларнинг тажриба-синов ишларини олиб бориш имконини беради. Бу жараён нафақат талабалар учун, балки илмий тадқиқотчилар, ота-оналар, профессор-ўқитувчилар, амалиётчилар учун ҳам инновацион тажриба майдончаси вазифасини бажаради. Бу эса лойиҳанинг илмий янгилигини асослайди.

Мазкур янги лойиҳани илмий-назарий жиҳатдан асослаш, фаолиятини йўлга қўйиш билан боғлиқ ташкилий ва амалий ишларни тартибга солиш мақсадида тадқиқот иши



доирасида “Модулли мактабгача таълим лаборатория Концепцияси” ишлаб чиқилди (2-илова).

Модулли мактабгача таълим лаборатория концепцияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” ҳамда мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналишлари ва асосий принциплари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, ҳозирги мураккаб глобаллашув шароитида мактабгача таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш билан боғлиқ долзарб вазифалар ҳамда уларни ҳал этишнинг усул ва йўллари илмий нуқтаи назардан тадқиқ этиш, соҳага инновацион технологияларни жалб қилиш ва таълим турлари ўртасидаги муносабатларни педагогик таълим кластер методи асосида ривожлантириш мақсадларини кўзлайди.

Концепция мактабгача таълим муассасаларида ёшларни жисмонан ва маънан соғлом қилиб тарбиялаш, соҳага педагогиканинг замонавий ютуқларини жалб қилиш, мактабгача таълимнинг ривожланиш тенденцияларини белгилаш, мактабгача таълим муассасалари фаолиятига тааллуқли инновацион илмий лойиҳаларни тажриба-синовдан ўтказиш, ёш авлод таълим-тарбиясига яхлит тизим сифатида қараш, Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантириш бўйича [Харакатлар стратегияси](#) талаблари асосида миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, бугунги Ўзбекистон ҳаётидаги реал ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилгани билан аҳамиятлидир.

НАТИЖАЛАР

Модулли мактабгача таълим лаборатория лойиҳаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълимни бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3955 сонли қарорида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилган бўлиб, 2030 йилгача мобил типда қурилган Модулли мактабгача таълим лабораториясини ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олади.

Концепция институтда мактабгача таълим йўналишини ривожлантиришнинг мақсадлари, вазифалари, устувор



йўналишларини белгилайди ҳамда педагогик таълим инновацион кластери асосида мактабгача таълим соҳасини ривожлантиришга йўналтирилган дастурлар ва комплекс-чора тадбирларни ишлаб чиқиш учун асос бўлади.

Модулли мактабгача таълим лабораториянинг **мақсади** мактабгача таълимда ҳаракатли ўйинларни ўқитиш назарияси ва методикаси, педиатрия ва болалар спорти, болалар психологияси, нейропедагогика, табиат билан таништириш назарияси ва методикаси, тасвирий фаолият, мусиқий кўникмаларни ривожлантириш, болалар нутқини ўстириш, болалар педагогикаси, тилга ўргатиш, элементар математик кўникмаларни шакллантириш, болаларда саҳналаштириш ва ижодий фаолиятни ривожлантириш, адабий таълим, Мария Монтессори методикаси фанларидан амалий фаолиятларни ташкил этишнинг механизмларини ишлаб чиқишнинг инновацион шакллари ишлаб чиқиш, тадқиқ қилиш ва тажриба-синовдан ўтказишдан иборат. Хусусан, адабий таълим мисолида боғча тарбияланувчиларининг нутқини ривожлантириш, бадиий адабиётга ҳавасни шакллантириш, яхшилик, эзгулик, ростгўйлик, оила, Ватан каби тушунчалар борасидаги тасаввурларини кенгайтириш ҳамда ушбу фаолият турини ривожлантиришнинг илмий-педагогик асослари, услубияти, шакл ва воситалари бўйича муайян илмий-амалий лойиҳаларни тажриба-синовдан ўтказиш модулли мактабгача таълим лабораториясининг адабий таълимдан кўзланган мақсадини белгилайди.

Модулли мактабгача таълим лабораториясининг асосий **вазифалари** сифатида қуйидагиларни белгилаш мақсадга мувофиқ деб топилди:

- мактабгача таълим тизимида жорий қилинган “Илк қадам” давлат дастурида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш;
- педагогик таълим инновацион кластерини амалиётга самарали татбиқ этиш;
- мактабгача таълим муассасалари фаолиятига ривожланган хорижий мамлакатларда тажрибадан ўтган лойиҳаларни олиб кириш;
- мактабгача таълим йўналишида замонавий илмий тадқиқотларни амалга ошириш ва унинг амалий аҳамиятини тавсифлаш;
- институтнинг мактабгача таълим йўналишида назария ва амалиёт уйғунлигига эришиш мақсадида дуал таълимни жорий қилиш;
- бўлажак ёш мутахассисларнинг касбий мослашиш даврини қисқартириш;

- мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларининг комплекс ривожланиш эволюциясини кузатиш ва тадқиқ қилиш;
- мактабгача таълим тизимига замонавий технологияларни олиб кириш;
- мактабгача таълим тизимига малакали замонавий кадрларни тайёрлаш.
- мактабгача таълим муассасалари фаолиятига тааллуқли инновацион илмий лойиҳаларни тажриба-синовдан ўтказиш;
- мактабгача таълим йўналишининг ўқув-меъёрий ҳужжатларига мазкур концепциядан келиб чиққан ҳолда ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш;
- илғор хорижий тажрибалар асосида тарбия жараёнини ташкил қилишга қўйиладиган амалдаги Давлат талабларини қайтадан кўриб чиқиш;
- мактабгача таълим муассасаларининг моддий ресурслари, озик-овқат таъминоти, дори-дармон воситалари ва тиббиёт буюмлари билан таъминлаш нормативларини ишлаб чиқиши ва тасдиқлаш;
- Модулли мактабгача таълим лаборатория фаолияти Низоми ва бошқа тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;
- мактабгача таълим тизимида инновацион педагогик фаолиятнинг янги усул ва воситаларини ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга татбиқ этишнинг тажриба-синов ишларини олиб бориш;
- мактабгача таълим муассасалари учун ўқув-методик, дидактик материаллар ва бадий адабиётларни танлаб олиш тизимини тартибга солиш;
- мактабгача таълим муассасаларининг муқобил шакллари учун янги ўқув методик материалларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш;
- мактабгача таълим мутахассислик фанларини ривожлантирувчи муҳитнинг инновацион технологиялари ва модулларини ишлаб чиқиш, таълим изчиллигининг мазмун ва процессуал компонентларини оптималлаштириш;
- мактабгача таълим йўналиши талабаларининг бадий эстетик ва мусиқий тарбия ҳамда таълим даражасини ошириш, эрта ёшдан бошлаб STEAM ўқитиш асосларини жорий этиш;
- мактабгача таълим йўналиши талабаларининг келгусида ўз-ўзининг муваффақиятларини намоён қилишлари учун асос сифатида ижтимоий-эмоционал кўникмаларини ривожлантириш.



Тадқиқот иши давомида модулли мактабгача таълим лабораториясининг моддий-техник, ахборот ва методик таъминоти борасида қуйидаги илмий тўхтамга келинди:

Модулли мактабгача таълим лабораторияси фаолияти Чирчиқ давлат педагогика институти маблағлари ҳисобидан Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда енгил қурулиш конструкциялари ва замонавий энергия самарадор материаллар ва технологиялардан фойдаланган ҳолда, шинамлиқ ва экологик хавфсизлик талабларига мувофиқ қурилган 50 ўринли бинода йўлга қўйилади.

Модулли мактабгача таълим лабораториясида:

- бинода муסיқий бадий гимнастика ва жисмоний тарбия машғулоти учун мўлжалланган зал мавжуд бўлиши;
- бинода мутахассис ходимлар учун махсус хоналар ажратилиши;
- бино марказида профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар ва талабалар учун 20 ўринли лаборатория кузатув хонаси жойлаштириши;
- ҳудудда тарбияланувчилар учун ўйингоҳлар барпо этилиб, талабаларнинг амалий малака ва кўникмаларини ривожлантириш мақсадини кўзловчи зарурий шароитлар яратилиши назарда тутилган (1-расм).

Модулли мактабгача таълим лабораторияси ахборот ва методик таъминоти Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда Чирчиқ давлат педагогика институти томонидан амалга оширилади.

Модулли мактабгача таълим лаборатория ишини ташкил қилиш ва мониторингини олиб бориш қуйидаги тартибда амалга оширилади:

1. Модулли мактабгача таълим лаборатория иши институтнинг асосий стратегик илмий тадқиқот йўналиши бўлган педагогик таълим инновацион кластери тамойилларига мувофиқ ташкил қилинади.


2. Модулли мактабгача таълим лабораториясига институт ректори томонидан тайинланган мудир раҳбарлик қилади.

3. Модулли мактабгача таълим лабораторияси мудирини институт кенгаши ҳузурида ҳисобдор саналади.

4. Модулли мактабгача таълим лабораториясида илмий лойиҳалар ва ишланмаларнинг тажриба-синов ишларига Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда институт кенгаши томонидан тасдиқлангандан сўнг рухсат берилади.

5. Модулли мактабгача таълим лабораторияси тасдиқланган Низом ва институт кенгаши томонидан тасдиқланган йиллик иш режа асосида фаолият олиб боради.

6. Модулли мактабгача таълим лабораторияси фаолиятини мониторинг қилиш ва мувофиқлаштириш педагогик таълим инновацион кластери маркази томонидан олиб борилади.



1-расм. Модулли мактабгача таълим лаборатория биноси

МУҲОКАМА

Модулли мактабгача таълим лабораториясининг субъекти соҳа профессор-ўқитувчилари, тадқиқотчилар ва талабалар, объекти эса муассаса тарбияланувчилари ҳисобланади.

Модулли мактабгача таълим лабораторияси лойиҳаси мактабгача таълим муассасаларида таълим-тарбия беришда

компетенциявий ёндашувни татбиқ этиш орқали ўсиб келаётган бола шахсини ҳаётга тайёрлаш, унда ҳаётий муҳим масалаларни ҳал қилиш учун зарур бўлган, ахлоқий меъёр ва қадриятларни ўзлаштириш, бошқа инсонлар билан мулоқот қилиш, “мен” образини шакллантиришга алоқадор бўлган фаолият усулларини шакллантириш билан боғлиқ лойиҳаларни тажриба-синовдан ўтказишни назарда тутди. Мактабгача ёшдаги болаларда қуйидаги компетенцияларни шакллантириш мақсадга мувофиқ деб қаралади:

Боланинг умумий муҳим компетенциялари.

Боланинг ривожланиш соҳалари компетенциялари.

Ўз навбатида ушбу компетенциялар яна қуйидаги турларга бўлинади: 1.

Боланинг умумий муҳим компетенциялари: а) коммуникатив компетенция; б) ўйин компетенцияси; в) ижтимоий компетенция; г) билиш компетенцияси. 2.

Боланинг ривожланиш соҳалари компетенциялари: а) “жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш” соҳаси компетенциялари; б) “ижтимоий-ҳиссий ривожланиш” соҳаси компетенциялари; в) “нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари” соҳаси компетенциялари; г) “билиш жараёнининг ривожланиши” соҳаси компетенциялари; д) “ижодий ривожланиш” соҳаси компетенциялари.

Умумий муҳим компетенциялари тавсифи:

1. Коммуникатив компетенция – мулоқот воситаларидан турли вазиятларда фойдалана билиш кўникмаси.

2. Ўйин компетенцияси – боланинг ўйин жараёни ва уни ташкил қилишда тажриба, билим ва кўникмалардан ижодий фойдаланиши. Ўқув-тарбиявий фаолият учун асос ҳисобланади.

3. Ижтимоий компетенция – ҳаётий вазиятларда катталар ва тенгдошлар билан мулоқотда ахлоқ қоидалари ва меъёрларига риоя қилган ҳолда ўзини тутиш маҳорати.

4. Билиш компетенцияси – атрофдаги оламни онгли равишда идрок қилиш ва олинган билим, кўникма, малака ва қадриятлардан ўқув ва амалий вазифаларни ҳал қилиш учун фойдаланиш.

Ривожланиш соҳалари компетенциялари тавсифи:

1. “Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш” соҳаси компетенциялари.

“Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзининг шаклланиши” соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунланганидан сўнг 6-7 ёшли бола:



ўз имкониятлари ва ёши билан боғлиқ жисмоний ривожланиш меъёрларига мос равишда жисмоний фаоллик кўрсатади;

турли ҳаракатчанлик фаоллигини уйғун равишда ва мақсадли бажаришни билади;

турли ҳаётий ва ўқув вазиятларида майда моторика кўникмаларидан фойдаланади;

ўз ҳаракатларини ҳиссиёт ва сезги органлари ёрдамида бошқаради;

шахсий гигиена малакаларини қўллайди;

соғлом турмуш тарзи ва овқатланиш асосларини билади;

хавфсиз ҳаётий фаолият асослари қоидаларига риоя қилади.

2. “Ижтимоий-эмоционал ривожланиш” соҳаси компетенциялари

“Ижтимоий-эмоционал ривожланиш” соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

ўз “мен”и ва бошқа инсонларнинг ҳаётий фаолият муҳитидаги роли тўғрисида тасаввурга эга бўлади;

ўз ҳиссиётларини бошқаради ва уларни вазиятга мос равишда ифодалайди;

ўзгаларнинг ҳиссиётларини фарқлайди ва уларга мос равишда жавоб беради;

катталар ва тенгдошлар билан вазиятга мос равишда мулоқот қилади;

мураккаб вазиятлардан конструктив чиқиш йўлларини топади.

3. “Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари” соҳаси компетенциялари

“Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари” соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

нутқни эшитади ва тушунади;

ўз нутқида тўғри талаффуз, қулай грамматик шакллар ва хилма-хил гап конструкцияларидан фойдаланади;

иккинчи тилни ўрганишга қизиқиш намоён қилади;

иккинчи тилни эгаллаш бўйича дастлабки билимларини кўрсатади;

бадий адабиёт асарларига қизиқиш намоён қилади;

сўзнинг луғавий, бўғинли ва фонетик тузилиши тўғрисида тасаввурга эга бўлади;

турли маъно шаклларини мустақил равишда тузиш ва сўзлаб беришни билади;

ёзишнинг дастлабки малакалари ва воситаларидан фойдаланишни билади.

4. “Билиш жараёнининг ривожланиши” соҳаси компетенциялари

Билиш жараёнининг ривожланиши соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

билим олишга фаол қизиқишни намоён этади;

ўқув ва ҳаётий фаолият учун ахборотни мустақил равишда топади ва ундан фойдаланади;

предметлар, воқеалар ва кўринишлар ўртасидаги оддий алоқаларни тушунади ва уларни яхлит бир бутунлик сифатида идрок қилади;

рақамлар, ҳисоб-китобни билади ва уларни ҳаётда қўллайди;

макон, шакл ва вақтга мос равишда иш тутади;

элементар математик ҳисоблашларни амалга оширади;

атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва кўринишларни кузатади ҳамда тадқиқ қилади;

атроф-муҳитга нисбатан эҳтиёткорона ва ғамхўр муносабатни намоён этади.

5. “Ижодий ривожланиш” соҳаси компетенциялари

“Ижодкорлик” соҳасидаги (ўқув) таълим-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

санъат ва маданиятга қизиқиш намоён қилади;

миллий анъаналарни қадрлайди ва уларни кундалик ҳаётнинг бир қисми сифатида идрок этади;

санъатнинг муайян турини афзал кўришини мустақил равишда ифодалайди;

олинган билим ва кўникмалардан турли ҳаётий вазиятларда ўз ижодий режаларини тузиш ва татбиқ қилиш учун фойдаланади;

инсоннинг дунёни ўзгартиришдаги яратувчанлик родини тушунади.

Модулли мактабгача таълим лабораториясида адабий таълим машғулотилари субъектлар (талабалар, магистрлар, профессор-ўқитувчи ва тадқиқотчилар) учун қуйидаги имкониятларни яратади:

Талабалар ва магистрлар учун:

- адабий таълимда назария ва амалиёт уйғунлигида сифатли таълим олиш;
- адабий таълим бўйича эгалланган билим ва малакаларни амалиётда қўллай олиш кўникмасини шакллантириш;
- касбий фаолиятга мослашувчанлик;

- мактабгача таълим адабий таълим машғулотида янги инновацион лойиҳалар ва ишланмалар билан танишиш;

- мактабгача таълим муассасаси тарбияланувчиларида адабий таълим машғулотларини ташкил қилиш методикасини ўзлаштириш.

Профессор-ўқитувчи ва тадқиқотчилар учун:

- адабий таълим методикасини такомиллаштириш бўйича илмий-назарий ишланмаларни амалиётга татбиқ этиш;

- адабий таълимни такомиллаштиришга оид илмий-амалий лойиҳаларни замонавий шароитларга эга тажриба майдончасида синовдан ўтказиш;

- амалга оширилаётган лойиҳаларнинг тажриба-синов ишларини бевосита кузатиш;

- лойиҳани тажриба-синов ишлари жараёнида соҳа мутахасислари билан муҳокама қилиш имконияти;

- тадқиқотларда аниқланган камчилик ва нуқсонларни тезкорлик билан тузатиш имконияти.

Модулли мактабгача таълим лабораториясида адабий таълим машғулотларини педагогик таълим кластери воситасида ташкил қилиш объект (тарбияланувчилар) учун қуйидаги имкониятларни яратади:

Тарбияланувчилар учун:

- замонавий шароитларга эга мактабгача таълим муассасасида миллий кадриятлар ва адабий эстетик тарбияланиш имконияти;

- жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзи шаклланиши (ўйинга асосланган технологиялар воситасида);

- ижтимоий-ҳиссий ривожланиш;

- нутқий мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакаларини эгаллаш;

- билиш жараёнининг ривожланиши;

- ижодий ривожланиш.

Мактабгача таълим муассасаларида адабий таълим машғулотида шеърӣ ва кичик насрий асарларни ифодали ўқиш, тинглаш, ёд олиш ва саҳналаштириш каби шаклларда олиб борилади. Болалар учун ёзилган ҳар қандай бадиий асар уларнинг ёш хусусиятларига, савиясига мос бўлиши, болаларнинг қалбида чуқур ўй-фикрлар уйғотиши, ёрқин образлар ва юксан ғояларга бой бўлиши уларнинг улкан ва порлоқ ишларига илҳомлантириши зарур. Энг муҳими, бадиий асар тушунарли, содда ва қизиқарли тилда ёзилиши лозим. Ёрқин образли, аниқ, раво ва содда услубда ёзилган

бадий асар ёзувчининг мақсад ва фикрларини ўқувчиларга тез ва осон етказди.

Болалар учун яратилган бадий асарларда уларнинг беғубор дунёси, қизиқишлари, ўйин ва ўйинчоқлари, ота-онага, Ватанига муҳаббатлари, йил фасллари, ўсимликлар ва жонзотлар олами каби мавзулар акс этирилган. Бундай асарлар болаларнинг ҳис туйғуларининг шаклланишида, маънавий-ахлоқий, бадий-эстетик тарбиясида алоҳида аҳамиятга эга. Бизнингча, болаларга бадий асарларни, хусусан, шеърӣ асарларни тақдим этишнинг энг муқобил йўли – бу шеър руҳини англаган ҳолда ифодали ва жозибали тарзда ўқишдан иборат. Ички ҳаяжон ва асар руҳига мос ҳолда ифодали ўқилган шеър бола руҳиятига чуқур таъсир этади: уни ҳаяжонлантиради, қалбига шодлик ва қувонч бағишлайди. Демак, тарбиячи асарни болаларга ўқиб беришдан олдин ўзи ўрганиб чиқиб, ундаги оҳангдорлик, муסיқийликни вижудга келтирувчи ритм ва қофияларни, бадий усул ва воситаларини тушуниши, ҳис қилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки юксак маҳорат билан ёзилган шеърӣ асарларда қўлланилган турли бадий усул ва воситалар мавзунини яънада таъсирчанроқ теранроқ ва аниқроқ ифодалашга шеърӣ мисралардаги жозибадорликни таъминлашда муҳим рол ўйнайди, шеърӣ асарнинг эмоционал таъсир кучини орттиради.

Болалар табиатига хос бўлган характерли хусусият уларнинг тевақат-атрофдаги ҳамма нарсани жонли ва характерли ҳаракатда деб ўйлашларидир. Болалар шеърлари кичкинтойлардаги ана шу хусусиятларга асосланиб, уларга таниш бўлган нарсаларни жонлантириш усули орқали уларнинг бадийлашган образини гавдалантиради. Болалар учун ёзилган бундай шеърӣ асарларда кўп истифода этиладиган ўхшатиш, жонлантириш, сифатлаш каби бадий тасвир воситалари шеърӣ образларни ўқувчи кўз ўнгида жонли тарзда намоён бўлишига хизмат қилади. Шундай экан, ифодали ўқиш жараёнида тарбиячи уларни таъкидлаб, мимик ва пантомимик ҳаракатлар воситасида кўрсатиши унинг таъсир кучини оширади. Шеърда қўлланилаётган ўхшатиш ва жонлантиришлар орқали тасвирланаётган бадий детал янада ойдинлашади.

Келтирилган парчадан кўриниб тўрибдики, шоир сувда оқиб кетаётган олмани оддий балиққа эмас, балки олтин балиққа ўхшатапти. Тасаввур қилинг, агар шоир ўз шеърда оқиб кетаётган олмани шунчаки оддий балиққа ўхшатганида, бола фақат тутқич бермай оқиб кетаётган олманинг қандай рангда эканлиги

ҳақида ўйлаб ҳам кўрмасди. Шоирнинг олмани олтин балиққа ўхшатиши натижада бола кўз ўнгида сувда олтин балиқдай чиройли рангларда товланиб, тутқич бермай ўйнақлаб оқиб кетаётган олма якқол гавдаланишига эришилган ва айна пайтда бу ўхшатиш шеърга шўхчан руҳ олиб кирган. Бундан кўриб турибмизки, болалар асар таъсирида ҳосил бўлган фикрларини хотираларида сақлаб қолишга, кейинги босиқичда уни оғзаки нутқида акс эттира бошлайдики, бу адабий таълимнинг нутқий мулоқот компетенциясини шакллантириш билан боғлиқ мақсадига мувофиқ келади.

Мактабгача таълим муассасалари таълим-тарбия дастурида ёд олдириш лозим бўлган шеърларнинг рўйхати берилган. Бу шеърлар болалар ҳаётдан олинган бўлиб, улар қувноқ ўйинлар, ўйинчоқлар, уй ҳайвонлари, табиат тўғрисидаги шеърлардир. Тарбиячи шеърий асарни ёд олдириш жараёнида куйидаги вазифаларни бажариши адабий таълимни ўқитишдан кўзланган мақсадга мувофиқ келади:

1. Ўқилган шеърни ҳамма болалар эса сақлаб қолишларига эришиши.
2. Болаларда шеърга нисбатан қизиқиш ўйғотиш ва мустаҳкамлаш.
3. Шеър мазмунини ва ундаги айрим қийин сўзларнинг маъносини тушуниб олишларига ёрдам бериш.
4. Тингловчилар олдида шеърни ифодали айтиб беришга ўргатиш.

ХУЛОСА

Модулли мактабгача таълим лабораториясида адабий таълим машғулотларини талабалар, тадқиқотчилар ва профессор-ўқитувчилар томонидан бевосита кузатилиши субъектлар ўртасида тезкор қайта алоқани таъминлайди ва жараённи лойиҳадан кўзланган мақсадга тезда мослаштириш имкониятини беради. Адабий таълим машғулотларини такомиллаштиришга қаратилган лойиҳалар “Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари соҳаси компетенциялари” ва “Ижодий ривожланиш соҳаси компетенциялари”ни шакллантиришга қаратилиши лозим. Хусусан, адабий таълим тарбияланувчиларда санъат ва маданиятга қизиқиш намоён бўлиши, миллий анъаналарни қадрлаш ва уларни кундалик ҳаётнинг бир қисми сифатида идрок этиш, санъатнинг муайян турини афзал кўришини мустақил равишда ифодалаш, инсоннинг дунёни ўзгартиришдаги яратувчанлик ролини тушуниш, шунингдек, нутқни эшитиш ва тушуниш, ўз нутқида тўғри талаффуз, қулай грамматик шакллар ва хилма-хил гап конструкцияларидан фойдаланиш, бадий адабиёт

асарларига қизиқиш намоён қилиш, сўзнинг луғавий, бўғинли ва фонетик тузилиши тўғрисида тасаввурга эга бўлиш, турли маъно шакллари мустақил равишда тузиш ва сўзлаб бериш каби адабий-лингвистик компетенцияларни шакллантиришга қаратилади.

REFERENCES

1. Mukhamedov, G. I. (2019). Innovative cluster of pedagogical education: need, necessity, result. People" s Word newspaper.
2. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари. Пед. фан. б. фан доктори (DSc) дисс. Чирчиқ. 2021.; Тоштемирова С.А. Кластер ёндашуви асосида умумий ўрта таълим мактабларида таълим сифатини ошириш. Пед. фан. б. фал. док. дисс. Чирчиқ. 2021.
3. Никитин М.В. Модернизация управления развитием образовательных организаций: монография. — М., 2001.
4. Пискунова Е.В., Кондракова И.Э., Соловейкина М.П. и др. Технологии социального партнерства в сфере образования: Учебно-методический комплекс. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2008.
5. Реморенко И.М. «Социальное партнерство» в образовании: понятие и деятельность// Новый город: образование для изменения качества жизни. - М.; СПб.: Югорск, 2003.
6. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, -Cambridge: 1980.
7. Khodjamkulov, U. (2021). Cluster as innovative approach to pedagogical education. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(02), 36-54.
8. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., & Toshtemirova, S. (2020). Innovative cluster of pedagogical education. Monograph, -T.: University.
9. Botirova, S. (2021). INTEGRATION AND CLUSTER RELATIONS IN LITERARY EDUCATION. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(02), 23-35.
10. Ботирова, Ш. И. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери янги устувор йўналиш сифатида. *Academic research in educational sciences*, (3), 487-494.
11. Botirova, S. I. (2020). FORMING PATRIOTIC SPIRIT WITHIN PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 5(10), 200-205.

МАМЛАКАТИМИЗДА ЗАМОНАВИЙ ҲАРБИЙ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ШАРҚ МАЪРИФАТИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Исломжон Юлдашевич Муллажонов

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар Академияси мустақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Шарқ Ренессанси даври олимларининг асарларида илгари сурилган ғоялар ҳозирги даврда ёш офицерларда инновацион онгни шакллантиришнинг назарий асосларини ташкил қилиш каби масалалар келтирилган.

Калит сўзлар: Шарқ Ренессанс, дунёқараш, кадрият, миллий менталитет, жамият, ривожлантириш, шакллантириш, такомиллаштириш.

ABSTRACT

This article presents the ideas put forward in the works of scientists of the Eastern Renaissance, such as the organization of the theoretical basis for the formation of innovative consciousness in young officers today.

Keywords: Eastern Renaissance, worldview, values, national mentality, society, development, formation, improvement.

КИРИШ

Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг янги босқичида жамиятнинг маънавий янгиланиши буюк аждодларимизнинг илмий меросига таянади. Шу нуқтаи назардан Шарқ Ренессанси даври олимларининг асарларида илгари сурилган ғоялар ҳозирги даврда ёш офицерларда инновацион онгни шакллантиришнинг назарий асосларини ташкил қилади.

Зеро, Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек: “Ёшларимизга муносиб таълим бериш, уларнинг илм-фанга бўлган интилишларини рўёбга чиқаришимиз керак”[1].

Шу боис, асрлар давомида жаҳон фалсафаси, хусусан Шарқ фалсафаси кадриятлари асосида ёш офицерларда фалсафий мушоҳада, тафаккур этиш кўникмаларини шакллантиришни узлуксиз таълим тизимига киритиш, назаримизда, миллий



менталитетимизнинг миллий тараққиёт ғояси асосида янада юксалтиришга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

ЎРТА асрлар шарқ алломалари орасида Абу Наср Форобийнинг давлат ва жамият тараққиёти ҳақидаги қарашлари илмий жамоатчиликнинг эътиборида бўлиб келади.

Буюк аллома Абу Наср Форобийнинг “Ихсо ал Улум” асарида шундай ёзилган: “... Жамоа ҳақидаги билим онгли иш, ҳаракатлар, турмуш йўл-йўриқлари ҳамда одат-малакалар, ахлоқ, характер ва мойиллик хислатларини ўрганади. Чунки онгли иш ҳаракат ва турмуш йўл-йўриқлари ана шулардан ташкил топади. Жамоа ҳақидаги билим яна шу иш-ҳаракатларнинг қандай мақсадга йўналтирилганини, бу (ахлоқ, малакаларнинг) инсонда қайси тартибда юзага келиши, қандай мавжуд бўлиши, уларни бошқариш ҳамда сақлаб қолиш воситаларини ўрганади”[2].

Форобий фикрича, ижтимоий такомилга ва умумий бахт-саодатга эришиш илм ва маърифат ёрдамида ҳосил қилинадиган ва эришиладиган юксак интеллектуал ва ахлоқий фазилатларнинг қўлланилиши туфайли амалга оширилади. Бундан ташқари одам жамиятдан, олиб борилаётган сиёсатдан, маънавий, мафкуравий ислоҳотлардан айро яшай олмайди. Биз бугунги кунда кўпроқ “ёшларни янги мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилишимиз керак”, “уларнинг онги ва қалбида миллий ғояни шакллантиришимиз лозим”, “мафкуравий иммунитетини кучайтиришимиз шарт”, “дунёқарашни ўзгартириш керак” ва шунга ўхшаган иборалар билан бонг урмоқдамиз. Демак, бундай вазиятда ўз кадриятларимизга содиқ қолмоғимиз ва уни ўзимизда ривожлантириб, шакллантириб ҳамда такомиллаштириб боришимиз мақсадга мувофиқ бўлади.

Файласуфнинг давлат бошқарувига янгиликларни жорий этиш ва шу орқали фаровонликни таъминлаш тўғрисидаги фикрлари долзарб аҳамиятга эгадир. “Баъзан раҳбарлар бир шаҳарнинг соҳибкори, шаҳар халқи ҳаётига тегишли ишларда тадбиркор бўладилар. Улар бу йўл-йўриқларни ўтмишда кечган бошлиқлардан ўрганадилар, лекин шу билан бирга, раҳбар келажак учун ўтмишдаги расм-русум, йўл-йўриқларни ислоҳ қилиши лозим ва фойда топса турмуш шароити тақозосига қараб уларни ўзгартиради. Шунингдек, ёмон одатларни ўзида ифодаловчи ўтмишни ҳам ўзгартирмоғи керак. Акс ҳолда ўтмишнинг талабларига риоя

этиб, унинг кайфияти сақланса, турмушда ҳеч қандай енгиллик, ўзгариш ва ўсиш бўлмади”[3].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Давлат ва жамият бошқарувига жорий этилаётган инновациялар мавжуд тизимларнинг самарадорлигини таъминлашга хизмат қилиши зарур ва халқ фаровонлигига йўналтирилган бўлиши мақсадга мувофиқдир. Файласуфнинг фикрларидан маълум бўладики, жамият тараққиётига хизмат қилмайдиган қонун-қоидалардан воз кечиш ва янги бошқарув шакллари жорий этиш ижтимоий тараққиётнинг муҳим омилidir.

Тиббиёт соҳасидаги илмий кашфиётлари ўз даврдан бир неча юз йиллар олдинга ўтиб кетган Абу Али ибн Сино фалсафа фанлари доирасида ҳам йирик илмий асарлар муаллифидир. Олимнинг инсон ҳаётида билимнинг ўрни ва роли, олинган билимларни ижтимоий турмушда қўллаш борасидаги бетакрор фикрлари алоҳида аҳамиятга эга. Файласуфнинг фикрича, инсоннинг маънавий-руҳий олами билиш, билим олиш ва амалий ҳаёт давомида шаклланади. Шу билан бирга ҳаёт билимсиз бўлиши мумкин эмас, билим эса амалиётсиз бефойдадир. Ўзининг билими туфайлигина инсон зоти такомиллашиб боради ва бошқа жонзотлардан устун туради. Инсон билимсиз комилликка етиши мумкин эмас ва доимо билимга интилганларгина бахтли саналади[4].

6. Кластер ёндашуви асосида аралаш таълим, мустақил таълим ва электрон педагогикани йўлга қўйиш ҳам таълим кластерининг устувор стратегияларидан бўлиб, бу йўналиш самарали фаолиятининг натижаси таълим ва тарбия жараёни электрон педагогика контентида намоён бўлади. Унинг қуйидаги асосий вазифаларини келтириб ўтиш мумкин:

мутахассисликлар кесимида мустақил таълимни касбга йўналтиришга қаратилган методикаларидан иборат вазифалар, лойиҳалар, дастурлар базасини тайёрлаш ва уни “НЕМИС ахборот тизими”да ифодалаш орқали талабаларга мустақил таълим кредитларини ўзлаштириш бўйича қайдлар ташкил этиш;

мустақил таълимни шахсга йўналтирилган технологиялар асосида талабани тадқиқотчиликка йўналтиришга қаратилган услубий кўрсатмалар ишлаб чиқиш, мустақил таълимнинг натижавий маҳсулоти амалий фаолият натижасида тайёрланадиган маҳсулот бўлишига ҳам эътибор қаратиш;

аралаш таълимни ўқув жараёни самарадорлигини оширишнинг муҳим омили сифатида масофавий ўқитиш (Distance Learning), аудиторияда ўқитиш (Face-ToFace Learning) ва Интернет орқали ўқиш ((Online Learning)ни ахборот ва таълим технологиялари асосида дастурлаш[9];

аралаш таълим асосида кундузги, масофавий ўқитиш ва мустақил таълимни бирлаштирган ўқитиш тизими яратиш;

кредит-модуль тизими талаблари асосида талабаларнинг мустақил ишларини аралаш таълим метод ва технологияларини қўллаш асосида ташкил этиш;

электрон ўқув-методик мажмуалар (ЭЎММ)нинг ахборот таъминотини яратиш[5], лойиҳалаш ва технологик таъминот бўйича ташкил этиладиган барча тадбирларга педагогик таълим кластери платформаси маъмурий ходимлари масъуллигини белгилаш;

ХУЛОСА

Шундай қилиб, таълим кластерининг юқорида келтирилган педагогик стратегиялари унинг кейинги фаолиятига жуда катта таъсир қилади ва таълим кластерини педагогика соҳасининг мантиқий концепцион йўналишига айлантиради. Демак, таълим кластерининг модернизацион қиёфаси унда турли таълим хизматларининг мавжудлигидадир, шу муносабат билан педагог-кадрлар тайёрлашга қаратилган минтақавий таълим кластерида таълим хизматларини такомиллаштириш, бу хизматлардаги фанларни ўқитиш методикаларини ўзгартириш лозим. Бунинг учун мутахассисликларни тайёрлашга қаратилган ҳар бир фундаментал фанларнинг дидактик ва услубий таъминотига, назарий ва амалий қисмига маълум бир маънода, таълим кластерининг мувофиқ келадиган хусусиятлари, тамойиллари ва амалий жиҳатларини сингдирилиши мақсадга мувофиқ.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2021. -Б. 233.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғриси”ги 213-сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.04.2021 й., 09/21/213/0330-сон.
3. Тоштемирова С.А. Минтақавий таълим кластерларида педагогик-касбий компетенцияларни ривожлантириш: талаб ва таклиф // Analytical Journal of Education and Development, Special issue 2022 // www.sciencebox.uz
4. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш / монография. -Тошкент: “ISHONCHLI NAMKOR», 2021. -188 б.
5. Бабаходжаева Л.Г. Талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш жараёнида аралаш таълим моделини жорий этишнинг назарий ва амалий асослари / пед. фан. бўй. докт. (DSc) дисс...автореф. Чирчиқ. 2021. -Б. 32.



6. Tanuja A. Self-Development: Concept, Process and Methods / Business Management Ideas. 2022. <https://www.businessmanagementideas.com>.
7. Asuman Sahan. The effect of a variable practice metod on tennis groundstroke learning of adault beginners / See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/324889119> , Issue 74, April 2018. P. 15.
8. Eduardo Ravanal Moreno, Valeria M. Cabello, Francisco López-Cortés & Elias Amórtegui Cedeño (2021) The reflective practice as a tool for making tacit knowledge explicit, Reflective Practice, 22:4, 515-530, DOI: 10.1080/14623943.2021.1930527
9. Бабаходжаева Л.Г. Талабаларнинг педагогик компетентлигини ривожлантириш жараёнида аралаш таълим моделини жорий этишнинг назарий ва амалий асослари / пед. фан. бўй. докт. (DSc) дисс...автореф. Чирчик. 2021. -Б. 17.
10. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс... Тошкент. 2021. – 198 б.
11. Toshtemirova S.A., G'afforov Ya.X., Abduraxmonova J.N. Mutaxassislik fanlarini kasbga yo'naltirish metodikasi // o'quv qo'llanma. -Toshkent: "MALIK PRINT CO", 2021. - 204 б.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ “ОНА ТИЛИ” ЎҚУВ ФАНИ БЎЙИЧА КЎНИКМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ширин Худайбергеновна Эшчанова

Хоразм вилояти Шовот тумани 29-мактаб ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг “Она тили” ўқув фани бўйича кўникмасини ривожлантириш масалалари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: таълим, умумий, ўрта, мактаб, ўқувчи, фан, кўникма, ривожлантириш, билим, усул.

ABSTRACT

The article analyzes the issues of developing the skills of secondary school students in the subject "Mother tongue".

Keywords: education, general, secondary, school, student, science, skill, development, knowledge, method.

КИРИШ

Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида ўқув фанларини чуқурлаштирилган тарзда ўқитиш ва бунда миллий педагогик тажрибалар ҳамда жаҳон мамлакатлари халқларининг таълим тажрибаларидан уйғун фойдаланиш жараёни кечмоқда. Чунки Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Янги Ўзбекистон тараққиёти даврида илм-фан ва таълим-тарбия соҳаларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида ана шу вазифалар қаторида ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини амалий жиҳатдан кучайтириш масалалари ҳам қўйилган[1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Шу жиҳатдан умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг “Она тили” ўқув фани бўйича кўникмаларини янгича ёндашувлар асосида ривожлантириш долзарб бўлиб турибди. Мазкур масалада биз қуйидаги ёндашувларимизни тақдим этамиз:

1. *Она тилига муҳаббат уйғотиш.* Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида Она тилига бўлган муҳаббатни уйғотиш энг асосий масалалардан бири ҳисобланади. Чунки



мутафаккирлар Алишер Навоий ва Константин Ушинскийларнинг эслатиб ўтишича, она тилида ҳар бир халқнинг руҳи, минталитети ва қадриятлари ўз ифодасини топган[2,3]. Шу жиҳатдан ўқувчиларда она тилига бўлагн муҳаббатни уйғотиш билан уларда халқнинг руҳини, минталитетини ва қадриятларини шакллантиришга, уларда мазкур қадриятларни асраб-авайлаб кўникмасини ривожлантиришга эришиш мумкин. Дунёдаги барча малакатлар ўз она тилиси воситасида ёш авлодни миллат ва халқига садоқатли қилиб тарбиялаш концептига амал қилиб келмоқда. Шу жиҳатдан умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида она тилига муҳаббат руҳини уйғотиш билан уларнинг миллий кўникмаларини ривожлантириш мумкин ҳамда мазкур тоифа шахсларнинг она тили бўйича компетенцияларини кутилган даражада шакллантириш имкониятига эга бўлинади. Шу сабабли Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Она тили- миллат тафаккурининг намоён бўлишидир” мазмунидаги фикри бу борадаги методологик асослардан бири бўлиб хизмат қилади.

Эътибор берилса, ўқувчиларда ўқувчиларда она тилига муҳаббат кўникмасини уйғотиш билан қуйидагиларга эришиш мумкин:

- ўқувчиларнинг онги, ахлоқи ва дунёқарашини миллий руҳда шакллантириш;
- ўқувчиларда халқ руҳи, минталитети ва қадриятларини тушуниш ҳамда ўзлаштириш имкониятларига эга бўлиш;
- ўқувчиларни бугунги кун талаблари асосида баркамол вояга етказиш.

Шу сабабли умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг “Она тили” ўқув фани бўйича кўникмасини ривожлантиришнинг бирламчи манбаси бу миллий тилга муҳаббатдир.

2. *Сўз бойлигини ривожлантириш.* Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчилари “Она тили” ўқув фани якунида энг кўп сўз бойлигига эга бўлиши лозим. Она тили бўйича сўз бойлигига эга бўлиш ўқувчиларда миллий характерни шакллантиради, ўзга тилларни ўзлаштиришда таянч вазифасини ўтайди. Шу сабабли ўқувчиларнинг сўз бойлигини талаб даражасида ривожлантириш барча замонларнинг бирламчи вазифаси бўлиб келмоқда. Педагог ва филолог олимларнинг яқдил ҳулосага келишича, дунёдаги сўз бойлигига эга тиллардан бири ўзбек тилидир. Айни пайтда, ўзбек тилидаги синонимга эга кўп сўзларни ўзга тилларга таржима қилиш қийин. Мисол учун, ҳаё, ибо, шарм, уят каби сўзларнинг Европа халқлари тилларида муқобир варианты йўқ. Шу



жихатдан ўқувчиларнинг сўз бойлигини ривожлантириш билан уларнинг миллий руҳини кучайтириш мумкин ва уларда тил маданиятини кутилган даражада шакллантириш имкониётига эга бўлинади.

Она тили бўйича сўз бойлигига эгалик ўқувчиларнинг миллий тафаккурини, миллий характерини ва миллий қиёфасини шакллантиради. Аслида она тили бўйича сўз бойлигига эга бўлиш аждодларимиздан қолган ўзига хос қадриятдир. Мисол учун, Алишер Навоий ўз асарларида бир-бирини такрорламайдиган 56 мингдан ортиқ сўз ишлатгани маълум ёки рус мутафаккири Александр Сергеевич Пушкин ўз асарларида бир-бирини такрорламайдиган 40 мингдан ортиқ сўз ишлатганини олимлар томонидан аниқланганлиги ҳайрат уйғотади. Демак, она тили бўйича сўз бойлигига эга бўлиш ҳар бир шахс учун бирмас-туганмас манбаи хазинадир.

Диққат қилинса, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг она тили бўйича сўз бойлигини ривожлантириш билан қуйидагиларга эришиш мумкин:

- ўқувчиларда миллий тафаккур, миллий характер ва миллий қиёфани ривожлантириш;
- ўқувчиларнинг сўз бойлигини ривожлантириш билан уларда юксак оғ, етук маънавият ва ўзига хос миллий ахлоқни шакллантиришга эришиш;
- ўқувчиларни она тили бўйича сўз бойлиги воситасида ўзга тилларни ўрганишга тайёрлаш.

Буларнинг барчаси умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг сўз бойлиги устида ишлаш ишларини замонавий даражада йўлга қўйишни тақозо этади.

3. *Ёзма нутқни ривожлантириш.* Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг ёзма нутқини талаб даражасида ривожлантириш бугунги куннинг энг муҳим вазифаларидан биридир. Чунки ёзма нутқ – бу шахснинг мустақил фикри, орзу-умидлари ва мақсад-муддаоларини ифодаловчи ҳодисадир. Айни пайтда, ўқувчилар ўз она тилисида оғзаки ўзига хос тарзда нутқ сўзлаш кўникмасини кутилган даражада эгаллаётган бўлса-да, уларнинг ёзма нутқи масаласида мураккабликларга дуч келаётганликлари сир эмас. Бундай мураккабликлар сўз бойлигининг етишмаслиги, сўзларнинг ёзилиши бўйича кўникманинг пастлиги, ўз фикрини раво ва тушунарли ифода қилмаслиги кабиларда кўринади. Бошланғич синфларда иншо ва баён ёзиш орқали ўқувчиларнинг ёзма нутқ кўникмаси шакллантирилиши маълум. Афсуски, юқори синфларда



мазкур тажрибадан кенг фойдаланиш учрамайди. Айни пайтда, компьютер каби ўқув техник жиҳозларининг ва технологияларининг ривожланганлиги ўқувчиларнинг ёзма нутқида нуқсонларнинг келиб чиқишига сабаб бўлаётганлиги аён бўлмоқда. Бунда ўқувчиларда сўзларни ўринсиз қисқартириб ёзиш, компьютер воситасининг имкониятларига таянмасдан бўғинларни нотўғри кўчириш ва шунингдек, ўринсиз жаргонли сўзларни қўллаш кўзга ташланади. Шу сабабли умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синф ўқувчиларида “Она тили”, “Адабиёт” каби фанлар воситасида ёзма нутқни тизилган даражасида шакллантириш имкониятларидан оқилона фойдаланиш тавсия этилади.

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг ёзма нутқини ривожлантириш билан қуйидагиларга эришилади:

- ўқувчиларда аниқ, чуқур ва рагон фикрлашни таркиб топтириш;
- ўқувчиларнинг ўз фикрини тушунарли, образли ва мантиқли ифодалаш кўникмасини ривожлантириш;
- ўқувчиларнинг маънавий онгини ёзма нутқнинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда такомиллаштириб бориш.

Буларнинг барчаси умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида ёзма нутқни юксак даражада ривожлантириб боришни тақозо этади.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида “Она тили” ўқув фани бўйича кўникмани бугунги кун талаблари асосида ривожлантириш билан уларнинг миллий онгини, миллий характерини, миллий дунёқарашини ва миллий ахлоқини таркиб топтиришга эришиш мумкин. Бу кадрлар ва кўникмалар ўқувчиларнинг ўз халқи руҳи асосида вояга етишини, ўз она тилиси билан фахрланишини ва ўз халқига садоқат билан хизмат қилишини келтириб чиқаради. Шу сабабли “Она тили” ўқув фанининг имкониятларидан мунтазам ва оқилона фойдаланиб бориш кутилган самарна беради [4].

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Янги Ўзбекистон тараққиёти даврида илм-фан ва таълим-тарбия соҳаларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // www.ziyounet.uz



2. Алишер Навоий. Ҳамса. –Тошкент, 1989.
3. Константин Ушинский. Танланган педагогик асарлар. – Тошкент, 1959.
4. Жабборова О.М., Умарова З.А., Бобоходжаева Л.Г. Бошланғич таълим педагогикаси, инновация ва интеграцияси. Дарслик. –Тошкент, 2021.



KIMYO MASHG‘ULOTLARIDA KEYS TEXNOLOGIYASI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Baxtiyor Yodgorov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNATOTSIYA

So'nggi paytlarda faol o'qitish texnologiyalari, masalan, dizayn, AKT, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, amaliy tadqiqotlar va boshqalar keng tarqalmoqda. Maqolada kimyo darslarida qo'llaniladigan usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: amaliy mashg‘ulot, keys texnologiyasi, AKT, internet.

USING CASE TECHNOLOGY ELEMENTS IN CHEMISTRY LESSONS

ABSTRACT

Recently, active learning technologies such as design, ICT, critical thinking development technologies, applied research, and so on have become widespread. The article describes the methods used in chemistry lessons.

Keywords: practice, case technology, ICT, Internet.

KIRISH

Har qanday bilimlarni o'zlashtirish talaba tomonidan o'quv harakatlarini o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, uni o'zlashtirgan holda, talaba turli xil ma'lumot manbalaridan foydalangan holda bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtira oladi. O'rganishga, ya'ni ma'lumotni o'zlashtirishga va to'g'ri qayta ishlashga o'rgatish - o'rganishga faol yondashuvning asosiy elementi hisoblanadi [1].

Samarali ta'lim texnologiyalarining yangi shakllaridan biri keyslardan foydalangan holda muammoli - vaziyat ta'limi hisoblanadi. O'zbekiston ta'limi amaliyotiga o'quv keyslarini joriy etish hozirgi vaqtda juda dolzarb vazifadir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keys usuli (Garvard universiteti tomonidan ishlab chiqilgan) muayyan vaziyatlarni tahlil qilish orqali o'rganishga yo'naltirilgan o'qitish usulidir. Usulning o'ziga xos xususiyati - bu, qoida sifatida, mavjud voqealarga asoslangan vaziyatlarni muhokama qilishdan iborat, bu o'z navbatida talabalarni tahlil qilish va qaror qabul qilishga



intellectual qobiliyatini shakllantiradi(vaziyatdan chiqish yo'lini topish)[3,4].

Keys uch qismdan iborat bo'ladi:

- muayyan vaziyatning tavsiflab berish;
- keys uchun vazifalar;
- keysdagi vaziyatni tahlil qilish uchun zaruriy bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar) [5].

Keyslarning tipologiyasi tasniflash uchun asos sifatida olingan belgiga bog'liq bo'ladi. O'qitishning keys usuli nafaqat keyslar bankining mavjudligini, balki ulardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni, muhokama uchun savollarni, o'quvchilar uchun topshiriqlarni, o'qituvchiga yordam beradigan didaktik materiallarni ham o'z ichiga oladi. Keys usuli o'rganishning nazariy va amaliy jihatlarini optimal kombinatsiyasini o'rnatishga imkon beradi)[6,7].

O'qituvchi uchun bilimdonlik, pedagogik mahorat va vaqtni talab qiladigan qiyin vazifa bo'lib - bu keys ishlanmasi tayyorlash, ya'ni muammoli vaziyat modelini va o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini aks ettiruvchi tegishli real materialni tanlashdan iborat)[8].

Keyslarni yaratishning quyidagi asosiy bosqichlari mavjud:

- 1) maqsadlarni aniqlashtirish;
- 2) vaziyatga mezon tanlash;
- 3) zaruriy axborotlar manbalarini tanlash)[9];
- 4) keysga birlamchi materialni tayyorlash;
- 5) ekspertiza;
- 6) uslubiy materiallarni tayyorlash undan foydalanishga tayyorlash)10].

Keysni tayyorlashning butun jarayoni axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikma va malakalariga asoslanadi, bu mavjud bilimlarni faollashtirish imkonini beradi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtiradi. Masalan, ma'lumot yig'ish bosqichida zamonaviy kommunikatsiyalarga asoslangan turli xil manbalardan foydalaniladi: televideniya, video, kompyuter lug'atlar, ensiklopediyalar yoki aloqa tizimlari orqali kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazalari. Ko'pincha bu manbalar yanada kengroq va dolzarbroq ma'lumotlarni taqdim etadi[11,12]. Axborot bilan ishlashning keyingi bosqichi – bu uni qayta ishlash, ya'ni o'rganilayotgan hodisa yoki voqealarning umumiy ko'rinishini taqdim etish uchun mavjud faktlar to'plamini tasniflash va tahlil qilish. Raqamli ma'lumotlar bilan ishlashni qulaylashtirish uchun uni jadvallar, grafiklar va diagrammalar shaklida taqdim etish taklif etiladi.

Bunda elektron jadvallar eng samarali vosita hisoblanadi[13,14].

Keys stadi va muammoli vaziyat o'rtasidagi farq nima? Keys usulining o'ziga xos xususiyati - mavjud hayotdan olingan faktlar asosida muammoli vaziyatni yaratishdir. Keys talabalarga ochiq shaklda y'ni muammo taklif qilmaydi va o'quv jarayoni ishtirokchilari uni ish tavsifida mavjud bo'lgan ma'lumotlardan ajratib olishlari kerak. Vaziyat - bu shunchaki voqealarning to'g'ri tavsifi emas, balki vaziyatni tushunishga imkon beradigan yagona ma'lumot jamlamasidir. Bundan tashqari, u muammoni hal qilishga undaydigan bir qator savollarni o'z ichiga olishi kerak[15,16].

Ushbu usuldan foydalanish yana shuning uchun ham zarurki, chunki u haqiqiy hayotda muammolarni yechish noaniqligini ko'rish imkonini beradi. Siz buyuk nazariyotchi-mutaxassis bo'lishingiz mumkin, lekin eng oqilona echimni topishni o'rganish, o'rganilgan materialni amaliyot bilan bog'lashga tayyor bo'lish – bularning hammasiga faol o'qitish usullari, shu jumladan keyslar yordam berishi mumkin[17,18].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Vaziyatli uslubiyat ko'plab o'qitish usullariga tayanadi va ularni o'z ichiga oladi, ammo ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini stimullash va motivatsiya usullariga ustunlik beriladi. Shunday qilib, keys metodini idrokning boshqa, soddaroq usullari mujassamlashgan, keys metodida o'z rolini bajaradigan murakkab tizim sifatida ifodalash mumkin. Unga quyidagilar kiradi:

- modellashtirish - vaziyatning modelini qurish;
- tizimli tahlil - vaziyatni tizimli ko'rsatish va tahlil qilish;
- muammoli usul - vaziyat asosidagi muammoni taqdim etish;
- fikrlash tajribasi - vaziyatni aqliy o'zgartirish orqali bilim olish usuli;
- tavsiflash usullari - vaziyatning tavsifini yaratish;
- tasniflash usuli - tartiblangan ro'yxatlarni, xususiyatlarni, vaziyatni tashkil etuvchi tomonlarni yaratish;
- o'yin usullari - vaziyat qahramonlari uchun xatti-harakatlar variantlarini taqdim etish;
- "Aqliy hujum" - vaziyat haqida g'oyalarni shakllantirish;
- munozara - muammo va uni hal qilish yo'llari bo'yicha fikr almashish[19,20,21,22].

O'quv jarayonida keys bilan ishlash texnologiyasi nisbatan sodda va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) talabalarning amaliy materiallar bilan individual mustaqil ishlashi (muammolarni aniqlash, asosiy alternativlarni shakllantirish, yechim taklifi yoki tavsiya etilgan harakat);

2) asosiy muammo va uning yechimlari bo'yicha qarashlarni kelishish uchun kichik guruhlarda ishlash;

3) kichik guruhlarining natijalarini umumiy muhokamada (o'quv guruhi ichida) taqdim etish va tekshirish[23].

Kimyo fanlarini o'rganishda keys usulini qo'llanilishiga misollar:

1940 yil aprel oyida Ikkinchi jahon urushi paytida nemis qo'shinlari Daniya poytaxti Kopengagenni egallab olganlarida, vengir kimyogari Xeveshi nemis fiziklari Maks fon Laue va Jeyms Frankning Nils Bor institutida saqlanayotgan oltin Nobel medallarini nemis bosqinchilaridan yashirish uchun ularni shoh arog'i eritmasida eritib yubordi. Milliy-sotsialist Karl fon Ossetskiy 1935 yilda Tinchlik uchun Nobel mukofotini olganidan keyin nemislarga Nobel medalini olish va taqish taqiqlangan edi.

Urush tugagandan so'ng, de Heveshi shoh arog'i ichiga yashirilgan oltinni ekstragirlash usuli bilan qayta ajratib oldi va uni Shvetsiya Qirollik Fanlar akademiyasiga topshirdi, Akademiya yangi medallar tayyorladi va ularni fon Laue va Frankga topshirishdi.

Keys-stadi uchun savollar: Albatta, siz yaxshi bilasizki, SHoh arog'i deb 1 hajm kontsentrangan nitrat kislota va 3 hajm kentsentrangan xlorid kislota aralashmasiga aytiladi? Nima uchun aroq? Nima uchun SHoh? Bu kislotali "kokteyl" qanday to'g'riroq nom bilan nomlasa bo'ladi?

Bilasizki, erimaydigan tuzlar, masalan, kaltsiy karbonat, boshqa tuzlar bilan o'zaro ta'sir qilmasligi kerak. Biroq, yaqinda, kaltsiy karbonat bilan temir (III) xlorid o'zaro ta'sirlashish tajribasi o'tkazilganda, jarayonda quyuc ajralayotgan gaz va quyuc jigarrang cho'kmaning hosil bo'lishini kuzatdik. Bu qanday gaz ekanligini bilish uchun reaksiya idishiga yonayotgan yog'och parchani yaqinlashtirdik va u o'chib qoldi. Biz cho'kmani ham o'rgandik va jigarrang cho'kma suvda va ishqorlarda erimadi, lekin kislotalarda eridi. Demak, savol: $FeCl_3$ ning $CaCO_3$ bilan o'zaro ta'sirida nima sodir bo'ldi, qanday qilib va qanday gaz hosil bo'ldi, va jigarrang cho'kma qanday nimani anglatadi?

XULOSA

Keys usuli deganda ko'p sonli vaziyatlar yoki vazifalarni ma'lum kombinatsiyalarda ko'rib chiqish orqali fanni o'rganish

tushuniladi. Bunday ta'lim, ko'pincha ongsiz ravishda, mutaxassislarining kasbiy faoliyatida duch keladigan asosiy muammolar nuqtai nazaridan tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'qitishda ishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan vazifa bo'lib, ishlarni tayyorlashni osonlashtiradigan Internet-resurslarni yaxshi bilishni talab qiladi. O'qituvchining faoliyati vaziyatni tahlil qilishda talabalarning qo'shgan hissasini baholash, vaziyatni yaratish va uni tahlil qilish va muhokama qilish uchun savollar yaratish bo'yicha ijodiy ishlarni o'z ichiga oladi. Ammo sarf qilingan vaqt talabalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, yanada mustahkam bilimlarni egallash va, albatta, mavzuga qiziqishni oshirish bilan oqlanadi. [24]

REFERENCES

1. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Использование личностно-ориентированного обечения на занятиях химии/ Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018, С.-366.
2. Комилов К.У., Ахметова К. Мониторинг – как инструмент обеспечения эффективности повышения квалификации педагогических кадров/Сборник статей. Международной научно-практической конференции «Повышение эффективности, надежности и безопасности гидротехнических сооружений». 2018. II-tom, С.-630-636.
3. Комилов К.У. На занятиях химией применение компьютерных и кейс технологий/Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018 й. 27 апрель. ТДПУ. Тошкент, С.-353.
4. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Педагогические технологии как дидактический инструмент при подготовки специалиста в техническом ВУЗе/ Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018 й. 27 апрель. ТДПУ. Тошкент, С.-364.
5. Элмурадов Б., Комилов К.У. Роль слайдов Power Point при проведении лекционных занятий по химии// Вестник Ташкентского института автомобильных дорог. 2018. № 1(4), С.-103-105.
6. Комилов К.У., Йулдошев Н.Н. Интеграция математики с естественными предметами/ Замонавий узлуксиз таълим

муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, 2018. С.-316.

7. Komilov Q.O‘., Kurbanova A.Dj., Xodjibekov S.N. Kimyo. O‘quv qo‘llanma. 2019. 160 b.

8. Курбанова Г.Дж., Курбанова А.Дж., Комилов К.У. Интеграция химии и русского языка// Касб-хунар таълими. 2019. № 2(2), С.-36-40.

9. Элмурадов Б., Комилов К.У. Математика для изучения химии в техническом ВУЗе// Международный научно-практический конференция, Шымкент, Республика Казахстан. 2019. II-том, С.-239-242.

10. Komilov Q.O‘, Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Case Technology in Chemistry Lessons// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1), Page. 262-265.

11. Komilov Q.O‘, Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Intellectual Training of Students of Technical Institute// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1), Page. 166-174.

12. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Кимё таълими ва экологик таълим – тарбия// Yangi o‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim 2021. №1(1), 160-165 betlar.

13. Komilov K.U., Atqiyayiva S.I. Kimyo mashg‘ulotlarida keys – stadi metodini qo‘llash/ VIII Международная научно-практическая конференция «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века» Нур-Султан, Казахстан.2021. Том 4. С.-62-67.

14. Ёдгаров Б.О., Комилов К.У., Курбанова А.Дж. Применение ИКТ для совершенствования общего химического образования// Общество и инновации. 2021. № 2(4/S), С.-257-261.

15. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Integration of chemistry and english in the teaching of chemistry// Academic research in educational sciences. № 2(9), Page. 40-43.

16. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U., Allayev J., Mirzaraximov A.A. Kimyo va ingliz tili fanlari integratsiyasi// Academic Research in Educational Sciences. № 2(10), 187-192 betlar.

17. Komilov K.U., Buzrukxo‘jaev A. Muammoli ta‘lim usullaridan foydalangan holda kimyo darslarida ko‘nikmalarni shakllantirish// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 11(2), 680-691 betlar.

18. Komilov K.U., To‘xtaniyozova F. Kimyo darslarida didaktik o‘yinlar// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 11(2). 903-911 betlar.



19. Kurbanova A. Dj., Komilov K.U., Allayev J. Umumiy va anorganik kimyo mashg'ulotlarida axborotkommunikatsion texnologiyalar elementlaridan foydalanish// Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2021. №4(4), 147-150 betlar.
20. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U., Kurbanova A.D. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarni qo'llanilishi// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 2(6), 1025-1032 betlar.
21. Рустамова Х.Н., Курбанова А.Д., Комилов К.У., Эштурсунов Д.А. Роль информационно-коммуникационных технологии в преподавании общей и неорганической химии// Экономика и социум. 2021. №5-2. 1047-1056 betlar.
22. Комилов К.У., Курбанова А.Д. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 2(6), 436-443 betlar.
23. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Образование и наука в XXI веке. 2021. № 3(10), 684-690 betlar.
24. Murodjon Alijonovich Karimjonov (2021). Kimyo mashg'ulotida keys-stadi metodini qo'llashning salbiy va ijobiy tomonlari. Academic research in educational sciences, 2 (10), 336-340.



KIMYODA MUAMMOLI MAVZULIRNI O'QITISHDA KEYS-STADINING ROLI

Azamat Matyakubov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun unda keys – stadi usulini qo'llanilishi yaxshi samara berishi haqida so'z brogan. Bunda dasturli usul, talabalarni aniq bir natijaga etishishida mustaqil faoliyatni tashkil etish usuli ekanligi ko'rsatib berilgan. Keyslarning afzalligi, ularda nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unligidaligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: dasturli ta'lim, keys stadi, muammo, muammoli vaziyat, yechim.

THE ROLE OF CASE STADE IN TEACHING PROBLEMS IN CHEMISTRY

ABSTRACT

The article discusses the use of case-study methods for the successful organization of the pedagogical process. It shows that the programming method is a way to organize independent activities for students to achieve a certain result. The advantage of the cases is that they combine theoretical and practical knowledge.

Keywords: program learning, case study, problem, problem situation, solution.

KIRISH

Oliy o'quv yurti muassasasi tashqarisidagi hayot shuni ko'rsatadiki, insonning muvaffaqiyati bilimlar miqdori bilan emas, balki uning harakatchanligi, umuman kerak bo'lmagan yangi ma'lumotlarni mustaqil ravishda olish qobiliyati, lekin ayni paytda qayta o'rganish qobiliyati bilan belgilana boshlaydi. Shu sababli zamonaviy didaktikada faoliyatga asoslangan kompetentsiya yondashuvi tobora kuchayib bormoqda, uning mohiyati o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Bilimga egalik qilish, uni amalda qo'llash, talqin qilish, unga o'z munosabatini bildira olish – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy maqsadi bo'lib, o'quvchilarning rivojlanishini belgilab beradi[1].

Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchilar o'z amaliyotlarida turli xil texnologiyalardan foydalanadilar, ular



orasida men ayniqsa keys texnologiyasini ajratib ko'rsatishni istardim[2]. Bu aniq vazifa-vaziyatlarni (holatlar) hal qilish orqali o'rganishga asoslangan faol muammoli-vaziyatli tahlil qilish usuli[3]. Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi muammolarni ishlab chiqish va ularning echimini topish qobiliyatini rivojlantirish, axborot bilan ishlashni o'rganishdir[4]. Bunda asosiy e'tibor tayyor bilim olishga emas, balki ularni rivojlantirishga, o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ijodiga qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keys texnologiyasining didaktik tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- har bir talabaga individual yondashish;
- o'quvchilarni yetarli miqdorda ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlash;
- ta'lim olishda maksimal erkinlikni ta'minlash;
- o'quvchining kuchli tomonlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish;
- o'quvchilarda axborot bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish;
- o'qituvchining istalgan vaqtda u bilan bog'lanishi kerak bo'lgan talaba uchun ochiqligini ta'minlash[5,6].

Keys texnologiyasi bilan aniq javoblar berilmaydi, ular mustaqil ravishda topilishi kerak[7]. Bu talabalarga o'z tajribasidan kelib chiqib, xulosalar qilish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va muammoga o'z (yoki guruh) nuqtai nazarini bildirish imkonini beradi. Keysda muammo yashirin, yashirin shaklda taqdim etiladi va, qoida tariqasida, u aniq echimga ega emas. Ba'zi hollarda, nafaqat echimlarni topish, balki muammoni shakllantirish ham kerak, chunki uning formulasi ba'zan aniq ko'rsatilmaydi[8,9].

Keyslar bosma, multimedia- va video- keyslar bo'lishi mumkin[8]. Shakli va mazmuniga ko'ra ularni, masalan, quyidagicha tasniflash mumkin:

- 20 va undan ortiq sahifagacha ma'lumot;
- birlamchi axborotlar; -videolar va boshqalarni o'z ichiga olgan murakkab keys;
- taqdimotli-keys, tasvirli(illyustratsiyali) - keys;
- amaliy vazifali - keys;
- tuzilgan savollar bilan keys. Qoida tariqasida, maktab amaliyotida keys uch qismdan iborat:
 - muayyan vaziyatning tavsifi;
 - keysni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar;

- keys uchun topshiriqlar [10,11,12]. Misol tariqasida, turli mavzularda turli sinflarda kimyo darslarida keyslardan foydalanishning bir nechta variantlarini ko'rib chiqamiz. O'qituvchi o'z rejasiga muvofiq dars qurish orqali ulardan foydalanishi mumkin.

“Fosfor va uning birikmalarining xossalari” mavzusidagi keys-vaziyat:

"Akademik Semyon Volfkovich fosfor bilan tajriba o'tkazgan birinchi sovet kimyogarlardan[13] biri edi. Keyin zarur choralar hali ko'rilmagan va ish paytida gazsimon fosfor kiyimlarni namlagan. Volfkovich qorong'i ko'chalardan uyga qaytganida, kiyimlari zangori nur sochdi va etklari ostidan uchqunlar paydo bo'ldi. Har safar uning orqasiga olomon yig'ilib, olimni boshqa dunyoviy mavjudot deb adashgan, bu esa butun Moskva bo'ylab “nurli rohib” haqidagi mish-mishlarning tarqalishiga sabab bo'lgan[14]. O'qituvchi ish bo'yicha quyidagi savollarni beradi: Fosforning qanday turlari mavjud va "allotropiya" hodisasi nima? Fosfor haqida hayotiy yoki adabiy manbalardan qanday misollar keltira olasiz? Fosforning qanday kimyoviy xossalari uning sanoatda va kundalik hayotda ishlatilishini belgilaydi? Akademik fosfor bilan ishlashda qanday ehtiyot choralarini ko'rishi kerak? [15]. Talabalar darslik va internet resurslaridan foydalangan holda ishlaydi. Qidiruv natijalari jadvalga kiritiladi:

- fosforning allotropiyasi; - fizikviy xususiyatlar;
- kimyoviy xossalari;
- inson tanasiga ta'siri;
- fosfor bilan ishlashda sil kasalligi;
- fosfordan foydalanish[16].

“Vodorod va uning xossalari” mavzusida keys[17]. Vaziyat yechimi:

1. Syujet bilan tanishish. "Vodorod - yaqin kelajak yoqilg'isi" - bu avtomobillarda H_2 iste'mol qiladigan ichki yonuv dvigatellarini joriy etishning shiori. Vodorod yoqilg'isi o'zining ko'plab noyob xususiyatlari tufayli uzoq vaqtdan beri boshqa muqobil energiya manbalari orasida etakchi o'rinni egallab kelmoqda: ekologik toza, benzin va dizel yoqilg'isiga nisbatan yuqori samaradorlik. "Agar vodorod shunday ajoyib xususiyatlarga ega bo'lsa," deb hayqirasiz, "nega u transport vositalarida deyarli ishlatilmaydi?" [18].

2. Muammolilik - talabalar muammoni topishlari kerak: nima uchun vodorod yoqilg'i sifatida ishlatilmaydi.

3. Muammoni shakllantirish: vodorod yoqilg'isi ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali, unda nima uchun sanoat vodorod bilan ishlaydigan avtomobillarni ishlab chiqarmaydi[19].

4. Muammoli savolga faraziy javoblarni ilgari surish (kichik guruhlarda aqliy hujum).

5. Syujet ma'lumotlari va boshqa mavjud manbalar asosida gipotezalarni tekshirish (guruh ishi). Talabalarga har qanday adabiyot, darslik, ma'lumotnomalardan foydalanish imkoniyatini berish kerak.

O'qituvchi hajmi 1 varaqdan oshmasligi kerak bo'lgan ma'lumotlar bilan bosma nashrlarni taqdim etadi. Keys darslik bo'yicha borishi mumkin[20].

6. Yechimning taqdimoti. Har bir guruh uchun 3 daqiqadan oshmasligi kerak.

7. Keys yechimining borishini aks ettirish. O'qituvchi savollari.

“Suv, xossalari, qadri” mavzusidagi keys guruhlarda bahs-munozara shaklida o'tkaziladi. 2000-yillardan [21] buyon veb-saytlar va pochta ro'yxatlarida digidrogen monoksidan foydalanishni taqiqlash uchun tez-tez qo'ng'iroqlar bo'lib turdi. Ular ushbu moddani keltirib chiqaradigan ko'plab xavflarni sanab o'tishadi: u kislotali yomg'irning asosiy tarkibiy qismidir, metallarning korroziyasini tezlashtiradi, qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin va hokazo. Xavfli bo'lishiga qaramay, modda sanoatda erituvchi, oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida faol ishlatiladi, atom stansiyalari va korxonalar uni katta miqdorda daryo va dengizlarga tashlaydi[22].

2007 yilda Yangi Zelandiya deputati xavfli kimyoviy moddani taqiqlashni talab qildi. Digidrogen monoksidni ishlatish xavfi nimada? Har bir guruhga masala beriladi, unda muhokama uchun savol ko'rsatiladi, ma'lumotlar chop etiladi yoki talabalar Internet manbalaridan, darslikdan foydalanadilar. 5-7 daqiqa davomida guruh o'z savoli ustida ishlaydi. Keyin ma'ruzachi (talabalar orasidan tanlangan) qolgan guruhlariga ma'lumot olib keladi va raqiblarning savollariga javob beradi (guruh a'zolari boshqa guruhlar tomonidan berilgan savollarga javoblarni to'ldiradi) [23]. Munozarani moderator (o'qituvchi) olib boradi.

1-keys. “Suvning kimyoviy xossalari. Suv yonishi mumkinmi? Kim va qachon birinchi bo'lib suvni sintez qilgan?”

2-keys. “Suvning fizik xususiyatlari. Suv tabiatda qanday agregatsiya holatida uchraydi? Suv yuqoriga oqishi mumkinmi? Nima uchun muzlatgichdagi suv shishasi shishiradi?”

3-keys. “Suvni ifloslantiruvchi asosiy manbalar nima? Suvni tozalash usullari qanday? Nega tabiatda toza suv yo'q?”

4-keys. "Suvning inson hayotidagi o'rni".

“Sintetik yuvish vositalari” mavzusida keys.

"Sovun paydo bo'lishining tarixiy versiyalaridan birida aytilishicha, bu ko'pikli mo'jizani yaratish g'oyasi hali ham

Rimliklarga tegishli. Bundan tashqari, ushbu versiya sovunning (Sovun) zamonaviy nomining kelib chiqishini ham tushuntiradi. Ushbu versiya tarafdorlari, yong'in kulining aralashmasi va Sapo tog'ida yoqib yuborilgan qurbonlik hayvonlarining yog'i yomg'irdan keyin Tiber daryosiga tushganiga ishonishadi. Daryodagi suv ko'piklana boshladi va natijada rimliklar Tiberda yuvgan kiyimlar yaxshiroq yuvila boshladi. Ammo sovunni maishiy maqsadlarda ishlatish gigiena protseduralari uchun ham ishlatilganligini anglatmaydi. Rimliklar terini sovun bilan tozalashning go'zalligini faqat miloddan avvalgi 164 yilda baholay olishdi. Rim shifokori Galenning yozuvlaridan olimlar o'sha paytda sovun kul va ohak eritmasidan tayyorlanganligini bilib oldilar. Va kompozitsiyaga yog 'qo'shilishi tufayli ko'piklandi. Vaqt o'tishi bilan, hatto "sovun ishlab chiqaruvchi" yoki "saponarius" deb ham ataladigan kasb paydo bo'ldi. Sovun ishlab chiqaruvchilarga havolalar Teodor Priskyanning eramizdan avvalgi 385 yilga tegishli asarlarida uchraydi. O'qituvchi savollari: Xo'sh, sovunning tuzilishi va tarkibi qanday? Yuvish vositalarining tuzilishi va xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating. Vazifalar: Yog 'va sovunning formulalari qanday? Uyda yog'dan sovun tayyorlash usulini taklif qiling. Boshqa manbalardan yog'lar, sovunlar, SMS haqida qo'shimcha ma'lumotlarni toping. Zamonaviy dunyoda ko'plab kosmetika, gigienik mahsulotlar taklif etiladi. Va to'g'ri sovunni qanday tanlash kerak, nimaga e'tibor berishim kerak?

XULOSA

Keys texnologiyalarini joriy etishni xohlovchi deyarli har qanday o'qituvchi maxsus adabiyotlarni o'rgangan holda, tayyorgarlikdan o'tgan va o'quv vaziyatlari qo'lida bo'lgan holda, buni juda professional tarzda bajara oladi.

REFERENCES

1. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Использование личностно-ориентированного обещания на занятиях химии/ Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истикболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018, С.-366.
2. Комилов К.У., Ахметова К. Мониторинг – как инструмент обеспечения эффективности повышения квалификации педагогических кадров/Сборник статей. Международной научно-практической конференции «Повышение эффективности, надежности и безопасности гидротехнических сооружений». 2018. II-том, С.-630-636.



3. Комилов К.У. На занятиях химией применение компьютерных и кейс технологий/Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018 й. 27 апрель. ТДПУ. Тошкент, С.-353.
4. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Педагогические технологии как дидактический инструмент при подготовки специалиста в техническом ВУЗе/Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. 2018 й. 27 апрель. ТДПУ. Тошкент, С.-364.
5. Элмурадов Б., Комилов К.У. Роль слайдов Power Point при проведении лекционных занятий по химии// Вестник Ташкентского института автомобильных дорог. 2018. № 1(4), С.-103-105.
6. Комилов К.У., Йулдошев Н.Н. Интеграция математики с естественными предметами/ Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: Инновациялар ва истиқболлар мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, 2018. С.-316.
7. Komilov Q.O‘., Kurbanova A.Dj., Xodjibekov S.N. Kimyo. O‘quv qo‘llanma. 2019. 160 b.
8. Курбанова Г.Дж., Курбанова А.Дж., Комилов К.У. Интеграция химии и русского языка// Касб-хунар таълими. 2019. № 2(2), С.-36-40.
9. Элмурадов Б., Комилов К.У. Математика для изучения химии в техническом ВУЗе// Международный научно-практический конференция, Шымкент, Республика Казахстан. 2019. II-том, С.-239-242.
10. Komilov Q.O‘, Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Case Technology in Chemistry Lessons// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1), Page. 262-265.
11. Komilov Q.O‘, Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Intellectual Training of Students of Technical Institute// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1), Page. 166-174.
12. Комилов К.У., Курбанова А.Дж., Аллаев Ж. Кимё таълими ва экологик таълим – тарбия// Yangi o‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim 2021. №1(1), 160-165 betlar.
13. Komilov K.U., Atqiyayiva S.I. Kimyo mashg‘ulotlarida keys – stadi metodini qo‘llash/ VIII Международная научно-практическая конференция [SEP] «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века» Нур-Султан, Казахстан.2021. Том 4. С.-62-67.



14. Ёдгаров Б.О., Комилов К.У., Курбанова А.Дж. Применение ИКТ для совершенствования общего химического образования// Общество и инновации. 2021. № 2(4/S), С.-257-261.
15. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U. Integration of chemistry and english in the teaching of chemistry// Academic research in educational sciences. № 2(9), Page. 40-43.
16. Kurbanova A.Dj., Komilov K.U., Allayev J., Mirzaraximov A.A. Kimyo va ingliz tili fanlari integratsiyasi// Academic Research in Educational Sciences. № 2(10), 187-192 betlar.
17. Komilov K.U., Buzrukxo'jaev A. Muammoli ta'lim usullaridan foydalangan holda kimyo darslarida ko'nikmalarni shakllantirish// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 11(2), 680-691 betlar.
18. Komilov K.U., To'xtaniyozova F. Kimyo darslarida didaktik o'yinlar// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 11(2). 903-911 betlar.
19. Kurbanova A. Dj., Komilov K.U., Allayev J. Umumiy va anorganik kimyo mashg'ulotlarida axborotkommunikatsion texnologiyalar elementlaridan foydalanish// Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2021. №4(4), 147-150 betlar.
20. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U., Kurbanova A.D. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarni qo'llanilishi// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 2(6), 1025-1032 betlar.
21. Рустамова Х.Н., Курбанова А.Д., Комилов К.У., Эштурсунов Д.А. Роль информационно-коммуникационных технологии в преподавании общей и неорганической химии// Экономика и социум. 2021. №5-2. 1047-1056 betlar.
22. Комилов К.У., Курбанова А.Д. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry// Academic Research in Educational Sciences. 2021. № 2(6), 436-443 betlar.
23. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Образование и наука в XXI веке. 2021. № 3(10), 684-690 betlar.



TIBBIY-BIOLOGIK TADQIQOTLARDA STATISTIK TAHLIL JARAYONLARI

Alikul Melitoshevich Voxidov

Samarqand davlat tibbiyot instituti assistenti

Murod Rasulovich Malikov

Samarqand davlat tibbiyot instituti dotsenti

Dilshod Alikulovich Voxidov

Toshkent axborot texnologiyalar universitetining Samarqand viloyati filiali magistri

Lola Alisherovna Nurmuxammadiyeva

Samarqand davlat tibbiyot instituti talabasi

ANNOTASIYA

Ushbu ish klinik sinovlarni statistik tahlil qilishning asosiy masalalariga bag'ishlangan. Statistik ishlov berish murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni ilmiy tashkil etish darajasi to'plangan statistik ma'lumotlarning sifatini, ularni qayta ishlash va tushunish natijalarini qat'iy belgilaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot va statistika, Pirson korrelyatsiya koeffitsienti.

PROCESS OF STATISTICAL ANALYSIS IN MEDICAL-BIOLOGICAL RESEARCH

ABSTRACT

The given job is devoted to the basic questions of realization of the statistical analysis of clinical researches. The statistical processing represents complex, difficult multistage process; the quality of the accrued statistical data, results of their processing and judgments depends on a level of which scientific organization by a decisive image.

Keywords: Medicine and statistics, factor of correlation Pirson.

KIRISH

Maqolada klinik tajribalarni statistik tahlil qilishning asosiy masalalari yoritilgan. Statistik ishlov berish murakkab ko'p

bosqichli jarayon bo'lib, uni ilmiy tashkil etish darajasi to'plangan statistik ma'lumotlarning sifatini, ularni qayta ishlash va tushunish natijalarini qat'iy belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy tibbiyotni tahlil, tashxislashda aniq va ishonchli usullaridan foydalanmasdan turib tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika XVII asr o'rtalarida jamiyat va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan.

Har qanday fan kabi statistika ham odamlarning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Qadimgi dunyoda ham soliq yig'ish, harbiy xizmat va boshqa ijtimoiy faoliyatni bajarish zaruriyati aholini, uning joylashgan joyini, mashg'ulotini hisobga olish zaruratini keltirib chiqardi.

Ushbu ishning mavzusi doimo dolzarb bo'lib qoladi, chunki matematika va statistik usullar ko'plab masalalarni hal qilishda, shu jumladan tibbiyot sohasida qo'llaniladi.

Har yili olimlar yangi kasalliklarni aniqlaydilar, dori-darmonlarni topadilar, yangi davolash usullari va bularning hech biri matematika va statistikasiz xal etilmaydi.

MUHOKAMA

Har qanday fan singari, statistikaning ham o'ziga xos o'rganish fani va o'ziga xos usullari mavjud. Statistikaning fani - har qanday sohadagi ommaviy hodisalarning sifat mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lgan miqdoriy jihati. Shu bilan birga, bu hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini miqdoriy ifodalash joy va vaqtning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi^{1,2}.

Statistikaning ommaviy hodisalarni o'rganadigan o'ziga xos usullari statistik metodologiyani (yoki statistika usulini) tashkil qiladi.

Har qanday statistik tadqiqot bosqichini uchta ketma-ketlika ajratish mumkin:

1. Statistik kuzatish, ya'ni birlamchi statistik materiallarni to'plash.
2. Kuzatish natijalarini guruhlash va umumlashtirish.
3. O'rganilayotgan hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini hisoblash va olingan konspekt va hisob-kitob materiallarini tahlil qilish, xulosa va takliflarni shakllantirish^{1,2}.



Statistik tadqiqotning ushbu bosqichlarida o'ziga xos usullar qo'llaniladi, ular birgalikda statistika fanining metodologiyasi mazmunini tashkil qiladi.

Statistikani tashkil etuvchi axborotning umumiy xususiyati shundan iboratki, ular doimo bitta (alohida) hodisaga taalluqli emas, balki o'zaro bog'liq belgilarga ega bo'lgan bunday hodisalarning (elementlarning) butun guruhini qamrab oladi.

Statistik ishlov berish murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni ilmiy tashkil etish darajasi to'plangan statistik ma'lumotlarning sifatiga, ularni qayta ishlash va tushunish natijalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda tibbiy faoliyatning turli sohalarida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ammo statistik ishlov berish har doim ham zamonaviy talablarga javob bermaydi, bu esa taqdim etilgan natijalarga katta shubha tug'diradi. Bu holat biroz hayratlanarli, chunki tibbiy ma'lumotlarni statistik qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha etarli miqdordagi adabiyotlar³, shuningdek, dasturiy ta'minotning keng doirasi (InstallShield Software Corporation (AQSh) Biostat, Statistica 6.0 statistik dasturiy ta'minot to'plami); SPSS dasturiy ta'minoti mavjud. Windows uchun paket (PASW Statistics) va boshqalar).

Statistik usullarni qo'llash oddiy protsedura emas, bu-ilmiy izlanishdir. Har qanday ijodiy faoliyat singari, tadqiqotni rejalashtirish va olingan natijalarni sharhlash matematika sohasida chuqur bilim talab qiladi². Mas'uliyat ham katta - ko'pincha klinik sinovlar natijalarini statistik baholash ushbu davolash usuli foydasiga qaror qabul qiladi. Amalda statistik tahlil rasmiy ravishda shifokorlarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi, yoki ma'lumotlar to'plangandan so'ng, ularni tahlil qilish tibbiy ilovalar bilan bog'liq bo'lmagan matematiklarga topshiriladi. Bundan tashqari, ko'pincha tadqiqotni rejalashtirishga etarlicha e'tibor berilmaydi. Natijada, ma'lumot to'plash bosqichi tugaganidan keyin ham, statistik testlarni qo'llashga urinayotganda, to'plangan ma'lumotlar taqqoslangan davolash usulining boshqasiga nisbatan afzalliklari to'g'risida statistik jihatdan muhim xulosa chiqarish uchun etarli emasligi aniqlanishi mumkin. Bu erda olingan natijalarni tahlil qilishning eng murakkab matematik usullari ham, agar ular to'liqsiz rejalashtirilgan tadqiqot jarayonida olingan bo'lsa, vaziyatni saqlab qolmaydi².

Pirson korrelyatsiya koeffitsienti

Nega regressiya tahlili munosabatlarning bog'liqligini taqqoslash uchun ishlatib bo'lmaydi? Standart qoldiq og'ish munosabatlarning yaqinligining o'lchovi sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq, agar siz bog'liqli va bog'liqsiz o'zgaruvchilarni almashtirsangiz, regressiya tahlilining boshqa ko'rsatkichlari kabi qoldiq standart og'ish ham boshqacha bo'ladi.

Biz faraziy misolni tanlaymiz: qadimgi davrlarda yer yuzida Homo Sapiencening ikki turi mavjud edi: birinchi guruh baland bo'lyli, ikkinchi guruh (pigmei) kichik bo'lyli. Bizga ma'lum bo'lgan 12 ta qadimgi yerlik namunaga ko'ra, ikkita regressiya chizig'i qurilgan. Bir holatda og'irlikka bog'liq o'zgaruvchi, ikkinchisida mustaqil o'zgaruvchidir. Regressiya chiziqlari sezilarli darajada farq qiladi. Ma'lum bo'lishicha, bo'yning vazn bilan bog'liqligi bitta, vaznning bo'y bilan bog'liqligi boshqa ekan. Regressiya tahlilining assimetriyasi uning munosabatlarning mustahkamligini tavsiflash uchun bevosita ishlatilishiga to'sqinlik qiladi. Korrelyatsiya koeffitsienti, garchi uning g'oyasi regressiya tahlilidan kelib chiqsa ham, bu kamchilikdan xoli. Quyidagi formulani olsak³.

$$r = \frac{\sum(X - \bar{X})(Y - \bar{Y})}{\sqrt{\sum(X - \bar{X})^2 \sum(Y - \bar{Y})^2}}$$

bu erda \bar{X}, \bar{Y} lar X va Y o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatlari. r ifodasi "simmetrik" tarzda - X va Y ni almashtirish orqali biz bir xil qiymatga ega bo'lamiz. Korrelyatsiya koeffitsienti -1 dan +1 gacha bo'lgan qiymatlar oralig'dagi qiymatlarni oladi. Qanchalik oraliq qiymat yaqin bo'lsa, korrelyatsiya koeffitsientining aniq qiymati shunchalik katta bo'ladi.

$r > 0$ bo'lsa, musbat korrelyatsiya (bir o'zgaruvchining ortishi bilan boshqa o'zgaruvchi ham ortadi), $r < 0$ bo'lsa, manfiy korrelyatsiya (bir o'zgaruvchining ortishi bilan, ikkinchisi kamayadi).

$r = +1$ chizikli musbat korrelyatsiya. $r = -1$ chizikli manfiy korrelyatsiya. $r = 0,8$ da xam chizikli musbat korrelyatsiya bo'ladi. $r = 0$ bo'lsa ushbu o'zgaruvchilar orasida chizikli bog'lonish mavjud bo'lmaydi. Biz misol tariqasi sifatida regressiya tahlili uchun 12 ta qadimgi yerliklardan misol keltiramiz. Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz. Dastlabki ma'lumotlar va hisob-kitoblarning oraliq natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Misol tariqasida variant $n=12$ bo'lganda o'rtach bo'yi va og'rligni hisoblaymiz:

Ҳосил бўлган динамик характеристикалардан (1-расм) қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин: k (кучайтириш коэффициентини) чиқишдаги сигнални киришдаги сигналга нисбатан кучайтириш учун таъсир қилади; вақт катталиги T ўтиш жараёни эгри чизигининг тиклигига таъсир кўрсатмоқда, яъни T доимий вақтнинг қиймати қанчалик кичик бўлса, чиқишдаги $y(t)$ сигнал киришдаги $x(t)$ сигналга шунча яқин бўлади. Шунингдек, звенонинг k ва T параметрларининг ҳар хил қийматлари ўтиш жараёни $y(t)$ нинг умумий кўринишини ўзгартириб юбормайди, яъни k ва T нинг ҳар хил қийматларида ҳам ўтиш жараёнининг ўзгариши монотон экспоненциаль ва ўтиш жараёнида даврий такрорланиш (тебраниш) мавжуд эмас.



1-расм. Звенонинг бир поғонали таъсирга реакцияси.

Кўриб чиқилган звенонинг аperiодик деб номланишига юқоридаги хулосада келтирилганларни сабаб қилиб кўрсатиш мумкин.

Аperiодик звенони жуда кичик давомийлик ва жуда катта амплитудали, ε кенгликдаги Дирак делта функцияга реакциясини ҳам кўриб чиқамиз. Дирак делта функцияни иккита поғонали функциянинг фарқи сифатида қараш мумкин:

$$x(t) = \frac{1}{\varepsilon} \cdot [1(t) - 1(t - \varepsilon)],$$

бу ерда ε -импульснинг кенглиги (давомийлиги).

Звенонинг ҳолати қуйидаги тенглама билан ифодаланади:

$$T \frac{dy(t)}{dt} + y(t) = \frac{k}{\varepsilon} \cdot [1(t) - 1(t - \varepsilon)].$$

Ушбу тенгликни $[0; \varepsilon]$ ва $[\varepsilon; t]$ вақтлар оралиғида аниқланган иккита тенгликка бўлиш мумкин:


$$T \frac{dy(t)}{dt} + y(t) = \frac{k}{\varepsilon} \cdot 1(t); \quad t = [0; \varepsilon] \text{ бўлганда}$$

$$T \frac{dy(t)}{dt} + y(t) = k; \quad t > \varepsilon \text{ бўлганда.}$$

Ушбу дифференциал тенгламада, вақт чегараси $t = \varepsilon$ бўлганда 1-тур узилиш кузатилади, шунинг учун унинг ечими қуйидагича қабул қилинади:

$$y(t) = \begin{cases} k \left(1 - e^{-\frac{t}{T}} \right) & t \leq \varepsilon \text{ бўлганда,} \\ k \cdot e^{-\frac{t}{T}} & t > \varepsilon \text{ бўлганда.} \end{cases}$$

Ҳосил бўлган ифодадан фойдаланиб, Диракнинг делта функциясига звенонинг реакциясини курамыз (2-расм).



2-расм. Звенонинг импульсли таъсирга реакцияси.

Импульсли динамик характеристикалардан (2-расм) қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин: k (кучайтириш коэффиценти) чиқишда сигнални киришдаги бирлик импульсга нисбатан кучайтиради; вақт катталиги T (доимий вақт)нинг қиймати қанча кичик бўлса, чиқишдаги $y(t)$ сигналнинг сўниши киришдаги $x(t)$ сигналга шунча яқин бўлади. Эгри чизик $y(t) \equiv w(t)$ импульсли ўтиш жараёни ҳисобланиб, звенонинг салмоқ функцияси дейилади. Звенонинг k ва T параметрларининг ҳар хил қийматлари импульсли ўтиш жараёни $y(t) \equiv w(t)$ нинг умумий кўринишига таъсир қилмайди ва импульсли ўтиш жараёнининг ўзгариши монотон сўнувчи бўлиб, унда даврий такрорланиш (ёки тебраниш) кузатилмайди, яъни бу звено аperiодик звено.

Аperiодик звенони гармоник кириш сигнали $x(t) = A \cdot \sin \omega t$ га нисбатан реакциясини кўриб чиқамиз. Бу ерда, $A=1$ кириш сигналининг амплитудаси.

Звенонинг ҳолат тенгламаси қуйидагича ифодаланади:


$$T \frac{dy(t)}{dt} + y(t) = k \cdot \sin(\omega t).$$

Частотаси ω бўлган гармоник таъсирга нисбатан звенонинг чиқишидаги реакция:

$$y(t) = \frac{k}{1 + \omega^2 T^2} \cdot [\sin(\omega t) - \omega T \cdot \cos(\omega t)].$$

Ҳосил бўлган натижавий функциянинг графигини $k = 2$, $\omega = \frac{\pi}{2}$ ва $T = 1; 2$ қийматлари учун курамиз (3-расм).

Маълумки, гармоник таъсирга нисбатан звенонинг реакцияси фаза бўйича орқада қолади. Агар, звенонинг киришига $x(t) = A \cdot \sin(\omega t)$ таъсир берилса, чиқишдаги реакция $y(t) = B \cdot \sin(\omega t + \varphi)$ бўлади. График (3-расм)дан кўринадики, вақт катталиги $T = 1$ бўлганда, фазалар фарқи $\varphi_1 = \omega(t_1 - t) = \frac{\pi}{2}(1.65 - 1) = 58.5^\circ$, худди шундай $T = 2$ бўлганда, $\varphi_2 = \omega(t_2 - t) = \frac{\pi}{2}(1.81 - 1) = 72.9^\circ$.



3-расм. Звенонинг гармоник таъсирга реакцияси.

Вақт катталиги T нинг қиймати қанча кичик бўлса, чиқишдаги $y(t)$ сигнал киришдаги $x(t)$ сигналга ҳам амплитудаси ҳам фазаси бўйича шунча яқин бўлади. Бундан ташқари, $x(t)$ ва $y(t)$ функцияларнинг даврийлиги бузилмаяпти, яъни звено аperiодик.

Юқорида келтирилган тартиб бўйича, барча типик звеноларни узатиш функцияларини тузиш ва параметрларни

бир нечта қийматларида динамик характеристикаларни қуриш орқали звеноларни хусусиятларини ҳамда номланишларини асослаш мумкин.

МУҲОКАМА

Компьютер дастурлари имкониятларидан фойдаланиб, фанга доир ахборотлар базасини шакллантириш ва ахборотни талабага етказиш имкониятларини кенгайтиришга ҳамда “Автоматик бошқариш назарияси” фанидан типик звеноларнинг динамик характеристикаларини визуаллаштириш орқали звеноларнинг номланиши келиб чиқиши ва мос равишда ишлаш принципларини ёритиш машғулотларга бўлган дидактик талабларнинг сифатини ўзгаришига олиб келади.

ХУЛОСА

Ўрганилаётган қурилмаларнинг ишлаш принципларини ёритиб берувчи характеристикаларини келтириб чиқариш ва қуриш жараёнини визуаллаштириш ўзига хос иллюстрация бўлиб, ўқув фаолиятини интеллектуаллаштиришга, интеграция жараёнларини тезлаштиришга, таълим тизими инфраструктураси ва уни бошқариш механизмларини такомиллаштиришга олиб келади. Мураккаб жараёнларни компьютер дастурларидан фойдаланиб моделлаштириш келажакда талабаларни кенг қамровли фикрлаш доирасини шаклланишига асос бўлади.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. //Халқ сўзи, 2017 йил 16 январ.
2. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015. – 208 бет
3. Сарсанбаев Р.М. Дарсларда кўргазмалар ва тарқатмалар материаллардан фойдаланиш технологияси. Замонавий таълим. 2015. №2, 36-45 б.
4. Маллаев А.Р., Жураев А.Х. Техника фанларини ўқитишда замонавий ахборот технологияларни ўрни //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 87-96.
5. Бесекерский В.А., Попов Е.П. Теория систем автоматического управления. - СПб.: Профессия, 2004. -752 с.
6. Igamberdiyev X.Z., Sevinov J.U. Boshqarish nazariyasi. -Т. 2018, 336 б.

7. Маллаев, А.Р. Matlab дастурида динамик моделлар таҳлили. Инновацион технологиялари журналы, 2014, №2. 65-70 б.
8. Маллаев А. Р. Пропорционал-интеграл регуляторни созлашнинг оптимал параметрларини ҳисоблаш //Инновацион технологиялари., Қарши. – 2014. – №. 4. – С. 59-64.
9. J.U.Sevinov, A.R.Mallaev, S.N.Xusanov, “Algorithms for the Synthesis of Optimal Linear-Quadratic Stationary Controllers”, In: Aliev R.A., Yusupbekov N.R., Kasprzyk J., Pedrycz W., Sadikoglu F.M. (eds) 11th World Conference “Intelligent System for Industrial Automation” (WCIS-2020). WCIS 2020. Advances in Intelligent Systems and Computing, vol 1323, 2021. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-68004-6_9.
10. A.R.Mallayev, S.N.Xusanov, “Estimation of Parameters of Settings of Regulators Based on Active Adaptation Algorithm”, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, vol. 6, Issue 8, pp.10376-10380, 2019.



O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Xavoxon Yakubjanovna Abdullayeva
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda pedagogik faoliyatning alohida shakli sifatida o‘z malakasini oshirib borishga ehtiyoj ham ortib boraveradi. Maqolada o‘qituvchi pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo‘nalishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, pedagogik mahorat, o‘qituvchi, axborot texnologiyalari, innovatsion g‘oyalar, axborot, sog‘lom raqobat.

ABSTRACT

Today, there is a growing need for advanced training as a separate type of pedagogical activity. The article discusses the main directions of improving the pedagogical skills of teachers.

Keywords: pedagogy, pedagogical skills, teacher, information technologies, innovative ideas, information, healthy competition.

KIRISH

Haqiqiy professional doimo rivojlanishda bo‘ladi va o‘zining butun mehnat faoliyati davomida tadqiqotchi bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogda professionallikning shakllanishida mustaqil ta‘lim va metodik faoliyat katta ta‘sir ko‘rsatadi. Pedagog professionalligining asosiy mezonlari ham hammaga ma‘lum. Bular: metodikani yaxshi bilish va uni takomillashtirib borish; samarali o‘zaro hamkorlikni tashkil etish uchun tarbiyalanuvchilarning psixologiyasini yaxshi bilish; o‘zi o‘qitadigan predmetni yaxshi bilish va uning ustida doimiy izlanish, o‘z-o‘zini takomillashtirib borish.

O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimiga o‘tish munosabati bilan metodik ishlarning ustivor yo‘nalishi ta‘lim jarayoni sifat va samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarga yordam berish, pedagogning o‘z malakasini oshirib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

A.S. Makarenko shunday degan edi – “men bir soʻzni 15-20 xil ohang bilan va yuz, tovush, gavdamni 20 xil holatda tushira olganimdan soʻnggina oʻzimni haqiqiy pedagog deb hisobladim.” [1]

Amerikalik pedagoglar D.Brofi va T.Gudlar esa “Oʻqituvchi va oʻquvchi munosabati” kitobida shunday yozadi – “oʻqituvchi uchun muloqot tabiiy va xursandchilik boʻlmasa – oʻqituvchi maktabdan ketishga tayyor boʻlaversin”. [2]

Oʻqituvchini oʻz malakasini muntazam oshirib borishga undovchi motivlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Har kuni axborot bilan ishlash. Bunda yangi darsga, ota-onalar yigʻilishiga, maʼruzaga, axborot soatiga, olimpiadaga yoki biror bir boshqa tadbirga tayyorlanish uchun yangi axborotni qidirish va uni tahlil qilish.

- Ijod qilish istagi. Oʻqituvchilik – ijodkorlikka asoslangan kasb. ijodkor oʻqituvchi har yili oʻsha eskitdan qolgan, sargʻayib ketgan maʼruza matni bilan ishlay olmaydi. yangilik paydo boʻlishi kerak, oʻqituvchi ishi faqat oʻzi uchun emas, balki oʻquvchilar uchun ham qiziqish va mamnuniyat uygʻotishi lozim. (talabalar kim qanday dars oʻtishini yaxshi bilishadi. bu maʼlumot kursdan kursga yetkaziladi. kimningdir darsiga talabalar oshiqishadi, kimningdir darsidan qochishadi.)

- Zamonaviy ilm-fannig sezilarli darajada taraqqiy etganligi, ayniqsa, pedagogika va psixologiya fanlarining. avtomashinalar davrida ot aravadan foydalanish yaramaydi. jamiyat hayotida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar eng avvalo oʻquvchi-yoshlarda aks etadi, ularning dunyoqarashlarini shakllantiradi. agar yangi axborotlar oʻzlashtirib borilmasa, oʻqituvchi obrazi zamonadan orqada qolgan kishi sifatida namoyon boʻlishi mumkin.

- Sogʻlom raqobat. Sir emaski, ota-onalar taʼlim muassasasini tanlaganda koʻproq pedagoglarning malakasi va bilim darajasiga eʼtibor beradilar. shunga koʻra yuqori kvalifikatsiyaga ega boʻlgan oʻqituvchi iqtidorli oʻquvchilarni tanlash va oʻz ish yuklamasini belgilab olish imkoniga ega boʻladi.

- Jamoatchilik fikri. Oʻqituvchi uni “yaxshi”yoki “yomon” deb atashlariga nisbatan befarq boʻla olmaydi. hech kim yomon oʻqituvchi nomini olishni istamaydi.

Oʻqituvchi pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yoʻnalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy (oʻqitadigan oʻquv predmeti);
- pedagogik-psixologik (oʻquvchi va ota-onaga yoʻnalganlik, taʼlim va tarbiya berish boʻyicha tavsiyalar berish);

- psixologik (o‘z imidji ustida ishlash, o‘zi muloqot qila olishi va bunga o‘rgata olishi, liderlik xususiyatlari);
- metodik (pedagogik texnologiyalar, ta’limning texnologiyasi);
- estetik (gumanitar), go‘zallikni his etish...
- tarixiy; o‘z ta’lim muassasasi, qishlog‘i, vatani tarixini yaxshi bilish.
- siyosiy (siyosiy voqea-hodisalardan xabardor bo‘lish, bolalarni xabardor qilib, ularni ma’rifatli qilib borish).

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qituvchi turli manbalarni qidirib, mustaqil ravishda o‘z shaxsini va kasbiy faoliyatini oshirib borish uchun ulardan foydalanadi. Pedagogik mahoratini takomallashtirish uchun o‘qituvchi jahon va milliy miqyosdagi zamonaviy o‘qitish metodlari haqida xabardor bo‘lishi hamda o‘z ustida ishlashi darkor.

REFERENCES

1. Антон Макаренко. Педагогическая поэма. – М.: Педагогика, 1981.
2. Брофи Дж., Гуд. Т. Отношение учителя к ученику. – М., 1974.
3. Omonov N.T., Xo‘jaev T.X. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya. 2009.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT ORGANLARI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JAMIYAT VA FUQAROLAR OLDIDA MAS’ULLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Berdax Aymuratovich Daumenov
Qoraqalpoq davlat universiteti

Muazzamoy Tillaboyeva
Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Davlat, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamiyat, fuqaro, Konstitutsiya, huquq.

ABSTRACT

The article considers the constitutional and legal foundations of the responsibility of state bodies and officials in the Republic of Uzbekistan to society and citizens.

Keywords: state, state bodies, officials, society, citizen, Constitution, rights.

KIRISH

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o‘ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlat belgilari to‘g‘risidagi masala hamisha huquqshunoslar e‘tiborini tortib kelgan va bu haqda ularning turli talqinlari mavjud.

Hozirgi sharoitda demokratiya va erkinliklarni, barqarorlik tinch – totuvligini, respublika xalqlari hamjihatligi va hamkorligini qaror toptirishda, islohotlar va ularni amalga oshirishdagi tashabbuskorlikda, madaniyati yuksak rivoj topgan jamiyatga o‘tishda O‘zbekiston davlati yetakchi rol o‘ynamoqda.

Ushbu maqsadlarni hayotga muvafaqqiyatli tadbiq etish davlatni mustahkamlash vazifalarini bajarish, O‘zbekistonda davlat hokimiyati barcha bo‘g‘inlarining samarali ishlashini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liq. Davlat va fuqaro munosabati davlatchilik tarixida markaziy masalalaridan bo‘lib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimi moddiy va protsessual huquqlardan tashkil topadi. Moddiy huquqlar jamiyat a‘zolari va ijtimoiysiyosiy tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan qoidalar bo‘lib, umummajburiy xarakterga ega. Masalan, mehnat-huquqiy munosabatlari mehnat-huquqiy normalaridan tashkil topgan mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Protsessual huquq esa, moddiy huquq normalarini qo‘llashda kelib chiqadigan, huquqdan foydalanuvchi va uni qo‘llovchi subyektlarning talab va xizmat doiralarini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, davlat organlarida ishlovchi mansabdor shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan bo‘ladigan huquqiy munosabatlarning rioya qilish zarur bo‘lgan demokratik shartlarini belgilab beradi

Aytish mumkinki, bu munosabatni qanday tashkil qilishga davlat suverenitetining to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi bor. Faqat davlat suveren davlat bo‘lgandagina fuqarolar bilan o‘zi xoxlagancha, manfaatlar mutanosibligi asosida munosabatni o‘rnatishi mumkin.

Bundan tashqari, suverenitet faqat davlat suvereniteti bilan cheklanmaydi, xalq suvereniteti ham mavjud bo‘lib, bu orqali xalq o‘z irodasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Davlat suvereniteti shu davlat hududida yashayotgan barcha shaxslarga nisbatan davlat hokimiyatining oliyligi prinsipini bildiradi. Boshqacha aytganda, davlat hokimiyati alohida nisbatan doimiy va turg‘un munosabatlarga kirishish sharti asosida amal qilishi mumkin. Shunda davlat o‘z suverenitetini mustahkamlay olishi va himoya qilishi mumkin. Davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda shaxsning davlat bilan siyosiy va huquqiy bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat suvereniteti va shaxs o‘rtasidagi bog‘liqlik eng avvalo, Konstitutsiyaning 2-moddasi talablaridan kelib chiqadi. Unda yozilishicha “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘uldirlar”. Mana shu qoidaning o‘zi Konstitutsiyaning naqadar demokratik ekanligidan, xalq irodasi va manfaatlarini hamma narsadan ustun turishidan darak beradi. Buning ustiga barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas‘ulligining mustahkamlanishi davlat suverenitetining muhim kafolatidir. Chunki davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi majburiyati, ular tomonidan davlat hokimiyati va xizmat vakolatlarining suiiste‘mol qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etishi, uning manfaatlariga xizmat qilishi qonuniy mustahkamlab qo'yilgan. Bu qoida davlat va fuqaro munosabatini tashkil etishda asosiy prinsip hisoblanadi. Konstitutsiyaning barcha davlat va fuqaro munosabatlariga taalluqli qoidalari, normalari shu qoidaga mos kelib, uni ruyobga chiqarishga qaratiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 42-moddasidagi "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga gamxurlik qiladi", 43-moddasidagi "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" yoki 53-moddadagi "Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib..." degan qoida fuqaro manfaatini himoya qilishda davlat asosiy mas'ul ekanligini ko'rsatadi.

Davlatning xalq irodasini ifoda etishi (xalq bu O'zbekiston fuqarolari), uning manfaatlariga xizmat qilishi, Konstitutsiyaning 2-moddasida yanada aniqlashtirilib, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, deb belgilab qo'yildi. Sababi, davlat organlari (vaqillik, ijro, sud) davlatning aniq vazifalarini xal qiladigan, shunga yarasha davlat tomonidan yetarli vakolatlar bilan ta'minlangan tuzilmadir. Xuddi shuningdek, mansabdor shaxslar ham davlat vaqilidir. Davlat organlari va mansabdor shaxslar davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini amaliy jixatdan bajaradigan davlat vaqilidir. Davlat juda keng tushuncha. Davlatning fuqarolar oldida mas'uliyati, umumiy ma'noda, deklarativ tushunchaga o'xshab qoldi. Davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati aniq usullar, mexanizmlar orqali hayotiy vokeaga aylanishi mumkin. Bu esa, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'uliyatining belgilanishi bilan davlat mas'uliyati ruyobga chiqarishini bildiradi.

Sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan birorta Konstitutsiyada davlatning, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligini belgilovchi (xatto deklarativ xarakterda bo'lsa ham) qoida va norma uchratmaymiz. Aksincha, ularda fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati xaqida ko'plab normalar mavjud edi.

Davlat, davlat organlari, mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi fuqarolik jamiyatining ham asosiy shartlaridandir, faqat fuqarolik jamiyatidagina bunday mas'ullik real vokeaga aylandi.

XULOSA

Shuning uchun ham Prezident tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyada davlat xokimiyati va boshqaruv organlarining fuqarolar oldida mas'uliyatini kuchaytirish uchun "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi va "Davlat xokimiyati va

boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida’gi qonunlar qabul qilish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi .

Davlat organlari faoliyati kanchalik ochiq bular, shuningdek, ularning faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati o‘rnatilar ekan, davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyati kuchayib boradi va davlat fuqaro munosabatida fuqaro manfaati ustunligi ta’minlanadi.

Davlatning fuqaro oldidagi mas’ulligining Konstitutsiya normasida belgilanishi bilan ish tugamagan, davlat organlari, mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas’ulligi boshqa joriy qonunlarda ham mustaxkamlangan. Masalan, “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida’gi qonunda fuqarolarning murojaatlarini aniq muddatda qurish zarurligi belgilangan. Bunday xolatlarni boshqa qonunlarda hamqurish mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Sharq, 2001.
2. “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasining 13.12.2002 yildagi 446-II-sonli qonuni.
3. Azizxo‘jayev A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: TDYuI, 2008.



ESHITISH IMKONIYATI CHEKLANGAN O`QUVCHILARGA ASTRONOMIYA FANINI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O`giloy Kamardin qizi Sunnatova

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola eshitish imkoniyati cheklangan o`quvchilarga astronomiya fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish haqida bo`lib, bunda ularning jismoniy, fiziologik holatlari, imkoniyatlari inobatga olingan holda yondashiladi.

Kalit so`zlar: zaif eshituvchi, innovatsion texnologiya, daktil tili, taktil – vibratsion sezgi, o`yin, metod.

*Insoniyat ertami, kechmi karlikni ham,
ko`zi ojizlikni ham, aqli zaiflikni ham yengadi.
Lekin u ular ustidan tibbiy va biologik jihatdan ertaroq,
ijtimoiy va pedagogik jihatdan g`alaba qilishi muqarrar.
L. S. Vigotskiy*

KIRISH

Ta`lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta`lim sifatini oshirish, inklyuziv ta`limni rivojlantirish, maxsus ta`lim tizimida katta ahamiyatga ega. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13- oktyabr “Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim –tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarga DTS asosida ta`lim –tarbiya berish, nuqsonlarni korrektsiyalash, jamiyatga moslashuviga ko`maklashish surdopedagoglarning maqsadli vazifasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Eshitish imkoniyati cheklangan o`quvchilar bilan ta`lim –tarbiya jarayonini tashkil etish birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunga sabab ularning psixologik, fiziologik imkoniyatlarining chegaralanganligidir. Eshitish qobiliyati ning yo`qolishi bolani

muhim ma`lumot manbasidan ayirib, uning aqliy va ruhiy rivojlanishiga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar ning quyidagi toifalari mavjud:

1. Kar bolalar – eshitishning mutlaqo yo`qolishi.

2. Zaif eshituvchi bolalar - eshitish qobiliyatining qisman pasayishi. Bunday bolalar ham o`z navbatda tug`ma va orttirilgan kar yoki zaif eshituvchi bolalar guruhlariga bo`linadi.

Sog`lom bola atrof muhit to`g`risidagi ma`lumotning asosiy qismini eshitish sezgisi va idroki orqali qabul qiladi. Kar bolalarda esa bunday imkoniyat yo`q, yoki chegaralangan. Bu bilish jarayonini qiyinlashtiradi. Bolada eshitish imkoniyatining yo`qolishi ko`rish sezgisining kuchayishiga ehtiyoj tug`diradi. Bolaning nutqi predmet va hodisalarni ko`rib anglash orqali rivojlanadi. Shu bilan bir qatorda harakat, taktil- tebranish, hid va ta`m bilish sezgilari ham atrof muhit to`g`risidagi bilimlarning shakllanishiga muhim o`rin tutadi.

T.V. Rozanova tadqiqotlarining ko`rsatishicha kar bolalarda xotira ham o`ziga xos xususiyat kasb etadi. Eshitish qobiliyatini yo`qotgan bolada sog`lom tengdoshiga nisbatan esga olinishi lozim bo`lgan predmet yoki hodisaning aniqligi, ravshanligi yo`qoladi, aloxida detallarining muhitda joylashuvi, hajmi to`g`risidagi tasavvurlar sayoz bo`lib, tanish predmetlarga qiyoslash orqali topish qiyinchilik tug`diradi. Bola tasavvuri bir muncha torayadi, Bunday bolalarda nutqiy mterial so`z, jumla va matnlarni esga olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish jarayoni qiyin kechadi. So`z mantiq xotiraning sustlashuvchi bola nutqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog`liq. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning yana bir o`ziga xos jihati ularda nutq va abstrakt tafakkur shakllanishining sustlashuvidir. Bularning barchasi o`z navbatida eshitish imkoniyati cheklangan bolalarga ta`lim – tarbiya jarayonini o`ziga xos usulda tashkil etish ehtiyojini tug`diradi. Eshitish imkoniyati cheklangan o`quvchilarga astronomiya fanini o`qitishda ularda bilim, ko`nikma, malakani shakllantirish bu murakkab jarayon bo`lib, surdopedagogdan chuqur bilim, ijodkorlik, kreativlikni talab qiladi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarda eshitishning pastligi yoki yo`qligi ikkilamchi muammo nutqning shakllanmasligiga olib keladi .

Fizik hodisalarni tushuntirishda tasavvurning keng emasligi jarayonlarni idrok etishga to`squinlik qiladi. Masalan, tovush, shovqin, ishqalanish tabiat hodisalari, atmosfera bosimi, koinot haqida va astronomiyaning boshqa bo`limlaridagi bilimlarni idrok etishida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Harqanday anglash jarayoni idrok etish va sezishdan

boshlanadi. Eshitish imkoniyati cheklangan o`quvchilar ta`lim-tarbiyasida ularda ko`ruv, taktil-vibratsion va kinestetik nazoratni shakllantirish muhimdir. Inson ko`rish orqali 30 % ma`lumotlarni qabul qiladi. Ular ma`lumotlarni shu sezgilari orqali idrok etishadi. Surdopedagog esa bu idrokni, bilim, amaliyot va natija orqali shakllantirib, o`quvchi ongida mustahkamlaydi.

Astronomiya darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish juda muhimdir, chunki o`quvchi har bir jarayonni, kattalikni va hodisani ko`rish, sezish orqaligina idrok etadi. Bunda AKT vositalari, videodarslar, ko`rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari, lug`at so`zlar kerak bo`ladi. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarda so`z boyligi kam bo`lib, har bir darsda lug`at so`zlardan foydalanish zarur. Lug`at so`zlar surdopedagog tomonidan daktil tilida ko`rsatilib beriladi yoki o`quvchilarga tushunarli bo`lishi maqsadida so`zning jesti ko`rsatiladi. Bunda har bir mavzuga oid atamalar, kattalik nomlari, fizik hodisalar, formulalarni ifodalashda va yangi mavzuni bayon qilishda daktil va imo –ishora jestidan, labdan talaffuz orqali tushuntirishdan foydalaniladi. Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarga astronomiyani o`qitishda har bir mavzuga tayyorgarlik ko`rish, samarali metodlarni qo`llashgina natija beradi. Quyida bir nechta metodlarni ko`rib chiqamiz.

„Klaster“metodi. Bu metod yordamida mavzuning tayanch tushunchasi qolgan qismlariga o`zaro uzviy aloqadorlikda o`rgatiladi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalar bu metod yordamida, tushunchalarni aloqadorlikda tushunadilar va fikrlarini bir tizimga keltira oladilar. Masalan „Mexanik harakat“, „Energiya „Kuch“ „Ishqalanish“ mavzularini o`rganishlarida qo`llash mumkin. Tayanch so`z yoziladi, o`quvchilar uni tarmoqlarga ajratgan holda, turlarini yozadilar, farqlaydilar va misollar aytadilar.

„Atom molekula“. Bu harakatli o`yin bo`lib o`quvchilar faolligini oshishiga va mavzuni mustahkamlashga yordam beradi. O`quvchilarda qattiq jism, suyuqlik va gazmolekulalarining tuzilishi harakati haqida aniq tasavvurga ega bo`ladilar. Afzallik tomonlaridan yana bir jihati shundaki, sinfdagi barcha o`quvchilar qatnashadilar. Bu o`yindan „Modda tuzilishi, molekula va uning o`lchamlari“, „Elektr zaryadi“, „Magnit qutblari“ mavzularini o`rgatishda ham foydalanish mumkin.

Darsning kirish qismida „Aqliy hujum“ metodidan foydalanish o`quvchilar diqqati jalb qilishga yordam beradi. Bunda o`quvchilarga mantiqiy savollar beriladi. Tabiat hodisalari, turmush va texnikadagi fizik jarayonlar ilmiy asoslab beriladi. Fan, texnika, ekologiya, iqtisod va boshqa fanlarning o`zaro integratsiyasi tushuntirib beriladi.

“BBB” metodi-yordamida o`quvchilar mavzu yuzasidan o`z bilimlarini baho lashda va yozma shaklda fikrlarini bayon etishda qo`llash samarali bo`lib, bu metod orqali o`quvchilar yozma savodxonligiga e`tibor qaratiladi, mustaqil fikrlarni bayon qilish ko`nikmasi shakllanadi va bir vaqtning o`zida o`qituvchi o`quvchilar bilim darajasini ham aniqlab oladi. „Elektr toki“, „Magnit maydon“, „Yorug`likning tarqalish qonunlari“ va boshqa bo`limlar yakunida qo`llash mumkin. Bu bo`limlar keng, murakkab va qiziqarli bo`lgani sababli o`quvchilarda savollar tug`iladi.

“Anogramma” o`yinini ko`rgazmali qurollar yordamida tashkil etish mumkin. Bunda o`quvchilarga bo`limga tegishli bo`lmagan atama yoki kattalikni topish vazifasi qo`yiladi. Bu o`quvchilarni mavzuni o`zlashtirganlik darajasi, sezgirligi baholanadi. Istalgan bob yakunida qo`llash yaxshi natija beradi .

Fizik diktant olish orqali esa o`quvchilarni labdan o`qish ko`nikmasi shakllantiriladi. Eshitish imkoniyati cheklangan o`quvchilarga interfaol metodlarni qo`llash bilan birga albatta videodarslarni ham, har bir mavzu yuzasidan shakllantirish kerak. Video darslar darsning yangi mavzu bayoni qismida ko`rsatiladi, qisqa vaqtichida o`quvchilar ko`proq ma`lumotlarga ega bo`ladilar. Bu video darslar surdopedagog tomonidan imo ishora jesti va daktil tili yordamida tayyorlab kelinadi. Har bir mavzuni o`qitishda o`qituvchi AKT vositalari, lug`at so`zlar, ko`rgazmali vositalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanishi bu o`qituvchining kreativ fikrlashiga bog`liqdir .

XULOSA

Eshitish imkoniyati cheklangan bolalar imkoniyatlardan xoli emas. Har bir o`quvchiga individual yondashish, yoshxususiyatlari, psixologik – fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta`lim – tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Buning uchun albatta zamon talabiga mos ravishda ta`lim berish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Ta`lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuviga ko`maklashish va komil insonni shakllantirishdir.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13- oktyabr “Alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4860-son qarori.
2. Боскис Р. М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – М.: Просвещение, 1987.

3. Венгер А. А. Обучение глухих дошкольников изобразительной деятельности. – М.: Просвещение, 1972.
4. Вопросы воспитания и обучения аномальных детей дошкольного возраста: Сб. науч. тр./Под ред. Л. П. Носковой. – М.: Изд-во АПН СССР, 1980.
5. А. М. Karimov, Sh. O. Toshpulatova. Astronomiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish



TIBBIY CHIQINDILAR VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI O'RGANISH (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)

Z. I. Izzatullayev

Samarqand davlat universiteti professori

G'. Dilmurodov

Samarqand davlat universiteti magistranti

izzat@yandex.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada tibbiy chiqindilar va ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri va Samarqand aholisi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Butun dunyoda va xususan O'zbekiston Respublikasida ham shahar va qishloqlar aholisining o'sishi, ularga tibbiyot yordam ko'rsatishning hamjining o'sishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda hozirgi kunda Tibbiyot chiqindilarining haddan tashqari o'sishi ekologik holatning yomonlashuviga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi va u o'z navbatida atrof-muhitning ifloslanishiga muhim omil bo'ladigan jiddiy xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda 50 ga yaqin xavfli chiqindi turlari ta'siri va ularning ro'yxatini klinik chiqindilar ochadi.

Kalit so'zlar: Samarqand, tibbiy chiqindilar, yo'q qilish choralari, atrof-muhit, ifloslanish.

TO THE STUDY OF MEDICAL WASTE AND THEIR IMPACT ON THE ENVIRONMENT (FOR EXAMPLE, SAMARKAND)

ABSTRACT

The article provides data on medical waste and their negative impact on the environment among and people in Samarkand. Recommendations for an improved ecological environment are offered. The growth of urban and rural population around the world, and in particular in the Republic of Uzbekistan shows an increase in the volume of medical care provided to them. At the same time, the excessive growth of medical waste today will inevitably have an impact on the deterioration of the environmental situation, which in turn will pose a serious risk that will be an important factor in

environmental pollution. There are currently about 50 types of hazardous waste exposures and their list is opened by clinical waste.

Keywords: Samarkand, medical waste, disposal measures, environment, pollution.

KIRISH

XX asrda tibbiy chiqindilar alohida muhim toifada ajralib chiqa boshladi, chunki bir martali ishlatiladigan shprintslar, tomchilar, qon quyish tizimlari, bemorlarni parvarish qilish vositalari (qo'lqop, tagliklar, xalatlar, choyshablar va boshqalar) tibbiyot muassasalarida keng qo'llanila boshlandi va u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilmaydigan (yaroqlilik muddati o'tgan, soxta, musodara qilingan va hokazo) fabrikada ishlab chiqarilgan dori-darmonlarning soni. Shu vaqtdan boshlab tibbiy chiqindilar hajmi sezilarli darajada oshdi va o'sishda davom etmoqda va ular nafaqat ekologik, balki epidemik va toksik xavfga ega ekanligi sababli ularni maxsus usulda davolash zarurligi ayon bo'ldi. (inson salomatligi uchun xavfli).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asta-sekin ushbu masala bo'yicha maxsus qonunchilik va dunyoning turli mamlakatlarida ushbu turdagi chiqindilar bilan ishlash usullari ishlab chiqila boshlandi. Tibbiy chiqindilar uchun beshta xavfli sinf mavjud:

"A" klassi: bu atrof-muhit va inson uchun xavf tug'dirmaydigan tibbiyot muassasalarining chiqindilari. Bunga qog'oz, oziq-ovqat chiqindilari va boshqalar kiradi. Bularning barchasi odatdagi axlat qutisiga tashlanishi mumkin. "B" klassi: ushbu guruhga kasal odamlar bilan aloqada bo'lgan narsalar, shuningdek davolash va operatsiyalar natijasida chiqadigan chiqindilar kiradi. Ular maxsus chiqindixonalarga olib ketilmoqda. "C" klassi: bu bemorlar bilan aloqada bo'lgan, har qanday infektsiyani yuqtirish kafolatlangan narsalar. Bunga laboratoriyalar chiqindilari ham kiradi, chunki ular ifloslangan bo'lishi mumkin. Bunday "axlat" hisobga olinishi va maxsus yo'q qilinishi kerak. "D" klassi: bu yerda - turli xil sanoat chiqindilari. Masalan: termometrlar, dorilar, dezinfektsiyalash vositalari va boshqalar. Ular bemorlar bilan umuman aloqada bo'lmasligi mumkin, ammo o'zlari xavfli. Ular maxsus o'qitilgan xodimlar tomonidan tashiladi va yo'q qilinadi. "D" klassi: ushbu guruhga nurlanish darajasi oshgan tibbiy moddalar va materiallar kiradi. Bunday chiqindilar, hatto vaqtincha saqlash paytida ham, metall muhrlangan idishlarga joylashtirilishi kerak. Ayni vaqtda, butun dunyoda va umuman O'zbekistonda tibbiy chiqindilar muhim



muammo hisoblanadi. Umuman olganda ularning oqimi (maishiy chiqindilarga qaraganda) yiliga nisbatan 125 ming tonnani tashkil etadi. Biroq, bu chiqindilar infektsiya, kasallik va atrof muhitni ifloslanishiga olib kelishi mumkin [1]. Hozirgi vaqtda 2019-yilgi Covid-19 pandemiyasi paytida ularning soni, shubhasiz, bir necha o'n ming tonnaga ko'paygan. Umuman olganda, ular infektsiyaning tarqalishi xavfini keltirib chiqaradi, epidemiologik vaziyatni yomonlashtiradi va atrof-muhitning doimiy ifloslanishiga olib keladi. 1979-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tibbiy chiqindilarni xavfli deb tasniflagan va ularni qayta ishlash bo'yicha maxsus xizmatlarni yaratish zarurligini ko'rsatgan. 1992-yilda Bazel konventsiyasiga binoan (Shveytsariyada) 45 turdagi xavfli chiqindilar ajratildi, ularning ro'yxati klinik chiqindilar tomonidan yig'iladi. O'zbekistonda tibbiy chiqindilarni boshqarish muammolari, shu jumladan yig'ish, saralash, zararsizlantirish, tashish va qayta ishlash tizimi sxemalari va metodikalarini ishlab chiqish bosqichida. Ta'kidlash joizki, faqat 2007-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 3406 chiqindilarni yoqish moslamalari mavjud bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan sil kasalxonalaridan faqat ikkitasi Toshkent va Nukusda kuydirish pechlari bilan ta'minlangan. Xuddi shu davrda, ya'ni. 2004-yildan 2007-yilgacha Samarqand viloyatida 335-432 birlik muffil pechlari bilan 101,2 - 119,8 tonna tibbiy chiqindilar olib tashlandi [1]. Hozirgi kunga qadar 6 ta tibbiy shifoxonada (shifoxonadan Samarqandda mavjud 20 ta) tibbiy chiqindilarni ishlab chiqarish va yo'q qilish bo'yicha tahlillar o'tkazilib, ular tibbiy muffel pechlarida 1200⁰C da yoqib yuborilgan. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, shahar tipidagi aholi punktlari va qishloqlar aholisida tibbiyot chiqindilari juda ko'p bo'lib, ular hisobga olinmaydi, ular polietilen paketlarga solingan maishiy chiqindilar bilan birga axlatxonalarga tashlanadi va tabiatga tarqalib, shu bilan atrof muhitni ifloslantiradi. Ularning inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli yuqumli kasalliklarning yangi o'choqlarini paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligiga kafolat yo'q. Bu erda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev 2018-yil 2-fevraldagi nutqida "Atrof-muhitni muhofaza qilish - odamlar sog'lig'ini himoya qilishning asosiy vositasi" deb ta'kidlagan [2]. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tibbiy chiqindilar muammosini har tomonlama o'rganish, ularni o'z vaqtida zararsizlantirish va ularni keng tarqalish yo'lini to'sib qo'yish hozirgi zamonning eng muhim vazifalaridan biridir. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda ushbu tadqiqotning maqsadi tibbiy chiqindilar va ularning Samarqanddagi atrof-muhitga ta'sirini o'rganish edi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni yechish maqsad qilib olindi: tadqiqot vaqtini va material yig'iladigan

joylarni aniqlash; bemorlarning sonini aniqlash; qayta ishlangan, zararsiz, zararli va yuqumli chiqindilarning umumiy hajmini va o'tkir va inventarizatsiya uskunalarining og'irligini aniqlash.

Tadqiqot uchun material Samarqand shahri va uning atrofidagi 2020-yilda to'plangan va 2018-2020 yillarga mo'ljallangan Samarqand viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasidan olingan ma'lumotlar xizmat qildi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Samarqand shahrida 2018-2020-yillarda tibbiy chiqindilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida 2018-yilda sil kasalligiga qarshi kurash bo'yicha viloyat kasalxonasida 650 o'rinni, hosil bo'lgan chiqindilar hajmi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, shuningdek nodir va yuqumli chiqindilarda va o'tkir va inventarizatsiya uskunalarining og'irligi 305,845 tonnadan 11,841 tonnagacha va 0,438 kg dan oshdi va aksincha, 2019-yilda 160 yotoqli viloyat kardiologik dispanserida ushbu ma'lumotlar deyarli 1,5 baravar ustun keldi (1-jadval).

Jadval-1. Samarqand shahrida tibbiy chiqindilarni ishlab chiqarish va utilizatsiya qilish (Samarqand viloyati Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2019-yil noyabr oyidagi materiallari asosida)

Yillar	Tibbiy muassasalar soni	O'rindiqlar soni	Hisobot davrida hosil bo'lgan chiqindilar hajmi Tonna	Zararsiz chiqindilar tonna	Zararli chiqindilar tonna	Yuqumli chiqindilar tonna	O'tkir narsalar va inventarizatsiya uskunalari
2018	Tuberkulyozga qarshi kurash bo'yicha viloyat kasalxonasi	650	305,845	294	11,841	0,058	0,438
2019		650	287,759	276,312	11,447	0,063	0,425
2018	Viloyat kardiologiya dispanseri	160	2,841	1,98	0,48	0,048	0
2019		160	3,755	3,768	0,61	0,065	0
2018	Viloyat ortopediya va jarohatlar shifoxonasi	230	69,8	26,6	39,1	0	4,1
2019		230	95,6	52,6	43,1	0	5,8
2018	Viloyat ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi	400	365,9	358	7,5	0	0,4
2019		400	368,1	360	7,6	0	0,5

2018	OITS mintaqaviy markazi		11,3	5,9	2,6	2,8	0
2019			12	6,3	2,7	3,9	0
2018	Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi	350	97,59	6,27	9	4,8	4,8
2019		350	227,2	0,0031	6,2	3,5	3,5

Bu yerda 2019-yildan 2020-yilgacha bo'lgan vaqtni alohida ta'kidlash kerak. COVID-19 pandemiyasining butun dunyoda va O'zbekistonda keng tarqalishi shaharning yirik tibbiyot muassasalarida hisobga olinmaydigan tibbiy chiqindilar sonini ko'paytirdi, ularning aksariyati yo'q qilindi. Ammo ularni to'g'ridan-to'g'ri tabiatga tashlash hollari ham mavjud. Shahar axlatxonalarida, xuddi yo'llar bo'ylab joylashgan ariqlarda, aholining maishiy chiqindilari orasida ishlatilgan niqoblar va hatto ko'plab bolalar tagliklari to'plangan. Shuning uchun ushbu chiqindilarning tashqi muhitga ta'siri va ularning inson salomatligiga salbiy ta'sirini hisobga olish uchun biz quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif qilamiz:

- shaharning barcha tibbiyot muassasalarida ularni yig'ish va yo'q qilishni ommaviy tashkil etish;
- shaharning yirik mikrorayonlarida: So'g'diyona, Mikrorayon, Qorasu, Ximiklar shaharchasi, Samarqand shahri qurilishi va boshqalarning, ko'p qavatli (16 va 18 - 25), ming- minglab odamlar yashaydigan hududida va shahar aholisiga darhol bu holatni tushuntirish ishlarini olib borish;
- har bir qavatda tibbiy chiqindilarni alohida yig'ish va ularni yashil qoplarga solish, so'ngra ularni yoqish uchun olib chiqish ;
- shahar aholisi orasida ham mikrorayonlarda, ham shaharning barcha mahalliy mahalla qo'mitalarida tibbiyot chiqindilariga qarshi kurashish bo'yicha tibbiyot xodimlari tomonidan tushuntirish ishlari va nazorat ishlarni olib borish.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiy chiqindilar bilan kurashish bo'yicha terapevtik va profilaktika choralari tasnifini ishlab chiqqan va ular 5 sinfga bo'lingan: A sinf - zararsiz, B - zararli, C - oldingi - zararli, D - tasnifga ko'ra sanoat chiqindilariga va D sinfidagi radioaktiv chiqindilarga yaqinroq [3]. Shuni inobatga olgan holda, biz zararli maxsus tibbiy va biologik chiqindilar to'g'risida maxsus tushunchalarning xavfli tibbiy chiqindilari to'g'risidagi qonunga qo'shimcha kiritishni ko'rib chiqamiz [4]. Umuman olganda, atrof-muhit va uning tarkibiy qismlari - suv, tuproq va oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi tibbiy chiqindilar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita odamlarda xavfli yuqumli kasalliklar paydo

bo'lishiga xavf tug'diradi. Ushbu masala muhim hisoblanadi va hali ham batafsil o'rganishni talab qiladi. O'zbekistonda pandimiya boshlanganidan beri yangi antirekord o'rnatildi. Sog'liqni saqlash vazirligi xabar berishicha, kasallanganlar soni kundan kunga ko'paymoqda : 2022-yil 19-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi aniqlanganlar soni 1210 nafardan ortiq.

Samarqand viloyatida ham kasallanganlar soni tobora ortib bormoqda. So'nggi bir sutkada 45 nafar bemor aniqlangan. Hozirda Samarqand shahrining Vatanparvar mahalla fuqarolari yig'ini hududidagi Koronavirusga chalinganlarni davolashga aylangan Tibbiyot markazida Covid-19 infeksiyasiga chalingan bemorlar davolanmoqda. Davolash markazi 240 o'ringa mo'ljallangan. Bundan tashqari "Vatanparvar" tibbiyot markazi bosh shifokori Abdusattor Boymirzayevning fikriga ko'ra, har ehtimolga qarshi bemorlar soni ko'payib qolsa, boshqa Covid kasalxonalarini jumladan Markaziy sport majmuasi binosi 1080 o'ringa mo'ljallangan davolash markazi, kimyogarlar shaharchasidagi 160 ta bemorga mo'ljallangan bino ham tayyor holda turipti. Shifokorlarning fikricha, kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning aksariyati koronavirusga qarshi emlanmagan. Samarqand shahrida Covid-19 bilan kasallanish darajasi oshganligi munosabati bilan davolash punkti deyarli 100% ga to'lgan. Oxirgi 10 kun ichida murojatlar soni 6 baravarga oshgan. Bu yerda davolanayotgan bemorlar oilasi va farzandlarini ko'rolmay qiynalayotganligi sababli yurtdoshlarimizga o'z tavsiyalarini berdi. Shifokorlarning fikriga ko'ra, yangi yildan keyin bemorlar soni keskin oshgan. Yanvar oyining dastlabki kunida ko'plab bemorlar qabul qilingan. Shifokorlar infeksiyaning kuchayishi ob-havoning noqulayligi bilan bog'liq deyishayapti. Hozirgi koronavirus kasalligi, odatdagi grip yoki tumovdan deyarli farq qilmas ekan. Tibbiyot markazi bosh shifokori : Samarqand shahrida koronavirus Omicroning yangi shtampini yuqtirish holati aniqlanganmi degan savolga shunday shubhali tarzda yo'q aniqlanmagan deb javob berdi. Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ko'ra, Omicron misli ko'rilmagan tezlikda tarqalmoqda. Yangi shtamm belgilari avvalgilaridan farq qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi: Birinchi marta Samarqand shahri misolida mintaqadagi yirik kasalxonalarda tibbiy chiqindilar va ularning atrof-muhitga ta'siri tahlil qilindi va ushbu muassasalar orasida chiqindilarni ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha, birinchi o'rinda viloyat ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi, ikkinchi-sil kasalligi

bilan kurashadigan viloyat kasalxonasi, uchinchisi - viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi hisoblanishi aniqlandi.

REFERENCES

1. Национальный доклад О состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан (2008 – 2011 гг.). Ташкент: Chinor ENK, 2013. 298 с.
2. Mirziyoyev Sh.M. Atrof – muhitni muhofaza qilish- aholi salomatligini saqlashning muhim omili. 2018. 2 fevral. Ekologik holatni yaxshilash va atrof muhitni muhofaza qilish eng dolzarb vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi.
3. Ҳаракатдаги буйруқлар ва янги СанПин 0342 – 17 сонли. Самарқанд, 2017. 20 бет.
4. Закон Республики Узбекистан о государственном санитарном надзоре. Ташкент, 1998.
5. "Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China". Lancet 395 (10223): 497–506. February 2020.
6. „Coronavirus disease 2019“. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.
7. I. Muhammedov, E. Eshboyev, N. Zokrov, M. Zokirov “Mikrobiologiya Immunologiya Virusologiya” Toshkent 2006-yil 531-532-bet
8. www.clinicaltrialsarena.com
9. Daryo.uz
10. Zarnew.uz

THE ANALYSIS OF THE PRACTICE OF FORMING CARTOGRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF CARTOGRAPHY

Yigitali Togaevich Zukhurov

Senior teacher of the Department of Geodesy, Cadastre and Land Use,
Karshi engineering-economics institute

zukhurov86@mail.ru

ABSTRACT

In this research paper, we consider the questions about the importance of cartographic training of future specialist cartographers. An analysis of the practice of forming the cartographic competence of future cartographers has been investigated. The personality oriented approach of training has been defined as the main one in substantiating the methodological principles of the process of formation of cartographic competence of future cartographers.

Key words: professional training, competency based approach, professional competence, cartographic training, cartographic competence.

INTRODUCTION

The formation of the cartographic competence of future specialist cartographers is an urgent problem of modern engineering education. Therefore, cartographic competence today is considered to be one of the most important vital qualities of a cartographer, since the ability to possess cartographic knowledge, skills, and readiness to use them is necessary in modern life for every citizen of society. Acting as a component of the professional competence of future cartographic engineers, cartographic competence is considered as an integral characteristic, which includes a complex of cartographic knowledge and skills; possession of logical operations in fundamental and special disciplines; the ability to carry out independent search and research activities; striving for professional and personal development. In its structure, it contains special competencies that are formed and developed by improving the organizational and pedagogical conditions during training at a higher educational institution.

The study of scientific and methodological literature, the study of the experience of cartographic training of students in universities revealed some problems that, in our opinion, require

detailed study and solution. Firstly, among local scientists, there is no single approach to determine the essence and content of the concept of "cartographic competence" of a student of a higher technical educational institution. Secondly, in recent decades, due to a whole range of reasons, the gap between the level of cartographic training of university graduates and the requirements that society imposes on them has increased. At the same time, it should be noted that unambiguous ways to solve the problem of increasing the level of cartographic training of students, ensuring the achievement of the learning goal, have not yet been determined. Thirdly, in the process of professional training of freshmen, the issue of using teaching technologies that take into account their different initial level of training, individual characteristics and opportunities for their personal growth in the process of studying cartographic disciplines has not been considered before. Despite the great interest of scientists, the problem of developing the cartographic competence of future cartographers in the process of professional training remains relevant and insufficiently developed in the theory and practice of vocational education. An analysis of modern concepts and provisions offered by the domestic system of teacher education proves the relevance of reforming the professional training of future cartographers and requires fundamentally new approaches to the content of their cartographic training.

MAIN PART

Cartographic knowledge is of great importance in the preparation of graduates not only in the field of geodesy and cartography, but also in the field of geography, hydrology, meteorology, land use and land cadastre. The cartographic method of research is currently an effective tool for understanding the patterns of spatial distribution, as well as the structure of geographical objects and phenomena, their relationships, a means of monitoring and forecasting.

The ability to work with maps and obtain the necessary information from them becomes an important element of mass cartographic literacy and a culture that develops a person. The importance of cartographic preparation increases with the growing understanding of the role of the geographical map as a kind of document of communication, reflecting the level of development of society, its culture and perception of the world. The map, unlike other means of communication, offers information not only sequentially, but also in the form of spatial graphic combinations that perceive at once simultaneously, as integral graphic images. We can say that the map is the international language of the cultural community of people, which help to



master the multidimensional geographical space. A geographical map can be considered as the highest synthesis in the transmission of information about the state and changes characteristic of various territories [5].

This method of access control allows the head of the department and teachers to track the personal and group dynamics of attendance almost continuously (weekly).

REFERENCES

1. Potapov A. (2017). Automatic image analysis and pattern recognition (2017). LAP Lambert Academic Publishing.
2. Brilyuk D.V., Starovoitov V.V. (2002). Recognition of a person by face image by neural network methods. Minsk.
3. Emelyanov, S.V. (2015) Information technologies and computing systems. Computing systems. Computer graphics. Pattern recognition. Mathematical modeling. Issue No. 2. - Moscow: Mir.
4. Kapitonova, T. A. (2015). Neural network modeling in pattern recognition. Philosophical and methodological aspects. Moscow.

КЎЧА БЎЙЛАБ ТЎХТАБ ТУРИШ ЖОЙЛАРИНИНГ ҲАРАКАТЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ

Ғулом Иброхимович Мамаев
Жиззах политехника институти

Лутфилло Юлдашалиевич Бакиров
Андижон машинасозлик институти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада шаҳар кўчаларидаги кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойларининг транспорт воситаларининг ҳаракатланиш тезлигига таъсири, йўл-транспорт ҳодисаларининг юзага келиш эҳтимоллиги умуман ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсири атрофлича ўрганилган. Бундан ташқари чет эл ҳамда мамлакатимиздаги транспорт воситаларининг кўча бўйлаб тўхтаб туриш ҳолати таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойлари, транспорт воситаларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига сезиларли таъсир қилади бироқ бу муаммони, тўхтаб туриш жойларини тўғри ташкил қилиш орқали ечим ишлаб чиқиш мумкун.

ABSTRACT

This article examines in detail the impact of parking spaces on city streets on the speed of vehicles, the impact of the likelihood of road accidents on traffic safety in general. In addition, the state of parking of foreign and domestic vehicles on the streets was analyzed.

Key words: Speed, throughput, stop along the carriageway, traffic accident, commodity flow, motorization

КИРИШ

Автомобил йўлларининг транспорт фойдаланиш сифатлари улардаги ҳаракат тезлиги ва ташиш таннари, хавфсизлиги ва йўлда ҳаракатланиш қулайлиги, ўтказувчанлик қобилияти билан белгиланади. Уларни умумлашган кўрсаткич билан изоҳлаб бўлмайди [1]. Шунинг учун, йўл бўлақларини баҳолашда қуйидагиларни аниқлаш керак:

- бутун йўл узунлиги бўйича ва унинг алоҳида қисмларидаги ўртача ҳаракатланиш тезлиги;


- йўл транспорт ҳодисалари (ЙТХ)нинг хавфлилик даражаси;
- йўлнинг ҳайдовчилар ва йўловчилар учун қулайлиги;
- йўлнинг ўтказувчанлик қобилияти.

Шаҳар кўча ва йўлларида бир неча ўн йилликлардан буён йўлдаги тирбандликлар, йўл-транспорт ҳодисаларининг содир бўлиши ва шу каби ҳолатларни камайтириш соҳа мутахассислари учун муаммога айланган. Ушбу муаммоларнинг келиб чиқишида ҳамда транспорт воситаларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсир қилувчи жуда кўплаб омиллар мавжуд. Шулардан биттаси кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойлари ҳисобланади. Кўча бўйлаб тўхташ жойлари бринчи навбатда йўлнинг ўтказиш қобилиятига катта таъсир кўрсатади шу билан бирга оқим тезлигининг пасайишига олиб келади.


Бундан ташқари, бир қатор тадқиқотлар шуни кўрсатдики, кўчадаги тўхташ жойлари йўл-транспорт ҳодисалари келиб чиқиш эҳтимолини оширади ва шу билан транспорт оқимига таъсир қилади. Канаданинг Онтарио штатидаги Хамилтон шаҳрида ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, кўча тўхташ жойи мавжуд шаҳар марказидаги 6 та асосий магистрал йўлларда кўча тўхташ жойлари олиб ташланганидан кейин зиддиятли вазиятлар кўрсаткичлари ўртача 37% га камайган [2].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ


Кўча бўйлаб тўхташ жойларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсири унинг жойлашишига ва тўхтаб туриш вақтига ҳам боғлиқ ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойларидаги йўқотилган вақт, ёнилғи сарфи ва кўчанинг хизмат кўрсатиш даражасини аниқлаймиз.




1- расм. Икки бўлаккли йўлларда тўхтаб туриш жойи худудидаги вақтнинг ушланиши



2- расм. Уч бўлакли йўлларда тўхтаб туриш жойи ҳудудидаги вақтнинг ушланиши



3- расм. Икки бўлакли йўлларда тўхтаб туриш жойи ҳудудидаги ёқилғи сарфи



4- расм. Уч бўлакли йўлларда тўхтаб туриш жойи ҳудудидаги ёқилғи сарфи

Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки икки бўлакли йўлларда кўча бўйлаб тўхташ жойлари ҳудудидаги ёқилғи сарфи тўхташ жойига кириб келгунга қадар ортиб (3-расм) кетмоқда. Уч бўлакли йўлларда эса кўча бўйлаб тўхташ жойлари ҳудудида ёқилғи сарфининг ортганлигини (4-расм) кузатишимиз мумкин.

Бундан ташқари кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойлари мавжуд кўчаларнинг хазмат кўрсатиш даражасини ҳам тадқиқ қилиб кўрдик.

1-жадвал

Кўча бўйлаб тўхтаб туриш жойлари мавжуд хазмат кўрсатиш даражасини

№	Йўлнинг хизмат кўрсатиш даражаси (LOS)	Ҳаракат жадаллиги	Ҳаракатланиш бўлаги
1	LOS_A	1500	III
2	LOS_A	2000	III
3	LOS_A	2500	III
4	LOS_B	3000	III
5	LOS_C	3500	III
6	LOS_C	4000	III

Кўчада тўхташ жойлари қатнов қисми бўйлаб жойлаштиришда ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлаш мақсадида кўча бўйлаб тўхташ жойлари қатнов қисмига нисбатан параллел жойлаштирилиши керак [3].

ХУЛОСА

Йўлларда транспорт воситаларининг хавфсиз ҳаракатланишига қаршилик қилувчи кўлаб омилар мавжуд шулардан биттаси кўча бўлаб тўхтаб туриш жойлари. Бу тўхтаб туриш жойлари тўғри ташкил қилинмаганда транспорт воситаларининг ҳаракатига хавф туғдиради. Агар тўғри ташкил қилинса аксинча фойда келтириши мумкин. Таҳлилларга кўра: икки бўлакли йўлларда ҳаракат жадаллиги 2000 авто/соатга етганда 100 секундгача вақт йўқотиши; уч бўлакли йўлларда ҳаракат жадаллиги 4000 авто/соатга етганда 78 секундгача вақт йўқотилиши кузатилмоқда. Бу ўз навбатида йўлнинг хизмат кўрсатиш даражасини А дан D гача тушишига сабаб бўлмоқда

REFERENCES

1. И.С.Содиқов, А.А.Артиқов, А.Р. Қодирова, К.Х. Азизов, Автомобил йўлларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш бўйича кўрсатмалар. Тошкент, 2005, МШН 25-2005.
2. S. Wijayarathna, “Impacts of On-street Parking on Road Capacity”, *Australas. Transp. Res. Forum 2015 Proc.*, pp. 1–15, 2015, [Online]. Available: <http://www.atrf.info/papers/index.aspx>.
3. Методические рекомендации по применению свода правил «улицы и дороги населенных пунктов». Москва, 2017 г.
4. G.I.Mamaev, A.B.Djumabayev, L.Y.Bakirov “Traffic Safety in On-Street Parking Area”, *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology* 2021. ISSN: 2350-0328
5. G.I.Mamaev “Impact on traffic safety of vehicles parked along the street”, *Scientific and technical journal of Namangan institute of engineering and technology* 2020. ISSN 2181-8622
6. Г.И.Мамаев “Проблемы уличных парковок и зарубежный опыт организации парковок” V Международной научно-практической Конференции «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века» НУР-СУЛТАН 2019 г.



DYNAMIC PROGRAMMING BY SUBSEGMENTS

I. Z. Iskandarov

B. B. Nurmetova

B. I. Sobirov

Urgench Branch of Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

E-mails: islom.iskandarov@ubtuit.uz , bonuraxon20102018@gmail.com, bahrombek0960@mail.ru

ABSTRACT

This article discusses dynamic programming and one of its types dynamic programming by subsegments, as well as several examples and solutions to them.

Keywords: dynamic programming, algorithms, greedy algorithm

INTRODUCTION

In problems in which it is required to find the optimal answer, different solution methods are used: the "brute force" method, "greedy" algorithms, etc. The brute force method is based on enumerating all the solutions and choosing the optimal one. In most cases, this approach is relatively easy to implement and finds a solution, but cannot be applied with large input data. A **greedy algorithm** always makes the choice that looks best at the moment. That is, it makes a locally optimal choice in the hope that this choice will lead to a globally optimal solution[1]. This approach is faster than the brute force method and can be applied to large inputs, but sometimes it may not find the optimal solution. Dynamic programming(DP) can be another method for solving the problem. The idea behind dynamic programming is to split a problem into subtasks and solve them separately using the results of other subtasks or previous steps. In order for the problem to be solved by the dynamic programming method, the following conditions must be met: in the problem, subtasks of a similar structure of a smaller size can be distinguished; among the selected subtasks there are trivial ones, that is, having a "small size" and an obvious solution; an optimal solution to a larger subproblem can be constructed from optimal solutions to subproblems; subproblem solutions are stored in tables with reasonable sizes [2]. Based on the options for using dynamic programming in solving problems, the following types can be distinguished: linear, DP by sets, DP by profile, etc. Another type is DP by subsegments. This type is used when solving problems in which we can take the calculation of values on subsegments of a some array as a subtask, and the answer to the problem is the result of calculating a segment of the dimension of the array.

METHOD DESCRIPTION

The essence of the method consists in splitting an array of values into subsegments and finding a solution for subsegments and combining the results. When solving the problem, we calculate the results in the order of increasing the length of the subsegments. Thus, when calculating the results for subsegments of length L , we use the values for subsegments of lengths in the interval $[0; L-1]$. Usually we use a two-dimensional array dp to store the results, where $dp [left, right]$ will store the answer for the segment

from *left* to *right*. In most cases, due to the use of nested loops, we get asymptotics in time $O(n^2)$ or $O(n^3)$, and in memory $O(n^2)$. Below is the pseudocode of the implementation.

```
for length=1 to n
  for left=1 to n-length+1
    right=left+length-1
    // calculate the value dp[left,right]
```

EXAMPLES OF USING

Problem 1. Let there be a sequence (chain) consisting of n matrices and their product

$$A_1 A_2 \cdots A_n$$

Matrix multiplication has the property of associativity, so the result does not depend on the order of multiplication, but the time spent on calculating the product can strongly depend on this. You need to find the minimum number of operations required to calculate the product. The sizes of matrices are given in the form of n pairs of arrays $h[]$ and $w[]$, and $w[i]=h[i+1]$ for all indices i that satisfy the condition $i < n$.

Note. For more details on the problem and solution, see[3]

Solution. As a subproblem we take $dp[i,j]$ – the minimum number of operations required for matrix multiplication in the interval $[i; j]$.

Base: $dp[i,i]=0$.

Recurrent formula:

$$dp[i,j] = \min(dp[i,k] + dp[k+1,j] + h[i] * w[i] * w[j]), \text{ where } k \in [i,j]$$

Pseudocode.

```
for i=1 to n
  dp[i,i]=0
for int length=2 to n
  for i=1 to n-length+1
    j=i+length-1
    dp[i][j]=INF
    for k=i to j-1
      dp[i,j]=min(dp[i,j],dp[i,k]+dp[k+1,j]+h[i]*w[i]*w[j])
output dp[1,n]
```

Time complexity: $O(n^3)$

Problem 2. A **palindrome** is a string that reads in the same way both from left to right and from right to left. Given a string s , you need to find the length of the longest subsequence that can be obtained by deleting some letters from the given sequence in such a way that the remaining subsequence will be a palindrome.

Solution. Subproblem $dp[i,j]$ is the length of the longest subsequence of the palindrome in the subsegment $[i;j]$.

Base: $dp[i,i]=1$

Recurrent formula:

$$dp[i,j] = \begin{cases} dp[i+1][j-1] + 2, & \text{if } s[i] = s[j] \\ \max(dp[i][j-1], dp[i+1][j]), & \text{if } s[i] \neq s[j] \end{cases}$$

Pseudocode.

```
for i=1 to n
  dp[i,i]=1
for length=1 to n
  for i=1 to n-length+1
    j=i+length-1
    if s[i] == s[j]
      dp[i][j]=dp[i+1][j-1]+2
    else
      dp[i][j]=max(dp[i][j-1],dp[i+1][j])
output dp[1,n]
```

Time complexity: $O(n^2)$

Problem 3. A sequence of n integers is written on the board. Two are playing. On the next move, the player selects a number from the right or left side of the sequence, then this number is erased and the sequence becomes one number less, and the move goes to the opponent. The winner is the one who collects more in total. Find the points that players will gain when playing optimally.

Solution. Subproblem $dp[i, j]$ – points that the first player will score in the optimal game on the subsegment $[i; j]$. Points are given as an array of numbers $w[]$. Let's define the function $sum(l, r)$ – the sum of the numbers of the array $w[]$ in the range of indices $[l; r]$.

Base: $dp[i,i]=w[i]$

Recurrent formula:

$$\begin{cases} dp[l, r] = \max(w[l], w[r]), \text{ if } l + 1 = r \\ dp[l, r] = \max(w[l] - dp[l + 1, r] + sum(l + 1, r), w[r] - dp[l, r - 1] + sum(l, r - 1)), \text{ else} \end{cases}$$

Pseudocode.

```
for i to n
  dp[i,i]=w[i]
for i=1 to n
  for j=1 to n-i+1
    l=j
    r=i+j-1
    if l+1==r
      dp[l,r]=max(w[l],w[r])
    else
      dp[l,r]=max(w[l]- dp[l+1,r]+sum(l+1,r), w[r]-dp[l,r-1]+sum(l,r-1))
output dp[1,n] // number of points scored by the first player
output sum(1,n)-dp[1,n] // number of points scored by the second player
```

Time complexity: $O(n^2)$

CONCLUSION

The method we have considered can be used in the problems of finding the optimal answer or calculating the number of options that satisfy a certain condition. To use the method for a task, it is necessary that we can take a subsegment as a subtask for DP. Thus, this approach can be effective for a number of specific tasks.

REFERENCES

- [1]. Thomas H. Cormen, Charles E. Leiserson, Ronald L. Rivest, Clifford Stein, "Introduction to Algorithms", 3rd ed, pp. 414
- [2]. Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики». Факультет компьютерных наук. Летняя школа по компьютерным наукам. Август. 2016. Параллель С. Шуйкова И.А. <http://shujkova.ru/sites/default/files/lec5.pdf>
- [3]. Thomas H. Cormen, Charles E. Leiserson, Ronald L. Rivest, Clifford Stein, "Introduction to Algorithms", 3rd ed, pp. 370-377.

TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA INKLYUZIV TA'LIMNING INNOVATSION MEHANIZMLARI

Dilbar Shukurulo qizi Shukurova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

dilbarmatkasimova@mail.com

ANNOTATSIYA

Tadqiqot ishimizning dolzarbligi mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi yangi munosabatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga asoslanib ta'lim klasteri sharoitida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga asoslanadi.

Kalit so'zlari: Inklyuziv ta'lim, ta'limiy klaster, idividuallashtirish, integratsiyalashgan, muassasa muhit ta'lim maydoni.

ABSTRACT

The relevance of our research is based on the specifics of the current socio-political situation in the country, the new relationship between the individual, society and the state is based on changes in the education system to increase the effectiveness of inclusive education in the education cluster.

Keywords: Inclusive education, educational cluster, individualization, integrated, institutional learning environment.

KIRISH

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5270-sonli farmonida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga ularni jamiyatdagi mavqei yanada oshirishga qaratilganidir. 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5712-sonli farmonida ta'lim-tarbiya jarayoniga idividuallashtirish tamoilini bosqichma-bosqich singdirib borish, ta'lim berish metodlarni takomillashtirish imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmati sifatini oshirish hamda mazkur toifadagi har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqini taminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish



tog'risida"gi PQ-4860-sonli qaror mamlakatimiz ta'lim tizimida jahon standartlari asosida islohatlarning maqsadli va manzili olib borilishini dolzarb masala sifatida o'z oldiga qo'ydi. Mazkur Qaror asosida imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yaxshilash ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish reabilitatsiya hamda ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish inklyuziv ta'limni kengaytirish belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PF-5987-sonli farmonida ta'lim klasterini yaratish sohada samaradorlikni taminlovchi omil sifatida belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Klasterli yondoshuvni pedogogik ta'lim tizimiga tadbiq etish hususan Inklyuziv ta'lim doirasida amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Inklyuziv ta'lim muhitidagi bazi bir muommalarni bartaraf etish tashkiliy va ta'limiy masalalarni hal etish ta'lim klasteri modelni yaratish unchalik ham oson emas. Inklyuziv ta'lim muhitida ta'lim klasteri modelini yaratishda barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligining optimal shaklda bo'lishi muhimdir. Bu arxaik tuzilma bo'lib, u bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan moslashuvchan muassasalarini o'z ichiga oladi. Klaster doirasida har bir muassasa jamoasi, resurslari va ulardagi izchil tizimni birlashtirish alohida ta'limga muhtoj shaxslar uchun keng qamrovli sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, muqobil ta'lim shakllaridan biri bo'lgan inklyuziv ta'limni amalga oshirishni ta'minlaydi, shuningdek, qator tashkiliy-pedagogik muammolarni hal qiladi.

Rus tadqiqotchisi E.P. Belanning fikricha, klasterning tashkiliy shakli klaster tarkibiy qismiga kiruvchi barcha muassasalar uchun imtiyozlar beradi, bu esa o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish va ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, kasbiy ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirishni kuchaytirish va integratsiyalashgan inklyuziv ta'lim muhiti yaratish imkonini beradi.

O'z navbatida klaster modelini ishlab chiqish tashkiliy va ta'limiy maqsad, hamkorlikdagi muassasa tashkilotlarning o'zaro majburiyatlar va birgalikdagi faoliyat bilan bog'langan bo'lib, ma'lum miqdordagi moslashuvchan tarmoq tuzilmalarini kiritishni nazarda tutadi. Biz o'rganayotgan inklyuziv ta'limda klaster modeli tarmoqlari quyidagicha ifodalaymiz:

- turli darajadagi ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi; (MTT, UO'TM, OTM)


- inklyuziv ta'lim muhitida o'quv jarayoni va uslubiy ta'minotning innovatsion modellarini ishlab chiqish va joriy etish;
- klaster tarkibidagi hamkor muassasalarning o'qituvchilari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining yangi kasbiy kompetensiyalarni egallashlari;
- klaster tarkibidagi ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim olgan shaxslarni kasbga moslashtirish va ishga joylashtirish.

Binobarin, ta'lim klasteri ierarxik mezonlarga asoslangan bo'lishi, har bir muassasa tomonidan klasterga mos moslashuvchan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi, muassalar maqsadga erishish uchun birgalikda induksiya metodi asosida faoliyat yuritishi zarur.

Ta'lim klasteri yondashuvining yana quyidagi asosiy majburiy komponentlari ham mavjud bo'lib:

- klaster komponentlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasi;
- yagona umumiy maqsad;
- klaster sub'ektlari – tashkilotlarning o'zaro faoliyatining shaffof mexanizmlari;
- umumiy boshqaruv texnologiyalari va klasterli yondashuvini tashkil etishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim jarayonida uzluksiz ta'lim klaster modeli taqdim etilgan tuzilmasida maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'lim muassasalarigacha bo'lgan barcha darajadagi ta'lim muassasalarining keyingi kasbiy faoliyatni ta'minlovchi tashkilotlar ishtirokidagi o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. (1-rasm)



XULOSA

Inklyuziv ta'lim sub'ektlari alohida ta'limga muhtoj o'quvchilar, ularning otalari, shuningdek, ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilari va murabbiylaridir. Inklyuziv ta'lim sub'ektlarini qo'llab-

quvvatlovchilar hamkorlar esa jamoat tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, shuningdek ish beruvchilardir.

Inklyuziv ta'lim jarayonida uzluksiz ta'limni yaratishda ushbu muassasalar alohida ta'limga muhtoj bolalarni jamiyatdagi bazi bir muommolarini tizimli hal etishga qodir. Albatta ushbu yondashuvlar orqali Inklyuziv ta'lim jarayonida klaster modeli joriy etish va samarali natijalarga erishish uchun har bir ta'lim muassasida alohida ta'limga muhtoj shaxslar bilan individual integral yo'nalishida ishlashga tayyor bo'lgan mutaxassislar va o'qituvchilar jamoasi tomonidan tashkil etiladi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”. – Тошкент, 1997 йил 29 август // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда.
2. Ўзбекистон Республикаси Қонуни, “Таълим тўғрисида”. – Тошкент, 2020 йил 23 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
3. “Таълим кластери шароитида мактабгача ёшдаги имконияти чекланган болаларни инклюзив ва ихтисослаштирилган мактаб таълимига комплекс тайёрлаш методикасини такомиллаштириш” мавзусидаги лойиҳа дастури // 2021 yil. ChDPI.
4. *Ходжамқулов Умид Негматович* “Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари” дис. д-р пед. Наук-Чирчик – 2020.
5. *Муллер Ольга Юрьевна* “Научно-педагогический кластер как основа формирования инклюзивной образовательной среды” Сибирский педагогический журнал ♦ № 1 / 2017.

O'ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDA AYOLLAR YOZMA NUTQINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Guljahon Solijonovna Xotamova
SamVMI akademik litseyi o'qituvchisi
guljahonxotamova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda matn muallifini aniqlashning grammatik xususiyatlari, shaxsga xos maxsus identifikatsion belgilarni aniqlash usullari, yozma nutqning umumiy va xususiy tomonlarini o'rganish yo'llari, matn muallifiga xos leksik-semantik, uslubiy va grammatik ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash me'yorlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada ayollar va erkaklar yozma nutqining farqli jihatlari va nutq vaziyatida bosh miya yarimsharhlari faoliyatining roli va uning jahon tilshunosligida o'rganilish darajasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik ekspertizasi, genderolingvistika, amaliy tilshunoslik, lingvistik ekspertiza, yozma nutq, grammatik tahlil, diagnostika, identifikatsiya qilish, identifikatsion belgilar, tabiiy nutq, spontan nutq.

KIRISH

Tadqiqotchilar tomonidan muallifning bilim darajasi, gender xosligini aniqlashda sifat va miqdor tahlilidan foydalanishadi.¹ Muallif atributlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik ekspertizada grammatik xususiyatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Odatda, quyidagi asosiy belgilar muallifning identifikatsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi: Stereotiplar (muntazam qolip sifatida tez-tez qo'llaniluvchi so'zlar), faol iboralar, nutqiy shtamplar, hujjatlarni yozish uslubi va yozish A. A. Leontyev, A. M. Shaxnarovich, V. I. Batov anonim matnlarda ta'lim va ijtimoiy va gender darajasini aniqlash uchun mualliflikning so'z va iboralarni tanlashi, nutq tuzilishi, muayyan lingvistik birlikning ko'p yoki kam

¹Etchell, A., Adhikari, A., Weinberg, L. S., Choo, A. L., Garnett, E. O., Chow, H. M., & Chang, S. -E. (2018). A systematic literature review of sex differences in childhood language and brain development. *Neuropsychologia*, 114, 19–31.

qo'llanilganligiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashadi.² Boshqa tadqiqotchilar esa matematik usullardan foydalanishni taklif qilishadi. Matn muallifining ta'lim darajasi va gender xosligini aniqlash uchun quyidagi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish lozimligini ta'kidlashadi:

- muallif so'z boyligining xilma-xilligi ;
- matnda ko'p komponentli so'z va birikmalardan foydalanish;
- kesimlardan foydalanish;
- nutqning sintaktik murakkabligi;
- nutqning bog'liqligi;
- nutqni qismlarga ajratish.³

Ushbu xususiyatlarga asoslanib, mutaxassislar quyidagilarni aniqlaydilar:

- ta'limning turli darajalariga xos: oliy, o'rta,
- yosh toifasi: kichik, o'rta, yuqori;
- gender xosligi: ayol, erkak.

Oliy ma'lumotli ayollar uchun deyarli grammatik, leksik va uslubiy xatolarning mavjud emasligi, shuningdek, oz sonli imloviy va punktuatsion xatolarning qo'llanilishi xarakterli xususiyatlardan sanaladi. Bundan tashqari, ularning matni yuqori darajada semantikaga ega to'liqlik, tarkibiy rasmiyatchilik, adabiy ishlov berish, lug'at boyligi va adabiy so'zlar va iboralar mavjudligi, so'z-terminologik iboralardan foydalanish, chuqur komponentlar orasidagi murakkab iyerarxiya aloqalari bilan tizimlashib ketgan tuzilmalardan iborat ekanligi bilan ajralib turadi. Biz ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalarni tahlil qilar ekanmiz, oliy ma'lumotli ayollar profilida tugatgan muassasasi, faoliyat yuritayotgan ish joyi haqida to'liq ma'lumot berilganligining guvohi bo'ldik. Ayni shu guruhdagi ayollar yozishmalari tahlil qilinganda quyidagi grammatik xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

- Birinchidan, inversiya erkaklarga nisbatan ayollarda ko'p uchraydigan hodisa.

Asosan, kesimdan oldin kelishi lozim bo'lgan gap bo'laklari kesimdan keyinga ko'chiriladi: "... Ozmuncha xalqning uyi buziladimi yo'lni kengaytirish uchun?)" "Kim olyapti usha uylani?)" "... lekin baliq boshidan sasiydi, kim ruxsat beryapti hammasiga?)"

²Леонтьев А. А., Шахнарович А. М., Батов В. И. Речь в криминалистике и судебной психологии М.: Наука, 1977. — 62 с

³ Woods, N. 1989. 'Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting.' in Coates, J. and Cameron, D. (eds.) 1989. Women in Their Speech Communities. 141-157. Longman.

Ikkinchidan, ayollarning matnlari uchun xatolarning ko'pligi, neytral sezgirlikning ustunligi, yuqori bo'lgan noyob takliflarning chastotasi, boshlang'ich darajadagi ma'lumot matnlariga ega predikativ birliklarning mavjudligi- bularning bari ayollar yozma nutqi uchun xos xususiyatlardir. Ayollar imloviy xatoliklar qilishda erkaklarga nisbatan faol. Ijtimoiy tarmoqlarda bitta munozarali mazvuga bildirilgan kommentlarda ayollar erkin holda dialeketizmlardan foydalanishi, natijada imloviy xatolarga ko'p yo'l qo'yilganligini kuzatdik: "... sirtidayam erke dib yozilgan buliwi mumkun lekin binga yowligida uydila kop lozim kiydrb kotta qiliwhan erke kishi xayotda erke bolishi kere min ayol kiwidan qanqa gao ewitadi soki yoki yomon gap wunga uxwaw gapla bunaqa gapla erke kiwiga yarawmidi» . (o'zgartirishsiz, aynan olindi.)

- Gapning shakli tasdiq, pragmatik mazmuni inkor munosabatini ifodalovchi gaplardan foydalaniladi: "Shu qiz shu bolaga erga tegdiyam deylik. Dalshe-chi?! Baxtli bo'ladi-de! Ketigacha arttiradi!!!» . "... borin, uwa megajin bn yoqalashin, uzizzi zurligizzi isbotlen, eriyizgayam nimaga gaplashvossan, dib har kun janjal kutarb duzaxga aylatiring uyyi. Keyin haaaamma sizga ogromnaya spasiba deb prinsessaga aylanib qolasizi-de, a birpasda?!»

- Morfologik jihatdan ayollar nutqida ko'proq olmoshlar, sifat va undov so'zlar ko'p qo'llaniladi. Ingliz tadqiqotchisi Wool fikricha, ayollar nutqi sifatlar va olmoshlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. ⁴ "... **Axmoklar**, shu **betamiz** kinoni olishga ketkazgan mablagiga kariyalar uyiga SOVGAsalom olib borsa duoda qolar ed. "**Fffuuu!!!** Nima kursatuv or-nomus degani qayerda qoldi?! Ulib ketinlar, **ifloslar!!!shramadli** holatku bu, **daxshat, ujas, uyatsiz, bezbet, beti yuq**» i»

- ayollarning so'z birikmalarida hissiy jihatdan baholovchi qatlam ko'proq: "**ochiq oydin aytib**, eshittirib turmush kursa buladi-ku!», "**qaysi yuz bilan aytiz shunaqa gaplani?!**», "kimmidir **oliyjanoblighi darajasidan** kelib chikib kuliga karab kolmasinchiqmagan jondan umid dip sitqidildan harakat qivurw kere» .

- ayollar ko'pincha kompozitsion sintaktik aloqadan foydalanadilar;

- subordinatsiyalangan sintaktik aloqani ishlatganda, odatda, ayollarda subordinatsiya darajalari va imtiyozlar ustunlik qiladi:

«Nima deb o'ylaysiz, men to'g'i ish qildimmi?»

«Inson avvalo uzligini sevishi kerak, shunday emasmi?»

«Bunaqa gaplarni aytishga qanday tilingiz bordi?!»

⁴ Wu, C. -Y., Ho, M. -H. R., & Chen, S. -H. A. (2012) . A meta-analysis of fMRI studies on Chinese orthographic, phonological, and semantic processing. *NeuroImage*, 63(1), 381–391

- Ayol o'z nutqida bir nechta satrlarni boshqaradi, nutqining tuzilishi ko'p qirrali.

Ayol nutqida undov va so'roq gaplar, shuningdek, o'zgargan so'zlar tartibi ko'proq uchraydi: "O'zidan psixolog yasab olgan chalamulla» nimaga ishora qildiz? Nima hamma psixolog ham dindor bulaveradimi? Yoki dindorlarni yomon ko'rganizga ishora qildingizmi? Bunday deyishga haqqingiz yo'q!

- ko'plab kirish so'zlari, ta'riflari, holatlari, olmosh predmetlari va qo'shimchalari,

shuningdek, turli darajadagi noaniqlik, taxminiylik, noaniqlik darajalarini ifoda etadigan modal tuzilmalar mavjudligi (ehtimol, mening fikrimcha) : "menimcha, masalani boshqa tarafiniyam kurish kere», "menimcha, buni tegida boshqa gap bor», "gde-to uch oyla shunaqa yashaganman, kegin uzgartirdim, bunaqa yashab bumiydi» . "balki, uzida ayb bordir»

- konnotativ neytral so'zlar va iboralar, evfemizmlardan foydalanish (qasam ichish o'rniga qasam ichish; mast o'rniga mast) ;

- odamni ism-sharif bilan chaqirish o'rniga (bu yaramas; bu qashshoq) noodatiy

leksemalar bilan birga baholovchi gaplardan (so'zlar va iboralardan) foydalanish;

- yuqori chastotali, shuningdek, «adverb + adverb» konstruksiyalaridan foydalanish (juda shafqatsiz; juda yaxshi), sodda va murakkab jumlar, ikki baravar inkor bilan fikrni ifodalash: o'la o'lgunimcha noroziman, vapshe bulishi mumkinmas!

Ingliz tadqiqotchisi Coates ayollar nutqini tahlil qilar ekan, "minimal response» degan termin bilan ayollar nutqining sintaktik xususiyatlaridan bir jihatini ko'rsatib o'tadi.⁵ Ushbu xususiyat jumalarning qisqa tuzilganligi, fikrlarga qarama-qarshiliklardan ko'ra ko'proq ijobiy fikr bildirish ustunligini ifodalaydi. Katta yoshli ayollar fikrning tasdiq liniyasidan borishadi. Inkor etiladigan fikr tasdiqdan so'ng keladi. Ayollar nutqida o'ziga ishonchdan ko'ra ko'proq qo'llab-quvvatlashga xayrixohlik ustunlik qiladi. Murakkab sintaktik konstruksiyalar ishlatilmaydi. Quyida 25 va 46 yoshli ayolning o'zaro muloqotini kuzatdik. Jumalarning soddaligi, aniqligi va qisqaligi katta yoshdagi ayol nutqiga xos. O'rta yoshli ayolda esa mantiqiy bog'lanishlarda uzilishlar, izchillikning yo'qolishi, murakkab qo'shma gap tiplaridan nisbatan ko'p foydalanishi xarakterli xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

⁵ Coates, J. 1989. 'Gossip revisited: language in all-female groups.' in Cameron, D. and Coates, J. (eds.) 1989. Women in Their Speech Communities. 94-122. Longman.

A: Mandayam bola-chaqa bor, manam uyim joyim diyman, birolani quliga qarab qomiy diyman. Odamlaga uxshab tagimga kaptiva nomimga uy oberib quy divotganim yuq. Prosta hich kimni aralashuviz narmalni yashashni istiyman.

B: To'ri lekin, Siz vaziyatingizda bu qiyin, sizziyam tushunish kere. Nima istawvotti uzi sizdan?

A: bor yiqqan terganimni akalariga berarmushmiz. Nimaymush, bula aka-ukaymush, ajratmashmuman. Kechrilib qo'yasiz, maniyam uy-joyim yuq bulib xoru xor bulib yurganimda it suramagan qattan olasan pulni, ma man yiqqanimni o, san kvartirama-kvartira sarson yurmagin dib.

B: Etmadizmi ushani?

A: Ulani bilaman xotinini bir chizig'idan chiqmiydi, etganini qiladi, kere busa, ota-ona nima bupti, aka ukasidanam voz kechtirvoradi ilon. Gapi-gap. Issusovu qivoganmi qaynonamlayam ushani diydi faqat, bizani uylamayidi. Bilasmi, eng alam qiladigani, usha xotini ittan man ertlabagacha javob kutganamn, arzimagan pul surab. Berdimi? Yuq uzimiz uy omoqchimiz. Boshingda uying tegingda moshining bor, ulib qomasding, nomard. Manam quziqorinmasman. Anoyisini topibdi, bir tin bermiman. Bilsin u nokur, qanqa bulishni

B: Sabrli bulishingiz kere. Hayot hali oldinda. Ko'rdingizmi, charxpalak dunyo bu. Hali sizgayam qaytadi\

A: U iplosdan qaytmiydi yaxshilik

B: Undan qaytmasligi, bir xudoga ayon, buyog'iga bir narsa deyomiymn-u, lekin Sizniyam, balki xudo shu yo'l bilan sinayotgandir, undan qaytmasa, xudodan qaytadi//


Ayollarda nutqiy vaziyatlarning hosil qilinishida miya faoliyatining rolini tadqiq etgan olimlar erkaklarnikidan farqlio'laroq har ikkala yarimsharda joylashgan maydonlarning ma'lum bir qismi javob berishini isbotlashgan. Ayollarda nutq uchun chap yarim sharning frontal qismida joylashgan maxsus maydon, miyaning o'ng yarim sharida esa biroz kichikroq maydon javob beradi.

Bir vaqtning o'zida ikkita yarim sharda nutq sohalari mavjudligi ayollarga nutqni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Sintaktik xatolar. Sintaksis buzilishi atayin tinish belgilaridagi xatolar bilan bir xil chastotada sodir bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, u jumla ichidagi so'zlarning tartibini buzishdan, ba'zan esa matnni jumlalarga ajratishdan, qisqalikdan iborat.

1. Murakkab sintaktik konstruksiyalar o'rniga oddiylardan foydalanish mumkin. Iboralar va ergash gaplar bilan ifodalangan holatlar kamdan kam qo'llaniladi.

2. Taqdimot uslubini soddalashtirish. Uslubni soddalashtirish uchun, qoida tariqasida, ular so'zlashuv, kundalik uslubning til vositalaridan, masalan, xalq tilidan foydalanadilar.



3. Uslubni maskalash uchun stereotipik iboralar, oldingi jumlaning so'nggi so'zining har bir jumlasidagi takrorlashlar, jumla boshlanishining bir xil turi va boshqa uslubiy xatolardan foydalanish mumkin.

4. Oddiy til vositalaridan foydalanish. Odatda, ilmiy yoki rasmiy-ishbilarmonlik uslubi bilan ishlaydigan shaxslar ba'zan maskalanish maqsadida oddiy, so'zlashuv yoki epistolyar uslubga xos vositalarga murojaat qilishadi. Bunday holatlarda hukmlarning o'rtacha davomiyligi qisqartiriladi. Shu bilan birga, matnni xatboshilarga bo'lish qobiliyatlari an'anaviy ravishda saqlanib qoladi, maskalanish maqsadida ma'lum bir odam tomonidan kamdan-kam ishlatiladigan maqollar qo'llashga harakat qilinadi.

5. Matnning arxitekturasi, ya'ni uning umumiy tuzilishi ba'zan o'zgarishlarga uchraydi.

Mutaxassis amaliyoti shuni ko'rsatadiki, yozma nutqni yashirish uchun ko'pincha imlo va leksik xususiyatlar o'zgarishga uchraydi. Biroq, lingvistik me'yorlarning buzilishini anglatuvchi belgilar nafaqat oddiy yozuvda, balki boshqa belgilar ataylab o'zgartirilganda ham barqarorligini saqlaydi.

Yozma nutqni buzish belgilarining mavjudligini yoki yo'qligini aniqlash uchun nafaqat har bir belgini tahlil qilish, balki

uni qo'lyozmada aks etgan boshqa belgilar bilan taqqoslash talab etiladi. Bunday taqqoslash qarama-qarshiliklarni aniqlashga va ularning o'zgarishini ko'rsatadigan belgilarni aniqlashga yordam beradi:

- jumalarni to'g'ri sintaktik tuzilishi bilan ko'plab imlo normalarini buzilishi yoki aksincha, sintaktik va tinish belgilarining ko'p sonli buzilishi bilan imloga qat'iy rioya qilish;

- nisbatan sodda holatlarda imlo qoidalarini qo'pol ravishda buzilishi, murakkab imloga ega so'zlarning beg'ubor yozilishi bilan;


- sintaksis qoidalariga rioya qilish va turli xil tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish paytida uslubiy xatolarning ko'pligi, argotizmlar, lug'at aralashuvi;

- lug'at va murakkab funktsional nutq uslublarini yaxshi biladigan odamlarga xos bo'lgan so'zlar va iboralarni taqdim etish;

- to'g'ri yozilgan so'zlarni tuzatish;

- qo'lyozma oxirida, masalan, matn boshida yozilgan bir xil so'zlar xatolar bilan to'g'ri yozilganda, imlo xatolarining sonini kamaytirish. Bu yozma tilni ataylab o'zgartirishga qaratilgan xatning oxiriga bo'lgan e'tibor va sa'y-harakatlarning zaiflashishi bilan bog'liq.

Biz yuqorida tahlil uchun olgan matnlar va tahlilga kiritgan lingvistik xususiyatlar lingvistik ekspertiza uchun umumiy tayanish lozim bo'lgan manba bo'lib xizmat qiladi. Katta yoshli ayollarda murakkab sintaktik konstruksiyalarning qo'llanmasligi, qisqa savol shakllaridan foydalanish, ritorik so'roq gaplarning faol qo'llanilishi, so'z birikmalari tuzishda ekspressiv bo'yoqdor so'zlardan foydalanishning ustunligi, yirik hajmli matnlarda esa izchillikning yo'qolishi singarilar xarakterli xususiyat sanaladi. Ana shu xususiyatga asoslanib, anonim xatda gender xosligini aniqlash bilan bir qatorda taxminiy yoshini ham baholash mumkin bo'ladi. Demak, muallif atributlariga asoslangan lingvistik ekspertizalarda ayollar nutqining xarakterli xususiyatlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:



Biz yuqorida o'zbek tilida yaratilgan yozma matnlarni ayni shu yo'nalishda tadqiq etdik va tahlilga tortdik.

Demak, qo'lyozma matnlarda harf shakllarining qo'llanilishi ham turli yosh kategoriyalariga muvofiq ayollar yozishmalarida farqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lingvistik ekspertizada yozma nutq muallifini aniqlashning leksik-semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishga doirtadqiqotlarni lingvistik ekspertizaning asosiy bo'lagi deb qarash, uni amaliyotga joriy etish va bu orqali o'zbek tilshunosligida uning nazariy asoslarini mukammal ishlab chiqish amaliy tilshunoslik oldida turgan asosiy masalalardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Asl mohiyat ,eng avvalo, mukammal bilim va ko'nikma amaliy tajribalar asosida yuzaga keladi. Amaliy tadqiqotlarda aniqlangan dalillar nazariy tilshunoslik (fan) yadrosiga kiritilmagan. Zero, amaliy va nazariy sohalarning har xilligiga qaramasdan, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Amaliy tilshunoslikning bir bo'lagi hisoblangan lingvistik ekspertizada grafologik tadqiqotlarning rivojlanishi va uning sud-huquq tizimida samarali natija berishi o'rganilayotgan shaxsning nafaqat psixologik portretini, balki uning yozma nutqiga xos lingvostilistik: grammatik, lingvistik-semantik,dialektologik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash orqali ushbu shaxs haqida to'liq ma'lumot berish imkonini yaratadi .

REFERENCES

1. Бобовкин М.В. Почерковедение и почерковедческая экспертиза: курслекций. –Волгоград, 2002.–С.81
2. Вул С.М. Особенности оценки следователем и судом заключения идентификационной судебно-автороведческой экспертизы//Криминалистика и судебнаяэкспертиза.Республиканскиймежведомственныйнаучно-методическийсборник.-Киев:"Лыбидь",1982.-Вып.24-С.81-84
3. Потапов В.В. Язык женщин и мужчин: фонетическая дифференциация // Известия А Н. Серия литературы и языка ,1997. –Том 56, №3-С.52-62.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993. –118
5. Леонтьев А. А., Шахнарович А. М., Батов В. И. Речь в криминалистике и судебной психологии М.: Наука, 1977. — 62 с
6. Манцветова,А. И. Теоретические основы судебнопочерковедения/А.И.Манцветова,В.Ф.Орлова,И.А. Славуцкая//ТрудыЦНИИСЭ.–Вып.1.– М.,1967.–444 –б



7. Мирхамидов М., С.Ҳасанов. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004.
8. Ощепкова Е. С. Идентификация пола автора по письменному тексту (лексико-грамматический аспект): дисс. ... канд. филол. наук. М., 2003
9. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Татбиқий тилшунослик тезислари. – Андижон давлат университети. Илмий хабарнома, – 2016. №3
10. Шахабитдинова, Д. Рустамов, Д. Попов, Д. Рустамова, Б.Абдуллаев, Ш.Миралимова. Оммавий лисоний маданият – Андижон: Step by step print: 2020. – 150 б.
11. Etchell, A., Adhikari, A., Weinberg, L. S., Choo, A. L., Garnett, E. O., Chow, H. M., & Chang, S. -E. (2018) . A systematic literature review of sex differences in childhood language and brain development. *Neuropsychologia*, 114, 19–31.
12. Coates, J. 1989. ‘Gossip revisited: language in all-female groups. ’ in Cameron, D. and oates, J. (eds.) 1989. *Women in Their Speech Communities*. 94-122. Longman.
13. Musulmonova K. Ozbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayoni, bosqichlari, metodlari”.
14. Sanford F. H. *Speech and Personality* // *Psychol. Bull.* 1942.
15. Wu, C. -Y., Ho, M. -H. R., & Chen, S. -H. A. (2012) . A meta-analysis of fMRI studies on Chinese orthographic, phonological, and semantic processing. *NeuroImage*, 63(1), 381–391
16. Woods, N. 1989. ‘Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting. ’ in Coates, J. and Cameron, D. (eds.) 1989. *Women in Their Speech Communities*. 141-157. Longman.

MATEMATIK FIZIKA TENGLAMALARIGA OLIB KELUVCHI FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH

Faxriddin Mamasaid o'g'li Safarov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

safarov-faxriddin@mail.ru

Iskandar Ro'zim o'g'li Abduqahhorov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Zamonaviy fizikada juda ko'p jarayonlar matematik fizika tenglamalarini yechish orqali tushuntiriladi. Bu tenglamalar nochiziqli differensial tenglamalar bo'lib, ularni doim ham analitik yechishning imkoni yo'qdir. Biz bu ishda matematik fizika tenglamalarini "wolfram mathematica" dastur paketi yordamida yechdik hamda olingan natijalarni tahlil qildik.

Kalit so'zlar: Modellashtirish, giperbolik tenglama, parabolik tenglama, elliptik tenglama, NDSolve, Plot, Manipulate.

COMPUTER MODELING OF PHYSICAL PROCESSES DESCRIBED BY MATHEMATICAL PHYSICS EQUATIONS

ABSTRACT

Many processes in modern physics are explained by solving the equations of mathematical physics. These equations are nonlinear differential equations that cannot always be solved analytically. In this work, we solved the equations of mathematical physics using the software package "wolfram mathematica" and analyzed the results.

Keywords: Modeling, hyperbolic equation, parabolic equation, elliptic equation, NDSolve, Plot, Manipulate.

KIRISH

Hususiy hosilali differensial tenglamalarni samarali yechish usullarini aniqlash matematik fizikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[2]. Ikki o'lchovli masalalar uchun xususiy hosilali ikkinchi tartibli tenglama umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$a \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + b \frac{\partial^2 u}{\partial t \partial x} + c \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + d \frac{\partial u}{\partial t} + e \frac{\partial u}{\partial x} + fu + g = 0$$

bunda u ixtiyoriy no'malum funksiya; a, b, c, d, e, f va g lar koeffitsientlar x (koordinata) va t (vaqtning) funksiyasi bo'lishi mumkin.

Chiziqli holatda bu tenglama ushbu

$$D = b^2(x, t) - 4a(x, t)c(x, t)$$

diskriminantning ishorasiga qarab giperbolik, parabolik va elliptik tiplarga quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- $D > 0$ giperbolik tipdagi tenglama
- $D = 0$ parabolik tipdagi tenglama
- $D < 0$ elliptik tipdagi tenglama

Fizikada bu tipdagi tenglamalar bilan tavsiflanuvchi quyidagi masalalarni sanab o'tish mumkin: *to'lqin tarqalishi masalasi, issiqlik tarqalish masalasi, diffuziya masalasi, elektrostatika massalasi (Laplas, Puasson tenglamasi)*

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi paytga zamonaviy ilm fanni kompyuterlarsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Xususan matematik fizika tenglamalarini yechishda ham olimlar turli xil kompyuter dasturlaridan foydalanib kelishmoqdalar. Jumladan E.N. Trofimets va V.Ya. Trofimetslar aerokosmikaga ta'luqli muammolarni hal qilishda Mathcad dasturlash paketidan keng foydalanganligini ko'rishimiz mumkin[1]. Bu kabi muammolarni yechishda Matlab, Maple, Wolfram mathematica, Mathcad kabi dasturlash paketlarining imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Biz bu ishda giperbolik, parabolik va elliptic tipdagi masalalarni sonli usulda yechishda "Wolfram mathematica" dasturlash paketidan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun giperbolik, parabolik va elliptik tiplarga mos keluvchi tenglamalar orqali tavsiflanuvchi ba'zi bir masalalarni ko'rib chiqamiz[4]:

1. Torning ko'ndalang tebranishlari masalasi (giperbolik tipdagi tenglama)
2. Issiqlik tarqalishi masalasi (parabolik tipdagi tenglama)
3. Laplas tenglamasi (elliptik tipdagi tenglama)

Torning ko'ndalang tebranishi masalasi

Ikkala uchi mahkamlangan L uzunlikdagi tor berilgan bo'lsin. Tor nuqtalarining boshlang'ich tezligi nolga teng va boshlang'ich siljishi esa $\varphi(x)$ ko'rinishga ega. Shu torning ko'ndalang tebranishlar masalasini yeching?

Matematik fizika tenglamalari kursidan ma'lumki, torning ko'ndalang tebranish masalasi to'lqin tenglamasini yechish orqali hal qilinadi. Bir o'lchamli to'lqin tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \cdot \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \quad (1)$$

ko'rinishga ega. Bu yerda a to'lqinning tarqalish tezligi hisoblanadi. Masala shartiga asosan boshlang'ich va chegaraviy shartlarni ham yozib olaylik:

$$u(0, t) = u(L, t) = 0, \quad \varphi(x) = x(x - L), \quad u_t(x, 0) = 0.$$

Bu masalani yechishda "wolfram mathematica" dastur paketidagi NDSolve, Plot va Manipulate buyruqlari qo'llaniladi.

NDSolve buyrug'idan differensial tenglamalarni sonli usulda yechimini topishda foydalaniladi. Plot buyrug'idan esa funksiyaning grafigini chizishda foydalaniladi. Manipulate buyrug'i yordamida funksiya yoki biror miqdorni manipulyatsiya qilish mumkin.


Endi bevosita (1) tenglamani yechish dasturiga o'tamiz.

```
In[1]:= a = 0.1; L = 1; T = 10;
```

```
In[2]:= NDSolve[{D[u[x, t], {t, 2}] == a^2 * D[u[x, t], {x, 2}],  
u[x, 0] == x * (x - L), (D[u[x, t], t] /. t -> 0) == 0, u[0, t] == 0, u[L, t] == 0},  
u, {x, 0, L}, {t, 0, T}, PrecisionGoal -> 2]
```

```
Out[2]:= {{u -> InterpolatingFunction[  
+  Domain: {{0., 1.}, {0., 10.}}  
Output: scalar  
]]}}
```

Ko'rinib turibdiki dastlab o'zgarma kattaliklar elon qilindi, hamda (1) tenglamani yechish uchun NDSolve buyrug'idan foydalanildi. Tenglamani yechimi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun uni grafik ko'rinishda tasvirlab turli vaqt momentlari uchun yechimni vizuallashtirish mumkin(1-rasm).



1-rasm. $u(x, 0)$ funksiyaning x koordinataga bog'liqligi.

1-rasmdagi yuqori chap burchakdagi surgichni o'ng tomonga surish orqali (1) tenglamaning yechimini turli vaqt momentlarida kuzatish mumkin bo'ladi.

Grafikdan ko'rinib turibdiki olingan natija masalaning boshlang'ich va chegaraviy shartlariga mos keladi, ya'ni torning ikkala uchi mahkamlangan va boshlang'ich vaqt momentida uning ko'rinishi $\varphi(x) = x(x - L)$ ko'rinishdagi parabola shakliga ega.

Issiqlik tarqalishi masalasi

Uzunligi L ga teng bo'lgan sterjen berilgan. Uning chap uchi o'zgarmas u_1 temperaturada ushlab turilibdi. Sterjenning o'ng uchiga o'zgarmas issiqlik oqimi q berilgan. Sterjendagi boshlang'ich temperatura taqsimoti $\varphi(x)$ kabi bo'lsin. Shu sterjendagi issiqlik tarqalish masalasi yechilsin?

Issiqlik tarqalish masalasini yechish

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2 \cdot \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \quad (2)$$

tenglamani yechish orqali hal qilinadi. (2) tenglama uchun ham masala shartiga ko'ra boshlang'ich va chegaraviy shartlarni yozib olaylik:

$$u(0, t) = 0, \quad u(L, t) = \frac{q}{k}, \quad \varphi(x) = \frac{q \cdot x^3}{k \cdot L^3}.$$

(2) tenglamani yechish dasturi esa quyidagi ko'rinishga ega:

```
In[1]= a = 0.1; L = 1; T = 10; q = 0.01; k = 1;
```


```
In[2]= NDSolve[{D[u[x, t], t] == a^2 * D[u[x, t], {x, 2}],
```

$$u[x, 0] == \frac{q * x^3}{k * L^3}, u[0, t] == 0, u[L, t] == \frac{q}{k}], u, \{x, 0, L\}, \{t, 0, T\}]$$

```
Out[2]= {{u -> InterpolatingFunction[ Domain: {{0., 1.}, {0., 10.}}  
Output: scalar ]}}
```

Bu tipdagi tenglamalarni yechishda shunga e'tibor berish kerakki, dastur to'g'ri ishlashi uchun boshlang'ich va chegaraviy shartlar to'g'ri tanlanishi zarur! Olingan (2) tenglamaning yechimini ham turli vaqt momentlarida kuzatish mumkin(2-rasm).

```
In[3]= Manipulate[Plot[Evaluate[u[x, t] /. %], {x, 0, L}], {t, 0, T}] In[3]= Manipulate[Plot[Evaluate[u[x, t] /. %], {x, 0, L}], {t, 0, T}]
```



2-rasm. a) $u(x, 0)$ ning x koordinataga bog'liqligi, b) $u(x, 7)$ ning x koordinataga bog'liqligi.

Laplas tenglamasi

Laplas tenglamasi $\Delta u = 0$ ning $0 \leq x \leq a$, $0 \leq y \leq b$ to'rtburchak ichidagi yechimini toping? $u(x, y)$ shu to'rtburchak chegaralarida quyidagi qiymatlarni qabul qiladi: $u(0, y) = A \cdot \sin \frac{\pi y}{b}$, $u(a, y) = 0$, $u(x, 0) = B \cdot \sin \frac{\pi x}{a}$, $u(x, b) = 0$.

Masala shartidan ko'rinib turibdiki, Laplas tenglamasini ikki o'lchamli hol uchun yechish kerak. Demak ikki o'lchamli holda Laplas operatorini

$$\Delta = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2}$$

kabi bo'ladi va bizga

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = 0 \quad (3)$$


tenglamani masala shartidagi chegaraviy shartlar uchun yechish talabi qo'yiladi. Endi (3) tenglamani yechish dasturiga o'taylik:

```
In[1]:= a = 1; b = 2;  
Tenglama = Laplacian[u[x, y], {x, y}] == 0;  
Ω = Rectangle[{0, 0}, {a, b}];  
  
In[4]:= Yechim = NDSolveValue[{Tenglama, u[0, y] == Sin[π * y/b],  
u[a, y] == 0, u[x, 0] == Sin[π * x/a], u[x, b] == 0}, u[x, y], {x, y} ∈ Ω]
```

```
Out[4]= InterpolatingFunction[  
+  Domain: {{0., 1.}, {0., 2.}}  
Output: scalar  
][x, y]
```

Bu yerda ham yuqoridagi masalalarga o'xshash dastlab o'zgarmas kattaliklar e'lon qilindi. So'ngra yechim izlanishi zarur bo'lgan soha(to'rtburchak)ni dasturga kiritilganligini ko'rishingiz mumkin. Oldingi masalalardan farqli ravishda yechimni grafik ravishda tasvirlash uchun Plot3D buyrug'idan foydalaniladi. Chunki Laplas tenglamasida izlanayotgan $u(x, y)$ yechim ikki o'zgaruvchining funksiyasidir. Shu boisdan ham yechimni grafik ravishda tasvirlash uch o'lchamli fazoda tasvirlash lozim(3-rasm).

```
In[5]:= Plot3D[Yechim // Evaluate, {x, y} ∈ Ω, PlotRange → All, PlotTheme → "Business"]
```



3-rasm. $u(x, y)$ ning x va y koordinatalarga bog'liqligi.

XULOSA

“Wolfram mathematica” dasturi yordamida matematik fizika tenglamalari kompyuterda modellashtirildi. Olingan

natijalar masalalarning boshlang'ich va chegaraviy shartlariga mosligi tekshirildi. Tuzilgan dasturlardan masalalar shartidan kelib chiqqan holda turli boshlang'ich va chegaraviy shartlar uchun moslashtirib foydalanish imkoniyati mavjud. Bunday dasturlarning avzalligi tenglama yechimini turli vaqt momentlari uchun vizuallashtirish orqali kuzatilayotgan jarayon haqida to'liqroq ma'lumot olish mumkin.

REFERENCES

1. E.N. Trofimets and V.Ya. Trofimets 2021 *IOP Conf. Ser.: Mater. Sci. Eng.* 1047 012140.
2. Sommerfeld, A. (1949). *Partial differential equations in physics*. Academic press.
3. Sofroniou, M., & Knapp, R. (2008). *Wolfram Mathematica© Tutorial Collection. Advanced Numerical Differential Equation Solving in Mathematica*; Wolfram Resarch. Inc.: Champaign, IL, USA.
4. Fayzullaev V.A., Rahmatov A.S. *Matematik fizika metodlari*, Toshkent, Universitet, 2014.



INCREASE IN THE LEVEL OF PHYSICAL TEXT CHAMPIONSHIP, DIFFERENTIATED BY YOUNG VOLLEYBALLS ACCORDING TO THE SPECIALTY OF THE GAME

Saydullo Tulanboevich Khakimov
Lecturer, Fergana State University

ABSTRACT

In the article, examples are given to increase the overarching harsh resistance of young volleyball players, the results of their research based on their play, based on daily enhanced work performance.

Keywords: endurance of the game, level of physical development, physical qualities, operational training, action measures, optimization, special training, coordination skills.

When achieving high sports leads to any kind of sports, the physical training of an athlete is of great importance. Therefore, in each specific sport, the problems of developing athletes are one of the most pressing problems at the present time. Physical fitness is much more in volleyball, which is highly technical and effective tactics for effortless movements and effective tactics. The physical course of volleyballs is largely determined by the results of the team achieved in the competition.

It is noted that the strengthening of volleyball players is the sum of strength, fast resources, which are constantly manifested in a certain order or proportion of each specific activity of the action (within 2-3 hours). Complex "complex" is an integrated quality, and the Foundation is resistant to.

The operational indicators of training young volunteers are mutually positive and interact with their level of physical development:

a) special speed with long dimensions of the body and its parts, the height of the growing part of the internal stocks and legs;

b) custom body components of the body absolute and relative muscle components of the absolute and relative muscle components, body and relative muscle parts, as well as with rose round connectors, internal connectors and paws; negative with a thick part of the body weight;

c) Total (maximum) power - with the body of the body with circulation (excluding the upper and lower parts of the body (excluding 11-15).

Based on the analysis of correlation models, the performance of young volleyballs under the age of 9 was revealed: the strength of the muscular power to throw the ball, throw the ball with the right hand, and the writer's hand. In addition, the general physical training performed in the strength of arms, legs and body muscles is unique to all age groups.

The invited strength of some manifestations is determined by the concept of "explosive power", that is, it is understood that the ability to maximize during this context is very short. Dependent, high-level, specific actions in an individual relation to the implementation of highly qualified absorptions based on the results of exploitation and athletes are very necessary [3].

The specialist, based on a high level of development of anaerobic power in the physical qualities of volleyball qualities, is the leading position of special stability. When the juxtaposition of milk is significantly accumulated, the ability to move in oxygen deficiency renders great illness. Since the physical qualities and abilities of the athlete, it is necessary to identify the key activities of the athlete in order to determine what kind of work the athlete is doing during the competition.

During the game of volleyball, the player performs very complex actions: make a lot of movements in the game, the barrier, or provide brutal flying shots, etc. At the same time, the place and sequence of actions of an action cannot be known in advance in volleyball. Situations during the game and therefore always changed for them.

During the competition, the volleyball player performs a very diverse action, can be conditionally divided into 3 groups: movement, transmission and jumping. Volleyballs must perform possible shocks and jumps, which are like rectangles. From here, in a volleyball game the player can split according to each of the three groups listed.

Based on the groups allocated to the action, the efforts are characterized by its environment, times and dynamic characteristics, quantitative and qualitative adjustments, which are always performed in their order, and are always performed for this work, this is typical for this.

In such situations, the volleyball player must perform specific special actions for volleyball only. Not only speed, but also aimed at performing special activities for volleyball.

It is also necessary to show the ball into play in order to demonstrate faster power in taking offensive shots and other technical elements to a certain extent.

The manifestation of strength in the performance of a particular activity is a fraction of a second, it has been proven that it will happen in a short time (the exchange time will last 0.8-0.25 seconds). It follows that the mobilization of power is fast, that is, it will be necessary not only for strength and hint, but also for combined interaction or "explosive power" or hint.

Therefore, in volleyball to complete all activities, it will be developed in volleyball, strength, effective efforts[2]. However, it is also necessary to keep in mind that volleyball is necessary for volleyball to be performed all the time during the game, accelerating.

This means the volleyball player can reach an average of 64 games during a five-party party, up to 250-330. On the basis of volleyball, all deficit heads will be fulfilled. It follows that it is necessary to perform some actions for a quick and certain tension, but also in 1.5-2.0 or more hours (one meeting time), but 1.5-2.0 or more hours (one meeting time), it is necessary to master the speed of 1.5-2.0 or more, that is, it is necessary to be resistant to operational work or fast durability.

At the same time, it consumes a certain voltage indefinitely, as well as the zeal of power supply. In movement in volleyball, there are only cases of play that can only be accessed by volleyball, or the strength of patience is almost nonexistent. During the game, it is advisable to speak of rapid strength, withstanding all acts of every movement necessary to pass the match, and all muscles must be successful.

Physical qualities obtained separately cannot manifest themselves in a state of divorce, that is, it works in the divorce itself in a varied level of mutual harmony. The creation of this lies in the fact that successful physical qualities are successfully determined in competition, are power, and other qualities, which are the only complex, complex, integrated quality[2].

It should also be borne in mind that the founder of volleyball is a set of strength, a quick resource, and many times that effort, power, explosive strength and other qualities that always work in a certain order or are treated. Complex, Complex, integrated quality that is collected from development (within 2-3 hours).

Once again, strength, and volleyball are very necessary, and other qualities are necessary, but it is always a difficult harmony, as they are not shown separately. Despite the apparent form, it is necessary to develop power, speed and diligence, not the individual or the stressors of the game[5.6].

The expansion of fast energy, which will always be foreseen by quick efforts or jumping in motion from place to place, is always performed as a quality. Perhaps volleyball according to the endurance of the game, according to the type of key act of the underlying action. Let's say the game "run" calls "jumping" in wrestling or transmission - "jumping" - "jumping" - "jumping" - "jumping" - telling the game "run", which is necessary to move in place.

Such an effort, such training of this problem is necessary for a deep understanding of this problem and to solve it in practice and to solve this problem. So the boundary player is conventionally conditional for his types - run, hit and jump are reserved, each of which helps to successfully transform the flow of any desired actions corresponding to the athlete.

Improving the training of athletes today can be done based on the optimal performance of this system. The task of developing the tools of the body's abilities after the dangerous size and competition is very important.

The analysis of the studied literature shows that volleyball is of great importance for physical fitness. At the same time, enough attention is paid to this department of volleyball players.

Studies have shown that over a period of 10 to 15 years, volleyball and volleyball differ depending on the integral interdependence and the number of its main components. Volleyball players aged 10-11 are divided by many indicators of physical fitness, business skills and complex and unusual contacts in parameters of plant functions. The number and continuation of such relationships will initially decrease such relationships as young as young (aged 12-13), and then increase later (4,7).

Taking into account the period tries, such as a certain physical adhesion, as a result of development related to the game, such as goal-oriented exercise, provides optimization of physical fitness and flexible control and increases their levels.

The structural structure of physical training trainings of various game amplifiers showed their similarity in the main components and images. At the same time, in each game specialization, complications of the clergy were identified. Attackers have a wide range of physical fitness, fitness, skills, business skills, autonomic challenges, and most parameters. The density of this interaction and their number decreases, while the number of passengers decreases and their number decreases.

Examination of the ball into the zone of the 6th zone in the study, the introduction of the ball from the 6th zone of the 6th

zone show that the results of the experimental group of young volleyball players of the indicators of special and technical training of the control group have a long-term advantage over the athletes-athletes (Table 1).

Table 1. Changes in special and technical learning indicators as a result of grades ($x \pm m$)

Indicators	Experimental group (n=15)		Control group (n=15)	
	At the beginning of the experiment	At the end of the experiment	At the beginning of the experiment	At the end of the experiment
Second gear (from 3-4 zones), the number of clear transmission	2,65±0,14	3,68±0,22	2,63±0,17	2,79±0,15
Ball reception (pass from 6 to 3 zone), the number of clear reception	3,64±0,17	4,02±0,12	3,25±0,21	3,43±0,23
Landing the ball into play (zones 1-5-6), the number of accurate shots	2,66±0,19	3,53±0,18	2,56±0,21	2,68±0,18

The junior differentiated volleyball players and their physical fitness training programs are equally developed in operational quality throughout the game. The test results, which reflect the level of operational capabilities, showed that volleyball players in all games were almost unified.

In addition, unlike other athletes, the main focus on the "striker" volleyball players was to develop appeals - in the Libero - to the "Libero" athletes - coordinating skills. As a result, a differentiated effect on this will lead to a significant increase in the level of physical qualities.

For the attackers "Fast resistance endurance by 9.3%" - "passengers" and Lieber in accordance with 4.2% and 3.8%.

Attackers (25.6%) and Output 25.6%) and the Libero test increased significantly to 35.2%.

A similar situation has been observed in volleyball players in the Libero. It is clear that the temporary means of a simple reaction of actions, which reflect these abilities in the



development of coordination skills in Libero volleyballs, are significantly increased - by 3.3% ("forwards" 8.5%).

Thus, the information obtained in the course of the study allowed young volleyball players that the physical training of young volleyball players and its specific function is based on a specialized specialty. This, in turn, will lead young volleyball players to improve the effectiveness of physical fitness and came to the conclusion that the need to differentiate this, depending on the game.

REFERENCES

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 3, 2017 No PP-3031 "On measures for further development of physical culture and mass sports." People's Word newspaper, June 4. 2-3 b.
2. Хакимов, С. Т. (2021). Ёш волейболчилар жисмоний тайёгарлигини ўйин ихтисослиги бўйича такомиллаштириш. Ташкилий кўмита, 234.
3. Abdullaev A., Khonkeldiev Sh.Kh. Theory and methods of physical education. T.O'zJTI is ours. 2007 - 231s.
4. Valievich, D. S. (2020, December). System of organization of movement activities in primary school students. In *Конференции*.
5. Джалалов, Ш. (2020). жисмоний маданият (тарбия) дарсларида кичик ёшдаги мактаб ўқувчилари гаенгилатлетика машғулотларини ўтиш методикасининг ўзига хос хусусиятлари. *фан-спортга*, (5), 48-50.
6. Джалолов, Ш. В. (2019). Анализ соматометрических показателей детей младшего школьного возраста. *Наука сегодня: проблемы и перспективы развития [Текст]: ма*, 87.
7. Джалолов, Ш. В. (2019). Возрастная динамика скоростно-силовых способностей у детей младшего школьного возраста. In *наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 72-73).
8. Ubaydullaev, R. M. (2021). MONITORING THE PHYSICAL FITNESS OF GIRLS IN GRADES 8-9 OF RURAL SECONDARY SCHOOLS. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(2).
9. Убайдуллаев, Р. М. (2020). Сопоставительный мониторинг показателей физической подготовленности девушек сельских школ с нормативами тестов здоровья "Барчиной". In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 37-40).

10. Усманов, З. Н., & Убайдуллаев, Р. М. проблемы физкультурно-оздоровительной работы в системе школьного образования.
11. Usmanov, Z. N., & Ubaidullaev, R. (2020, december). problems of physical and healthy work in school education system. In *Конференции*.
12. Usmonov, Z. N. (2020). Monitoring of physical and health works in rural comprehensive schools. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3)*.
13. Усманов, З. А. (2019). Гиподинамический фактор и физическое состояние школьников. *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы [Текст]: матери*, 77.
14. Усманов, З. А. (2019). Исследование теоретической подготовки учащихся среднего школьного возраста по предмету «физическая культура». *наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования*, 90.
15. Hamrakulov, R. (2021). The importance of the organization of physical cultural activities based on advanced pedagogical technologies. *current research journal of pedagogics*, 2(05), 114-119.
16. Hamrakulov. Pedagogical bases of formation of physical education and sports training in higher education system.
17. Yuldashev, M. (2021). Innovative aspects for healthy lifestyle formation and development of sports. *current research journal of pedagogics*, 2(05), 102-107.
18. Abdulazizovich, Y. I. (2019). FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS AS THE BASIS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE HUMAN FACTOR. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(7)*.
19. Khakimov, S. T. (2022). THE WAYS TO ENHANCE THE TRAINING PROCESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(2), 118-135.
20. Siddikov, B. S. (2020). The importance of sports and recreation activities for a harmoniously developed generation. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 107-111).
21. Sidikova, G. S., & Ibrahimovich, T. A. (2021). FORMATION OF CHILDREN'S HEALTH CULTURE AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Conferencea*, 71-74.
22. Tuychiyev, A. I. (2022). O 'QUVCHILARDA INTIZOMIY KO 'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 896-901.



23. Yuldashev, M. (2021). INNOVATIVE ASPECTS FOR HEALTHY LIFESTYLE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SPORTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 102-107.
24. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
25. Сиддиков, Б. С. (1994). Физическое воспитание школьников в условиях учебно-воспитательного комплекса (на материале сельских школ Узбекистана).
26. Сиддиков, Б. С. (2019). Физическое воспитание как фактор развития личности. *International scientific review*, (LXIV), 57-58.
27. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
28. Хайдаралиев, Х. Х. (2019). МОТИВАЦИЯ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ КАК ПРОЯВЛЕНИЕ ПАТРИОТИЗМА СОВРЕМЕННЫХ СТУДЕНТОВ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 50-52).



ПАСТ ЧАСТОТАЛИ ЭЛЕКТРОМАГНИТ МАЙДОННИНГ ЎСИМЛИК УРУҒ

Дилдора Баходировна Амонова

Бухоро давлат университети ўқитувчиси

dildoramonova1990@gmail.ru

АННОТАЦИЯ

Электростимуляция билан уруғга ишлов беришда оптимал шароитлар таъминланганда, уруғларнинг экиш учун сифат даражаси ортиши (униш қувватининг ортиши), ўсимлик ривожланиши тезлашиши, ташқи муҳитнинг ноқулай омилларига қарши чидамлик даражаси ортиши қайд қилинган, бунда ўсимликнинг ҳосилдорлик даражаси 5–20%гача ортиши қайд қилинган. Бунда ишлов бериш жараёнининг самарадорлиги бевосита кўплаб омилларга боғлиқ бўлиб, самарадорлик даражаси 0,50 дан 0,75 гача оралиқда тебраниши кузатилади.

Калит сўзлар: электромагнит майдон, гипокотил, буғдой, ауксин

ABSTRACT

When optimal conditions for seed processing with electrostimulation are provided, there is an increase in the quality of seeds for sowing (increased germination capacity), accelerated plant growth, increased resistance to adverse environmental factors, with an increase in plant yield by 5–20%. In this case, the efficiency of the processing process depends directly on many factors, the efficiency of which varies from 0.50 to 0.75.

Keywords: electromagnetic field, hypocotyl, wheat, auxin

КИРИШ

Экишдан олдин турли хил ўсимликларнинг уруғларини электромагнит майдон билан ишлов бериш самарадорлиги анча олдин аниқланган бўлиб, бу йўналишдаги тадқиқотлар натижалари тегишли дарсликлар таркибига ҳам киритилган. Масалан, «Электротехнология» [Карасенко ва бошқалар, 1992] китобида уруғни экишдан олдин ишлов беришда (электростимуляция) сифат кўрсаткичлари ва униш жараёнида талаб қилинган генотип белгиларининг намоён бўлишига таъсири бўйича маълумотлар келтирилган.



АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Уруғни ишлов беришда кўпгина муаллифлар томонидан электростимуляция мақсадларида юқори қийматлардаги (1–2450 МГц) ва паст қийматлардаги (50 Гц) электромагнит майдондан фойдаланиш синовлардан ўтказилган, шунингдек бу мақсадларда кенг ораликдаги частота қийматларига эга бўлган (асосан паст частотали), 10–600 кВ/м қийматдаги униполяр разряддан 2–180 секунд даврийликдаги экспозицияда фойдаланиш синаб кўрилган. Ўсимликларга доимий электр майдон ва магнит майдон таъсирини баҳолашда муаллифлар томонидан айрим ҳолатларда ҳатто паст частотали ўзгарувчан майдон таъсирида ўсимлик хужайралари ички қисмида доимий ҳолатда мос равишда зарядли заррачаларга боғлиқ ҳолатда цитоплазманинг даврийликдаги ҳаракатланишлари амалга ошириш кузатилган ва бундан ташқари экишдан олдин уруғларни ишлов бериш экин майдонларининг ўзида амалга оширилиши бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган.


Илмий адабиётларда ЭММнинг, жумладан паст частотали ЭММнинг ўсимлик уруғлари унишига таъсир хусусиятлари бўйича бир қатор маълумотлар мавжуд ҳисобланади.

Умумий кўринишда ЭММ кўрсаткичлари қиймати ва интенсивлигига, ишлов бериш давомийлигига боғлиқ ҳолатда ўсимлик уруғларининг ишлов берилишида стимулловчи ва ингибирловчи таъсир эффектлари қайд қилинган. Мисол сифатида қуйида бир нечта тадқиқотларни келтириб ўтамиз.

С.И.Аксенова ва бошқалар [1996] томонидан амалга оширилган тадқиқотларда паст частотали (30–33 Гц), синусоида тавсифга эга бўлган ЭММ магнит индукцияси максимал амплитуда қиймати 30 мТл ни ташкил қилган ҳолатда, магнитли айлантргич (мешалка) ёрдамида 7–10 минут давомида айлантритилган шароитда турли хил навларга мансуб буғдой уруғининг унувчанлик кўрсаткичлари ўрганилган. Амалга оширилган тажрибалар давомида унувчанлиги сусайиб кетган буғдой донлари ЭММ билан ишлов берилганидан кейин 3 – 60% гача унувчанлик қиймати ортиши аниқланган, шунингдек майсаларнинг миқдорий жиҳатдан ортиши 10–300%гача ортиши кузатилган. Унувчанлик даражаси 100%ни ташкил қилувчи буғдой дони экишдан олдин ЭММ билан ишлов берилиши натижаси майсанинг массаси 20%гача ортиши кузатилган. ЭММ билан ишлов бериш натижасида уруғ таркибида эстераза ферментининг гидролитик фаоллиги қиймати фақат 100% унувчанлик хусусиятига эга донларда кузатилган, унувчанлик даражаси сусайиб кетган буғдой

донида эса бу ҳолат қайд қилинмаган. Ундирилган уруғларни ЭММ билан ишлов беришда барча ҳолатларда унган муртак атрофида муҳитнинг ишқорийлашиши кузатилади, бу ҳолат электромагнит майдон билан ишлов бериш таъсирида уруғ таркибида моддалар алмашинуви жадаллашишидан далолат беради.

Тадқиқот учун турли навларга мансуб-буғдой, ғўза ва ловия ўсимликларидан фойдаланилди. Электромагнит майдон манбаи сифатида электромагнит майдон импульслар генератори фойдаланилди.



Импульслар генератори ва биологик тўқимага эквивалент қийматдаги ($R=100\text{ k}\Omega$, $C=10\text{ pF}$) импульс осциллограммаси

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

ЭММ ва ауксиннинг регуляцион таъсири. Турли хил ауксинга ўхшаш моддаларнинг таъсирини ўрганиш бўйича кўп сондаги услублар ишлаб чиқилган. Биз тадқиқотларда буғдой ўсимлиги колеоптили ва ғўза ўсимлигининг гипокотили кесимларининг ауксинга боғлиқ ўсиши тестларида, шунингдек ловия ўсимлиги уруғпалла барглари қаламчаларида ауксин таъсирига боғлиқ ҳолатда илдиз хосил бўлиши тестига электромагнит майдоннинг таъсирини ўргандик. Олинган натижалар 1-жадвалда келтирилган.

1–жадвал

4 Гц частота қийматига эга ЭММ ва индолил сирка кислотанинг ауксинга нисбатан физиологик тестларда таъсири. Буғдой колеоптили (5 мм) ва ғўза гипокотили (5 мм) кесмаларининг ўсишини ўлчаш асосидаги тест, шунингдек ловия барг қаламчаларида илдиз хосил бўлиш тести.

	Назорат	4 Гц	ИСК 50 мкМ	ИСК + 4 Гц
Буғдой колеоптилининг ўсиши, мм (%)	0,5 ± 0,1 (100)	0,5 ± 0,1 (100)	1,0 ± 0,2 (200)	1,2 ± 0,2 (240)
Ѓўза гипокотилининг ўсиш тезлиги, мм (%)	10 ± 4 (100)	12 ± 5 (120)	123 ± 22 (1230)	218 ± 40 (2180)
1 та қаламчада хосил бўлган илдизларнинг сони, дона (%)	2,2 ± 1,0 (100)	4,3 ± 1,3 (195)	30,8 ± 5,0 (1400)	47,6 ± 4,3 (2181)

ХУЛОСА

Ушбу амалга оширилган тажрибаларда олинган натижалар асосида, ушбу ўрганилган тестларда ЭММ муҳит таркибида ауксин мавжуд бўлмаган шароитда буғдой колеоптили ва шунингдек, ғўза ўсимлиги гипокотили ўсиш тезлигига таъсир кўрсатмаслиги ва муҳит таркибида фақат ауксин мавжуд шароитда, яъни ауксинга боғлиқ таъсир кўрсатиши ҳақида хулоса чиқариш мумкин. Шунингдек, қайд қилиш керакки, барг қаламчалари таркибида кам микдорда бўлса ҳам ауксин мавжуд ҳисобланади (яъни, барг учки қисмида синтезланади).

REFERENCES

1. Аксенов С.И., Булычев А.А., Грунина Т.Ю., Туровецкий В.Б. О механизмах воздействия низкочастотного магнитного поля на начальные стадии прорастания семян пшеницы // Биофизика. – Москва, 1996. - Т.41. - №3. - С. 919 - 925.
2. Карасенко В.А., Заяц Е.М., Баран А.Н., Корко В.С. Электротехнология. – М.: Колос, 1992. - 304 с.
3. Плеханов Г.Ф. Основные закономерности низкочастотной электромагнитобиологии. - Томск: Изд. Томского Университета, 1990. - 188 с.
4. Амонова Д. Б. Действие Эмп На Ауксиновую Регуляцию //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 171-174.



5. Амонова Д. Б. Комбинированное действие электромагнитных полей фитогормонов на растения //Вестник магистратуры. – 2021. – С. 9.
6. Амонова Д. Комбинированное действие красного излучения, низкочастотного электромагнитного поля и фитогормонов на растения //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
7. Usmonova G. I., Xo'Janiyozova B. X., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI AZOTOBAKTERNING XUSUSIYATLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-143.
8. Usmonova G. I., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 63-67
9. Sh, A. S., Kulmamatova, D. E., Babaev, S. K., Alloberganova, Z. B., Hodzhaniyozova, B. H., & Allanazarov, S. B. (2021). Quantity of Pigments in Leaves of Old Local Wheat Varieties of Uzbekistan under Irrigated Conditions. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3249-3253.
10. Jo'rayeva O. Sho'rlangan tuproqlarda g'o'zaning o'sish fiziologiyasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.



ZAMONAVIY FIZIKA TA'LIMI MUAMMOLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Erkin Sadikovich Nazarov

Buxoro davlat universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent
nazarov.es68@mail.ru

Mohidil Botirovna Teshayeva

Buxoro davlat universiteti, fizika kafedrasi magistranti
teshayevamohidil055@mail.ru

ANNOTATSIYA

Jamiyat taraqqiyoti, mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohatlar jahon andozasiga mos yetuk va yuqori darajada fikrlaydigan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Mazkur maqolada fizika ta'limi muammolari va uni takomillashtirish istiqbollari muammolarini hal etishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuterlashtirish, metodologiya, o'quvchilar psixologiyasi, innovatsiya, eksperimental, texnologiya, taraqqiyot, ilg'or pedagogik tajriba.

KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida amal qilinayotgan ta'lim to'g'risidagi qonunlarda ta'lim tizimini isloh qilish vazifasi belgilanib, barcha ta'lim muassasalariga fanlarning o'qitilishini zamonaviylik, insonparvarlik, beriladigan bilimlar ko'lamini hayotiy jarayonlar bilan ta'minlash, buning uchun o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash kabi talablar qo'yilgan.

Hozirgi paytda fizika ta'limiga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini jadal tadbiq etish pedagogik-uslubiy g'oyaga aylangan. Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga kirib kelishi ayniqsa fizika fanini o'qitishda yangi turdagi mashg'ulot turlarining (fizik model bilan tanishuv, komp'yuterda tajriba o'tkazish, eksperimental masalalar yechish, tadqiqot olib borish, ijodiy topshiriq) vujudga keltirishga sabab bo'ldi. Bular orasida fizika ta'limini asosiy muammolaridan biri laboratoriyalarning virtual stendlarini yaratish, fizik jarayonlarni modellashtirish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XXI asrda kompyuterlashtirish yuqori cho'qqilarni egallagan bir vaqtda, fanlarni komp'yuter dasturlari orqali o'qitishni davr talab qilmoqda. O'quv jarayoniga komp'yuterlashtirish katta jadallik bilan kirib kelmoqda. Komp'yuter dasturlari orqali fizik tajribalarni, effektlarni va hodisalarni namoyish qilish mumkin. Komp'yuterdan bilim berishda, olgan bilimlarni nazorat qilishda, fizikadan masalalar yechishda va laboratoriyada keng foydalanish mumkin. An'anaviy laboratoriya sharoitida yuqori aniqlikda natija beruvchi qurilmalar bo'lmaganligi uchun, fizik tajriba va effektlar og'zaki tushuntiriladi, ularni namoyish qilish imkoniyati deyarli yo'q. Faqat zamonaviy komp'yuterlar orqaligina bunday jarayonlarni kuzatish mumkin. Turli xil fizik qonuniyatlarni o'rgatuvchi, parametrlar o'rtasidagi bog'lanishni o'rnatuvchi, grafiklarni chizuvchi, fizik jarayonlarining tabiatda ro'y berishiga yaqin tarzda amalga oshiruvchi komp'yuter dasturlari keyingi vaqtda ko'plab tuzilmoqda. Bunday dasturlardan fizika fanini o'qitishda ham foydalanib kelinmoqda.

Keyingi vaqtda o'qitishni yanada takomillashtirish uchun elektron darsliklar yaratish yo'lga qo'yilmoqda. Bundan o'qituvchilar yaxshi foydalanishlari mumkin. Bu o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham juda qulay bo'lib, xoxlagan mavzuni komp'yuter orqali o'rganib, kerakli savollarga javoblar ham olish mumkin. Bu elektron darsliklarning eng qulay tomoni olisdan turib boshqarishga imkon beradi. Fizikani ko'rgazmali o'qitish metodologiyasi-bu darsning tuzilish shakllari va tashkil etishusullari, shuningdek, fizika o'qitish nazariyasining rivojlanishi qonunlari va uning natijalari amalga tadbiiq etish prinsiplari haqidagi ta'limotlari.

Fizikani ko'rgazmali o'qitish metodologiyasi boshqa fanlar singari maxsus tekshirish metodlariga ega. Chunonchi:

-o'rta ta'limi umumiy masalalarini tahlili va ularni hal etishda fizikaning o'quv predmeti sifatidagi rolini aniqlash;

-ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va umumlashtirish;

-fizik ta'lim va pedagogik amaliy masalalarini qiyosiy tahlili;

-o'quvchilar psixologiyasining o'ziga xosligini va fizikani ko'rgazmali o'qitish jarayonining tahlili;

-o'quvchilar psixologiyasining o'ziga xosligini va fizika o'qitish jarayonining tahlili;

-fizika o'qitish tarixini tahlil etish asosida fizika metodikasi rivojlanishining ob'yektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash;

-dasturni, darsliklarini qo'llanmalarini maktab o'quvchilarining bilimlarini tekshirish natijalarini va hokazolarini

qiyosiy tahlil qilish asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda fizikani ko'rgazmali o'qitish metodikasi rivojlanishning ob'yektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash shu asosida gipotezalar qo'yish va ularni eksperimental tekshirish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik dasturiy vositalar – komp'yuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

mashq qildirgichlar – avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fan-texnika taraqqiyoti natijasida, fizika fani izchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan o'quv-tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug'ildi, yoshlarga umumkasbiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning fan asoslarini chuqur egallashini ta'minlash, ularga kasbiga e'tiqod, mehnatsevarlik, axloqiy soflik kabi xislatlarni shakllantirish, Vatanimizga muhabbat va uning kelajagi uchun o'zining xissasini qo'shishga tayyor turadigan va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga mavzuning insoniyat xayotidagi rolini o'quvchilarga yetkazishdan iborat.

REFERENCES

1. Назаров Э.С. Табийи фанлар таълимида узвийлик принципининг методологик асослари. Тиббиётда янги кун

(New day in medicine). Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал. 3-4 (15-16) 2016. 59-61-б.

2. Axmedov M.B., Nazarov E.S. Barkamol insonni shakllantirishda fizika ta'limining imkoniyatlari. Научный журнал «Интернаука» 2020. № 17 (146) Часть 3. С. 72–73.

3. Z. Tuksanova, E. Nazarov. Effective use of innovative technologies in the education system. Научный журнал «Интернаука» 2020. № 16 (145). Часть 3. С. 30-32.

4. Назаров Э.С., Назаров Ш.Э. Особенности интегрирования информационных технологий в преподавании предмета физики. Вестник науки и образования, 2020. №18-2 (96). С.41-43.

5. Назаров Э.С., Ризаева Г.Х., Жураев Х.О. Вопросы интеграции в среднем профессиональном образовании. Молодой ученый. 2014. №8. С.839-842.



FARG‘ONA VODIYSI TANGACHAQANOTLI HASHAROTLAR (LEPIDOPTERA) FAUNASINING AGROEKOTIZIMLARDA TAQSIMLANISH XUSUSIYATLARI

Malikjon Raxmatjonovich Shermatov

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti, b.f.n., dotsent

shmr78@mail.ru

ANNOTATSIYA

Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida tangachaqanotli hasharotlar (Lepidoptera) turkumining 26 oilasiga mansub 119 avlodini 161 tur va 1 kenja turi uchraydi. Mazkur hasharotlar mintaqaning asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari ro‘yxatiga kiritilgan 61 tur madaniy o‘simliklari bilan biotsenotik aloqaga ega.

Tangachaqanotli hasharotlarning tur soni va ulushi mevali bog‘larda eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, sabzovot, ozuqa, g‘alla, texnik, dukkakli, moyli va poliz ekinlari agrotsenozlari ketma-ketligida pasayib boradi. Alohida olingan agrotsenozlar miqyosida tangachaqanotlilarning tur soni olma, makkajo‘hori, nok, g‘o‘za hamda beda agrotsenozlarida nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha sitrus hamda subtropik mevali bog‘lar eng quyi pog‘onani egallaydi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, hasharot, tangachaqanotli, agroekotizim, madaniy o‘simlik, tur, ozuqa zanjiri, zararkunanda.

ABSTRACT

In the course of faunistic studies, it was found that 161 species and 1 subspecies of Lepidoptera insects, belonging to 26 families and 119 genera, were found in the agroecosystems of the Ferghana Valley.

These insects have a biocenotic relationship with 61 species of cultivated plants included in the list of the main agricultural crops of the region.

The number and proportion of Lepidoptera species is maximum in gardens and decreases in a number of agrocenoses of vegetable, fodder, cereals, industrial, legumes, oilseeds, melons and gourds.

The number of Lepidoptera species is relatively high in individual agrocenoses such as apple, corn, pear, cotton and alfalfa. According to this indicator, citrus and subtropical orchards are in a lower degree.

Keywords: Ferghana Valley, insects, lepidoptera, agroecosystem, cultivated plant, species, food chain, pest.

KIRISH

Keyingi yillarda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq omillarni zararkunanda hasharotlar populyasiyalariga ko'rsatayotgan ta'siriga dunyo olimlari tomonidan 21 asrda oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashdagi asosiy muammo sifatida qaralmoqda. Bu borada, global miqyosda yillik haroratning o'rtacha 1°S ga ortishi natijasida, ko'pgina tangachaqaqotlilar arealining geografik kengliklar bo'ylab shimolga 200 km. gacha hamda balandlik mintaqalari tomon 40 metrgacha siljishi mumkinligi qayd etilgan[1].

G.Dhaliwalning ta'kidlashicha (2010), zararkunanda hasharotlar dunyo miqyosida qishloq xo'jalik ekinlarining 13,6 % nobud bo'lishiga sabab bo'ladi[2]. H.Sharma tomonidan global iqlim o'zgarishi sharoitida (2016) Hindistonda ushbu ko'rsatkich 23,3 % ortganligi qayd etilgan[7].

Respublikamizda keng tarqalgan anjir parvonasi (*Choreutis nemorana*) o'z davrida O'rtayer dengizidan Osiyo, janubi-g'arbiy hamda sharqiy Yevropa, shimoli-g'arbiy Afrika mintaqalari bo'ylab tarqalgan bo'lsa, 2006 yildan zararkunanda arealini Yevropaning shimoliga tomon kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. I.Zokirov tomonidan (2019) kartoshka kuyasi (*Phthorimaea operculella*) hamda pomidor kuyasi (*Tuta absoluta*) Farg'ona vodiysida sabzovot-poliz ekinlarining eng havfli 5 ta tur zararkunandalari qatorida qayd etilgan[3]. Kartoshka kuyasi Rossiya xududining ham eng havfli 100 ta zararkunandalari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, zarar keltirish darajasi 50-100% ga qadar bo'lishi ta'kidlangan. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, global iqlim o'zgarishlari sababli havfli zararkunandalar – kartoshka kuyasi hamda pomidor kuyasining populyasiya areallari yanada kengayib boradi¹.

Shundan kelib chiqib, Farg'ona vodiysi agroekotizimlari strukturasi hamda entomofunasi tarkibida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, shuningdek, zararkunanda turlarni agrotsenozlar bilan biotsenotik aloqalarini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [8;9].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizning mevali bog'lar zararkunanda tangachaqaqotlilarini o'rganishga oid tadqiqotlarda (Yusupov, 2016) bir qator turlarni Farg'ona viloyati xududlarida uchrashi qayd etilgan [11]. Markaziy Farg'onaning sabzovot-poliz ekinlari entomofaunasiga bag'ishlangan so'nggi tadqiqotlarda (Zokirov, 2019) tangachaqaqotli hasharotlarning mazkur xudud

¹ <https://link.springer.com/article/10.1007/s10530-016-1325-9>.



agrotsenozlarida tutgan o'zni batafsil yoritib berilgan [3]. Alohida turlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tengsiz ipakchi (Xamdaniy, 1972), tut odimchisi (Sultanov, 1985), tut parvonasini (Shermatov, 2010) o'rganishga bag'ishlangan ishlar bilan chegaralangan [6; 5; 10]. Shundan kelib chiqib, Farg'ona vodiysi agroekotizimlari lepidopterofaunasini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari soxaga oid ilmiy dalillar ko'lamining ortishiga xissa qo'shadi.

Farg'ona vodiysining tangachaqaqnotli hasharotlari faunasini o'rganish ishlari 2015-2021 yillar davomida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari hududlaridagi agrotsenozlarda olib borildi. Na'munalar Farg'ona viloyatining Quva, Farg'ona, So'x, Yozyovon, Oltiariq, Bog'dod, Dang'ara, tumanlari, Namangan viloyatining Mingbuloq, Pop, Chust, To'raqo'rg'on tumanlari, Andijon viloyatining Ulug'nor, Baliqchi, Xo'jaobod tumanlarida axoli tomorqalari va fermer xo'jaliklari ekinzorlaridan yig'ildi. Kapalaklarni yig'ish asosan kechalari, DRL-250 lampa hamda muallif tomonidan tayyorlangan tungi yoritgichli moslama yordamida amalga oshirildi. Yig'ilgan kapalaklarni har bir turining erkak va urg'ochi individlaridan 2 tadan na'munasi ajratib olinib, kolleksiya tayyorlandi. Shuningdek, mavsum davomida agrotsenozlar bo'yicha kunlik qayd etilgan kapalaklar soni turlar kesimida maxsus daftarga qayd etib borildi. Yig'ilgan materiallarni aniqlashda entomologik aniqlagichlar va elektron kataloglardan foydalanildi [4; 12]. Kapalaklar morfologiyasini o'rganish va turini aniqlashda zamonaviy (NLCD-307B) raqamli binokulyar mikroskopdan foydalanildi.

Yig'ilgan namunalar va tayyorlangan kolleksiyalar Farg'ona davlat universiteti Eksperimental biologiya laboratoriyasida saqlanmoqda.

NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar va faunistik tahlillar natijalariga ko'ra, Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida tangachaqaqnotli hasharotlar (Lepidoptera) turkumining 26 oilasiga mansub 119 avlodini 161 tur va 1 kenja turi uchraydi. Mazkur hasharotlar mintaqaning asosiy qishloq xo'jalik ekinlari ro'yxatiga kiritilgan 61 tur madaniy o'simliklari bilan biotsenotik aloqaga ega (1-jadval).

1-jadval

**Tangachaqanotli hasharotlarni agrotsenozlar
 bo'yicha taqsimlanishi**

Agrotsenozlar	Tangachaqanotli hasharotlar soni va ulushi					
	Oilalar soni	Ulushi%	Avlodlar soni	Ulushi%	Turlar soni	Ulushi %
O'rik	10	38,5%	23	19,3%	26	16%
Shaftoli	6	23,1%	14	11,8%	16	9,9%
Gilos	10	38,5%	21	17,6%	26	16%
Olxo'ri	13	50,0%	30	25,2%	35	21,6%
Olcha	4	15,4%	12	10,1%	14	8,6%
Jami danak mevali	14	53,8%	35	29,4%	44	27,2%
Olma	15	57,7%	40	33,6%	50	30,9%
Nok	12	46,2%	30	25,2%	38	23,5%
Behi	7	26,9%	14	11,8%	14	8,6%
Jami urug' mevali	16	61,5%	40	33,6%	52	32,1%
Malina	10	38,5%	20	16,8%	23 (1)	14,8%
Qorag'at	9	34,6%	15	12,6%	15	9,3%
Qulupnay	5	19,2%	7	5,9%	8	4,9%
Jami rezavor mevali	12	46,2%	25	21,0%	29	17,9%
YOng'oq	6	23,1%	7	5,9%	7	4,3%
Bodom	6	23,1%	11	9,2%	11	6,8%
Pista	2	7,7%	2	1,7%	2	1,2%
Jami yong'oq mevali	9	34,6%	17	14,3%	17	10,5%
Uzum mevali	6	23,1%	11	9,2%	11	6,8%
Anor	3	11,5%	3	2,5%	3	1,9%
Anjir	1	3,8%	1	0,8%	1	0,6%
Xurmo	2	7,7%	2	1,7%	2	1,2%
Jami subtropik mevali	6	23,1%	6	5,0%	6	3,7%
Limon	2	7,7%	2	1,7%	2	1,2%

Mandarin	1	3,8%	1	0,8%	1	0,6%
Apelsin	1	3,8%	1	0,8%	1	0,6%
<i>Jami sitrus mevali</i>	2	7,7%	2	1,7%	2	1,2%
Jami mevali bog'lar	23	88,5%	63	52,9%	80	49,4%
Bug'doy	3	11,5%	9	7,6%	12	7,4%
Makkajo'kori	5	19,2%	33	27,7%	41	25,3%
Sholi	2	7,7%	5	4,2%	5	3,1%
Arpa	1	3,8%	7	5,9%	9	5,6%
Suli	1	3,8%	5	4,2%	6	3,7%
Jo'kori	3	11,5%	13	10,9%	16	9,9%
<i>Jami g'alla ekinlari</i>	5	19,2%	35	29,4%	44	27,2%
Loviya	4	15,4%	11	9,2%	18	11,1%
Mosh	3	11,5%	11	9,2%	15	9,3%
No'xot	4	15,4%	15	12,6%	18	11,1%
Soya	3	11,5%	12	10,1%	14	8,6%
Eryong'oq	1	3,8%	9	7,6%	10	6,2%
<i>Jami dukkakli ekinlar</i>	5	19,2%	20	16,8%	28	17,3%
Kungaboqar	3	11,5%	8	6,7%	9	5,6%
Zig'ir	1	3,8%	9	7,6%	10	6,2%
Maxsar	2	7,7%	8	6,7%	9	5,6%
Kunjut	1	3,8%	5	4,2%	5	3,1%
<i>Jami moyli ekinlar</i>	3	11,5%	15	12,6%	18	11,1%
Beda	9	34,6%	28	23,5%	30	18,5%
Hashaki lavlagi	4	15,4%	14	11,8%	20	12,3%
Raps	3	11,5%	4	3,4%	6	3,7%
<i>Jami ozuqa ekinlar</i>	10	38,5%	37	31,1%	46	28,4%
G'o'za	3	11,5%	22	18,5%	32	19,8%
Tut	4	15,4%	4	3,4%	5	3,1%
Kanop	3	11,5%	7	5,9%	7	4,3%

Tamaki	3	11,5%	10	8,4%	13	8,0%
Jami texnik ekinlar	6	23,1%	31	26,1%	42	25,9%
Kartoshka	3	11,5%	8	6,7%	9	5,6%
Pomidor	2	7,7%	18	15,1%	25	15,4%
Baqlajon	2	7,7%	6	5,0%	9	5,6%
Shirin qalampir	2	7,7%	11	9,2%	13	8,0%
Karam	4	15,4%	18	15,1%	23	14,2%
Turip	4	15,4%	10	8,4%	14	8,6%
Sholg'om	4	15,4%	9	7,6%	12	7,4%
Rediska	4	15,4%	7	5,9%	8	4,9%
Lavlagi	4	15,4%	18	15,1%	24	14,8%
Piyoz va sarimsoq	1	3,8%	12	10,1%	12	7,4%
Sabzi	4	15,4%	10	8,4%	12	7,4%
Ukrop	4	15,4%	4	3,4%	4	2,5%
Jami sabzovot ekinlari	9	34,6%	34	28,6%	47	29,0%
Qovun	1	3,8%	3	2,5%	7	4,3%
Tarvuz	1	3,8%	5	4,2%	9	5,6%
Bodring	1	3,8%	3	2,5%	6	3,7%
Qovoq	1	3,8%	7	5,9%	9	5,6%
Qovoqcha	1	3,8%	3	2,5%	3	1,9%
Patisson	1	3,8%	3	2,5%	3	1,9%
Jami poliz ekinlari	1	3,8%	11	9,2%	15	9,3%
Jami agrotsenzozlar bo'yicha	26		119		161 (1)	

MUHOKAMA

Tangachaqanotli hasharotlarni agrotsenzozlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil etilganda, 21 tur o'simlikdan iborat bo'lgan mevali bog' agrotsenzozlarida 23 ta oilaga mansub 63 ta avlodning 80 ta turlari yoki jami lepidopterofaunaning 49,4% turlari uchrashligi aniqlandi. Bu borada urug' mevali bog' entomokompleksida oilalar (16 ta; 61,5%) va avlodlar ko'rsatkichi (40 ta; 33,6%) yuqori bo'lib, tur soni va ulushi bo'yicha (52 ta; 32,1%) ham yuqori pog'onani egallaydi. Shuningdek, mevali bog'lar ichida tangachaqanotli

hasharotlar eng ko'p tarqalgan agrotsenoz– olmazor bog'lar ekanligi ma'lum bo'ldi. Xususan, 15 ta (57,7%) oilaga mansub 50 ta (30,9%) tur tangachaqaqnotlilar mazkur agrotsenozdan o'rin egallagan. Ushbu ko'rsatkich nokzorlarda ham nisbatan yuqori bo'lib, 12 ta (46,2%) oilaning 38 ta (23,5%) turi aniqlandi. Behi o'simligi bilan trofik aloqada bo'lgan tangachaqaqnotlilar 7 ta oila (26,9%), 14 tur(8,6%)dan iborat.

Danak mevali bog'larda jami 14 ta (53,8%) oila, 35 ta (29,4%) avlodning 44 ta (27,2%) turlari qayd etildi. Turlar soni va faunadagi ulushi olxo'rida 35 ta (21,6%), o'rik hamda gilos bog'larda 26 ta (16%)dan, shaftolida 16 ta (9,9%), olchada 14 ta (8,6%)ni tashkil etadi.

Farg'ona vodiysining aksariyat xududlarida rezavor mevalardan qulupnay, tog' oldi tumanlarida esa, malina va qisman qorag'at yetishtiriladi. Malina yetishtirish Farg'ona tumanida yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, alohida malinazor bog'lar tashkillangan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rezavor bog'larda tangachaqaqnotlilarning aksariyat turlari kamdan-kam uchrasa-da, mazkur o'simliklar bilan trofik aloqaga ega. Ushbu xududlarda olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, tangachaqaqnotli hasharotlarning 12 ta oila, 25 ta avlodga mansub 29 turi rezavor mevali bog' agroekotizimlari ozuqa zanjiridan turli darajada o'rin egallagan bo'lib, lepidopterofaunadagi ulushi 17,9% ni tashkil etadi. Jumladan, malina o'simligida 10 ta (38,5%) oilaga mansub 23 ta tur va 1 ta kenja tur (14,8%) tangachaqaqnotli hasharotlar uchrashi aniqlandi. Turlar soni qorag'at o'simligida 15 ta, qulupnayda 8 ta bo'lib, faunadagi ulushi mos ravishda 9,3% va 4,9% ni tashkil etadi.

Vodiy sharoitida yong'oq mevali bog'larda asosan yong'oq hamda bodom daraxtlari o'stiriladi. Shuningdek, keyingi yillarda pista yetishtirishga ham e'tibor qaratilmoqda. Yong'oq mevali bog' agroekotizimida tarqalgan turlar tangachaqaqnotlilarning 10,5% ni tashkil etib, taksonomik tarkibiga ko'ra 9 ta oila, 17 ta avlod va 17 ta turdan iborat. Ozuqaviy bog'langan turlar soni va ulushi bodom o'simligida yuqori (11 ta; 6,8%), pistada nisbatan kam (2 ta; 1,2%) bo'lib, yong'oqzorlarda ushbu ko'rsatkich (7 ta; 4,3%) o'rta pog'onani egallaydi.

Farg'ona vodiysining qishloq xo'jaligida uzumchilik sohasi alohida ahamiyatga ega. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan tashqari deyarli har bir xonadonning xovlisi va tomorqasida uzum yetishtiriladi. Vodiy sharoitida uzumzor bog'larda tangachaqaqnotli hasharotlarning 6 ta (23,1%) oila, 11 ta (9,2%) avlodiga mansub 11 ta (6,8%) turi uchrashi aniqlandi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, subtropik mevali hamda issiqxonalarda yetishtiriladigan sitrus mevali bog'lar tangachaqaqnotli hasharotlar eng kam tarqalgan agroekotizimlar

hisoblanadi. Jumladan, subtropik mevali bog'larda 6 ta tur yoki jami lepidopterofaunaning 3,7% kapalaklari uchraydi. Agrotsenozlar kesimida ushbu ko'rsatkich anorda 3 ta (1,9%), xurmoda 2 ta (1,2%), anjirda 1 tani (0,6%) tashkil etadi. Sitrus mevali bog'lardan limonda 2 ta (1,2%), apelsin va mandarinda 1 tadan (0,6%) turlar tarqalgan.

Farg'ona vodiysining g'alla ekinlari agroekotizimlarida tangachaqanotli hasharotlarni 5 ta oila 35 ta avlodiga mansub 44 ta turlari uchrashligi aniqlandi. Ularning lepidopterofaunadagi ulushi oilalar soni bo'yicha 19,2%, avlodlar miqyosida 29,4% hamda tur soni bo'yicha 27,2% ga teng. Agrotsenozlarda makkajo'huri o'simligiga trofik ixtisoslashgan tangachaqanotlilar soni yuqori bo'lib, 5 ta oila, 33 ta avlod, 41 ta turni tashkil etadi. Umumiy lepidopterofaunaning 17,9% turlari mazkur ekotizim ozuqa zanjiridan turli darajada o'rin egallagan. Vodiyning ana'naviy dehqonchiligida jo'huri yetishtirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jo'huri entomokompleksida 3 ta (11,5%) oilaning 13 ta (10,9%) avlodiga mansub 16 ta (9,9%) turlar qayd etildi. Turlar xilma-xilligi arpa o'simligida 9 ta, sulida 6 ta, sholida 5 ta bo'lib, faunadagi ulushi mos ravishda 5,6%, 3,7% va 3,1% ni tashkil etadi.

Farg'ona vodiysi xududlarida dukkakli ekinlardan asosan mosh, loviya, yeryong'oq, soya hamda no'hot yetishtiriladi. Tadqiqotlar davomida, dukkakli ekinlar 5 ta (19,2%) oilaga mansub 20 ta (16,8%) avlod va 28 (17,3%) tur tangachaqanotlilarni o'ziga jalb etishi kuzatildi. Dukkaklilar ichida tangachaqanotli hasharotlar eng ko'p tarqalgan agrotsenozlar loviya hamda no'hot ekinlari ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, har ikki entomokompleksda 4 tadan (15,4%) oila va 18 tadan (11,1%) turlar o'rin egallagan. Shuningdek, turlar soni mosh agrotsenozida 15 ta, soya agrotsenozida 14 ta bo'lib, faunadagi ulushi mos ravishda 9,3% va 8,6% ni tashkil etadi. Yeryong'oq o'simligi bilan trofik aloqada bo'lgan tangachaqanotlilar 10 ta (6,2%) turdan iborat.

Moyli ekinlarga trofik ixtisoslashgan tangachaqanotlilarni 3 ta (11,5%) oila, 15 ta (12,6%) avlod va 18 ta (11,1%) turlari uchraydi. Agrotsenozlar kesimida ushbu ko'rsatkich zig'irda 10 ta (6,2%), kungaboqar va maxsarda 9 ta (1,2%), kunjutda 1 taga (0,6%) to'g'ri keladi.

Ozuqa ekinlari agroekotizimida tarqalgan turlar lepidopterofaunaning 28,4% ni tashkil etib, taksonomik tarkibiga ko'ra 10 ta oila, 37 ta avlod va 46 ta turdan iborat. Bu borada, aksariyat turlarni beda agrotsenozida tarqalganligini ta'kidlash lozim. Shunga monand, bedada oilalar (9 ta) va avlodlar (28 ta) xilma-xilligi ham yuqoriligi bilan ajaralib turadi.

Beda o‘simligi bilan ozuqaviy bog‘langan turlar soni 30 ta, faunadagi ulushi esa 18,5% ga teng. Ushbu ko‘rsatkichlar hashaki lavlagida 20 ta (12,3%), raps agrotsenozida 6 tani (3,7%) tashkil etadi.

Texnik ekinlardan g‘o‘za agrotsenozida oilalar soni va ulushi nisbatan kam bo‘lsa-da, turlar xilma-xilligi yuqori. Jumladan, g‘o‘za o‘simligining turli vegetatsiya bosqichlarida tangachaqaqotlilarni 3 ta (11,5%) oilaga mansub 32 ta (19,8%) turlari uchraydi. Aksincha, tut agrotsenozida turlar soni eng kam 5 tani (3,1%) tashkil etgan holda, oilalar soni bittaga ko‘p (4 ta; 15,4%).

Tamaki hamda kanop o‘simligi vodiyning ayrim xududlaridagina o‘stiriladi. Ushbu xududlardan yig‘ilgan na‘munalarning tahlillari va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlar asosida, ayni agrotsenozlar bilan trofik aloqada bo‘lgan turlar tarkibi aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, tamaki o‘simligida 13 ta, kanopda 7 ta tur tangachaqaqotlilar uchrab, ularning faunadagi ulushi mos ravishda 8%, va 4,3% ni tashkil etadi.

Tadqiqot xududining sabzovot-poliz ekinlari agrotsenozlari madaniy ekinlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shunga muvofiq, tangachaqaqotli hasharotlarning ko‘plab turlari ushbu agrotsenozlar ozuqa zanjiridan o‘rin egallagan. Farg‘ona vodiysining sabzovot-poliz ekinlarida lepidopterofaunaning 29% turlari tarqalgan bo‘lib, taksonomik tarkibiga ko‘ra 9 ta (34,6%) oila, 34 ta (28,6%) avlod, 47 ta turdan iborat. Bu borada I.I.Zokirovning sabzovot-poliz ekinlari entomofaunasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida (2019) Markaziy Farg‘ona xududida tangachaqaqotlilarning 4 oilasiga mansub 29 turi zararkunandalik qilishi ta‘kidlangan [3]. Bir mintaqa va agroekotizim doirasida turlar sonidagi bunday keskin farqni, vodiyning tog‘ oldi xududlariga xos turlar xilma-xilligi, shuningdek madaniy ekinlar bilan trofik aloqada bo‘lgan, jiddiy zararkunanda sifatida e‘tirof etilmagan turlarni ro‘yxatga kiritganligimiz bilan izohlash mumkin.

Bunday dasturlar katta ma'lumotlar bazasining kompyuter modellarini o'rganishni talab qiladi. Aslida korpus bunday dasturiy ta'minot uchun kalit so'zlar turli kontekstlardagi minglab so'zlarni to'plash va tekshirish uchun resurs bo'lib xizmat qiladi. MLCommons MSWC 50 ta tildagi nutqni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini yaratishda tabiiy tilning audiomatnli korpusidan foydalanmoqda va u doimiy ravishda yangilanib boradi. Umuman olganda, ma'lumotlar bazasi 340 000 dan ortiq so'zni va 6000 soatdan iborat 23 million miqdordagi bir daqiqali audiomatnlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar to'plamining ochiq manbali resurslarini yaratishda foydalanuvchilar takliflarida mavjud alohida so'zlarini ham ajratib uchun qo'llaniladi. Bu esa turli tillarda ovozli yordamchilar uchun kalit so'zlarni aniqlash modellarini o'qitish uchun ishlatilishi mumkin.

MSWC da ma'lumotlar bazasidagi tillardan 12 tasi eng ko'p qo'llaniladigan 100 soatdan ortiq ma'lumotlar, 12 tasi 10 soatdan 100 soatgacha bo'lgani o'rtacha ishlatiladigan ma'lumotlar va 26 tasi kam ma'lumotli 10 soatdan kam bo'lgan kam qo'llaniladigan tillardir. MSWC ma'lumotlar to'plami ushbu tillardan 46 tasi uchun ochiq manbali og'zaki nutq

ma'lumotlarining yagona to'plamidir. Har bir kalit so'zni o'rganish, tekshirish va test qilish uchun oldindan belgilangan bo'linmalarga ega va ma'lumotlar bazasini yaratish va kalit so'zlarni tasniflash uchun ishlatiladigan ochiq manba vositalarini ham chiqarish mumkin.

The screenshot shows the interface of the National Russian Language Corpus (Национальный корпус русского языка). The search results for the word "книга" are displayed. The search criteria are: "Поиск точных форм" (Search for exact forms) with the word "книга" entered. The results show 116 documents and 233 occurrences. A video player is embedded in the results, showing a person speaking. The video title is "Оксана Мороз. Просьюмеризм и культура потребления (2017)".

Rus milliy korpusidagi multimediyali korpusning hajmi 5 449 075ta so'zni tashkil qiladi. Mazkur subkorpus doimiy ravishda yangilanib boradi. Har bir berilgan video 8-30 soniyalarda aks etgan. Har bir tovush ohangi, unlilar talaffuzi alohida-alohida keltiriladi. Har bir uslubdan olingan matn va audiolardagi ovoz egasining yoshi, jinsi, millati ko'rsatiladi. Bu esa dialektologiya uchun juda zarur va juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

III. O'zbek tilining audiomatnlar korpusini yaratishning amaliy masalalari

O'zbek tilida yuqoridagi kabi audio dasturlar va korpuslar yaratishda tilimizda mavjud beshta uslub (so'zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik)larga oid manbalarni yig'ib, elektron matni va ovozli variantini davr, yosh, jins, soha vakillariga qarab guruhlab chiqilsa o'zbek milliy korpus rivojiga katta hissa qo'shiladi.

Shunisi ahamiyatliki, ovozli matn korpusining lingvistik bazasi muayyan yozma matnni o'qish natijasida yaratiladimi yoki televideniye, jonli muloqot, radiodagi diolog yoki monologlardan tuziladimi degan masala birlamchi sanaladi. Shuningdek, audiomatnni transkripsiya qilish va standart tilda raqamlashtirish eng muhim bosqich sanaladi. Og'zaki nutqning etnografik ma'lumotlarni metama'lumot sifatida berish ham muayyan darajada asosiy talablardan biri. So'zlovchining qaysi hududga tegishli ekanligi, jinsi, yoshi, dialekti, kasbi bularning hammasi audiomatnni korpusga kiritishda bosh mezon sanaladi.

N.Abdurahmonovanning "O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining lingvistik ta'minotini ishlab chiqishda ayrim masalalar tadqiqi" nomli maqolasida so'z turkumlari, tinish belgilari, arab va rim raqamlarini yozish va o'qishda uchrovchi bir qator kamchiliklar sifatida keltiriladi. Bunda bazaga ma'lumot kiritishda matnning qaysi bandida *chiziqcha*, qaysi birida *tire* ekanligi va *-inchi* qo'shimchalariga ham e'tiborli bo'lish kerak. Yaratiladigan dastur esa buni tushunib olishi lozim. Tinish belgilari yozilgan paytda qo'yiladigan belgilar ovozli matnda o'qilmaydi. O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining har qanday o'zbek tilidagi matnlarni hech qiyinchiliksiz o'qib berishda uning lingvistik ta'minotining qay darajada muakammal ishlab chiqilgani katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'zbek tiliga boshqa tillardan, asosan, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan ruscha internatsional so'zlarni tadqiq etish va bunday so'zlarni dastur lingvistik ta'minotiga kiritish masalalarini o'rganish vazifasi ham oldimizda ko'ndalang turibdi. O'zlashma so'zlarning talaffuzi o'zbek tili so'zlari talaffuzidan farq qilgani bois ham ularning audio formatdagi va yozma shaklini lingvistik ta'minotga kiritish dasturning bunday so'zlarni xatosiz o'qishiga imkon yaratadi³.

XULOSA

Bundan tashqari o'zbek tilida unli harflarning qisqa cho'ziqligi ham og'zaki nutqda ta'sir etmay qolmaydi: *ilm* [il:m] ↔ *bilim* [bɪlɪm] *o'lim* [olka] ↔ *o'lka* [ölka] kabilar.

Iste'moldan chiqish xavfi ostiga kelib qolgan tillar uchun ularning elektron bazasi va korpusini yaratish, shu tilga taalluqli bo'lgan ilmiy va badiiy adabiyotlar yillar davomida asrashga, ular ustida bir qancha ilmiy ishlar qilishga imkon beradi.

Umuman olganda, audio korpuslar ta'limga ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar nutqini kuzatib borishda yuqori samaradorlikka erishishga yordam

³ N.Abduraxmanova O'zbekcha matnlarni ovozlashtirish dasturining lingvistik ta'minotini ishlab chiqishda ayrim masalalar tadqiqi // Turklang-2018 xalqaro konferensiya, Toshkent, 2018.



beradi. Sababi til ijtimoiy hodisa sifatida doimiy ravishda o‘zgarib turadi, qaysidir so‘zlar neologizm sifatida kirib kelsa, ba’zilari esa tarixiy so‘zlarga aylanadi. Bu jarayonni esa multimediali korpus orqali bevosita kuzatib borish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, korpus nafaqat soha kishilarning, balki tilni rivojlantirishda umummilliy masala hisoblanadi.

REFERENCES

- 1.Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)
- 2.Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).
- 3.Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. *Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*. 2016;2 (38):12-7.
- 4.Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/*Foreign Philology: Language. Literature, Education*. 2018(3):68.
- 5.Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL)*. 2019;6(1-2019):131-7.
- 6.Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*. 2017;5(03):89-100.
- 7.Kubedinova L. Khusainov A., Suleymanov D., Gilmullin R., Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. *Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020)* .2020/11: 90-101
- 8.Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In *Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019*.



9. N. Abdurakhmonova, U. Tuliyeu and A. Gatiatullin, "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670043.
10. <https://ruscorpora.ru/new/>
11. <https://www.english-corpora.org/bnc/>
12. <http://www.turklang.net>
13. <https://mlcommons.org/en/multilingual-spoken-words/>



DEVELOPING TEACHING SPEAKING IN A FOREIGN LANGUAGE TO YOUNG LEARNERS THROUGH INTERACTIVE METHODS

Sohiba Tohir kizi Ruzmetova

Master student, Uzbekistan State World Languages University
sohibatohirovna@gmail.com

ABSTRACT

Teaching speaking is one of the most important processes in learning a foreign language, and teaching young learners is always a challenge that demands the development of new and preferred approaches and solutions. The research aims to show that using interactive methods for developing speaking skills is more effective than conducting traditional speaking lessons. To achieve the aim twenty young students aged 9 are experimented by dividing them into two groups and one group is taught with interactive methods, another group is taught in traditional way. The study shows the findings of an experimental investigation as well as the efficiency of interactive methods versus traditional ways.

Keywords: young learners, interactive methods, developing speaking skills, experimental study, traditional method.

INTRODUCTION

Speaking skills is one of the most important skills that learners learn, as it is the means of communication with others and expressing feelings and thoughts. As a result, it is critical to emphasize that the "joy of teaching" and "joy of learning" are the main elements in fostering a pleasant educational atmosphere.

As a result, a child-centered and learner-friendly educational environment is becoming a top priority as "interactive methods make learning interesting and exciting for kids and improve their retention, involvement, and performance," [4, p. 23]. Thus, child-centered and learner-friendly educational environment is becoming a great priority as "interactive methodologies make learning enjoyable and exciting to students and improve their retention, participation and performance" [4, p. 23]. Interactive methods help teachers to encourage "greater attentiveness, interest and responsiveness" in children while improving their language skills [4, p. 23]. The effectiveness of teaching young learners deals with the ability of teacher to resort to various strategies that among all of them interactive cognitive strategies dominate because they ensure



proper acquisition of speaking skills. It should be noted that teaching process is deals with the interest and courage of learners that experts emphasize “meaningful practice” which suggests “an activity where language control is still provided but where students are required to make meaningful choices when carrying out practice” [1, p.16]. Buhrow and Garcia (2006) identify that meaningful practice results in meaningful communication, because for kids, “learning is all about exploring their passions and interests” [2, p.8].

By considering all ideas, interactive methods are the most effective tool in developing young learners’ speaking skills since it helps to create comfortable environment of teaching process and it leads to stimulating young learners’ activities. Besides in interactive methods teacher encourages learners to search for information independently, to interact with readiness and enthusiasm in communicative situations.

Interactive methods are divided into two: discussion-based and game-based. Discussion- based activities cover group-work, pair-work and brainstorming. Game-based activities are role-plays and didactic games and they consist of rhymes, songs and poems, language- focused games, crosswords and puzzles. According to Carmen Becker and Jana Roos (2016) “creative speaking activities in the young learners’ classroom act can provide a springboard for speaking in the early language classroom” [3, p.21].

Foreign language teachers should be accurate in designing learner-friendly, “supportive and nurturing” educational environment and help pupils “become confident and enthusiastic communicators” [5, p.42].

The aim of the research study is to show the effectiveness of interactive methods than traditional method in developing young learners’ speaking skills and interest towards learning foreign language.

Research questions

1. Do interactive methods develop young learners’ speaking skill more effectively than conducting speaking lessons in traditional way?
2. Do using interactive methods in teaching speaking increase learners’ interest towards learning L2?

MATERIALS AND METHODS

To achieve the aim of the research experimental study and empirical observation methods were used. The research took place at school number 101 in Tashkent included two teachers and

twenty students aged 9 and they divided into two groups: treatment group and comparison group. In the framework of the experimental study, we worked out an interactive activity-oriented pattern of a lesson focused on speaking practice. The experimental study lasted for a month with forty five minute lessons two times in a week. During the lessons visual, verbal, audio-visual, auditory means of teaching were used. Each lessons consisted of four basic stages and they were introduction, warming up, main body of the lesson and reflexive stage. Moreover, lessons were conducted with multimedia technologies as a smart board, computers, etc. Participants were examined by speaking about topics that they learnt before the research had begun. After finishing the research both groups examined again and marked for getting the result of the research. All marks were written to the Excel and compared in the app JASP.

Two groups were taught for a month and two units were covered with them treatment group was taught with interactive methods and comparison group was taught with traditional methods. During this period students learnt comparative and superlative adjectives, imperative sentences in negative form. Comparison group was taught from the book and they learnt new words by heart and told during lessons and memorized texts from book. As it mentioned above treatment group's lessons conducted in four stages and in introduction part teacher greeted with students and asked questions such "how are you" from several students. In warming up stage teacher introduced new topic and new words. In the main body of the lesson interactive activities predominated and teacher used interactive activities' materials. For instance, teacher distributed different animals' pictures to all students and asked from one student to show it to the class and asked from participants "What animal is it?, Who likes it?" one of the students answered like "It is a cat and I like it" then teacher asked another questions such as "Is it big?, Is it small?" it continued like this. After answering questions students should divided into pairs and made little texts by describing their partners' lovely animal like "*this is a cat and Soliha likes it, it is small, it is not big and it is smaller than a horse. It is smallest animal among pictures*" by working in pairs they developed speaking skills in describing things. They were young and had difficulties in making long sentences as this text was enough for them. Then the role play was conducted in the topic "In the zoo park" and one student was an instructor in the zoo and others were visitors and asked questions like "*What animal is it? Is it small or big?, What animal is the biggest in the zoo? What animal is the smallest one?*" Besides, the student who was an instructor warned visitors like

“Don’t touch them, don’t feed them” by telling them they learnt imperative sentences in negative form. After all of them teacher distributed little poems about animals and they learnt them by heart. During these processes teacher did not disturb learners but when they asked words which they did not know she told them. The reflexive stage plays no less crucial role in developing speaking skills. At the end of the lesson teacher gave feedback to learners where they did mistakes and corrected them. It is important that asking students about the activities, their impression, interests and comments about the lesson but it does not mean that teacher should change the structure of the lesson but she should add other activities which arouse learners’ interest. After a month participants were examined again with the topics which they learnt in a month.

RESULTS AND DISCUSSION

The research was conducted in several phases. In phase 1 learners examined and marked.




Figure 1 (comparison group)




Figure 2 (treatment group)

Figures 1, 2 Scores of participants before the research

The segments of pie chart show percentage and three levels of learners’ marks. Majority of students had serious problems in speaking skills.

In phase 2 lessons were conducted with above-mentioned lesson plan with interactive methods which were appropriate for the group.

In phase 3 all technologies were tested for finding the most effective ones for the learners. In phase 4 all participants examined again and marked.




Figure 3(comparison group)




Figure 4(treatment group)

Figures 3, 4 Scores of participants after the research

The outcome of the result was quite positive. Interactive methods were efficient tool in developing speaking skills and students' interest in learning foreign language. Students' activeness also developed and they did not afraid asking questions and making mistakes during lessons because their teacher helped them to correct mistakes. Moreover, students felt confidence in expressing their ideas and when they spoke to members of comparison group they were more active and spoke freely.

CONCLUSION

To achieve success in teaching young learners in developing their speaking skills special lesson plan was created and used. The interactive methods based lessons were effective in developing speaking skills and it arouses learners' interest to learn foreign language. The research achieved its aim by answering to research questions effectively. During lessons teachers should consider students' interest, conducting effective teaching process, creating friendly educational environment to young learners, correcting young learners' mistakes in friendly way and encourage them in speaking effectively. The research study has shown that interactive methods are one of the most effective tool in developing young learners' speaking skills and interest.

REFERENCES

1. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. NY: Cambridge University Press.
2. Buhrow, B., & Garcia, A. U. (2006). *Ladybugs, Tornadoes, and Swirling Galaxies: English Language Learners Discover Their World Through Inquiry*. Portsmouth, NH: Stenhouse Publishers.
3. Becker, C., & Roos, J. (2016). An approach to creative speaking activities in the young learners' classroom. *Education Inquiry*, 7(1), 27613.

4. UNICEF (2006). Child Friendly Schools Manual. Retrieved from https://www.unicef.org/publications/files/Child_Friendly_Schools_Manual_EN_040809.pdf
5. Five Components of Effective Oral Language Instruction: A Guide to the Teaching and Learning of Oral Language (2014). PDST Dublin. Retrieved from <https://pdst.ie/sites/default/files/Manual%20Oral%20Language.pdf>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARGA XORIJIY TILNI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI

Xudoyberdiyeva Gulchexra Isamidinovna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
xudoyberdiyeva.gulchexra.1988@mail.ru

ANNOTATSIYA

Chet tili o'qituvchisining kasbiy malakasini baholash har doim mamlakatimiz olimlari va metodistlarining diqqat markazida edi. E'tiborga molik o'qituvchining uslubiy mahorati turlari (loyihalash, adaptiv, tashkiliy, kommunikativ, gnostik tadqiqot) va chet tili o'qituvchisining oltita shaxsiy xususiyatlari (umumiy fazilatlar, psixologik zukkolik, amaliy psixologik aql, psixologik takt, boshqalarga nisbatan talabchanlik (tanqidiylik), uslubiy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari keng muhokama qilingan. Bular kasbiy mahorat darajalarini (uslubiy savodxonlik darajasi, uslubiy mahorat darajasi) ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: kasbiy-pedagogik, paradigm, global, kompetensiya, texnologiya, psixologik

KIRISH

Nofilologik fakultet bitiruvchi mutaxassislari uchun hozirgi kunda chet tilini bilish eng muhim talab hisoblanadi. Shu sababli chet tili kompetensiyasini shakllantirib o'rgatish asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun talabalarni chet tilida muloqot qilish jarayonida o'zaro tushunishga, erkin muloqot qilishga, muammolarni oson yechimini topishga, ijtimoiy va kasbiy jihatdan moslashtirishga, ularni ijtimoiy-madaniy sohada muloqot qilishga o'rganish vazifalarini pedagogik jarayonda muayyan bir tizim keltirish zarurligi e'tiborga olindi. ijtimoiy-madaniy sohada og'zaki muloqotni o'rgatish va rivojlantirish, chet tili darsida nutq holatini yaratish, zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhimdir. Muloqotni o'rgatish jarayonida ularni nutq kommunikativ kompetensiyasiga e'tibor qaratilib, bu holat ko'p jihatdan talabalarni nutq faoliyatini baholaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muloqotni rivojlantirishda ko'p amaliyot talab qilib, o'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayonida tabiiy holatlarni yaratishi sababli nafaqat o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini, balki



qo‘shimcha lingvistik vositalarini ham foydalanishga imkon beradi. Ma‘lumki, muloqotning bir necha turlari mavjud bo‘lib, shunga muvofiq metodistlar ikki turga ajratadilar, bulardan biri imitative (taqlid qilish) bu ularni erkin muloqot qilishiga va to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatadi. Simulativ (tasavvur) ikkala metod talabalarni kommunikativ kompetensiyasini oshirib, kinodan muloqotini taqlid qilish, (audio, radio, BBc, ted talk va boshqalar) tinglash orqali kommunikativ qobiliyatni oshiradi. Bunday faoliyatlar lingvistik va stilistik xususiyatlarni ko‘p mashqlar va amaliyotlar bilan dialoglarni analogiya bo‘yicha o‘zgartirish va kompilyatsiya qilib, muloqotni rivojlantiradi. Simulativ esa ishni o‘rganish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, rejani muhokama qilish, bahs-munozaralarni hal qilish bilan ifodalanadi. Haqiqiy holatlarga o‘xshash jarayonlar yaratiladi va stajyorlar turli rullarni (sotuvchi-xaridor, shifokor- bemor, mijoz qabul qiluvchi) yoki boshqa harakatlarni bajarishi mumkin. Muloqot faoliyati tasvirlangan sahnaga qiziqish, rulni yaxshi o‘ynash istagi ularga katta motivatsiya berishi mumkin. Simulative aloqa usullari sifatini takidlash kerak; dramatizatsiya, o‘qituvchi tomonidan mavzu va syujet belgilanadi, talabalarning o‘zi tomonidan esa qahramonlar, ularning ijtimoiy mavqei, rullni hattoki harakatini ko‘rsatilgan muammoli vaziyatlar uchun sahna ko‘rinishlarini tayyorlaydi. Ushbu texnikadan foydalanish nutqni erkinligi va spontanlik va personajlarning og‘zaki harakatlari bilam-tajribalari turadi. Demak yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni shuni aytishimiz mumkinki, metoddan foydalanish bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari uchun tilni o‘rganishda chet tili kompetensiyasini shakllantirish orqali nutqiy qobiliyatni rivojlantiradi. Ayni paytida, chet tili o‘qituvchilaridan ham, boshqa kasb mutaxassislaridan ham yangi davr talabi bo‘lgan kasbiy harakatchanlikni, o‘z ishini qisqa muddatda malakali bajarish qobiliyatini, ma‘suliyatli, faol, malakali mutaxassisni, mehnat bozorida raqobat bardosh bo‘lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, so‘ngi yillarda chet tilini o‘qitish metodikasida katta o‘zgarishlar vujudga keldi. Oldingi va hozirgi zamoni taqqoslasek, ilgari o‘qituvchilar jamiyat tomonidan chet tillarini o‘rganishga rag‘batlantirilmaligi, eng yangi ilmiy va uslubiy adabiyotlarning yetishmasligi, o‘rganilayotgan til mamlakat va aloqalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yetishmasligidan qiynalgan bo‘lsalar, hozirgi kelib ko‘p o‘zgarishlar, qulayliklar yetarlicha bo‘lib, chet tili bo‘yicha turli qo‘llanmalar, adabiyotlar, yangi materiallardan foydalanish imkoniga ega. Shunga qaramay o‘qituvchilarning chet tilini o‘rganish bo‘yicha uslubiy adabiyotlar o‘qimasligi, o‘zini ustida ishlamasligi oqibatida qiyin vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu turdagi o‘qituvchilar orasida malakali avtonomiyaning yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi

deb takidlaydi Gogoleva M.A. T.Yu. Tambokinani kasbiy avtonomiyaga yondashuvda sharoitimiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar kasbiy sohada fikrlash va harakat qilish qobiliyati, mas'uliyatli, qaror qabil qilish, maqsadlarni to'g'ri yo'naltirish va ularni amalga oshirish uchun strategiyalarni ishlab chiqish. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida mustaqilligini rivojlantirish bo'yicha yangi ishlarni, universitetlarda doimi o'zgaruvchan sharoitlarda tayyorgarlikni joriy etish kerak. O'quv dasturlari, darsliklar va ta'lim muassasalarining takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy pedagogik yangiliklariga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy o'zgarishlariga tez moslashishni talab etadi. Bo'lajak chet tili o'qituvchisi uchun kasbiy avtonomiyaning asosi uslubiy kompetensiya ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

1. Kasbiy pedagogik faoliyatni rejalashtirish qobiliyati;
2. Bo'lajak o'qituvchilarni oldinga qo'ygan o'quv maqsadlariga yondashgan holda keng ko'lamli uslubiy metodlarni o'zlashtirish va ulardan yetarlicha foydalanish qobiliyati;
3. Zamonaviy uslubiy adabiyotlardan foydalanish, sharoitga mos keladigan qo'llanmalarini va boshqa o'quv materiallarini tanlash qobiliyati.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bundan tashqari chet tili o'qituvchisi uslubiy kompetensiyasining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatidagi darajasini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda yetarlicha bilim va tajribalarini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaydi T. Yu. Tambovkina. Tilni o'rganish masalalari bilan shug'ullangan nemis olimi A.Bolen mazkur tilni o'qitish jarayonida ko'zlangan maqsadlarga ilmiy jihatdan erishish mumkinligini asoslar ekan, xorijiy tilni o'zlashtirishda amaliy yondashish, til orqali xalq ruhiyatini tushunish, madaniyatini o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish maqsadlari ilg'or surilmoqda. Amaliy bilim faol jarayon bo'lib, mavjud bilimlarni yangilashi va mustaqil ravishda takomillashtirishi kerak. Pedagogik adabiyotlarda "mustaqillik" tushunchasi azaldan foydalaniladi, mustaqillik va faoliyat muamosi ilk marta XX - asrning 30- yillari oxiri 40- yillarning boshlarida tadqiqot mavzusiga aylanadi, dastlab mustaqillik shaxsning sifati yoki xarakter xususiyati sifatida tushunilgan (Sh.I. Ganelin, M.A. Danilov, Z.F. Ponomareva, T.I. Chijova va boshqalar) yaxlit shaxs shakllanishi sifatida chet tili o'qituvchilarni mustaqil ravishda tayyorlash lozim deb ta'kidlaydi (N.V. Bochkina, I.Yu. Lerner, P.I. Pidkosist va boshqalar).

E.N.Solovova ta'kidlaydiki, "ta'lim avtonomiyasi" atamasi ko'pincha " mustaqil ta'lim" avtonomiyasi bilan almashtirishadi, lekin ular bir xil tushunchalar emas, asosiy farq shundaki, mustaqil jarayonda talabalar asosan ma'lum bir o'quv vazifasini bajarish texnologiyasini (o'qituvchi yoki darslik muallifi tomonidan qo'yilgan) ustida izlanish olib boradilar. Ta'lim avtonomiyasi esa qanday o'qishni aniq maqsadlarga erishish uchun o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi. Jamoatchilik pedagogikasida avtonomiya muammosi o'quvchini ta'lim konsepsiyasi doirasida yondashuvi ko'rib childi. Olimlar avtonomiyaning turli qisimlarga (E.N. Solovova, Thong Le Dinh, N.F. Koryakovtseva, X. Nolik va boshqalar) bo'lib ta'rif berishadi.

1. o'quvchining ta'lim jarayonida bajarish joyi va vaqtini tanlashda
2. har bir o'quvchining ilmiy ish natijasi uchun mas'ulligi
3. talabaning mustaqil tanlashda ularning xohish- istaklari, qiziqishlarini hisobga olish
4. faoliyatni tushunish, bilimlarni yanada rivojlantirish, ularning fazilatlarini, qobiliyatlarini baholash

XULOSA

Shunday qilib, avtonomiya - mustaqil, mas'ulyatli degan tushunchalarni ifodalaydi. N.F.Koryakovtsevaning ta'kidlashicha, avtonomiya - bu o'quvchining o'zining to'g'ri boshqarish qobiliyati va o'quvchidan mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshirish, o'quv jarayonida mas'ulyatli bo'lib, mustaqil qaror qabul qilish kerak. Ta'lim tizimida bo'lajak chet tili o'qituvchilarini kasbiy mustaqilligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda talabaning avtonomiya darajasini kuchaytirishga katta ahamiyat qaratiladi. Buning uchun talabalarga o'qitish ketma ketligini to'g'ri tanlash, har bir semestr uchun kurslarni belgilash, o'qituvchilarni o'z xohishiga ko'ra tanlash, o'z o'quv jadvalini tuzish, jadval va adabiyotlar bilan mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish. Talabalar o'zlarini ta'lim jarayonlarini belgilashlari va bilimlarini rivojlantirishlari lozim, xususan; nimani, qachon, qanday darajadiligini bnilishi, test va imtihonlarni topshirish mudatlariga rioya qilish, kata hajmdagi mantlar bilan ishlash, tezislar, hisobotlar va hakoza tuzish uchun foydalanish, o'zlarining ta'lim jarayonida samaradorligini baholash, avtonomiyani rivojlantirishda hamma metodlar va usullardan foydalanib bo'lmaydi. Bu borada eng samarali usullardan biri loyla usulidir, o'quvchi mustaqil yondashuv, yangi qiralarini kashf qilish, real hayotda mustaqil qadam tashlash, duch kelgan muammolarni o'zi hal qilish, tez yechim topish deb ta'kidlaydi

N.F.Koryakovtseva. Loyiha usullaridan foydalanishda o'quvchi asosiy ma'lumot manba bo'lgan an'anaviy ta'limning sxemasidan foydalanmay balki talabalar tomonidan real hayot bilan bog'liq bilim va tajribani mustaqil o'zlashtirishni o'z ichiga oladi, T.Yu.Tambovkina, shu orqali talabalarni mustaqilligi, avtonomligi, tashabbuskorligi, mulohazaligi, kasbiy sohada mukammalligini oshiradi. Afsuski, loyiha usuli OTM darslarida to'g'ri qo'llanilmayapti, bu asosan kurs va malakaviy ishlari shaklida hujjatlashtirilgan usullarga muvofiq shaxsiy tadqiqot loyihalardir. Ushbu loyihalarni ommaga tatbiq etish g'oyalari, strategiyalari asosan o'qituvchi mas'uldir. Loyihani amalga oshirish maqsadida loyiha usullariga katta ahamiyat berilishi lozimdir, bunda qo'yidagi ish jarayonidan foydalanish kerak; o'quv amaliyotida talabalar mustaqil ravishda loyihalarni ishlab chiqishi va ularni amalda qo'llashi lozim, maxsus loyiha seminarida ularni amalga oshirish usullari bilan tanishish, balki mustaqil loyihalarni amalda tatbiq etishni, talabalarni yirik xalqaro loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish kabi usullar jarayonini o'z ichiga oladi.

REFERENCES

1. Гальскова, Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // М. : АРКТИ, 2000.
2. Рахманов, И.В. Проблема рецептивного и репродуктивного овладения иностранным языком в школе / И.В. Рахманов // М. : высшая школа, 1954.
3. Скалкин, В.А. Основы обучения устной иноязычной речи / В.А. Скалкин // М. : Просвещение, 1981.



ФАВКУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ДАВЛАТ ТИЗИМИ ФАОЛИЯТИНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШ ТАДБИРЛАРИ ВА УЛАРНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Абдумансур Абдуазизович Турсунов

Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги
Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти кафедра доценти

Хасанбой Мирзаевич Раззақов

Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги
Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти 1-босқич магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада махсус ваколатли орган Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг республика Фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими фаолиятини мувофиқлаштириш борасидаги асосий вазифа ва мажбуриятлари, уларни бажариш тадбирлари ҳамда бу борадаги мавжуд муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича илмий изланишлар махсули натижасидаги таклифлар ёритилган.

Калит сўзлар: фавқулодда вазият, олдини олиш, ҳаракат қилиш, баргараф этиш, мувофиқлаштириш, ваколатли орган, давлат тизими, бошқарув органлари, функционал ва ҳудудий қуйи тизимлар, ФВВ, ФВДТ.

ABSTRACT

In the article the specially authorized body of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan and the main tasks and responsibilities of coordinating the activities of the state system to act in such situations, the measures for their implementation, as well as proposals for the results of scientific research on existing problems and their solutions.

Keywords: emergency, prevention, action, response, coordination, competent authority, public system, governing bodies, functional and territorial subsystems, Ministry of Emergency Situations, State system of prevention and response to emergencies.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси ўз мустақиллиги ва суверенитетини қўлга киритган илк кунлардан бошлаб, мамлакатимиз аҳолиси ва ҳудудларини табиий офатлар, техноген фалокатлардан муҳофаза қилиш бўйича ишончли ва самарали миллий тизимни яратиш устувор вазифалардан бирига айланди. Аҳолининг хавфсизлиги ва муҳофазаси давлат сиёсатининг асосий тамойили этиб белгиланди [1]. Республикада аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат сиёсати, вазифа ва функциялари махсус ваколатли орган Фавқулодда вазиятлар вазирлиги (*кейинги матнларда – ФВВ деб юритилади*) ва кенг қўламли яхлит тизим Фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат Давлат тизими (*кейинги матнларда – ФВДТ деб юритилади*) орқали амалга оширилади [5,13].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 4 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда Вазиятлар вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-1378-сонли Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 11 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги 143-сонли қарори билан Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ташкил этилиб, вазирлик фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва оқибатларини бартараф этиш ишларини амалга оширувчи ваколатли давлат бошқаруви органи эканлиги, ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқиши ва амалга ошириши, ФВДТни ривожлантириши ва бошқарувини таъминлаши ҳамда ҳамкорликдаги ҳаракатларни мувофиқлаштириш функциялари қонун ҳужжатлари билан мустаҳкамланди [2,3,4]. Масалани ёритишда фалсафа ва мантиқ қонуниятларига, аналитик, синтез, социологик, таҳлилий усулларга таянилади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

ФВДТ бу - асосий мақсади ваколатига фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш масалаларини ҳал этиш кирадиган давлат бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, хўжалик бирлашмалари ҳамда бошқа ташкилотлар томонидан тинчлик ва алоҳида даврда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш



ва бартараф этиш тадбирларини самарали ташкил этиш ва амалга оширишни таъминлаш учун ташкил этилган ва фаолият юритадиган бошқарув органлари, кучлар ва воситалардан иборат кенг кўламли яхлит тизимдир[2,13]. ФВВнинг энг муҳим вазифаларидан бири республика ФВДТ фаолиятини мувофиқлаштириш функциясидир, чунки вазирлик ўз махсус ваколатлари, мажбурият ва вазифаларини ФВДТ таркибига кирувчи вазирликлар, идоралар ва ташкилотлар, маҳаллий давлат ҳокимияти, ўзини-ўзи бошқариш ва хўжалик юритувчи бошқарув органлари билан биргаликда бажаради [12,13,15].

ФВВ ўз фаолиятидаги фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бундай вазиятлар содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш чора-тадбирларини мувофиқлаштириш функциясини, яъни биргаликда тартибга солишни Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, қонунларига, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Бош вазири – Фуқаро муҳофазаси буйруқларига, Фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бартараф этиш Ҳукумат комиссияси йиғилиш баёнлари ва режалари, шунингдек бошқа қонун ҳужжатларига асосан амал оширади [14].

ФВВ томонидан ФВДТ, унинг қуйи тизимлари ва бўғинлари фаолиятини ташкил этиш, аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича уларга белгиланган вазифаларни ўз вақтида ва самарали бажарилишини мувофиқлаштириш тадбирлари ФВДТнинг тегишли республика, маҳаллий, объект даражалардаги бошқарув органлари билан биргаликда амалга оширилади[11]. ФВВнинг республика ФВДТ, унинг қуйи тизимлари ва бўғинлари фаолиятини мувофиқлаштириш борасидаги асосий чора-тадбирлари қуйидагилар:

ФВДТни ривожлантириш ва бошқарувини таъминлаш;

ФВДТ таркибига кирувчи бошқарув органлари, кучлар ва воситалар фаолиятини (ҳаракатини) тартибга солиш ва самарали ҳамкорлигини ташкил этиш;

иқтисодиёт объектларининг фавқулодда вазиятлардаги фаолияти барқарор-лигини оширишга қаратилган тадбирларни тайёрлаш, ўтказиш ва тартибга солиш бўйича чора-тадбирлар ва мақсадли илмий-техника дастурлар ишлаб чиқиш;

халқ билан, биринчи навбатда, вояга етмаганлар ва ёшлар билан мулоқотни кенгайтириш ва кучайтириш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари

ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш соҳасида ўзаро ҳамкорликни таъминлаш;

фавқулодда вазиятлар ҳавфи юзага келганда ёки содир бўлганда аҳолини автоматик тарзда хабардор қилиш тизими яратилишини ҳамда локал ва объект даражасида хабар бериш тизими ишларини ташкил этиш;

қутқарув хизматларини, қутқарув тузилмаларини ташкил этиш, тайёрлаш ва доимий шай ҳолда бўлишини, фавқулодда вазиятларни тезкорлик билан бартараф этиш ва тугатиш ишларини амалга ошириш;

зилзила, кўчки, сел, сув босиши, сув тошқини, қор кўчкиси ва бошқа табиий офатлар, шунингдек техноген хусусиятли авария ва ҳалокатларни назорат қилиш ва прогнозлаш тизимининг ривожлантириб бориш;

фавқулодда вазиятлар юз бериши мумкин бўлган ҳавфли ҳудудлардан аҳолини эвакуация қилиш, шунингдек уларга янги яшаш жойларида зарур бўлган ижтимоий-маиший шароитлар яратилишини ташкиллаштириш;

ҳудудий фавқулодда вазиятлар бошқармалари (бўлимлари) тезкор навбатчилар гуруҳи билан давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, объектлар ва бошқа ташкилотлар навбатчи диспетчерлик хизматлари ўзаро ҳамкорлигини таъминлаш;

фавқулодда вазиятлар ва ёнғинларни бартараф этиш ҳамда тезкор чегаралаш ишларини ўтказишга мўлжалланган тўғридан-тўғри ва тезкор буйсунувдаги ёнғин-қутқарув хизматлари ва бўлинмаларини ташкил этиш, тайёрлаш ва улардан фойдаланишда услубий раҳбарлик қилиш ва улар фаолиятини белгилаш;

фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш бўйича Ҳукумат комиссияси қарорлари ва топшириқлари бажарилишини ташкил этиш;

давлат ва хўжалик бошқаруви, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, ташкилотларнинг ҳалокатлардан жабрланган ёки уларнинг оқибатларини бартараф этишда иштирок этган фуқароларни ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий ва тиббий жиҳатдан муҳофаза қилиш бўйича фаолиятини тартибга солиш.

ФВДТ фаолиятини мувофиқлаштириш ва ҳаракатларини режалаштиришга ташкилий-методик раҳбарлик қилиш ФВВ марказий аппарати, ҳудудий бошқармалари ва маҳаллий бўлимлари томонидан республика ва идоравий ҳаракат қилиш режалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва объектларнинг ҳаракат қилиш режалари, шунингдек, ФВДТнинг барча даражаларида ўзаро ҳамкорликда ҳаракат қилиш режаларига асосан амалга оширилади[12]. ФВДТнинг яхлит бир бутунлигида бошқарув, ўзаро ҳамкорлик ва ҳамжиҳатлик бўлмас экан, унинг ваколатлари, мақсад ва вазифаларини амалга ошириш, аҳоли ҳаётининг хавфсизлиги, фуқаро муҳофазаси ва фавқулодда вазиятларни бартараф этишга тайёргарлик соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириб бўлмайди. ФВДТнинг яхлит бир бутунлиги, бошқаруви, ҳамкорликдаги ҳаракатлари ва уларнинг биргаликда тартибга солиш жиҳатлари унинг таркибий тузилиши ва фаолият кўрсатиш режимларида яққол намоён бўлади[13].

ФВВ томонидан ФВДТ, унинг қуйи тизимлари ва бўғинлари фаолиятини мувофиқлаштириш тадбирлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги «Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш тизими самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги

ПФ-5066-сон Фармони билан тасдиқланган ФВДТни янада ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирлар Дастурига асосан босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Ва албатта Янги Ўзбекистон ислохотлари даврида хусусан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси вазифаларига мувофиқ, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш чора-тадбирлари самарадорлигини янада ошириш мақсадида, ФВДТни такомиллаштиришнинг энг муҳим йўналишлари белгиланди ҳамда бир қатор ижобий ва самарали ишлар бажарилиб, натижаларга эришилди[6].

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида ва Тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид Давлат Дастурида устувор йўналишлар, мақсадлар ва вазифаларда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирларини белгиланганлиги ФВДТни янада

такомиллаштиради ва ривожлантиради[7]. Сўнгги йилларда ФВВ томонидан Ҳаракатлар стратегияси асосида мамлакатимизда табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш, ёнғин хавфсизлиги, сейсмик кузатувлар ҳамда сув объектларида фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш бўйича бир қатор ҳуқуқий, ташкилий, илмий-техник, иқтисодий ва ижтимоий чора-тадбирлар амалга оширилди бироқ, амалга оширилган ижобий ишлар билан бир қаторда, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасида қатор муаммоли масалалар ҳам мавжуд[9].

Хусусан, ФВДТ таркибига кировчи давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва бошқа ташкилотлар томонидан фавқулодда вазиятларга сабаб бўлувчи потенциал манбаларни барвақт аниқлаш, улар бўйича тизимли кузатув ҳамда назоратни ташкил этиш ва амалга ошириш борасидаги ишлар талаб даражасида йўлга қўйилмаган. Шунингдек фавқулодда вазиятлар хавфи юзага келганда ёки содир бўлганда аҳолига белгиланган муддатларда тўлиқ хабар бериш ва маълумот етказишнинг автоматлаштирилган тизими ташкил этилмаган;

айрим ташкилотлар ва объектларда фуқаро муҳофазаси ҳамда ёнғин хавфсизлиги бўйича мутахассис лавозимлари жорий этилмаган ёки ушбу вазифалар бошқа шахслар зиммасига юклатилмаган. Бу эса ўз навбатида мазкур ташкилотлар ва объектларда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш тадбирларини талаб даражасида ташкил этилмаслигига олиб келмоқда;

ФВДТ куч ва воситаларининг фавқулодда вазиятларни бартараф этиш ишларини амалга ошириш учун махсус қутқарув асбоб-аппаратлари ҳамда шахсий ҳимоя воситалари билан таъминланганлик даражаси паст ҳолатда;

аҳолини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, олдини олиш ва содир бўлганда аҳолини тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш бўйича кўрилаётган чоралар, шунингдек корхоналар, ташкилотлар ва муассасаларда, хусусан маҳаллаларда олиб борилаётган тарғибот-ташвиқот ишлари етарли даражада эмас;

ишлаб чиқариш ва иқтисодиёт объектларида “Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш бўйича ҳаракатлар режалари”, “Объектнинг фаолияти барқарорлигини ошириш режалари”, фавқулодда вазиятлар масалалари бўйича бошқа ҳужжатларни ишлаб

чиқиш, юритиш ва уларда белгиланган тадбирларни бажариш сифатига етарли даражада эътибор қаратилмаган;

ФВДТ хизматлари ва тузилмаларининг моддий-техник таъминотини янада яхшилаш, ўқув ва техник базасини модернизация қилиш, шахсий таркибнинг самарали ишлаши учун муносиб шарт-шароитлар яратилмаган;

фавкулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишни ташкил қилиш ва амалга оширишнинг барча босқичларида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг тадбиқ этишга эришилмаган;

ФВДТ куч ва воситаларида асосий қуйи ва бошланғич ўрин тутувчи маҳалла фуқаро муҳофазаси йиғма гуруҳларини ташкил этиш, жамлаш ва улар шахсий таркибини ўқитиш-тайёрлаш тадбирларига маҳаллий ва ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан ҳанузгача етарли даражада эътибор қаратилмаган.

Ушбу муаммоларнинг ечими бўйича олиб бориладиган илмий изланишлар махсули натижасида мамлакатимиз аҳолиси ва ҳудудларини табиий ва техноген хусусиятли фавкулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича ташкил этилган ФВДТ фаолиятининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Юқорида билдирилган ФВВнинг республика ФВДТ, унинг қуйи тизимлари ва бўғинлари фаолиятини мувофиқлаштириш борасидаги мавжуд муаммоларни ечими сифатида қуйидагилар чораларнинг кўрилиши таклиф этилади:

биринчидан, ФВДТ таркибига кирувчи бошқарув органлари томонидан ишлаб чиқиши ва юритилиши (ижро этилиши) лозим бўлган меъёрий - раҳбарий ҳужжатлар рўйхати, намунаси ва уларга қўйиладиган талабларни ишлаб чиқиш;

иккинчидан, фавкулодда вазиятларни бартараф этиш учун заҳиралар яратишни молиялаштиришни Молия вазирлиги томонидан аниқ смета ва улушларда ҳар йил учун ҳамда барча давлат ва хўжалик бошқарув органлари учун мажбурийлиги белгиланиши, ташкилот(объект)ларда эса заҳиралар яратишни ўз хўжалик ҳисобидан молиялаштириш механизмини ва қонунда тақиқланмаган бошқа манбааларни йўналтириш тартибини белгилаш бўйича меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиш ҳамда молиявий фонд ва заҳиралар ташкил этиш масаласини илғор хорижий тажрибалардан келиб чиқиб, қайта кўриб чиқиш;

учинчидан, ФВДТ таркибидаги хизматлар ва иқтисодиёт объектларининг маҳаллий бошқарув органларида фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси бўйича мутахассис штат бирликларини жорий этиш, бошқа қуйи бўғин ва тармоқларда ишчи-ходимларга ушбу вазифаларни бажаришни юклаш, мутахассис сифатида тайинлаш тартибини аниқ белгилаш ҳамда уларга қўшимча вазифа бажарганлиги учун ҳақ тўлаш ёки рағбатлантириш масалаларини тартибга солиш, ҳуқуқий-меъёрий асослантириш;

тўртинчидан, ФВДТ таркибидаги хизматлар ва иқтисодиёт объектларига фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси бўйича мутахассисларни (масъул шахсларни) тайинлашни (штат/штатдан ташқари) фавқулодда вазиятлар бошқармалари (бўлимлари) билан келишилган ҳолда амалга ошириш тартибини жорий этиш, тайинланган ишчи-ходимларнинг тайёргарликдан ўтиш даврийлигини ва мажбурийлигини белгилаш ҳамда уларни фавқулодда вазиятлар бошқармалари (бўлимлари) томонидан даврий шаҳодатлашдан ўтказиб бориш;

бешинчидан, “Маҳалла фуқаро муҳофазаси” тизими тузилмалари йиғма гуруҳларни тегишли шахсий таркиб билан амалда тўлиқ жамлаш ва уларни сақлаб туриш учун имтиёз, рағбат ва мукофотлар эга бўлишларини тарғиб қилиш, МФЙ томонидан рағбатлантириш, тақдирлаш ёки имтёзлар қўллаш чораларини кўриш;

йиғма гуруҳларни жамлашда, яшаш жойидан (МФЙдан) узоқда, ташқарида бўлган, истиқомат қилмайдиган, бошқа ҳудудларда ўқиш, иш ва меҳнат билан банд бўлган фуқароларни киритилишини олдини олиш мақсадида, доимий МФЙда бўладиган (истиқомат қиладиган) хусусан, шу МФЙни ўзида меҳнат ва иш фаолият билан шуғиланадиган муносиб фуқароларни жалб этишга эришиш;

йиғма гуруҳларни белгиланган моддий техник воситалар билан таъминлашда маҳаллий бюджет, хомийлик, хайрия ва бошқа қонун билан тақиқланмаган манбалардан шакиллантириш ишларини МФЙлар томонидан амалга ошириш;

олтинчидан, аҳолини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, уларни бундай вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш, тарғибот-ташвиқот ишлари сифати, самарадорлиги ва кўламни ошириш мақсадида, бу борадаги тадбирларга ахборот технологиялари, инновация, оммавий ахборот воситалари, таълим тизими ва

жамоат институтларини янада кенг жалб этиш ҳамда улар имкониятларидан тўлақонли фойдаланиш.

ХУЛОСА

ФВДТ фаолиятини мувофиқлаштириш соҳасидаги мавжуд муаммоларни бартараф этиш мақсадида, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни такомиллаштириш, аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларининг ўз вақтида ва сифатли бажарилишини тизимли мониторинг қилиб бориш, аҳолини фавқулодда вазиятлар ва ёнғинлардан муҳофазаланиш, уларни бундай вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш мақсадида корхоналар, ташкилотлар ва муассасаларда, шунингдек маҳаллаларда олиб бориладиган тарғибот-ташвиқот ишларининг кўламини кенгайтириш зарур ҳисобланади. ФВДТ фаолиятини самарали мувофиқлаштириш тадбирларини қайд этиб ўтилган мавжуд муаммоларни ҳамкорликда бартараф этиш чораларини кўриш ҳамда бошқарув ва назорат тадбирларини биргаликда етарли даражада, ҳар томонлама ва замонавий ташкил этганда муваффақиятли таъминлаш мумкин.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2014.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги 1996 йил 4 мартдаги ПФ–1378-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш тизими самарадорлигини тубдан ошириш чора - тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 1 июндаги ПФ-5066-сонли Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони.



8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фавқулодда вазиятлар тузилмалари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича ташкилий чоратadbирлари тўғрисида”ги 2019 йил 10 апрелдаги ПҚ-4276-сонли Қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2021 йил 16 августдаги 1293-V-сонли Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг фаолиятини ташкил етиш масалалари тўғрисида”ги 1996 йил 11 апрелдаги 143-сонли Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва уларни бартараф этиш бўйича Хукумат комиссияси ва ҳудудий комиссиялар тўғрисидаги Низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 2017 йил 19 июлдаги 525-сонли Қарори.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Низомини тасдиқлаш ҳақида”ги 2017 йил 9 августдаги 606-сонли Қарори.
Мақолани ёзишимдан мақсад ҳам Сурхондарё вилояти Термиз Давлат Университетида Миллий либос ва санъат факультети Амалий санъат кафедрасида Устоз шогирд анъанаси йўлга қўйилган бўлиб ҳар бир дарс ижодий жараён ҳисобланиб бунда устоз ва шогирдлар биргаликда ҳамжихатликда иш олиб борадилар. Мана шу кунларда Амалий санъат кафедраси мудирини Олим Тураев ҳамда устозлардан Хамроқул Рахмонқулов, Жовли Қудратов Зарина Муҳаммадиева каби уз касбининг жонкуярлари фаолият кўрсатиб шогирдлари билан ишламоқдалар.

REFERENCES

1. Апухтин О ,Қ. Тасвирий санъат ҳақида суҳбат Т .1961.
2. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т. 1991.
3. Булатов С.С.Амалий санъат қисқача луғати. 'Т. 1992.
4. Қосимов Қ. Наққошлик Т. 1982.
5. Набиев М , Азимова В. Расм чизишни ўргатиш методикаси Т.2001
6. Орипов Б.Т. Дарсинг самарадорлигини ошириш йўллари Т.1983.
7. Ойдинов Н. Рассом-ўқитувчилар тайёрлаш муоммалари. Т. 1997.
8. Талипов Н. Мактабда тасвирий санъат тўғараги, Т. 1995 Т 2003

АНТУАН ДЕ СЕНТ ЭКЗЮПЕРИ “КИЧКИНА ШАҲЗОДА” АСАРИ – МАЖОЗИЙ ЭРТАК

Махбуба Фирдавсиевна Аширова

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети ўқитувчиси

Лайло Фирдавсиевна Хасанова

Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада француз адабиёти вакили Антуан де Сент Экзюперининг “Кичкина шахзода” асари таҳлил қилинган. Асардаги жамият муаммоларнинг бола нигоҳи билан акс эттирилган эса-да, унинг талқини барча замонлар учун аҳамиятини бирдек сақлайдиган масалаларнинг ёритилиши билан алоҳида ўрин топган. Асар шу нуқтаи назардан таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Антуан де Сент Экзюпери, француз адабиёти, таҳлил, мажаз, эртак, қисса, руҳият, катарсис.

ANTOINE DE SAINT EXUPÉRY "THE LITTLE PRINCE" - ALLERGIC FAIRY TALE

ABSTRACT

This article analyzes the work of Antoine de Saint-Exupéry, representative of French literature, "The Little Prince." Although society in the work reflects problems in the eyes of the child, a special place in its interpretation is occupied by the coverage of issues that remain unchanged at all times. The work is analyzed in this context.

Keywords: Antoine de Saint-Exupéry, French literature, analysis, metaphor, fairy tale, story, psyche, catharsis

КИРИШ

XX аср француз адабиётининг ёрқин вакилларида бири Антуан де Сент Экзюпери дунё адабиётига катта ҳисса қўшган ёзувчи сифатида эътироф этилади. Экзюпери “Кичкина шахзода” асаридан ташқари жаҳон адабиётига яна жўда кўплаб нодир асарлар тақдим этди. Шундай бўлса-да унинг “Кичкина шахзодаси” дунё



адабиёт ихлосландларининг ёш-қарисига бирдек манзур бўлган асар сифатида алоҳида ўрин топди.

Бир пайтлар бола бўлган бўлган ёш Леон Вертга бағишланган ушбу китоб бир нафасда ўқишли, соф ва самимий туйғулар тараннумига бағишланади.

Болаликнинг ҳар қандай мантиқсиз манфаатлар ва бекорчи туйғуларидан холи бўлган руҳий оламига саёҳат қилар экансиз, катталарнинг қилаётган бематниқ ва охири бўлмаган ишлари, сохталикка йўғрилган амаллари нақадар ўринсиз эканлигига амин бўлиб бўлиб борасиз...

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Гётенинг “Ёш Вертернинг изтироблари” асарида “Мен бу дунёда мен бир дарбадарман, сизлар мендан ортиқмисизлар?..” деган фикрини ушбу асарда яна бир бор таъкидини кўришимиз мумкин. Буни ҳар сайёрага ташрифи асносида ифода этади. Буларнинг ҳар бири мажозий мазмунни ўзида жо қилади. Бу дунёнинг “дардлари” нақадар мағзи пуч эканлигига амин бўласиз.

НАТИЖАЛАР

Кичкина шахзоданинг ҳар бир сайёрага саёҳатини алоҳида тадқиқ этиш ва хулосалар бериш мумкин. Ҳар бир сайёра алоҳида тоифа инсонларини таърифини келтиришида ҳам муайян мақсад ётади. Зеро, бу тоифаларнинг ҳар бири жамиятга бирор фойдаси тегмайдаган кимсаларни типик образи сифатида майдонга келади.

Кичкина шахзода кичик сайёраларни кезиб юрар экан, унга энг яқин бўлган сайёрада ипак-шоҳи либосларга бурканганча қирол яшаши баён қилинади, шоҳ-ку яшайди-я, аммо бу ерда бирор фуқаро йўқ. Ҳукмрон бору, бўйсунувчиси йўқ. Шу ўринда Экзюпери жуда гўзал ҳикматни келтиради.

Ўзингни тергаш, суд қилиб ҳукм чиқариш ўзгаларни суд қилишдан кўра минг карра қийинроқ. Агар ўзингни тўғри суд қила олсанг, демак, чиндан ҳам донишмандсан...

“Кичкина шахзода”дан олинган ушбу иқтибос инсонни катарсис ҳолатига олиб боровчи машғал вазифасини бажаради, зеро, табиатимиздаги нафс деган тушунча барча нарсадан ҳам кўра бизни кўпроқ назорат қиладиган, бўйсунмайдиган катта куч саналади. Уни енгиш инсониятнинг энг катта жасорати сифатида баҳоланади. Ҳазрат Навоий ҳам бу ҳақида:

Беша шерин гар забун қилсанг шижоъатдин эмас,
Нафс итин қилсанг забун, оламда йўқ сендек шужоъ.

дея таъкидлаб ўтади.

Экзюпери эса буни жуда содда ва халқчил шаклда баён этади.

Кейинги астероидда шуҳратпараст яшаши ва у ҳар доим мақтовга муҳтожлигии қаламга олинади ва кичикина шаҳзода буни жуда ҳа зерикарли иш сифатида баҳо беради.

Қайсидир сайёрада ёстикдай китоб ёзувчи олим яшайди. Чол дея таъриф берилишида ҳам маъно бор, бутун умрини шу ишга бағишлаган типик образнинг сиймоси сифатида намоён бўлади. Аммо энг қизиқ томони географ олим сифатида китоб ёзувчи бу олим ҳеч қаерга бормаган, ҳаммасини сайёҳларнинг оғзидан эшитган ҳолда иктовга киритади. Ўйлаб қаралса, география амалий фан сифатида олимдан сайёғатлар, экспедициялар талаб қиладиган соға ва бусиз бирор бир хулоса бериш жуда мушкул. Шу тарзда ёстикдай китобларнинг ёзилиши орқали илм-фаннинг “аҳволи” баён қилинади.

Бу каби тасвирларнинг барчаси ҳам мажозий бўлиб, булар ўша давр жамият ҳақидаги ҳикоялар дейиш мумкин.

Шунингдек, кичкина шаҳзоданинг сайёрасида баобаб ўсиб чиқиш хавфи борлиги, уни вақтида аниқланмаса, бутун сайёрани босиб олиши мумкинлигидан хавотири борлиги айтилади. Мажозан, баобаб ёмонликлар уруғи унинг ёйилиши бутун сайёрани барбод қилиши, нест-нобуд қилиш мумкинлиги айтилади. Бизнинг ҳаётимизда ҳам шундай биргина ёмонлик уруғи бутун жамоанинг орасини бузиши мумкин.

МУҲОКАМА

Руҳингда кечаётган англамсиз ҳислар баъзан олис манзилларга элтади, унда сен ўзингни, ўзлигингни ва албатта, ўзагингни топишинг мумкин. Буни топа олиш эса жуда катта бахт...

Асрлар бўйи инсоният ўзини излайди, баъзан маънавий оламни кезади баъзан моддият ора саросар бўлади, энг ёмони аросатда қолганлар... гўё кўршапалакдек ўзининг қайси қавмдан эканлигини билолмай ҳалак... йўлини йўқотган одамгина бу ҳаётда зерикишни бошлайди. Зерикиш эса уни муқаррар ўлим сари етаклайди.

ХУЛОСА

Кичкина шахзодада ҳар бир жумлани фалсафий таҳлил қилиш мумкин. Керакли хулосаларга келиш мумкин, энг асосийси, бу дунёда мақсадни аниқ қўйиш. Беғараз сева олиш ва унга содиқ қолиш... шугина бахтимизга кафил бўлаолади, дўстлардан яқинлардан кўп нарса кутмаслик ва руҳни қалбни тоза қилиш... Фақат болаларгина бунга эриша олади, инсон жамиятга кирган сари, ёши улғайган сайин, билганлари ортгани сари моҳиятдан узоқлашиб боради..

REFERENCES

1. Antuan de Sent Ekzyuperi (2021) Kichkina shahzoda; Istehkom; Hkmatlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 136-bet;
2. Навоий Алишер (1987) Мукамал асарлар тўплами: 20 томлик. 1-том. Бадойиё ул бидоя. Т.: “Фан”. 724 бет.
3. Улуғбек Ҳамдам (2003). Бадий тафаккур тадрижи. –Т.: «Янги аср авлоди».
4. Улуғбек Ҳамдам (2007). Янгиланиш эҳтиёжи. –Т.: “Янги аср авлоди”.
5. Қахрамонов Қ. (2009). Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
6. Норматов У. (2005). Тафаккур ёғдуси. -Т.: “Фикр-медиа”.
7. Расулов А. (2006). Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: “Фан”.
8. Саримсоқов Б. (2005). Бадийлик асослари ва мезонлари. – Андижон. “Ҳаёт”.
9. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз (2006). –Т.: “Янги аср авлоди”, -548 б.
10. Йўлдошев Қ. Юсупов Ж. (2008). Бадий таҳлил асослари. –Урганч: УрДУ нашриёти.
11. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”си бадияти / “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
12. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Some comments on the etymology of the word “It” (dog) // Экономика и социум" №7(86) 2021, 574-576 бетлар
13. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). “Оқчарлоқ Ливингстон” асарида тариқат мақомлари талқини // Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 3, 325-329-бетлар
14. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Interpretation of dog image in Badoe'u-l-bidoya // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, Volume 2021, Issue 4, 8-1-2021
15. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). The importance of art in depicting the image of a dog (on the example of navoi's lyrics) / “Тилни ўқитиш ва ўргатишда XXI аср кўникмалари” халқаро анжуман.

БАСКЕТБОЛ ЎЙИНИДА ТАЙЁРГАРЛИК ТУРЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Жўрабек Максудбаевич Шукурллаев

Тошкент вилояти ЧДПИ «Жисмоний маданият» кафедраси ўқитувчиси

Айнура Алимбетова Тарғыновна

Низомий номидаги ТДПУ магистранти

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада баскетбол ўйинида тайёргарлик турларининг ўрни ва аҳамияти мазмуни юзасидан кўрсатма ва таклифлар келтирилган.

Таянч сўзлар: баскетбол, жисмоний тайёргарлик, ривожланиш, машғулот, натижа, сифат.

ABSTRACT

This article provides guidance and suggestions on the role and importance of training in basketball.

Keywords: basketball, physical training, development, training, result, quality.

КИРИШ

Инсон болалиқдан турли йўналишдаги ҳаракат малакаларини онгсиз ва онгли тарзда бажаради. Натижада шу ҳаракатлар маълум жисмоний сифатлар (куч, тезкорлик, чаққонлик, чидамкорлик, эгулувчанлик) тусида ривожлана боради. Секин-аста ҳаётий зарур ҳаракат малакалари (юриш, югуриш, сакраш, тўхташ, осилиш ва ҳ.) сайқал топади. Мутахассисларнинг фикрича, асосан шу жисмоний сифатлар ҳаётий зарур ҳаракат малакалари, ўйинлар ёрдамида янада самаралироқ ривожланиши исботлаб берилган. Оилада, мактабгача тарбия муассасаларида, турли босқичдаги таълим масканларида ушбу муаммога ҳар доим ҳам режали ва илмий жиҳатдан ёндашилмайди. Жисмоний машқларни тўғри қўллаш, уларни болалар қандай ўзлаштираётганлигини назорат қилиб бориш, шу болалардаги жисмоний сифатларни унинг қадди-қомати, жисмоний ва функционал тараққиёти тўғри йўналишда тарбияланиб боришига имкон яратади. Маълумки, инсонинг жисмоний сифатлари унинг туғилишидан бошлаб шакллана боради. Лекин, унинг болалигида шу сифатлар қандай даражада шаклланиши,



оддий ёки мураккаб ҳаракатларни ўзлаштириб олиши нафақат уни ўсиб, яшаб келаётган муҳитга боғлиқ, балки боланинг муайян сифатини қандай воситалар ёрдамида ривожлантирилиши билан белгиланади. Шу билан бир қаторда ҳаракатнинг тури, йўналиши ва қандай мақсадга қаратилганлигига (касб, рўзғор иши, спорт, ҳарбий фаолият ва х.) қараб ҳар бир жисмоний сифатни шу ҳаракат ижросидаги ўрни турлича бўлади. Шундай бўлсада, турли касб фаолиятларида ёки спорт турларида шу жисмоний сифатларнинг интеграл аҳамияти ўзига хос улушга эга бўлади. Аммо қандай бўлмасин, кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрича, барча ҳаракат фаолиятида айрим жисмоний сифатларнинг устуворлиги дарҳол кўзга ташланади. Замонавий спорт амалиётида юқори натижаларга эришиш спортчининг узоқ муддат давомида юқори сифатли ва самарали иш қобилиятини сақлай олиш имконияти билан боғлиқдир. Ҳар хил спорт турлари бўйича ўтказилган мусобақалар муддати халқаро мусобақалар қоидалари билан белгиланади. Шу мусобақалар муддатида қайси спортчи ўз иш қобилиятини сифати ва самарадорлиги жиҳатдан қанчалик узоқ вақт сақлай олса ёки уни ошира олиш “кучига” эга бўлса, унга муваффақият шунчалик кулиб боқиши муқаррар. Бошқача қилиб айтганда иш қобилиятининг сифат ва самарадорлик даражасини кўп ёки кам вақт давомида сақланиши умумий ва махсус чидамкорлик сифатларининг турлари (тезкорлик, куч, тезкор- кучга бўлган чидамкорлик, сакрашга бўлган чидамкорлик, техник-тактик чидамкорлик ва ҳақозо) қанчалик ривожланганлиги билан белгиланади. Маълумки, иш қобилияти ҳақида гап кетганда, айниқса сўз унинг сифати ва самарадорлигига тегишли бўлса, масаланинг моҳияти ва пировард “мағизи” бошқа жисмоний сифатларнинг шаклланган ёки шаклланмаганлигига бориб тақалади. Яъни самарали натижага мос урм ва махсус чидамкорлик, куч, тезкорлик, чаққонлик, эгулувчанлик, сифатларини ўзида мужассам қилган бўлади. Ушбу сифатларнинг ўзаро узвий боғлиқлиги ва уларнинг юксак даражадаги интеграл натижаси техник-тактик маҳорат тақдирини белгилаб беради. Жисмоний тайёргарлик - тайёргарлик турларидан бири бўлиб, баскетболчи организмни ривожлантириш, уни жисмоний сифат ва қобилиятларини такомиллаштириш ҳамда ўйин фаолиятини самарали амалга оширишни таъминловчи мустаҳкам пойдевор яратишга қаратилади. Замонавий баскетбол шуғулланувчиларидан нихоятда катта куч, тезкорлик, чаққонлик, чидамкорлик ва эгулувчанлик сифатларини талаб қилувчи спорт ўйинлари турига мансубдир.



АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳар бир ўйин давомида кескин ўзгарувчан йўналишлар бўйлаб турли вазиятлар таъсирида кўплаб ижро этиладиган ўта тезкор техник-тактик ҳаракатлар баскетболчидан катта куч, тезкорлик, чаққонлик ва эгилувчанлик сифатларини талаб қилади. Ўз навбатида ўйинчи организмнинг функционал жиҳатдан мукамал шаклланган бўлишини тақозо этади. Бугунги баскетболчи бўйи жиҳатдан 180-195 см ва ундан катта узунликка эга бўлиб, ҳаракатчан тезкор, сакровчан зийрак, зукко, тез фикрловчи, ўткир зеҳнли, майдонда рўй берадиган вазиятни тез фаҳмлаб “фойдали” жавоб қайтара оладиган қобилиятларга эга бўлиши керак. Спортчининг ёши, тайёргарлиги, малакаси, ҳамда спорт тренировкиси даврлари ва вазифаларига қараб жисмоний тайёргарликни мазмуни, ҳажми, шиддати ва йўналиши турлича бўлади.

НАТИЖАЛАР

Жисмоний тайёргарликнинг вазифалари қуйдагилардан иборат:

1. Соғлиқни мустаҳкамлаш.
2. Ҳаётий зарур кўникмаларни такомиллаштириш (юриш, югуриш, сакраш ва хоказо).
3. Жисмоний сифатларни ривожлантириш (куч, тезкорлик, чаққонлик, чидамкорлик, эгилувчанлик).
4. Ҳаракат малакалари ҳажмини ошириш ва уларнинг ижройи чегарасини кенгайтириш.
5. Организмнинг ўйин давомида иштирок этувчи орган, бўлим ва мушак гуруҳларининг функцияларини шакллантириш.
6. Ўйин малакаларини самарали ўзлаштиришга имкон яратувчи махсус сифатларни ривожлантириш.

Жисмоний тайёргарлик умумий (УЖТ) ва махсус (МЖТ) жисмоний тайёргарликка бўлинади. Умумий жисмоний тайёргарлик спорт тренировкасини муҳим вазифаларидан бири сифатида шуғулланувчиларнинг тўлақонли жисмоний тараққиёти ва ҳар томонлама жисмоний тайёргарлигини таъминлашга қаратилади. УЖТ зарур ҳаётий малакаларни такомиллаштиришга ва асосий жисмоний сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган жараёндир. Мақсади МЖТнинг пойдевори бўлган УЖТ базасини яратишдир.

УЖТнинг вазифалари - асосий жисмоний сифатларни ривожлантириш, организмнинг функционал имкониятларини ошириш ҳаракат малакаларининг ҳажми ва ижройи

чегарасини кенгайтириш ва соғлиқни мустаҳкамлаш, тикланиш жараёнини фаоллаштириш, организмнинг ташқи ва ички салбий таъсирларига бўлган бардошини оширишдан иборат. УЖТ жараёни умумий жисмоний сифатлар - тезкорлик, куч, чаққонлик, чидамлилик ва эгулувчанликни ривожлантиришга қаратилади. УЖТ - жисмоний сифатларни аълоҳида ёки биргаликда ривожлантирувчи ўзига хос жисмоний машқлардан иборат бўлади. УЖТни амалга ошириш жараёнида ҳар-хил спорт ускуналаридан, анжомлардан, тренажорлардан ва табиат омилларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Спорт тренировкасининг айрим босқич ва даврларида УЖТ машқлари ва машғулотларининг ҳажми, шиддати, йўналиши ва тузилиши ўзига хослиги билан фарқланади.

Махсус жисмоний тайёргарлик - танланган спорт турида юқори натижаларга эришиш мақсадида шу спорт турида асосий ва ҳал этувчи аҳамиятга эга бўлган жисмоний сифатларни ривожлантиришга йўнал-тирилган жараёндир. Вазифалари: - баскетболга хос махсус ҳаракат сифатлари ва қобилиятларини (тезкорлик, куч-тезкорлик, чаққонлик, махсус чидамкорлик ва х.) ривожлантириш. - ўйин техникасини ўзлаштиришда зарур бўлган комбинatsияларни ривожлантириш: - ўйин тактикасини ўзлаштиришда зарур бўлган комбинatsияларни ривожлантириш: МЖТ спорт тренировкасининг барча босқич ва даврларида ҳажм ва шиддат жиҳатидан муносиб меъёрда қўлланилади.

ХУЛОСА

Жисмоний тайёргарликнинг услублари Шуғулланувчилар учун зарур бўлган жисмоний сифатларни тарбиялашда қуйидаги услублардан фойдаланилади. Базавий умумий чидамлиликни тарбиялаш бир текис узоқ муддатли югуриш. Махсус чидамлиликни тарбиялашда ўзгарувчан характердаги ишларни бажариш. Такрорий машқ усули. Бу усул тезкорлик, куч ва чаққонлик сифатларини ривожлантиришда қўлланилиб, бунда дам олиш оралиқлари организмнинг тўлиқ тикланишига имкон яратиши зарур. Оралиқ услуб. Бу услуб асосан тезкорлик ва чидамкорлигини тарбиялашда қўлланилади. Бунда иш ва дам олиш катъий равишда тартиблаштирилади. Дам олиш оралиғи одатда катта бўлмайди. Алмашинувчи машқ усуллари бу усулнинг муҳим томони машқнинг боришига қараб таъсири бир мақсадга қаратилган ҳолда ўзгаришидир. Бунга турли ҳолларда турлича нагрузка (ҳаракат тезлиги, иш ҳажми

муддати, ва ҳақозо) нинг айрим кўрсаткичларини тўғри ўзлаштириш (ҳаракат услубини навбатлаштириш, шунингдек, дам олиш оралиқлари ва фаолиятининг ташқи шароитларини ўзгартириш) йўли билан эришилади. Организмнинг функционал имкониятларига одатдагидай бўлмаган, яъни тобора каттароқ талаб қўйилади ва бу билан уларнинг ривожланиши учун имкониятлар яратилади. Шу билан бирга, ҳаракат шакли ва шароитини янгилаб туриш туфайли ўзлаштирилган малакаларнинг динамик стереотипига ўзгартиришлар киритилади. Шуғулланувчиларда жисмоний сифатларни тарбиялаш учун берилаётган машқлар уларнинг ёш хусусиятларига ва жисмоний сифатларининг қулай ёш даврларига қараб танланиши ва ривожлантирилиши жуда муҳим ҳисобланади.

REFERENCES

1. Утепбергенов А.К. Шукурллаев Ж. М. PRELIMINARY STAGES OF DIDACTICS IN THE PROCESS OF AKMEOLOGICAL APPROACH TO VOLLEYBALL SPORTS. 28-31. METHODOICAL RESEARCH JOURNAL. Шукурллаев Ж.М. Бошланғич синф ўқувчиларини волейбол спорт турига саралаб олиш усулларини такомиллаштириш. “Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш: назария ва амалиёт” мавзусидаги онлайн ҳалқаро илмий-назарий анжуман. 2020-йил 28-апрел.
2. Жўрабек Мақсадбаевич Шукурллаев ВОЛЕЙБОЛ СПОРТ ТУРИДА ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК АКМЕОЛОГИЯСИ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021
3. Утепбергенов А.К, Шукурллаев Ж.М. Особенности акмеологического подхода и системы дидактического обоснования развития физических качеств у школьников средствами волейбольного. Экономика и социум №3(82) 2021.
4. Шукурллаев Ж.М. Ўқувчи ёшларни волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020 2-октябр.
5. Жисмоний тарбия ва спорт журнали. 2018-йил.
6. Шукурллаев Журабек Мақсадбаевич. Волейбол спорт тури воситасида мактаб ўқувчиларида жисмоний сифатларни ривожлантиришда акмеологик ёндашувнинг дидактик имкониятлари. Халқ таълими. № 5 2021 йил 28-30-бет.
7. Шукурллаев Журабек Мақсадбаевич. Кластер ёндашув асосида волейболчиларнинг жисмоний кўрсаткичларини ривожлантириш. Халқ таълими. № 5 2021 йил 57-59-бет.



8. Шукурллаев Ж.М. Бошланғич синф ўқувчиларини волейбол спорт турига саралаб олиш усулларини такомиллаштириш. “Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш: назария ва амалиёт” мавзусидаги онлайн ҳалқаро илмий-назарий анжуман. 2020-йил 28-апрел.
9. Шукурллаев Журабек Максадбаевич. ВОЛЕЙБОЛ СПОРТ ТУРИДА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАТСИОН КЛАСТЕР ЁНДАШУВ. ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ “ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР” халқаро илмий-амалий анжумани.
10. Шукурллаев Ж.М. 7-14 ёшли мактаб ўқувчиларини волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў” 2-сон. 2019-йил. Некис.ш. Б.153-156.



MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLARI

Gulnora Ulashovna Xolboyeva

TerDUPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim tashkilotining eng muhim vazifalaridan biri bu bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlab erish hisoblanadi. Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o'rin egalash istagi tuziladi.

Kalit so'zlar: "Maktab yoshi", "maktabga tayyorgarlik", "maktabga psixologik tayyorgarlik", "Maktab yoshiga yetgan" differensial, Nazorat funksiyasi

KIRISH

Bugungi kunda Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotining eng muhim vazifalaridan biri bu bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlab erish hisoblanadi. "Maktab yoshi", "maktabga tayyorgarlik" va "maktabga psixologik tayyorgarlik" – bu tushunchalar psixologiyada bolaning psixik rivojlanish darajasini belgilashda qo'llaniladi. Shunda bola maktabda o'qishi, bilim olish mumkin. Bunday farqlash quyidagi tahlillarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Maktab yoshiga yetgan" tushuncha psixologlarda ishlatiladi, chunki bolaning psixik rivojlanishi ta'lim olishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun maktab yoshiga yetibdi, deb gapirilganda asosan bolaning psixologik yetuklik darajasi nazarda tutadi. Shunday qilib, psixik funksional o'sishi maktabda bilim olishni ta'minlaydi.

Ko'pgina adabiyotlarda maktabga yetukligining uch pog'onasi mavjud: intellektual, emotsional, va ijtimoiy. Intellektual yetuklikni quyidagi ko'rinishlarda ko'rish mumkin:

- differensial qabul qilish, bunda umum ko'rinishdan shakl ko'rinishning kirishi;
- e'tiborni jamlash;
- hodisalar oralig'idagi asosiy bog'liqlikni ko'rsata bilish;
- ko'rish orqali eslab qolish;
- namunani qayta tiklash qobiliyati;
- qo'lning yengil harakatlanishini rivojlantirish.

Shuni aytish mumkinki, intellektual yetuklik bosh miya tuzilishining rivojlanishi funksional ko'rinishning me'yorini kuzatish mumkin.

Emotsional yetuklik shuni nazarda tutadi.

- impulsiv reaksiyalarning kamayishi;
- hohlamagan ish bilan uzoq vaqt shug'ullanish.

Ijtimoiy yetuklik haqida:

- bolaning o'z tengdoshlari bilan muloqot va o'zining xulq – atvorini

bolalar guruh qonun qoidalariga bo'ysundirishni bila olish;

- maktabda ta'lim olishda o'zini o'quvchi sifatida tuta bilishi:



“maktabga tayyor” degan tushunchaning ma’nosi bir hil emas. Bu borada ishlab chiqilgan ilmiy ishlar bir talay. (ularning ko‘p qismini Amerikalik psixologlardir), ularning barchasida bolaning maktabga tayyorligi “kirish bilimlari”, ya’ni bolaning bilim olishiga tayyorligi. Oxirgi muallif, o‘zida maktab dasturini yaxshi darajada o‘zlashtirish, bilan, mahorat.

“Maktabga tayyor” tushunchaning boshqa turi xaqida psixologlar ta’kidlagan, ya’ni L.S.Vigotskiydan so‘ng izdoshlari bilim berish rivojlanishini o‘z ilmiy izlanishlarida aks ettiradi. Bu izlanish quyidagilarni ta’kidlashga olib keladi. Bilim berishni boshlashni amalga oshirish qachonki psixologik funksiyalarning bilim berilishida yetuklik darajasi hali yetmagan shuning uchun psixologik, ruxiy yetuklikni bilib berilishda funksional o‘rinda ko‘rilishi lozim emas. Bundan tashqari, bu izlanishlarni ishlab chiqilishi borasidagi mualliflar shuni ta’kidlashadi-ki, bolaga maktabda bilim berishning muvaffaqiyati faqatgina bolaning bilimi, mahorati va uning qobiliyati muhim o‘rin egallamaydi, balki bolaning shaxsiy va intellektual rivojlanishi darajasini aniqlash va u psixologik holatning maktab darajasida bilim berilishiga omil bo‘ladi. Mana shu holatni biz oldingi holat bilan chalkashtirmaslik uchun ikkinchi holatni “maktabga ruxan tayyor” deb ajratib olamiz.

Bojovich M.I. (1968 y) bolaning maktabga ruhan tayyorligining ikki yo‘nalishini ko‘rib, ajratib chiqqan. Bular: shaxsiy va intellektual tayyorlik.

Maktabga intellektual tayyorgarlikni tavsiya berishda asosiy urg‘uni bolaning jixatlarining sanog‘iga emas, balki uning rivojlanish jarayonining intellektual darajasiga qaratish lozim. Vigotskiy L.S. va L.I.Bojovichlarning nuqtai nazaridan bola maktabga intellektual tayyorligi, uning qamrab olgan tashqi dunyodagi hodisalar va predmetlarga umumlashtiruvchi tushunchalarini yetkazib berish.

Barcha ko‘rinishlarni taxlil qilishda o‘quv faoliyatini o‘zlashtirish borasida Elkonin D.B. (1981-1989) va uning safdoshlari quyidagilarni birinchi o‘ringa qo‘yadi:

- bolaning o‘zi bilgan holda qonuniy xatti xarakat qilishga bo‘ysundirish, bunda xarakat turlarini umumlashtirish;
- berilgan talablar tizimiga qanoat qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabda berilgan bilimlar yo‘sinida shu narsani ko‘zdan qochirish kerak emas, bu bolaning nutq rivojlanish sifatini. Nutq rivojlanishi intellekt rivojlanishi bir biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bu esa bolaning umumiy rivojlanishini ko‘rsatadi. Shu yo‘sinda o‘ylash qobiliyat darajasini yaqqol namoyon etadi. Bundan tashqari, hozirgi kunda qo‘llaniladigan bilim berish va o‘qish uslubi, so‘zlashuvning va nutqning ovoz chiqarilishi tahlili bilan asoslanadi, bunda fonetik tinglash rivojlanadi.

Maktabga shaxsiy jixatdan tayyorgarlik bo‘yicha bilim berishni tavsif etishda avvalom bor bolaning motivatsion va erkin muhit rivojlanishini ko‘zda tutish lozim.

Bilim berish uslubining aniqliligi o‘qitish faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bularga “bolalarning bilim, qiziqishlari, intellektual faolikka talabchanlik, va yangi bilimlar chanqoqligi” (L.I. Bojovich 1972. 23 bet).

Bilim berishning ijtimoiy motivlari, keng ko‘lamdagi ijtimoiy qirralarni, “bolaning boshqa odamlar bilan muloqot qilish talabi, ularni baxolash qo‘llab – quvvatlash, umumiy jamoa tizimidagi aloxidagi o‘rin egallashga imkon berish xoxishini” birlashtirish.

Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o‘rin egalash istagi tuziladi. Aniqrog‘i kattalar hayotiga yo‘l ochilishdir. Shuning uchun unda bilim talabi mavjuddir. Bu talablarga bola uyda qoniqish topa olmaydi. Bu ikki talabning qo‘shilishi bolada tashqi muhitga bo‘lgan munosabatning yangi qirralarini namoyon etadi. L.I. Bojovich tomonidan “O‘quvchining ichki dunyosining ko‘rinishi” deb nomlanadi. Bu yangi bilim berishga u juda katta e’tibor ajratgan, chunki



bunga katta baho bergan, chunki u maktab o'quvchisining ichki kechinmalari uning maktab dargohida bilim olishga tayyorligini aniqlab beradi.

Maktab o'quvchisining ichki kechinmasi maktab yoshgacha va kichik maktab yoshi davrida paydo bo'ladi, shunda bolaga o'quv jarayoniga sube'kt faoliyati sifatida kirishga imkon beradi. Bu maqsad va ko'zlangan ishlarni bajarilishining tuzilishini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining erkin xarakati.

Maktab bilimni olish chanqoqoligi bolada asosan maktab yoshiga yetganda (7 yoshlarga yaqin) paydo bo'ladi. Shunda bola o'zida xulq-atvor va faoliyatini birlamchi olib borish g'islari paydo bo'ladi. (L.I.Bojovich. 1968.)

XULOSA

Bolada erkin harakat holati jamoatchilik o'yinlar o'tkazilishi mobaynida paydo bo'ladi. Bu esa bolaning rivojlanish pog'onasi asta ko'tariladi, yolg'iz o'yin o'tkazishda bunday natijaga erishilmaydi. Jamoatchilik namuna sifatida ko'rsatilgan narsaga tahlid qilishini bartaraf etadi, chunki bolaga yolg'iz nazorat o'tkazish juda qiyindir. Nazorat funksiyasi hali juda kuchsiz, va xodisalarga tashqi tomondan qo'llab-quvatlash talab etiladi. O'yin qatnashchilari bundan mustasno emas. Mana shu tomonlar juda nozikdir, lekin o'yinlarni erkin harakat maktabi deb xisoblash mumkin. Maktabga chiqish vaqtiga kelganda bolaning barcha qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi lozim, shundagina bola oldiga qo'yilgan vazifalarni mustaqil ravishda qabul qilishi va bajarish yotadi. Boshqacha qilib aytganda birinchi sinf o'quvchisi maktabda bilim olishga tayyor bo'lishi, keng qamrovdagi o'quv jarayonini qabul qila olishi lozim. O'quv qirralarini yangi bilim berish deb ko'rish mumkin u maktab yoshigacha bo'lgan davr oxirida paydo bo'ladi. U asosan bola uchun yengilik bo'lib, yetakchi faoliyat turi-o'quv jarayon, bu xolat oldingi faoliyat tugashi bilan, ya'ni o'yinlar o'rniga o'qish faoliyati boshlanadi. Buning ichida bolaning psixologik holati shakllanadi. Maktab yoshigacha bo'lgan davrning yakunida bolalik o'yinlari asta-sekinlik bilan orqaga tisarilib, uning o'rniga bilim olish tuyg'usi paydo bo'ladi. (bu esa rivojlanishning psixologik mexanizmi deb qaraladi) shu shart zaylida bola barcha bolalik o'yinlari rivojlanishining pog'onalaridan oshib o'tgan bo'ladi. Vigotskiy A.S. ta'kidlaganday, o'yining rivojlanish jarayoni asta-sekinlik bilan uning o'rnini kamayadi va qoidalar o'rnini asta ko'tarila boshlaydi. Katta bog'cha yoshidagi, ayniksa, 6 yoshdan to 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda qoidali o'yinlar ko'proq o'ziga jalb etadi, xarakatni koida asosida bajarish o'yining asosiy mavzusiga aylanadi. Shunday qilib o'yin turlari o'rnini bilim olishga yo'naltirishga asos solinadi. Bu esa bolani o'quvchi o'rnida his etishi va turli qoidalarga bo'ysinib, harakatlar bajarilishiga olib keladi.

REFERENCES

1. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
2. X.Axmedova va boshqalar.Bolangiz maktabga tayyormi? — Toshkent, 2000 y.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". Darslik-T "Tafakkur" 2019.
4. SH.A.Sodiqova "Maktabgacha Pedagogika" darslik "Tafakkur Sarchashmalari" T-.2013 y
5. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika"."TDPU" nashriyoti T:. 2013y

MILLIY KURASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ismat Musurmonovich Qirg'izov
Jizzax Politexnika instituti dotsenti

ANNOTATSIYA

Milliy kurash, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkamayakka olishuvi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olib kelgan. Ushbu maqolada milliy kurashning rivojlanish bosqichlari, kurash haqida buyuk allomalar, shoh va shoirlarning qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kurash, qoida, yonbosh, dzyudo, sport.

ABSTRACT

National wrestling is a one-on-one fight between two athletes according to a set rule. The art of wrestling has been known in many nations since ancient times. Wrestling is especially popular in Greece and has been a regular feature of the ancient Olympics. This article analyzes the stages of development of the national struggle, the views of great scholars, kings and poets on the struggle.

Keywords: wrestling, rule, sideways, judo, sports.

KIRISH

Butun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonayotgan. millionlarni o'ziga mahliyo etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir.

Tarixshunos, qadimshunos, elslumos va faylasuf olimlarning olib borgani tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlar, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar Kurashning yoshi kamida 2,5 - 3 ming yildan ziyodligini isbotlaydi.

Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asori-atiqalari, qoyalarga bitilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq shohidlik beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma-ashyoviy dalil mavjud.

Chunonchi, Panjkentdan topilgan kurashayotgan ikki



pahlavonning devoriy rasmi Sug'diyona davlatchiligiga, ya'niy o'rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. Shunday ashyolardan biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy "o'zbekiston") hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qo'llarini ko'tarib kurashga shaylanayotgani holda o'z ifodasini topgan. Bu idishlar bronza davriga oid bo'lib, u kurashning tarixi yanayam ko'proq, ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi.

Navbatdagi topilma bronza davriga oid ikkita ot ta'qasidir. Kurash usullari tasvirlangan har ikkala taqa, professor M.P.Gryaznovning yozishicha, sak-skif qabilalarining ma'naviy qarashlari ruhida ishlangan bo'lib, ko'chmanchilik davrining dastlabki bosqichlariga oiddir.

Milodiy birinchi ming yillikning o'rtalariga oid kumush cho'mich gardishi sirtida ham ikki pahlavonning kurashichimizga xos olishayotgan holati tasvirlangan.

Samarqand yaqinidagi Chelak qishlog'idan topilgan ashyolar ham o'tmishdan sado beradi. Geometrik naqshlar solingan Ushbu idishlar orasida kumush bastali qadoqcha, ayniqsa, e'tiborni tortadi. Uning dastasi sirtida ikki polvon huddi O'zbek Kurashi usulida olishayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o'rta asrlar davriga oiddir.



Benazir alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham "Tib qonunlari" kitobida kurash insonning ruhiy va jismoniy holatida alohida ahamiyat kasb etishiga urg'u bergani bejis emas. Buyuk tabibning yozishicha, badan tarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchi kishi kasallikning davosiga muhtoj bo'lmaydi.

Sharq adabiyoti durdonalari hisoblamnish "Shohnoma", "Qobusnoma", "Boburnama" singari asarlarda ham polvonlari siyrati-yu qiyofasiga oid yorqin chizg'ilar, ularni no'naviy olamini serjilo rangli tasvirlar aks etgan.

Alisher Navoiy hazratlari ham kurashdan, uning dovrig'ini yetti iqlimga taratgan polvonlar baxsidan huzurlangan. Shu bois kuplab asarlarda pahlavonlar hayoti va faoliyatiga oid ajoyib-g'aroyib voqealar, lavhalarini yozib qoldirgan. Polvonzodalarga bag'ishlangan maxsus «Xoloti Palilavon Muhammad» maniqi (tarjimai hol asari) da ijodkor, o'z davrining tengsiz polvonzodasi Pahlavon Muhammad kurash san'atidan tashqari diniy va dunyoviy ilmlarni, jumladan, astranomiya va matematika, kimyo va falsafa, adabiyotshunoslik va san'atshunoslik, huquqshunoslik va boshqa bilimlarni mukammal egallagan.

O'z zamonasining qudratli saltanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi, ma'rifatparvar hukumdor, salohiyatli sarkarda bo'lib qolmasdan, ayni vaqtda kurash ilmi hadisini mukammal egallagan kuchli polvonsifat siymo ham edi. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni chiniqtirish, vatanni sevguvchi, yurt xizmatiga kamarbasta, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan o'rni esa katta ahamiyat bergan. Sharofiddin Al-Yazdiy «Zafarnoma»sida Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muxabbat» asarida esa sahibqiron Amur Temur davridagi pahlavon Bobohoki (asli Afg'oniston shimolidagi Shibig'on viloyatidan) Uchqora Bahodir (asli Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidan) singari yuzlab benazr O'zbek polvonlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Eramizning IX asrida kurash rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. O'sha kezlarda zamonaviy O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholi an'anaviy bayramlar, to'yhashamlar va yirik jamoatchilik tadbirlari davomida kurashdan ko'ngil ochish va dam olish vositasi sifatida foydalanganlar. Keyinroq kurash ko'ngil ochish vositasidan mustaqil sport turi va jismoniy chiniqish usuliga aylandi. Eng kuchli kurashchilar xalq orasida ma'lumu-mashhur bo'lib, ular haqida afsonalar to'qila boshlandi. XII asrda yashab o'tgan Pahlavon Mahmud buning yaqqol namunasi. Hali-hanuz uning qabri ziyoratchilarning sevimli maskani va muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi.

1980-yillarning boshida mashhur o'zbek kurashi ustasi, dyuzdochi va sambochi Komil Yusupov o'zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Ushbu sport turining qayta tiklanishining faollaridan biri bo'lgan mazkur zotning asosiy maqsadi kurashning xalqaro me'yorlarga mos bo'lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

90-yillarning boshlariga kelib u ushbu sharafli vazifani muvaffaqiyatli ado etib o'zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qildi. Avvaliga u o'zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e'tiboriga havola etdi.

Yangi qoidalar o'zbek kurashining eng ardoqli an'analari va maxsus kiyim bosh, musobaqalarni o'tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport me'yorlarini o'zida mujassam etdi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Sport mutaxassisleri Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari to'laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e'tirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvni davom ettirilishiga yo'l qo'ymaydi. Sportchilardan birining tizzasiga gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to'xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi. Bu hol kurashni tez sur'atlarda olib borilishi va muxlislar uchun qiziqarli va maroqli bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari kurash qoidalari belbog'dan pastki qismni ushlovchi yoki og'riq qo'zg'atuvchi va bo'g'uvchi uslublarni ishlatishni ta'qiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi. 1991 yilda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilishi kurashga yangicha hayot baxsh etdi.

Mamlakatning turli chekkalaridan kelgan minglab kurashchilar musobaqalarda ishtirok etish istagini bildirgan bo'lsa, millionlab kurash ishqibozlari ushbu jozibali musobaqalardan bahra olish ishtiyoqida respublika bo'ylab stadionlarni to'ldirdilar. Kurash faollarining sa'y-harakatlari O'zbekiston bilan chegaralanib qolmadi. Ular 1992 yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada o'tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o'zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh qosh bo'ldilar.

XULOSA

Bundan ko'rinadiki, Kurash o'ziga xos nozik hunar, ilmu- odob qorishmasi, uyg'unlashuvi bo'lib, bunda ustoz va shogirdalar o'rtasidagi o'zaro samimiylilik, hamkorlik, hamrozilik, beg'arazlik, do'stona munosabat ko'p narsani belgilaydi.

Ustoz o'z bilimini, malakasi, shu kurash ilmini o'z shogirdiga qanchalik puxta o'rgata olsa, uning sa'y-harakatini aniq maqsad-muddolar sari yo'naltira olsa, bu albatta o'z samarasini berishi shubhasiz. Buning uchun shogird ham o'z betinim mashqi, iqtidori, iste'dodini muntazam mukammallashtirib, ustoz o'gitlarini jon qulog'i bilan tinglab, qabul qilib, ularga izchil amal qilishi, o'z jismu joniga eng yaxshi xislatu fazilatlarani jo etib borishi ayni muddaodir, Shundagina unda ulug' ajdodlarimizga munosib

vorislik, komil shaxs bo'lib voyaga yetishdek sifatlar tarkib topib boradi.

Kurashni to'liq o'rganishni istagan har bir yigit yoki qiz uning qonun-qoidalariga, etikasi va ahloq-odob tamoyillariga rioya qilmoqlari zarur. U o'z xatti-harakatlari va ahloqi bilan hech qachon o'z vatanining va albatta kurashning obro'sini to'kmasligi kerak hamda hayotining oxirgi daqiqasigacha xalqiga, yurtiga, kurashiga har qanday holatda ham sodiq qolishi kerak.

Shu bilan bir qatorda kurashchilar mashg'ulot vaqtida yoki olishuv paytlarida ortiqcha gapirmasliklari (agar bunga zarurat bo'lmasa), diqqatlarini bir joyga to'plab, boshqa narsalarga qaralmasliklari, bir-birlariga shikast yetkazmasliklari, biror usulni o'rganish uchun kurashayotgan vaqtlarida ham bir-birovlarini kurash yaktaklarida biror kamchilik bo'lsa darrov sheriklariga bildirishlari zarurdir.

REFERENCES

1. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. K.Yusupov G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot T. 2005 y.
2. Kurash A.Atayev T. «O'qituvchi» 1987 y.
3. Jismoniy tarbiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.S.Usmonxo'jayev, S.G.Arziqulov, V.A.Qodirov. T. «O'qituvchi» 2003 y.



SONLI TO‘PLAMLARNI KENGAYTIRISH MASALASI: KOMPLEKS SONLAR – O‘QITISH

R. Jo‘raqulov

f.-m.f.n., dotsent, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, e-mail:
rdjurakulov47@gmail.com

D. Sh. Toshpo‘latov

i.f.n., dotsent, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, e-mail:
dilshod752@rambler.ru

ANNOTATSIYA

Maqola o‘qitish uslublarining ba’zi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jumladan tushuntirishdagi soddalik va o‘quv dasturlarining ba’zi spetsifik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘qitish, kompleks sonlar, matematik tushuncha, soddalik, qiziqarlilik, o‘quv dasturi, klassik uslub.

ABSTRACT

The article is devoted to some issues of teaching methodology, questions of simplicity and accessibility, as well as the specifics of educational materials and programs.

Keywords: Education, complex numbers, mathematical concept, simplicity, accessibility, curriculum, classical method.

KIRISH

O‘qitish jarayonining samarali kechishi, uning kutilgan natijani berishi ko‘plab jihatlarga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri – soddalikdir. Qanday mavzu yoki tushunchaligidan qat’iy nazar, ayniqsa yangi mavzuni berishda uni tabiiy xarakterga ega, sodd misollar bilan boshlab bu tushunchaning ahamiyati va rolini asoslab ko‘rsatish va bu jarayonda o‘quvchilarda “ishonch” paydo bo‘lishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarda bu tushunchani qabul qilish jarayonida “rag‘bat” paydo bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga egadir. Bunda ayniqsa imkon qadar “qiziqarlilik” ham albatta ijobiy natija beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi axborot texnologiyalari asri deb atalayotgan zamonda o'quvchilarga matematik ta'limga rag'batini oshirish juda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda o'qitishda "qiziqarlilik" tamoyiliga alohida urg'u qaratish lozim.

Bu borada bir qator ishlarda, masalan [1-4] adabiyotlarda va [5-6] maqolalarda bu jarayonga alohida to'htalib o'tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida o'qitish muammolarining aynan shu jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Mavzu haqiqiy sonlar to'plami ustida ketar ekan uni o'quvchilarga turli shaklda taqdim etish mumkin.

Albatta bu mavzu natural sonlar to'plamidan boshlanadi. Dastlab bu to'plamda qanday amallar o'rinli bo'lishi o'rganiladi, aniqrog'i o'quvchi bilan birga muhokama qilinadi, ya'ni ularda to'plamda qo'shish va ko'paytirish amallari o'rinli ekanligiga ishonch hosil bo'ladi.

1-izoh. Agar to'plamda qo'shish va ko'paytirish amallari o'rinli bo'lsa, bunday to'plam halqa tashkil etadi deyiladi.

Natural sonlar to'plamida ayirish amali o'rinli emas. Bu, ya'ni manfiy son tushunchasini o'quvchilarga birgina oddiy misol bilan osongina tushuntirish mumkin, masalan, o'quvchining boshqasida 5 ta daftar haqi bor yoki 5 ta daftar qarzi bor. Bu ikkala "5" larni o'zaro farqlash uchun birining oldiga "-" (minus) ishora qo'yiladi.

Shu tariqa natural sonlar to'plami barcha manfiy sonlar va "nol" hisobiga kengaytirilib, butun sonlar to'plami quriladi.

Endi esa uzunlikni o'lchash masalasini qaraylik. Tabiiyki, bu jarayonda uzunlik birligini bir necha bo'laklarga bo'lishga ehtiyoj tug'iladi: masalan metr – uzunlik birligi teng ikkiga bo'linib, ulardan bittasi olinsa, u holda bu $50 \text{ sm} - \frac{1}{2} \text{ m}$ deb yoki birlik 1 kg teng besh bo'lakka bo'linib, masalan ikki bo'laki olinsa, bu $400 \text{ gr} - \frac{2}{5} \text{ kg}$ deb belgilanadi va h. k. Shunday qilib ratsional son tushunchasiga kelamiz. Butun sonlar to'plami barcha musbat va manfiy kasr sonlar hisobiga kengayib, ratsional sonlar to'plamini hosil qiladi.

Bu to'plamda qo'shish va ko'paytirish amallari bilan bir qatorda bo'lish amali ham o'rinlidir.

2-izoh. Agar to'plamda bo'lish amali ham o'rinli bo'lsa, bunday to'plam maydon deb ataladi.

Keyin esa

$$x^2 - 2 = 0$$

tenglamani echish yoki boshqa biror misol orqali o'quvchilarga irratsional son va umuman haqiqiy sonlar to'plami tushunchasini osongina etkazish mumkin.

Biroq kompleks sonlar haqida bunday bo'lmaydi.

Manbalarda bu tushuncha an'anaviy tarzda quyidagi ta'rif bilan boshlanadi:

Ushbu

$$z = a + bi$$

ko'rinishdagi son kompleks son deb ataladi.

Avval quyidagi yoki boshqa biror shunga o'xshash tenglamani qarash mumkindir:

$$x^2 + 4 = 0,$$

Ya'ni

$$x^2 = -4$$

va tushuntiramizki, kvadrati "-4" ga teng bo'lgan son haqiqiy sonlar to'plamida mavjud emas. Shuning uchun yuqoridagi tenglamani

$$x = \pm\sqrt{-4} = \pm 2\sqrt{-1}$$

kabi o'zgartirib, $\sqrt{-1} = i$ belgilash bilan quyidagini hosil qilamiz:

$$x = \pm\sqrt{-4} = \pm 2i.$$

Shu tariqa avval kompleks sonning ta'rifi va so'ng ular ustida amallar bajarish qoidalarining bayoniga o'tish mumkin va h.k.

Ba'zi manbalarda kompleks son tushunchasini quyidagi shaklda ham kiritiladi:

Ushbu tartiblangan bir juft haqiqiy son (a, b) kompleks son deb ataladi. So'ng kompleks sonlar ustida amallar bajarish qoidalari beriladi.

Masalan, ikki (a, b) va (c, d) kompleks sonning yig'indisi quyidagicha aniqlanadi:

$$(a, b) \pm (c, d) = (a \pm c, b \pm d).$$

Ularning ko'paytmasi uchun esa quyidagi ifoda qabul qilinadi:

$$(a, b) \cdot (c, d) = (ac - bd, ad + bc).$$

Bo'lish amalini bajarilish qoidasi esa quyidagicha:

$$(a, b) : (c, d) = \left(\frac{ac + bd}{c^2 + d^2}, \frac{bc - ad}{c^2 + d^2} \right).$$

Tushunchalarni bunday usulda bayon etishni "formal" usul deb atash mumkin: Agar shunday usullar o'quvchilar uchun

samarali bo‘lganda edi, masalan kasr tushunchasini ham xuddi shu taxlitda kiritish mumkin edi:

Kasrlarni qo‘shish

$$(a/b) \pm (c/d) = (ad \pm bc)/bd,$$

ko‘paytirish

$$(a/b) \cdot (c/d) = ac/bd$$

va bo‘lish amali esa

$$(a/b) : (c/d) = ad/bc$$

qoida bo‘yicha kiritilishi haqida aytish mumkin.

Qanday tushuncha yoki mavzu bo‘lishidan kat’iy nazar jumladan kompleks son tushunchasini ham o‘quvchiga bayon qilishda ularda bu tushunchaning qanchalik real ekanligiga ishonch paydo bo‘lishi muhimdir.

Kompleks sonlar doirasida ba’zi, masalan

$$i = \sqrt{-1} \quad (i^2 = -1) \text{ yoki } i^{21} = i$$

kabi tengliklarga nisbatan gumon uyg‘onishi tabiiydir. Chunki ulardan birinchisi, ya’ni $i = \sqrt{-1}$ - sun’iy belgilash bo‘lsa, ikkinchisi esa bir tomondan

$$i^{21} = i^{20} \cdot i = (i^4)^5 \cdot i = 1^5 \cdot i = i$$

bo‘lib, ikkinchi tomondan:

$$i^{21} = i^{20} \cdot i = \left(i^{\frac{21}{4}}\right)^4 = (i^4)^{\frac{24}{4}} = 1^{\frac{24}{4}} = 1.$$

Bunda albatta ildiz chiqarish amali halaqit beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, maktab matematikasini qaysidir ma’noda dastlabki matematik ta’lim deb hisoblansa, u holda o‘quv dasturlarini tuzishda, ayniqsa mavzularni tanlashda bu sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Zero, kompleks sonlar yoki shunga o‘xshash ba’zi mavzularni dasturga kiritmaslik maqsadga muvofiqdir.

Bunday mavzular matematikadan mukammalroq nazariy bilim olayotgan universitetning matematik – talabalari, shuningdek amaliy matematika sohasida ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxassislar uchun zarurdir.

Odatda, matematik ta’lim bir necha bosqich - darajalarga bo‘linadi. Shuningdek, dasturlarni tuzishda, ularning xususiyatlarini hisobga olish, o‘qitish metodologiyasi, uning pedagogik jihatlari, yana “sof matematika” va “amaliy matematika” to‘g‘risidagi hamda boshqa masalalar

ustida turli xil fikr, bahsli munozaralar davom etadi. Misol sifatida shu sohaga aloqador [1-6] manbalarni qarash mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki qaysi bosqich bo'lmasin o'qitishning "klassik uslubi" doimo asosiy uslub bo'lib qolaveradi. Bu alohida mavzu bo'lib, bu mavzuga yana qaytamiz.

XULOSA

Xulosada D.Gilbertning birgina so'zini keltiramiz [3]:

"Mashg'ulotlarda qo'pol, beso'naqay misollarning zaruriyati yo'q. Ma'ruzalarda soddalashtirishlar ko'paytirish jadvali darajasida bo'lishi etarli".

REFERENCES

1. Л.Д.Кудрявцев. О современных тенденциях математического образования, во высших технических учебных заведениях. Сборник научно-методических статей по математике. М. Наука, 1977.
2. Б.В.Гнеденко. Роль преподавателя вуза в Научно-техническом прогрессе. Математика. М. ВШ, 1974.
3. Р.Констане. Гильберт. М. Наука, 1977.
4. Д.Пойа. Математическое открытие. М. Наука, 1970.
5. Р.Журакулов, Р.А.Умаров. Об обучении в преподавании: простота – доступность. Перспективы развития высшей школы. Материалы XIV международной конференции, ГТАУ, Гродно, 2021.
6. Р.Джуракулов, Р.А.Умаров. Преподавание – это искусство. Экономика и социум. Вып. № 11, 2021.
7. RA Hakimov, DS Toshpo'latov. (2021). Blended learning asosida o'quv jarayonini tashkil etish masalalariga doir. *Academic research in educational sciences*, 2(4). 209-215.
8. Jo'raqulov, R., Toshpo'latov, D. S. (2021). Matematika fanini o'qitishda ajdodlar merosi. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 287-292.
9. SA Akbarov, D Sh Toshpo'latov, R Jo'raqulov (2021). Matematik ta'lim: o'qitishda innovatsion usullar. *Academic research in educational sciences*, 2(7), 103-111.

MARKAZIY OSIYODA BAHS-MUNOZARA ODOBI SHAKLLANISHI VA UNDA MUTAFAKKIRLARNING O'RNI

Qahramon qizi Guzal Salimova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti

sevda_1222@list.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar tomonidan olib borilgan bahs-munozara qilish odobi va ular amal qilgan axloqiy me'yorlar tahlil qilinadi. Allomalar tomonidan olib borilgan bahs-munozaralar turli xil mavzular doirasida bo'lib, har bir munozarada bir necha savol va javoblar bo'lgan. Bu ilmiy munozara va olimlar o'rtasidagi savol javob qilish axloqiy me'yorlari jadal qilishning o'ziga xos uslubini amaliyotga tatbiq etgan.

Kalit so'zlar. Bahs-munozara, axloq me'yorlari, Arastu, Beruniy, ibn Sino, Ma'sumiy, bahs-munozara qilish axloqiy me'yorlari

ABSTRACT

This article analyzes the etiquette of the debate conducted by Abu Rayhan Beruni and Abu Ali ibn Sina and the ethical norms they followed. Discussions by scholars were on a variety of topics, with several questions and answers in each discussion. It has put into practice a unique way of accelerating the scientific debate and ethical question-and-answer ethics among scholars.

Keywords: Debate, ethics, Aristotle, Beruni, Ibn Sina, Masumi, debate ethics.

KIRISH

Sharq xalqlari tarixiy rivojlanishining bir qancha manbalari bo'lib, ulardan biri Sharq axloq me'yorlari qoidalaridir. Bu manbalarda axloq tamoyillari va me'yorlarining namunalarini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat axloq me'yorlari va tamoyillari jamiyatning har qanday muammolarini hal qilishda tayaniladigan, necha asrlar davomida xalqimiz tomonidan shakllantirilgandir. Hozirda globallashuv davrida rivojlanayotgan "ommaviy madaniyat" va "nigilizm" kabi illatlarga qarshi kurashishda ham aynan axloq qonun-qoidalariga tayanishimiz zarur. Yurtimiz allomalari, xattoki, ilmiy bahs-munozaralar paytida ham axloqiy me'yorlarga amal qilganlar. Bunga misol tariqasida Abu Rayhon

Beruniy va Abu Ali ibn Sino tomonidan olib borilgan ilmiy bahs-munozaralarni keltirishimiz mumkin. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz namuna tarzida keltirayotgan bahs-munozaramiz ibn Sino va Beruniy yozishmalariga oiddir. Ya'ni, ibn Sino va Beruniy yozishmalar orqali olib borgan bahs-munozarada Beruniy ibn Sinoning javoblaridan qoniqmagani. Ma'sumiy nomli olim esa sakkiz marotaba davom etgan bu bahs-munozaraga o'z munosabatini bildirgan holda Beruniyni tanqid qilgan. Beruniy ilk bahs-munozaralardan o'z ibn Sinoning javoblaridan norozi bo'lgan va o'z noroziligini bildirish uchun qisqa va lo'nda javoblar bilan uning fikriga qo'shilmasligini bayon etgan. Bahs-munozaraning sakkizinchi qismida esa ibn Sinoning shogirdi va do'sti Ma'sumiy Beruniyning fikrlarini qattiq qoralagan holda, bahs-munozara masalalariga o'z fikrini dalillar orqali birma-bir keltirib o'tgan.[2]

Xorazmlik Abu Rayhon Muhammad Ahmad Beruniy (362-442/973-1050) Abu Ali Husayn Abdulloh ibn Sinoga(370-428/980-1037) o'n sakkizta savol berdi. O'nta savol Arastuning "Osmon kitobi"("as-Sama val Alam") asaridagi turli tushuncha va g'oyalar bilan bog'liq edi. Ikki olimning bahs-munozaralarining birinchi qismida, ibn Sino Beruniyning savoliga javob beradi va o'z fikrini tasdiqlash uchun Arastu keltirgan osmon jismlarining aylanma harakati ularning tug'ma xususiyati ekanligi haqidagi sabablarni dalil qilib oladi. Ibn Sino Beruniy tomonidan berilgan savollarning har biriga o'ziga xos tarzda javob berdi. Bu javoblardan qonoatlanmagan Beruniy birinchi bahs-munozaradagi sakkizta javobni va ikkinchi bahs-munozaradagi yettita javobni sharhlab xat yozdi. Bu safar esa javob Abu Said Ahmad ibn Ali Ma'sumiydan keladi. Abu Said Ahmad ibn Ali Ma'sumiy ibn Sinoning shogirdlari orasida yuksak mavqega erishib faqih unvonini olgan edi. U islom natur falsafasining yirik vakillaridan biri bo'lgan ustoz ibn Sino nomidan yozdi. "Shu tarzda, Ma'sumiyning uzundan-uzun javobi ikki buyuk alloma, islom taffukkurining yorqin yulduzlarining murakkab va mukammal muzokaralariga yakun yasaydi" – deb yozadi Sayyid Xusayn Nasr – munozara olib borilgan mavzularning jiddiyligi va ahamiyatligi islom intellektual tarixi va umuman o'rta asrlar tabiaty falsafasi va ilm – fanning eng yorqin nuqtalaridan biridir.[3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Beruniy va ibn Sino o'rtasidagi bahs-munozara asosan Arastuning „Osmon haqida“ va „Fizika“ asarlarida

keltirilgan fikrlar haqida bo‘lib o‘tgan.[4] Biz ikki olim o‘rtasidagi bahs-munozarani Ma’sumiyning yozgan raddiyasi orqali bilib olishimiz mumkin.

“Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan...” deb boshlanadi maktub

1. Ustoz Abu Ali Husayn Abu Abdulloh ibn Sino rahmatullohi alayh dedilar: “Barcha hamdlar olamlarning parvardigori Allohga bo‘lsin, U o‘zi kifoya va U eng yaxshi vakildir. G'alaba beruvchi, yordam beruvchi. Alloh taolo hazratimiz Muhammad alayhissalomga, uning oilasi va barcha sahobalariga salovotlar bo‘lsin deb bahs-munozaramizni boshlaymiz:

2. Bu xat Xorazmlik Abu Rayhon Beruniy tomonidan yuborilgan savollarga javobdir. Alloh taolo sizga ikki dunyo saodatni ato etsin va sizni har ikki hayotda yomon ko‘radigan narsalardan saqlasin. Arastuga “As-Sama’ va’l-Olam” kitobida keltirilgan ba’zi masalalarga , oydinlik kiritishni so‘radingiz va siz ularni muammoli deb topdingiz. Men bularni qisqacha va ixcham tarzda tushuntira boshladim, Lekin ba’zi dolzarb masalalar keltirilgan savollarga o‘z holicha javob berishimga to‘sqinlik qildi. Qolaversa, sizga javob jo‘natish, Ma’sumiyning sizga maktub jo‘natishini kutib, kechiktirildi. Endi men sizning savollaringizga javob berishdan oldin, ayrim fikrlaringizni keltirib, keyin har bir savolga qisqacha javob beraman.

Yuqoridagi bahs-munozara uslubini ko‘rib turganimizdek, olimlar bir-birini fikrlarini hurmat qilgan holda, o‘z e’tirozlarini bildirishi axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – *insonparvarlik*dan dalolat beradi. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g‘oyalar, qarashlar va e’tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr - qimmat, uning baxtli bo‘lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch.

Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq - huquqlari himoyasida tursa, ya’ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo‘lsa, *erkparvarlik* tamoyili uning ma’lum ma’noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi – erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero erksiz inson – asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat – mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o‘z millati o‘z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo‘ygan insonlar tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma’noda ham qo‘llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko‘rish mumkin.

3. Birinchi savolingiz: Siz(Alloh sizni asrasin) nega Arastu samoviy jismlarda tortishish kuchi ham yo‘q, deb da’vo qildi va nega markazdan markazga harakat yo‘qligini inkor qildi, deb so‘radingiz. Biz taxmin qilishimiz mumkinki, osmon eng og‘ir

jismlar qatorida boʻlgani uchun - va bu tahmin emas, balki aniqlik - u markazga qarab harakat qilishni talab qilmaydi, chunki uning barcha qismlariga oʻxshash deb hisoblanadigan universal qonun.

4. Ikkinchi savolingizga javob: Alloh sizni baxtli qilsin, siz meni osmonda na koʻtarilish, na tortishish kuchi borligini isbotlashdan qutqardingiz, chunki siz muqaddimangizda osmondan yuqorida harakat qiladigan joy yoʻq, u ham harakat qila olmaydi, ham pastga siljiy olmaydi, chunki uning barcha qismlari bogʻlangan deb tan oldingiz. Shu fikringizdan kelib chiqib, biz uni ajratilgan deb tahmin qilishimiz mumkin - bu barcha elementlarning tabiiy pozitsiyalaridan harakatlanishiga olib keladi va bunga na ilohiy, na tabiiy qonunlar tomonidan ruxsat berilmaydi. Va bu tabiiy qonunlarda ruxsat etilmagan boʻshliqni ham oʻrnatadi.

Yuqorida keltirilgan jadal tahlilidan shuni bilib olishimiz mumkinki, bahs – munozara va uning olib borilishining oʻz qoidalari va meʼyorlari bor. Olimlarimiz tomonidan agar bu meʼyorlarga amal qilinmasa nima hodisalarga olib kelinishi Gʻazzoliyning “Ihyou Ulumiddin” kitobida bayon etilgan. Bu asarda salbiy munozaralarni keltirib chiqaruvchi yomon xulqlar sanab oʻtilgan. Axloq normalari deb amallarga joriy qiladigan umumiy buyruqlar va taqiqlar orqali kishilar hatti harakatini tartibga soluvchi axloq – odob talablarining shakliga aytiladi. Gʻazzoliy sanab oʻtgan oʻnta ofat axloq normalariga mutlaqo zid boʻlib, ular quyidagilardir: Hasad, takabburlik, hiqd (gina-qudrat), gʻiybat, josuslik, odamlarning nochorligidan sevinish, nifoq (ikkiyuzlamachilik), haqdan yuz oʻgirish, riyo kabilardir.[4]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, axloq meʼyorlariga amal qilingan holda olib borilgan ilmiy-bahs-munozaralar orqali fanda, umuman olganda jamiyat uchun foydali boʻlgan yakuniy xulosalarga erishish mumkin. Masalan, biz misol tarzida keltirgan Beruniy va ibn Sino oʻrtasidagi bahs-munozaraning eng yaxshi natijalaridan biri bu issiqlik va elektr toki haqidagi fikrlarning tugal yakuniy xulosaga kelinishidir.[5] Mana shu kabi allomalarimizning asarlarini oʻrganish, falsafiy tahlil qilish orqali axloqning tarkibiy tuzilishiga kiradigan axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlarning[6] jamiyatimizda yanada qaror topishiga oʻz hissamizni qoʻshgan boʻlamiz. Malumki sharqda gʻarbdan farqli oʻlaroq azaldan *kollektivizm* jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu omil sharqda jamiyat aʼzolarining oʻzaro mehr rishtalarini bogʻlashligi bilan jamiyatining hamjihatligini taʼminlab kelgan. Biz Beruniy, ibn Sino, Abdurrahmon Samarqandiy, Shamsiddin Samarqandiy kabi

olimlarning asarlari bilan tanishib chiqib, sharqdagi kollektivizm g'oyalariga sharq mutafakkirlarning Islom ta'limotlariga asoslangan qarashlari sabab bo'lgan degan xulosaga kelamiz. Aynan mana shu mutafakkirlarimizning asarlarni o'rganish natijasida biz kelajakda o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz - farovon jamiyat qurish, demokratik islohotlar qilish orqali jamiyatning yashash turmush tarzini yaxshilash, mukammallashtirish kabilarga erishamiz.

REFERENCES

1. Ибн Сино. Переписка Беруни и Ибн Сино. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. [Текст]. – Душанбе : Ирфон, 1980. В – 250.
2. Диноршоев, М. Натурфилософия Ибн Сины [Текст]. – Душанбе : Дониш, 1985. В – 105.
3. Сейид Хусейн Наср. Философии ислама : Авиценна (ибн Сина), ас-Сухраварди, ибн Араби/ Перевод с английского, предисловие и комментарии Р. Псху. ООО “Садра”, г. Москва. 2014. В – 95.
4. G'azzoliy, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad “Thyo Ulum ad-din”/ Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur: tarjimon Mubasshir Ahmad. –Toshkent: Islom universiteti, 2014. В - 106.
5. Ибн Сино. Переписка Беруни и Ибн Сино. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. [Текст]. – Душанбе : Ирфон, 1980. В – 279.
6. “Ахлоқшunoslik”. О'quv qo'llanma. –Po'latova D. A.,Ro'zmatova G.M., Jalolova O'.K. T.: TDSHI, 2013. В – 116.



SURXONDARYO VILOYATI MINERAL BULOQLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI

T. A. Abdimo‘minov
O‘zbekiston Milliy universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan mineral buloqlarning shifobaxshlik xususiyatlari, inson organizmi uchun ijobiy va salbiy ta’sirlari, ularning paydo bo’lishidagi geografik xususiyatlar va geologik jarayonlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mineral buloqlar, minerallar tarkibi, vanna usuli, mineral suvni ichish tartibi, Xo‘jaipok, Oqsuv, Omonxona, Uchqizil, Jayronxona, Marvarid.

ABSTRACT

This article covers the healing properties of mineral springs located in the Surkhandarya region, their positive and negative effects on the human body, their geographical features and geological processes.

Keywords. Mineral springs, mineral composition, bath method, procedure for drinking mineral water, Khodjaipok, whitewash, Omon, Uchqizil, haystack, Pearl.

KIRISH

Surxondaryo viloyati hududidagi mineral buloqlarning tarkibi xilma-xil bo’lib, bir-biridan buloq suvi tarkibidagi minerallarning shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Viloyatdagi mavjud buloqlarni asosan shifobaxshligi hamda antita’sir (buloq suvlarining inson va uning organizmiga salbiy ta’siri) darajasiga ko’ra ko’proq o’rganiladi va buloq suvlaridan foydalaniladi. Buloq suvlari ba’zi hollarda insonlarga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Mineral buloqlarning ko’pchilligi Hisor tog’larining janubi-g’arbiy tarmoqlarida joylashgan [1;75-6.]. Bobotog’ massivi hududida ham bir qancha buloqlarni uchratishimiz mumkin biroq bu buloqlarning ham barchasi shifobaxshlik xususiyatiga ega emas. Jarmasoy, Arg’amchisoy, Quruqsoy, Teraksoy va Fayzovasoy kabi nomlar bilan ataluvchi soylıklarda mahalliy tilda “Quduq” deb ataluvchi buloqlar mavjud bo’lib, suvi nihoyatda sho’r bo’lganligi uchun ichishga yaroqsiz. Aslida bu suvlar ham buloqlarning bir ko’rinishi. Ayrim buloqlarda bosim yuqori bo’lmaganligi uchun yer yuziga oqib chiqmaydi. Lekin ma’lum bir chuqurlikdagi masofada doimiy suv bor. Bunday buloq suvlaridan asosan chorva mollarini sug’orishda



foydalaniladi. Bobotog' massivi qurg'oqchil bo'lganligi uchun yoz oylarida tadqiqot olib boruvchilar uchun ham bir qancha qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Bir tomondan buloqlar bir-biridan ancha olis masofada joylashgan bo'lsa, ikkinchidan buloq suvlarining nihoyatda sho'rliigidir. Agar suvingiz tugab qolguday bo'lsa o'sha nordon quduq yoki buloq suvidan ichishga majbur bo'lasiz. Bu suvdan ichganingizdan bir necha daqiqa o'tgach yana tez-tez suv ichishni xoxlaysiz. Ichgan nordon suvingiz ta'sirida qorinda og'riq turishi, bosh og'rig'i va ich ketishi holatlari kabi salbiy jarayonlar kuzatiladi. Hayotiy tajribamizda bunday voqealarga bir necha bor duch kelganmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Viloyatdagi ba'zi mineral buloqlarning shifobaxshlik xususiyati, shu buloq atrofidagi xalqlar uchun ma'lumdur. Ko'pchilik shifobaxsh buloqlar esa aholi manzilgohlaridan yiroqda joylashgan. Shunday buloqlar sirasiga Bobotog'ning sharqiy yonbag'rida, dengiz sathidan 1160 m balandlikda joylashgan, mahalliy aholi tilida "Oqsuv" nomini olgan buloq shular jumlasidandir. Taxminan Bobotog' massividagi Zarkamar qishlog'idan 6-7 km masofada joylashgan ushbu buloq suvidan mahalliy aholi teri kasalliklari va oshqozon ichak kasalliklariga shifo ekanligini juda yaxshi bilishadi. Buloq suvi unchalik ko'p emas, taxminan 1 minutda 4-5 litr atrofida suv chiqadi. Buloq atrofiga yaqinlashgan sayin oltingugurt hidi dimog'ingizga uriladi. Xuddi "Xo'jaipok" bulog'i suvi bilan bir xildek. Buloq suvi tarkibi aniqlanmagan bo'lsa ham, Oqsuv bulog'ining tarkibi Xo'jaipok bulog'i tarkibidagi minerallardan kam emasligi ma'lum.

Mineral buloqlar atrofida yaratilgan sihatgohlarga ko'pincha vanna usuli keng qo'llaniladi. Oqsuv bulog'i atrofida ham kelajakda sihatgoh barpo etsa bo'ladi. Chunki buloq R-106 avtomobil yo'lidan taxminan 1200-1500 m masofada joylashgan. Buloq suvini ichsa ham bo'ladi ammo bu organizm uchun salbiy bo'lishi ham mumkin. Buning uchun buloq suvidan foydalanuvchi har bir inson shifokor nazoratidan to'liq o'tib, shifokor tavsiyasi asosidagina iste'mol qilishi maqsadga muvofiq.

Mineral suvli vannalar sanatoriya va dam olish maskanlarining asosiy davolash omili bo'lib, ular vanna, ichish va yuvish muolajalari uchun ishlatiladi. Mineral suvlar umumiy ta'sir etuvchi davolash vositasi hisoblanib, vanna buyurishda asosiy kasalliklarning xususiyati, bemorning yurak qon-tomir, asab sistemasining holati inobatga olinadi.



Mineral suvli vannalar bilan davolash haqida A.Z.Zokirovning “O‘zbekistonning shifobaxsh resurslari va shifobaxsh maskanlari” asarida batafsil yoritilgan. Mineral suvli vannalar kamquvvat bemorlarga va qon aylanishi buzilishining birinchi bosqichi, gipertoniyaning ikkinchi bosqichi hamda gipotoniya (bemor o‘zini holsiz sezmasa) buyuriladi [2].

Kasalliklarni davolashda mineral suvlar tarkibi, organik moddalar va mikroelementlar hisobga olinadi. Mineral vannalarning organizmga ta‘sirini ta‘minlovchi asosiy omillaridan biri-suvning haroratidir. Harorat teri termoreseptorlariga ta‘sir etib, qon aylanish sistemasida reflektor o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi va organizmda moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Issiq vannalar terida va surunkali yallig‘lanish o‘chog‘ida qon aylanishini yaxshilaydi, bu esa asab sistemasining yallig‘lanish kasalliklarini davolovchi asosiy omil hisoblanadi. Organizmga ko‘p miqdorda issiqlik kirib, oksidlanish jarayonini uyg‘unlashtiradi. Zararli moddalarni organizmdan chiqarib yuborib, himoya kuchini oshiradi. Masalan, sulfidli vannalar muolajasidan keyin bemor terisida organizmga shifobaxsh ta‘sir ko‘rsatuvchi tuz qatlami hosil bo‘ladi. Bu mineral suvlarning bemorlarga ham termik, ham mexanik ta‘sir ko‘rsatishini bildiradi.

Suvning harorati va muolaja davomiyligi kasalliklarning xususiyatiga ko‘ra bekgilanadi. Teri kasalliklarida mineral vannalarning harorati 34-36°C, davomiyligi 10-15 minut, tayanch harakat a‘zolari, asab, me‘da-ichak va ginekologik kasalliklarda esa harorat 36-37°C. davomiyligi esa 10-12 minut qilib belgilanadi. Tayanch harakat a‘zolarining og‘ir kehadigan kasalliklarida va tomir toraytiruvchi endoartiritda harorat 38°C, vaqt esa 10-12 minutdan iborat bo‘ladi. Tromboflibet, trofit, yara va osteomilitda mineral vannalar (qo‘l-oyoqqa) 38-39°C haroratda, 10-15 minutdan tavsiya etiladi.

Yuz va boshning sochli qismi (teri kasalliklarida) vanna qabul qilganda yuviladi, trofik yara va ostimelitda oqma yaralar bo‘lsa, muolajadan keyin vanna qilinadi. Asab sistemasi, tayanch-harakat, ovqat hazm qilish va ayollar jinsiy a‘zolari kasalliklarida mineral vannalar ikki kunda bir mahal buyuriladi, teri xastaliklarida ikki kun vanna qabul qilinib bir kun dam olinadi.

Ostexondroz va umurtqa pog‘onasining boshqa kasalliklarida suv ustida beriladigan mineral vannalar tavsiya etiladi. Umurtqa pog‘onasini suv ostida yotgan holda cho‘zish uchun bemorning tanasi vannaning ikki tomoniga o‘rnatilgan kronshteynlar yordamida yelka kamaridan va boldir-oyoq kafti bo‘g‘imlaridan mustahkamlanadi. Bemor ko‘kragigacha suvga botadi va gajak holatida osilib turadi. Bunday holat muolaja

paytida asab tolalarini, umurtqalar orasidagi disklarni bosim ta'siridan bartaraf etadi va og'riqni kamaytiradi. Davolash kursi 10-12 muolajadan iborat bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asab sistemasi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga "Javohir" vannalar qo'llaniladi. Bunday maxsus vannalarning tagida yog'och panjaralar bo'lib, ularga juda ko'p mayda teshikchali metal quvurchalar o'rnatilgan bo'ladi. Vanna mineral suv bilan to'ldiriladi. Kompresor yordamida quvurchalarga 1-2 atom bosim ostida havo haydaladi. Teshikchalardan suvga tovush chiqarib chiqqan havo pufakchalari xuddi javohirlarni eslatadi. Ular teriga yoqimli ta'sir etib, bemorning markaziy asab sistemasini tinchlantiradi. Bunday mineral suvning harorati 36-37°C, muolaja davomiyligi 10-12 minut, davolash kursi 10-12 ta bo'ladi.

Bemor belgilangan tartibda muolajani yaxshi qabul qilsa, umumiy ahvoli yaxshilanib, og'riqlar kamayadi, uyqu va ishtahasi meyorga yetib, kayfiyati ko'tarinki holarda bo'ladi. Agar bu muolaja salbiy ta'sir qilsa, bemorning yuragi tez-tez ura boshlaydi, og'riqlar kuchayadi. Bunday holatlarda shifokor bemorning davolanish tartibiga o'zgartirish kiritadi [3;65-6.].

Mineral suvni ichish tartibi. Ayrim sihatgohlarda mineral suvlarni qo'llashning asosiy usullari sifatida ichish, tyubaj, o'n ikki barmoqli ichakni drenaj qilish, meda ichaklarni yuvish va mikroxuknada qo'llaniladi.

Mineral suvlarni ichish uchun tavsiya etilayotganda me'da shirasining kislotaliligi, asosiy va qo'shimcha kasalliklar hisobga olinadi. Shunga asoslanib, ichish miqdori, tezligi, vaqti va harorati belgilanadi.

4-jadval. Surxondaryo viloyatida mavjud mineral suvlar to'g'risida

MA'LUMOT

№ T/r	Obyekt nomi	Chuqurligi	Harorati, C ⁰	Suv debiti, l/sek	Joylashgan o'rni
1	Termiz tumani, Uchqizil massivi	232	22	0.25	Termiz tumani
2	Termiz tumani, Uchqizil massivi, Semashka davolash maskani hududi	436	29	0.14	Termiz tumani

3	Termiz tumani, Uchqizil massivi, Jayronxona davolash maskaniga qarashli burg'li quduq	Mineral suv Uchqizil massividan politelin quvurlar orqali keltiriladi	21	0.25	Jarqo'rg'on tumani
---	--	---	----	------	-----------------------

Izoh: jadval ma'lumotlari viloyat gigrogeologiya qo'mitasi ma'lumotlari asosida qayta ishlanib to'ldirildi [4].

REFERENCES

1. Атлас родников Узбекистана. Т., 2006., 92-б.
2. А.З.Зокиров. Ўзбекистоннинг шифобахш ресурслари ва шифогоҳ масканлари,-Т.:Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр,.1997.-184 б.
3. Ю.С.Ковалев,.Л.А.Калабугин. Сирли булоқлар.“Mehnat”-Т., 1987.-73 б.
4. О'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyati gidrogeologiya stansiyasi axboroti. Yurchi qo'rg'onchasi-2021.



ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИДА АХЛОҚ ФАЛСАФАСИ ФАНИНИ КРЕДИТ-МОДУЛ ТИЗИМИДА ЎҚИТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Азамат Абдурахимович Джуманкулов

Ўзбекистон Миллий Университети, Педагогика ва умумий психология
кафедраси докторанти
azamat.jumanqulov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мамлакатимизда олий таълим тизимини замон талаблари ва илғор хорижий тажрибалар асосида ривожлантириш, олий таълим дастурларини халқаро стандартлар талабларига мослаштириш, ривожланган мамлакатлар билан таълим соҳасида ҳамкорликни янада кэнгайтириш ҳамда мустаҳкамлаш долзарб аҳамият касб этиб бормокда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида олий таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, худудларда давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш ҳамда мазкур соҳада соғлом рақобат муҳитини яратиш бўйича қатор вазифалар белгиланган. Ушбу мақолада олий таълим савиясининг замон талабларига мос келиши муаммосини ҳал қилиш, таълимни модернизациялаш орқали ўқитишнинг инновацион йўналишларини ривожлантириш, талабаларнинг касбий ва шахсий юксалиши учун долзарб ахборот олишга бўлган эҳтиёжларини қондириш шарт-шароитларига эътибор қаратилди.

Калитсўзлар: таълимни модернизациялаш, олий таълим, талабалар, ахлоқий тарбия, кредит-модуль тизими, таълим сифати.

ABSTRACT

The development of the higher education system in our country on the basis of modern requirements and advanced foreign experience, adaptation of higher education programs to the requirements of international standards, further expansion and strengthening of cooperation in the field of education with developed countries is becoming of urgent importance. In particular, the concept of development of the system of higher education of the Republic of Uzbekistan up to 2030 defined a number of tasks for the development of Public-Private Partnership in the field of Higher Education, Organization

of activities of state and non-state higher education institutions in the regions, creation of a healthy competitive environment in this area. In this article, attention was paid to the conditions for solving the problem of compliance of higher education with modern requirements, development of innovative directions of education through modernization of Education, satisfaction of urgent information needs of students for professional and personal growth.

Keywords: modernization of education, higher education, students, moral education, credit-module system, quality of education.

КИРИШ

Дунё микёсида таълимни модернизациялашда янги парадигмал тамойиллар ва инновацион технологиялар асосида ривожлантириш бугунги кундаги устувор йўналиш сифатида долбзарб аҳамият касб этмоқда. Жумладан, олий таълим муассасаларида ахлоқ фалсафаси фанини кредит-модул тизимида ўқитиш методикасини такомиллаштириш ўзига хос мураккаб жараён бўлиб, у нафақат давлат таълим стандартлари талабларига, балки талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг талаб ва таклифларидан келиб чиққан ҳолда амалга оширилади. Шу боисдан ҳам олий таълим замонавий жамият ҳаётида ҳал қилувчи рол ўйнайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Замонавий тадқиқотчилар «таълимни модернизациялаш» иборасини турлича талқин қилишади. Масалан, Э.Д.Днепров таълимни модернизациялаш деганда «Мамлакатдаги таълимнинг энг яхши анъаналарини сақлаб қолган ҳолда замонавий ҳаётнинг талабларига мос равишда таълим фаолиятининг барча соҳаларида таълим тизимининг барча бўғинларини ялпи ҳар томонлама янгилаш»ни тушунади. В.С.Авенесов таълимни модернизациялашга бир мунча лўнда таъриф берган ҳолда бу «таълим соҳасини шахс, фуқаро, жамият ва давлатнинг замонавий талабларига мослашдир» деб ҳисоблайди.

Таълимни модернизациялашнинг ўзига хос муҳимлиги шундан иборатки, таълим институти бошқа ижтимоий институтларга бевосита таъсир ўтказган ҳолда улар билан межинституционал ўзаро ҳаракатга киришмоқда. Устига устак, таълим институтининг ривожланиш хусусияти имкон қадар инновацион бўлиши лозим, чунки у инсоний фаолиятнинг турли соҳаларига билимларни етказиб беришнинг асосий воситасилигича қолмоқда.

Мамлакатдаги олий мактабни модернизациялашнинг муҳим қисми бўлган ялпи компьютерлаштириш, интернет тармоғининг жаҳондаги ҳар қандай, ҳатто энг узоқ нуқталарига ҳам кириб бориши ахборотлашган жамиятни ривожлантириш талабларига, талабаларнинг эҳтиёжларига, шунингдек олий таълим соҳасидаги глобаллашувнинг замонавий даъватларига мос келувчи ўқитишнинг масофавий технологиялари вужудга келиши учун асос бўлган. Шу боисдан ҳам «Ўзбекистон Республикаси таълим тизимида ИТ-технологияларидан ва олий таълим муассасаларининг ички инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш орқали таълим тизимининг мавжуд рақобатбардош жиҳатларини янада такомиллаштириш мақсадида инсон капиталини ривожлантириш, тармоқ (network university), ижодий (creative university) ва тадбиркорлик ёндашуви (entrepreneurial university) механизмларидан фойдаланган ҳолда рақамли таълим ресурсларини шакллантириш, ОТМларнинг бошқарув механизмларини ривожлантириш ва такомиллаштириш истиқболларини ишлаб чиқишда ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқдир».

Мамлакатимиз олий таълим тизими ҳар томонлама ривожланган битирувчини тайёрлашга имкон берувчи фундаментал илмий базага эга, таълимга кириб келган ахборотлашув даври ва глобаллашув бу олий мактабни модернизациялашни, олий мактаб фаолиятини ташкил этишга янгича ёндашувларни қўллашни тақозо этмоқда. Олий таълим савиясининг замон талабларига мос келиши муаммосини ҳал қилишнинг муҳимлиги мазкур институтнинг шахсни, ижтимоий гуруҳларнинг шаклланишига, замонавий глобаллашаётган оламда инсон мослашувининг муваффақиятлилигига кучли таъсир кўрсатишидан келиб чиқади. Бу олий ўқув юртларини модернизациялаш, ўз ичига билим олишнинг мослашувчанлигини, кўламлилигини, қулайлилигини, талабаларнинг касбий ва шахсий юксалиши учун долзарб ахборот олишга бўлган талабаларнинг эҳтиёжларини қондиришга қодир бўлган замонавий ахборот технологияларга асосланувчи ўқувчилар учун осонлигини қамраб олган ўқитишнинг инновацион йўналишларини ривожлантириш заруратини келтириб чиқаради, бу эса охир оқибатда ўзбек олий мактабининг жаҳон таълим маконига кириб боришининг объектив зарур шarti ҳамдир.

Республикамизда ёш авлоднинг билимини, илмий-ижодий ҳамда интеллектуал салоҳиятини оширишга алоҳида эътибор берилмоқда. Жумладан, таълим даргоҳлари жаҳон



таълим стандартларига мос келадиган техника-технологиялар билан жиҳозланган, ўқитишнинг илғор усул ва шакллари кенг қўлланилмоқда. Олийгоҳларда бўлажак мутахассисларнинг юқори билим олишлари ва келажакда ушбу билим ва кўникмаларни қўллаш, илмий ижодий ишларни амалга ошириши учун шарт-шароитлар яратилмоқда. Назария билан амалиётни уйғунлаштириш мақсадида кафедраларнинг амалиётда филиаллари очилган. Ўқув жараёнида талаба ўз мутахассислиги бўйича ижодини янада такомиллаштиради. Ўз навбатида, талабаларнинг илмий ҳамда ижодий фикр ва дунёқарашининг ривожланиши учун профессор – ўқитувчилардан юксак маҳорат талаб қилади. Талаба ҳамда ўқитувчилар ўртасидаги боғланиш ўқув жараёнида бир қатор таълим технологиялари орқали амалга оширилади.

Олий ўқув юртларида таълим технологияларининг қўлланилиши, нафақат талабанинг билим олишига, нафақат унинг илмий, ижодий ва интеллектуал салоҳиятининг ривожланишига ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Таълимнинг илғор технологиялари талабаларда касбий маҳоратга ҳамда мутахассисликка доир фанларга бўлган қизиқишни орттиради. Масалан, «Веер» технологиясини оладиган бўлсак, бунда талабалар ўқув машғулотида ўзларининг фикрлаш қобилиятларини оширадilar. Ушбу технология орқали талабаларда танқидий, таҳлилий ва мантикий фикрлаш савияси ривожланади. Таълимнинг интерфаол технологияларида талабалар қўйилган муаммонинг назарий ва илмий жиҳатларини чуқур ўрганадилар. Шулардан бири «ФСМУ» технологиясидир. Ушбу технологияда талабалар қўйилган муаммо бўйича фикрини баён этиб, содир бўлган ҳодисанинг сабабларини ижодий ўрганадилар ҳамда амалиёт мисолларида умумий хулосага келишадilar.

Таълим технологиясининг энг самарали усулларида яна бири – бу «Бумеранг» технологиясидир. Талаба бирор бир соҳа мутахассислигини эгаллашидан олдин, яъни ўқув машғулоти жараёнида шу касб соҳиби сифатида фикр юритади. Хусусан, талабалар иқтисодчи, бухгалтер ёки тадбиркор ролида бўлиб, уларнинг вазифаларини мустақил равишда бажарадилар. Натижада улар касбий маҳоратини, жамоа билан ишлаш қобилиятини, муомалаликни, хушфезллик ва ишга ижодий ёндашиш хислатларини ривожлантирадилар. Олий ўқув даргоҳларида юқорида айтганимиздек кўринишда ўқув жараёнларининг олиб борилиши талабаларда назарий ҳамда амалий билимларни уйғун ҳолда шакллантиришга ундайди. Олий таълимнинг вазифаси ҳам мана шундай ўқув машғулотида ташкил этилишини

таъминлаш, талабаларда амалий ҳамда назарий билимларини уйғунлаштириш асосида мамлакатимизга етук ва баркамол мутахассис кадрларни тайёрлашдан иборат. Ўқув жараёни маъруза, амалий ва семинар ҳамда лаборатория машғулоти шаклларида ўтказилади. Маъруза машғулоти бевосита маърузачи ўқитувчилар томонидан олиб борилади. Ушбу машғулотда ўқув фанининг муаммолари, уларнинг назарий жиҳатлари чуқур ўрганилади. Олий ўқув юртлирида маърузалар машғулоти билан бир вақтда амалий ҳамда семинар машғулоти олиб борилиши талабанинг келажакдаги фаолиятига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Илм даргоҳларида талаба ҳаётини фикрлашга, мантикий мушоҳада қилишга ўрганади.

Ахлоқий тарбия фаолиятининг муҳим шакллари билан бирдир. Муайян жамият ёки гуруҳга одамларни унинг ахлоқий хулқ-атвор қоидаларига онгли равишда риоя қилишлари ва жамият ва бошқалар олдидаги тегишли мажбуриятларини бажаришлари, тизимли равишда, уюшган ва режали равишда тизимли ахлоқий таъсир кўрсатишлари учун мўлжалланган. Муайян жамият ёки гуруҳнинг ахлоқий талабларининг кишиларнинг ички сифатларига айланиши муҳим шартлардан биридир. Аксарият мамлакатларда олий мактабда ахлоқий тарбия жараёни билан чекланади. Мамлакатимиздаги мактаб ахлоқий тарбияси умуман олганда сиёсий тарбия, мафкуравий тарбия, ахлоқий тарбия ва бошқаларни назарда тутадик, бу аслида ижтимоий онг тарбиясидир. Сиёсий таълим деганда талабаларда маълум сиёсий билим, тажриба ва эътиқодларни шакллантирувчи таълим тушунилади. Мафкуравий таълим – талабаларнинг маълум дунёқараши ва ҳаётга бўлган қарашларини шакллантирадиган таълим, ахлоқий тарбия – уларнинг ахлоқий жиҳатдан янада юксалишига катта ёрдам берувчи тарбия шаклидир.

Нисбатан тўлиқ ахлоқ фалсафаси тарбия жараёни, одатда, инсон онгини юксалтириш, ҳис-туйғуларни ривожлантириш, иродани амалга ошириш, эътиқодларни ўрнатиш ва хулқ-атвор одатларини ривожлантириш каби асосий жараёнларни ўз ичига олади. Ахлоқ фалсафасини аниқлашнинг усули ва воситалари, асосан, маънавиятли шахснинг ахлоқий характерини шакллантириш хусусиятларига ва унинг аниқ ҳолатига асосланади. Умуман олганда, бу жараёнда ижобий йўл-йўриқ сиёсати қабул қилинади, ахлоқий билим бериш ва ахлоқий ҳаёт тажрибасини умумлаштириш уйғунлашади.

Ахлоқ фалсафаси фани талабаларнинг шахсий, миллий ва ижтимоий ижтимоий, касбий ҳаётида муайян қоидаларига



мос келадиган хулқ-атвор одатларни ўрганишга алоҳида эътибор қаратади.

Таълимни қонунга мувофиқ бошқариш Америка таълим бошқарувининг кўзга кўринган хусусияти ҳисобланади. Бизнинг мамлакатимиздан фарқи шундаки, турли олий мактабларнинг “талабалари хулқ-атвори стандартлари” нафақат уларни хулқ-атворини муайян маънода тартибга солувчи маъмурий таълим воситаси, балки маълум ҳуқуқий таъсирга эга бўлади. Умуман олганда, талабаларнинг хулқ-атвор кодекси асосан қуйидаги жиҳатларни ўз ичига олади: биринчидан, давомат ва таътил тизими; иккинчидан, имтиҳон интизоми; учинчидан, гуруҳдаги интизомга қўйиладиган талаблар; тўртинчидан, кийиниш маданияти; бешинчи, талабаларнинг мобил телефонлари ва бошқалар; олтинчидан, жинсий хулқ-атворга қўйиладиган талаблар; еттинчидан, турли хил тақиқланган хатти-ҳаракатлар, масалан, жанжал, чекиш, қурол олиб юриш, ўғирлик ва бошқалар. Хулқ-атвор кодексида талаба-ёшларнинг ушбу қоидаларни бузиши жиддий муаммо сифатида қабул қилинади.

Янги семестр бошида олий мактаб ота-оналар ва талабаларни “Талабалар хулқ-атвори кодекси”ни ўрганишни ташкил этиши ва талабалар ва ота-оналар билан “Талабалар хулқ-атвори кодекси”ни қабул қилиши учун шартнома имзолаши керак. Масалан, “Талабаларнинг одоб-ахлоқ қоидалари”да уларнинг ўқув масканига пичоқ ёки қурол олиб киришлари тақиқлангани белгилаб қўйилган. Агар аниқланган бўлса, сиз улардан фойдаланасизми ёки йўқми, низомга мувофиқ жазоланасиз. Бу шуни кўрсатадики, Америка олий ўқув юртларида талабаларнинг таълим олиши ва бошқаруви қатъий ҳуқуқий талаблар шакллантирилган экан.

Мамлакатимиз жаҳон ҳамжамиятига тобора чуқур интеграциялашиб бораётгани, халқимизнинг жаҳондаги ривожланган миллатлар қаторидан жой олишга интилиши моддий – иқтисодий омиллар, юксак технологиялар билан бир қаторда, маънавий омилларни ривожлантиришни ҳам тақозо этади. Лекин ҳар икки гуруҳ омилларни ривожлантиришнинг ўзи инсон тафаккурининг ўсишига, ижодий яратувчилик салоҳиятининг кучайишига боғлиқ. Туб ислохотларнинг чуқурлашиши жараёнида ижтимоий онгдаги ўтмишдан қолган баъзи қолоқ тушунчалар, маъмурий буйруқбозлик иллатлари, боқимандалик кайфиятларининг секин барҳам топаётгани ёки баъзи ёшларга бузғунчи, ёт ғоялар таъсир кўрсатаётгани, мафкуравий иммунитет етишмаслиги тафаккур эркинлиги масаласининг долзарблигини оширмоқда.

ХУЛОСА

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, жамиятни демократлаштиришда фаол иштирок этувчи, уни бошқарувчи, жараёнларни башорат қилувчилик вазифасини бажариши керак бўлган талаба ёшларни мустақилликка, мустақил қарорлар чиқаришга, мустақил баҳолаш салоҳиятига эга бўлган мутахасис кадрлар қилиб етиштиришга жамият тараққиётини таъминловчи муҳим омили сифатида баҳоланмоқда. Талаба-ёшлардаги фанга, билимга, мутахасислик сирларини билишга ҳамда илмий тадқиқотга бўлган рағбатнинг уларнинг бошқа ижтимоий фаолликлари билан уйғунликда амалга ошиши муҳим ҳисобланади. Чунки талабалик йилларида ёшларда нафақат унда талабалик шахси, балки талабалик шахси негизида зиёлилик, ташкилотчилик, тарбиячилик ва бошқа сифатлар ҳам шаклланади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Днепров Э. Д. Обращение редактора-составителя // Модернизация российского образования: документы и материалы. – М.: ГУ ВШЭ, 2002 –332 с.
3. Аванесов В.С. Основные направления модернизации российского образования» [Электронный ресурс] // Материалы XII Международной научной конференции «Модернизация России: ключевые проблемы и решения» на XII Международной научной конференции «Модернизация России: ключевые проблемы и решения». Режим доступа: <http://www.gosbook.ru/node/53942> (дата обращения: 09.01.2014).
4. Тешабаев Т.З. Олий таълим тизимида инновацион фаолиятни ахборот технологиялари асосида бошқаришни такомиллаштириш. Фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2019. –Б.38.
5. Анопченко, Т. Ю., Максимов, В. А., & Мошкин, И. В. (2011). Составление индивидуального электронного портфолио в соответствии с кредитно-модульной системой обучения.
6. Афанасьев, Д. В., & Грызлов, В. С. (2013). Компетентностный подход и кредитно-модульная система обучения. Высшее образование в России, (6), 11-18.



7. Жабборова, О. М. (2021). Ўқитишнинг кредит-модуль тизимидаўқувфанларинитанлаштамойиллари. Academic research in educational sciences, 2(6).
8. Каточков, В. М., & Сафронова, М. А. (2009). Внедрение кредитно-модульной и балльно-рейтинговой систем в образовательный процесс университета. Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование. Педагогические науки, (24 (157)), 37-42.
9. Авазбаев, А., Джураев, Ю., &Турсунходжаева, З. (2021). Texnologik ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish shart-sharoitlari. Общество и инновации, 2(4/S), 171-176.
10. Нодира Камилова, &Орифат Бекмуродова (2021). КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ АСОСИДА ТАЪЛИМ БЕРИШ АСОСИДА МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ. Scientificprogress, 1 (5), 553-557.



ОБУЧАТЬ ПРОИЗНОШЕНИЮ КОНСОНАНТНЫХ СОЧЕТАНИЙ

Дурдона Сайфутдинова

Андижанский государственный университет, кафедра МНО

АННОТАЦИЯ

Автор в статье рекомендует несколько упражнений для предупреждения произносительных ошибок в словах с консонантными сочетаниями, которые помогали бы учащимся сознательно усвоить различия в слоговой делении родного и русского языков.

Ключевые слова: консонантные сочетания, подвижность границы слога, интерференция, слоговое деление

ABSTRACT

The author in the article recommends several exercises to prevent pronunciation errors in words with consonantal combinations, which would help students to consciously learn the differences in the syllable division of the native and Russian languages.

Keywords: consonant combinations, syllable boundary mobility, interference, syllable division

ВСТУПЛЕНИЕ

Признаки, составляющие содержание той или иной фонемы фонологической системы, сопоставляются с признаками, составляющими содержание другой фонемы. Дифференциальные признаки, существующие в содержании обеих фонем и служащие для их дифференциации друг от друга, фонологически важны, остальные недифференциальные признаки считаются фонологически незначимыми. Поэтому основное внимание уделяется противопоставлению языковых единиц в системной лингвистике. [1]

Практика обучения русскому языку в национальной школе показывает, что у тюркоязычных учащихся вызывает большие трудности произношение консонантных сочетаний. Это связано, в частности, с особенностями структуры слога и слоговой деления в русском и родном для учащихся языках.

Грамотность – это понятие, знакомое каждому.
Грамотность – это уровень владения базовыми когнитивными



навыками, набором навыков чтения, письма на родном языке. [2]

АНАЛИЗ И МЕТОДОЛОГИЯ

В русском языке в пределах слога в предъядерной и постъядерной позициях количество согласных достигает четырёх (встряивать, государство). В тюркских языках слог начинается гласным или только одним согласным, заканчивается гласным, согласным или сочетанием из двух согласных [3]: кант (каз.), хайф (узб.), торт (каракалп.) и т.д. Эти же сочетания наблюдаются и в срединных слогах.

На стыках слогов в русском языке количество согласных может достигать пяти (мудрствовать), а в тюркских языках – не более трёх: картпен (каз.), ростлик (узб.), жомартлык (каракалп.) и т.д.

Русский язык богат приставками и предлогами, которые примыкают к началу слова. Поэтому к сочетанию из двух согласных в позиции начала слова могут быть присоединены приставки или неслоговые предлоги, и количество согласных в сочетании увеличивается. Тюркские языки, не имея приставочных образований (за исключением би-, (бей-), на- и некоторых других) не знают аналогичных явлений.

Русский язык характеризуется подвижностью границы слога (кость - кости, корм – кор-мить). В тюркских языках граница слога всегда проходит между согласными (каз.: жырт – порви, жыр-тып – порвав; узб.: сабр – терпение, сабр-ли – терпеливый; каракалп.: қарт – старик, старец; қарт-тай-уў – стареть и т.д.). То есть в родном языке обучающихся сочетание консонантов находится на стыке слогов, а в русском – внутри слога, граница слогов лежит перед ним и последующий слог может начинаться с сочетания согласных. Эти основные отличия структуры слога и слогаделения сопоставляемых языков являются причиной неправильного произношения учащимися консонантных сочетаний русского языка.

Укажем основные произносительные ошибки обучающихся, связанные с интерференцией:

1. Ресегментация:

а) минус-сегментация (редукция начального звука – в саду –ф саду, падение согласного в середине слова – построить - посроить);

б) плюс-сегментация (протеза – здание – издание, эпентеза – книга - кинига);

в) метатеза (кружок - куржок)



2. Недодифференциация (почта - пошта).
3. Сверхдифференциация (актовый - ақтовый).

Встречаются случаи, когда в одном слоге происходит и уменьшение количества сегментов (минус-сегментация) и увеличение (плюс-сегментация) одновременно. Например, в слове вздуть выпадает **в**, а на его месте появляется **ы** (ыздуть).

Для предупреждения произносительных ошибок в словах с консонантными сочетаниями следует рекомендовать такие виды работы, которые помогали бы учащимся сознательно усвоить различия в слоговой структуре родного и русского языков. Это может быть достигнуто путём выполнения учащимися различных упражнений, направленных на выработку навыков слоговой структуры: чтение или говорение с выделением слогов в слове, упражнения на осознание фонологической значимости слогов в слове. Например:[4]

1. а) Разделите на слоги слова русского и родного языков.

б) Какая разница в делении на слоги слов с сочетаниями согласных в русском и родном языках.

Это задание обязательно выполняется под руководством учителя: слова русского и родного языков с сочетаниями согласных в середине слова делятся на слоги, затем формулируется вывод о том, что в русском языке в середине слова стечение из шумных согласных переходит в последующий слог и произносится слитно, а в родном распадается на разные слоги. Учитель произносит вслух вывод. Опрашивает учеников. Убедившись, что класс понял, рекомендует следующие задания:

2. Произнесите слова: а) по слогам, б) слитно (без пауз после каждого слога).

Барабан, банка, водопровод, гордо, лодка, пастух, шахта, шутка, быстро, остро, аэропорт, дружба, провода, сторона, сторож, вздохнул, страшно.

3. Произнесите слова: а) по слогам, б) слитно (без пауз после каждого слога).

Береги, Бельгия, везде, кисти, ледник, мести, пельмени, тихий, чистить, чистильщик, перелезть, днище, стипендия, стихи.

4. Произнесите слова: а) по слогам, б) слитно (без пауз после каждого слога).

Больной, большой, большинство, махать, мастер, министерство, ноль, пострелять, повстречать, танкист, грязный, степной.

5. Разделите слова на слоги и правильно произнесите их. Определите количество слогов в каждом слове.

Гвоздь, гвоздей; стоять, выстоять, встать; танк, танкист; школа, школьник, школьница; луна, лунный; ум, умный, умственный.

Образец: гвоздь – 1 слог, гвоздей – 2 слога (гво-здей).

Учитель контролирует правильное выполнение заданий, исправляет произносительные ошибки, при необходимости рекомендует другую группу слов для отработки произношения.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Нередко трудными для нерусских учащихся становятся сочетания, присутствующие в родном языке. Это объясняется позицией сочетания в слове, а также различием в слогаделении. Так, для тюркских языков сочетания согласных в начале слова чужды, поэтому в этой позиции обязательно будет допущена ошибка. В середине же слова, например, структурный тип глухой+глухой (кт и др.) встречается в родном и русском языках, следовательно ошибок не должно быть. Но здесь сказываются законы слогаделения. В русском языке слоговая граница проходит перед сочетанием (о-кта-ва), а в тюркских языках между согласными (каз.: кок-тем – весна; узб.: мак-таб – школа; каракалп.: от-кериў – перенести), поэтому в результате учащиеся иногда произносят дополнительный слог (октава – о-кыт-а-ва, ок-ыт-а-ва; кто – кы-то). Еще труднее даются сочетания из трех и четырех согласных. Так, например, трехфонемный структурный тип сонорный+глухой+глухой (ррк и др.) встречается в середине слов сопоставляемых языков, но слоговые границы в русском и тюркских языках разные, что опять же порождает произносительные ошибки (ку-рыт-ка, кур-ыт-ка вместо куртка).

Произношение конечных сочетаний согласных русского языка также представляет для учащихся определенные трудности. В тюркских языках в конце слога и слова встречаются сочетания из двух согласных (каз.: жырт – порви; узб.: урф – обычай; каракалп.: карт – старик, старец). В узбекском языке дистрибутивные модели финальных сочетаний согласных более разнообразны, чем в казахском и каракалпакском, но в сравнении с русским языком они низкочастотны, а многие модели вообще не характерны, что и способствует появлению произносительных ошибок (быстр – быс-тыр, горн – го-рын, пост – пос или по-сыт).

Для прочного и быстрого усвоения произношения слогов и слов с сочетаниями согласных можно рекомендовать следующие упражнения на «наращивание» числа элементов в стечении:

1. Произнесите слова. Стечение согласных произносите слитно. Посчитайте слоги.

То – кто; мыл – смысл – смыли; бил – сбил – взбил – взбили; рыть – крыть – скрыть – вскрыть – вскрыто. И т.д.

2. а) К следующим словам присоедините приставку. Произнесите слова. Стечение согласных произносите слитно.

Валить, косить, вязать, катать, кушать, мириться, мытый, мятый, просить, тащить, трусить, хватка.

б) Как образовались стечения согласных в начале слова?

3. а) К следующим словам присоедините приставки воз- (вз-), вос- (вс-).

Разделите слова на слоги. Посчитайте слоги. Слова, в которых изменилось количество слогов, подчеркните.

Будить, держаться, награждение, ненавидеть, бить, битый, валить, волновать, дутий, лететь, ломать.

Ход, петь, пользоваться, производить, стать, пахать, помнить, плыть, плеснуть, потряхнуть, кричать, тревожиться.

б) Подчеркните слоги, в которых увеличилось количество согласных.

в) Правильно прочитайте слова. Стечения согласных произносите слитно.

4. а) К следующим словам присоедините приставку раз- (рас-). Разделите слова на слоги. Посчитайте количество слогов.

Бить, будить, громить, грузить, дразнить.

Порядок, кидать, толкать, трескаться, хватать, хвастаться.

б) В каких словах увеличилось количество согласных в слоге? Подчеркните эти слоги.

в) Произнесите слова с приставками. Стечения согласных произносите слитно.

5. а) Произнесите следующие слова. Стечение согласных произносите слитно.

Писать – написать – списать; лить – налить – слить; петь – запеть – спеть; пустить – запустить – спустить; бежать – забежать – взбежать; пахать – запахать – вспахать; греть – нагреть – взгреть.

б) Произнесите слова в обратном порядке. Например: списать – написать – писать и т.д.

в) Отработайте произношение этих слов.

Для усвоения сочетаний согласных, не встречающихся в родном языке учащихся, можно рекомендовать упражнения на изменение места расположения сочетаний в слове и изменение количества слогов, например:

а) Произнесите следующие слова. Стечения согласных произнесите слитно. Посчитайте слоги.

Убрал – брал, брал – убрал; собрал – перебрал – брал; брал – собрал – перебрал. И т.д.

б) Придумайте подобные примеры. Произнесите правильно слова.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Для проведения систематической работы над правильным произношением слогов и слов русского языка с сочетаниями согласных учителю необходимо постоянно подбирать лексический материал: слова, словосочетания, тексты, насыщенные трудными для нерусских учащихся сочетаниями во всех позициях слога и слова. Кроме того, необходимо помнить, что постановка произношения консонантных сочетаний русского языка в национальной школе связана не только с задачами артикуляционного характера, но и с проблемой осознания структурных особенностей русского слога и слова, то есть с законами построения звуковых цепей.

Проблемное обучение развивает у учащихся способность самостоятельно приобретать знания, развивать умение находить разные идеи по теме, находить новые способы умственной деятельности путем ее доказательства, переносить знания с одной проблемы на другую. У учащихся развивается внимание и воображение, повышается их познавательная активность за счет осмысления учебного материала. [5]

REFERENCES

1. Кобозева И.М. Теория речевых актов как один из вариантов теории речевой деятельности. -НЗЛ №17. М., 1986
2. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. - М.Н., 1984
3. D. A. Nurmanova. (2021). NEUTRALIZATION OF CONSONANT OPPOSITION IN ANLAUT OF THE UZBEK LANGUAGE. Academia Globe: Inderscience Research, 2(6), 347–354.
<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/FKT9M>



4. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress. Volume 2. ISSUE 8 | 2021.P.833

5. Sayfutdinova Durdon. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021. P.160



ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Л. Ражабов

ФВВ Академияси ҳузуридаги ФМИ магистранти

АННОТАЦИЯ

Ҳозирги кунда жамиятимизнинг барча соҳаларида сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ислохотлар амалга оширилаётганлиги, мамлакатимизда фуқаро муҳофазасини таъминлаш, аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, хорижий мамлакатлар тажрибасини амалда қўллаш олиш бўйича билим ва кўникмаларни ўрганишни тақозо этмоқда. Мақолада “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” дарсларида таълим олувчиларни фаоллаштиришга йўналтирилган интерфаол усуллардан фойдаланган ҳолда ўзлаштириш даражасини ўсишига эришиш, ушбу соҳадаги хориж тажрибаси бўйича фикрлар юритилган.

Калит сўзлар: пасив таълим, фаол таълим, интерфаол таълим, мунозара, давра суҳбати, ақлий ҳужум, ишбилармонлик ўйини, интерфаол таълим усули, маъруза-суҳбат, муаммоли маъруза, замонавий электрон таълим

КИРИШ

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётини зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Мамлакатимизда таълим тизимини ислоҳ қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Таълим тизимидаги ислохотларнинг муаммолари педагог кадрлар салоҳияти билан боғлиқ. Ўрганиш ва таҳлиллар замонавий педагогнинг касбий компетентлиги тезкор ривожланаётган таълим жараёнларининг талабларидан орқада қолаётганини кўрсатмоқда. Бу ҳолат педагогик таълимни ривожлантириш ва таълим жараёнида педагогларни тайёрлашни яхшилаш билан боғлиқ муаммоларнинг долзарблигини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

непрерывно меняющегося мира и открытости авторской позиции по отношению к нему». Отметим, что литературоведы признают за автором ведущее начало, что характерным для постреализма является противостояние персонажа окружающему миру. Постреалистический текст уже не замыкается в себе. Проза конца XX в. воскрешает авторитеты классической литературы с её поисками истины и состраданием к простым людям. Новый реализм в новых условиях приобретает дополнительные черты, которые он позаимствовал у постмодернизма, – всё то же частое цитирование и затейливая «игра» с каноническими текстами, насмешка над реальностью. Неореализм характеризуется восприятием существующего мира как объективной данности. В произведениях этого направления описываются и исследуются столкновения маленького человека с современной ему действительностью. Литературоведы относят творчество А. Слаповского к той разновидности постреализма, которая связана «с переосмыслением фундаментальных религиозно-мифологических систем путем создания современных версий Священного писания». Они говорят о провале «надежд на универсальное спасение» и одновременно о том, что даже маленький человек способен «осветить (на мгновение) “связь всего сущего” и тем самым возвыситься до универсального масштаба». Особенность русского постреализма – в большинстве произведений этого направления герои не приходят к абсолютной истине, их путь на страницах книг заканчивается поражением, которое как раз и открывает смысл происходящего. Данный тезис применим и к произведениям А. Слаповского – в смерти и страданиях его герои находят утешение, обретают гармонию. Герои прозы Алексея Слаповского – простые люди, но в каждом из них есть что-то особенное. Пётр Салабонов («Первое второе пришествие») – новый Иисус Христос, который снова приходит к людям в 1990-е гг. Он ставит перед собой задачу – вернуть к вере простых людей, найти духовность в каждом из них. Однако отчего-то все они сопротивляются, не верят в него, и ни один его последователь не остаётся с Петрушей до конца. Сергей Неделин («Я – не я») вдруг обнаруживает у себя удивительную способность – меняться телами, но в «шкуре» каждого нового человека (не всегда человека) ему приходится «выживать» в борьбе с миром, нигде ему нет покоя – и если ему не угрожают расправой люди, то время становится его палачом (будучи в облики Главного). У Ивана Непрядвина («Закодированный, или Восемь первых глав») каждый раз борьба концентрируется в конкретном персонаже или событии – алкоголизм, случайный попутчик, гипнотизёр,

который его закодировал, да так, что если герой сорвётся, то сразу умрёт. В «Войне балбесов» обнаруживается целый ряд персонажей, которые борются и сами с собой, и друг с другом, и со всем миром одновременно: Василий Венец против Павла Сусоева и Александра Бледнова, и все вместе против Андрея Ильича, а он – учитель словесности, живущий в мире собственных грёз, – против реальности. С ранними тезисами М. Липовецкого солидарен и критик К. Степанян. В заглавие одной из своих работ – «Назову себя Цвайшпацирен? (Любовь, ирония и проза постмодернизма)» – он даже вынес псевдофамилию героя повести А. Слаповского «Закодированный, или Восемь первых глав». В статье, опубликованной в 1993 г. в журнале «Знамя», критик отметил, что «для постмодерниста мир состоит из множества мозаичных осколков. Но реакция на это состояние мира может быть разной: либо радостная эйфория от возможности беспечно играть мозаичными кусочками, либо – трагическая попытка хоть как-то склеить расколотый мир, пусть даже собственной кровью». Трансформация направления и отличительные особенности именно русского постмодернизма – основная тема статьи К. Степаняна. Критик говорит о том, что постмодернизм в чистом виде не способен справиться с задачей познания реальности, однако, трансформируясь, он уже не ищет смыслов в реальности, а сам продуцирует их. Особенность повествовательной манеры А. Слаповского, которая заключается в умелой и тонкой, не всегда очевидной, компиляции классических сюжетов и приёмов, подчёркивает и Р. Арбитман в рецензии на роман «Первое второе пришествие» в 1994 г. Он говорит о том, что саратовский автор «вынужден складывать мозаичную картинку нашего бытия из готовых пластмассовых кусочков старенького литературного конструктора, который уже тысячекратно использовался до него». К последней разновидности реалистического течения литературовед относит и А. Слаповского. В основе направления лежит идея деятельного сочувствия, которая не противопоставляет чувствующий мир героев неосентиментализма «чернухе» постмодернизма, но с помощью всех кошмаров и ужасов окружающей действительности ещё более заостряет внимание на переживаниях персонажей. Любопытно, что М. Эпштейн в монографии «Постмодерн в русской литературе» (М., 2005) указывает на то, что неосентиментализм рождается на стыке авторской искренности и цитатности, характерной для всей традиции постмодернизма. Появление нового направления Н. Иванова связывает с возникновением в конце XX в. нового типа читателя. Здесь учёный приводит в пример и А. Слаповского, который, по

словам автора монографии, «чуть не знаковая фигура». Самым удачным его методом, позволяющим приблизиться к читателям 1990-х гг., Н. Иванова называет применение приёмов массовой литературы к серьёзной прозе. В частности, она говорит о том, что А. Слаповский, наряду с другими писателями реалистами и неосентименталистами конца XX в., усвоил «стилевые уроки» постмодернизма, при этом «на бессознательном уровне» продолжая традиции русской классики с её гуманизмом. Н. Иванова вводит и другой термин, который, по её мнению, характеризует прозу А. Слаповского, В. Астафьева, А. Варламова, П. Алешковского и некоторых других писателей. Исследователь относит их творчество к направлению трансметареализма, который характеризуется, главным образом, «развёртыванием текста как единой многоуровневой метафоры». Это и отличает литераторов данного течения от постмодернистов и реалистов. Последних же критик называет «эпигонами русской литературы», истинными продолжателями классической традиции. Проанализировав научные и публицистические работы, мы заметили, как меняется представление учёных и критиков о ранней прозе писателя. В целом взгляд критиков на творчество Алексея Слаповского повторяет их суждения о векторе движения литературного процесса. Если поначалу литературоведы характеризуют прозу писателя как постмодернистскую, то затем, говоря о кризисе постмодернистской эстетики, они обнаруживают в его произведениях всё больше реалистических мотивов. Первым попытку интерпретировать творчество А. Слаповского предпринял М. Липовецкий, отнеся автора к ряду писателей-постмодернистов. Трансформацию постмодернизма именно в прозе у Алексея Слаповского уловил К. Степанян. В дальнейшем его тезис развили М. Липовецкий вместе с Н. Лейдерманом, а затем и Н. Иванова, которые провозгласили А. Слаповского неореалистом. Впрочем, и они не смогли более или менее точно охарактеризовать его прозу и не стали вписывать творчество автора в рамки уже существующих течений, но попытались сконструировать новые понятия. Постмодернист или неореалист, постреалист или же трансметареалист, сентиментальный натуралист или неосентименталист – к какому направлению можно отнести творчество писателя? Какая дефиниция молодому прозаику «к лицу»? Проблема интерпретации произведений А. Слаповского занимает многих критиков. Его затейливо-иронические, лукаво-простодушные тексты с ловко закрученной фабулой не подходят в полной мере ни под одно из определений и заставляют исследователей подбирать новые понятия, чтобы

максимально точно описать своё впечатление от его творчества Главную особенность литературного почерка А. Слаповского, на наш взгляд, уловил критик А. Немзер, подводя итоги последнего десятилетия XX в. Назвав А. Слаповского и А. Дмитриева лучшими писателями «среднего» поколения, он отметил необыкновенную связь их прозы с классической традицией, которая при этом чувствует «боль, суетливость, жестокость, нелепицу нашего сегодня...»

Наиболее полное, устоявшееся и аргументированное изложение концепция этого нового направления получила в учебном пособии Н.Л.Лейдермана и М.Н.Липовецкого «Современная русская литература». В основу этого изложения и была положена идея противопоставления мирообразов Хаоса и Космоса, то есть гармонии с такими её составляющими «центрирующими ценностями», как Истина и Смысл Бытия. Необходимость осмысления реального состояния общества и человека в нём потребовала обращения писателя к крупной жанровой форме - роману. Жанровая форма авантюрного романа с её давно утраченным жанровым содержанием оказалась наиболее «приемлемой» для отражения современной, абсурдной действительности. Сохранённая основа кумулятивного сюжета авантюрного романа (путешествие, похождения и приключения героя) дает возможность А. Слаповскому показать срез разных слоёв общества. Строясь по типу механического присоединения эпизодов, такой сюжет позволяет «прикрепить» ряд показательных мини сюжетов, отражающих хаотичность современной действительности. Таким образом автор наполняет «клетки» устаревшей формы новым - этологическим — жанровым содержанием. Возможность такого содержания безусловно присутствовала в жанре, но в скрытом виде. А. Слаповский сумел почувствовать её и использовать для отражения своего художественного замысла. В трансформированном виде в романе А. Слаповского присутствует и другая жанровая особенность авантюрного романа - ослабленная собственно романная проблематика, становление и развитие характера в его связях с обществом и миром. Её использование обусловлено возможностью глубинного сопоставления архетипического героя-пикаро, ещё не умеющего рефлексировать и оценивать свои поступки, с героем, уже «не управляющим» (А.Камю) своим сознанием. Подобный герой - «не-я-герой» - не деятель, не творец, не субъект культуры и даже не совсем личность. Эта антропологическая проблема выдвигается на передний план самой художественной структурой романа

(заглавием, сосредоточением собственно романной проблематики в начале и конце произведения, сюжетной схемой). Основанием сюжетной схемы романа становится именно неспособность героев к деянию, вообще делу, понятому как ценность. Бездеятельность и бездуховность, порождающие друг друга, являются, по А. Слаповскому, причиной деградации общества.

REFERENCES

1. Слаповский А. Первое второепришествие // Электронная библиотека. URL:http://royallib.com/read/slapovskiy_aleksey/pervoe_vtoroe_prishestvie.html#614400 (дата обращения: 20.09.2016).
2. Слаповский А. Я – не я. Саратов, 1994. С. 105.
3. Липовецкий М. Глава третья. Игра как миф : проза «новой волны» // Липовецкий М. Русский постмодернизм : очерки исторической поэтики. URL:http://yanko.lib.ru/books/cultur/lipovecky_russ_post-modern-lit.htm#_Точ19601467 (дата обращения: 20.09.2016).
4. Лейдерман Н., Липовецкий М. Жизнь после Смерти, или Новые сведения о реализме // Новый мир. 1993. № 7. С. 238.
5. Липовецкий М. Указ. соч.
6. Степанян К. Назову себя Цвайшпацирен? (Любовь, ирония и проза развитого постмодернизма) // Знамя. 1993. № 11. С. 190.
7. Арбитман Р Книгожизнь Алексея Слаповского // Лит. газ. 1994. № 12. С. 4.
8. Кузьменков А. Ангел лаодикийской церкви // Лит. газ. 2015. № 48. С. 4.
9. Иванова Н. Преодолевшие постмодернизм // Знамя. 1998. № 4. С. 196.
10. Немзер А. Замечательное десятилетие // Новый мир. 2000. № 1. С. 217.



ТАРАҚҚИЁТДА АХБОРОТЛАШУВ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ

Бекдавлат Алиев

Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори

АННОТАЦИЯ

Мақолада рақамли иқтисодиёт ва рақамли технологияларга асосланган электрон бизнес, электрон тижорат билан боғланган, рақамли товар ва хизматлар ишлаб чиқараётган ва тақдим этаётган иқтисодий фаолият илмий-назарий ёритилган.

Бунда иқтисодий хизмат ва товарлар учун ҳисоб-китоблар электрон пул орқали амалга оширилиши, Рақамли иқтисодиёт шакллари талқин қилинган.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат, ахборот, бизнес, тадбир-корлик, электрон тижоарт, ялпи ички маҳсулот, ягона дарча, илмий-техник оммалашув, интеграция.

ABSTRACT

The article describes the economic activity of digital economy and e-business based on digital technologies, connected with e-commerce, producing and providing digital goods and services.

In this case, the settlements for economic services and goods are made through electronic money, the forms of the digital economy are interpreted.

Keywords: digital economy, e-government, information, business, entrepreneurship, e-commerce, gross domestic product, single window, scientific and technical popularity, integration.

КИРИШ

Инсоният бошига келган пандемия синовлари унинг ижтимоий, иқтисодий, интеллектуал ҳаётида кескин ўзгаришлар содир этди. Хусусан, таълим, савдо-иқтисодий, ижтимоий алоқларни тўлиқ онлайн платформаларга оммавий ўтилишига олиб келди.

Жумладан, Ўзбекистонда ҳам “Рақамли Ўзбекистон-2030” дастурини ишлаб чиқилиши ва ҳаётга татбиқ этилишига сабаб бўлди дея айта оламиз. Бу, энг аввало, асосий мақсад пухта ва мукамал ташкилий-ҳуқуқий механизмларни шакллантириш, қолаверса, инновацион ғоялар, технологиялар ва ишланмаларни жорий



этиш бўйича давлат органлари ва тадбиркорлик субъектларининг узвий ҳамкорлигини таъминлашдан иборат бўлди.

Далватимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев томонидан барча соҳа ва тармоқларда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни рақамли технологиялар билан қамраб олиш, бу борада замонавий билимларни чуқур эгаллаган, интеллектуал салоҳиятли кадрларни етиштириш, мамлакатда “ахборотлашган жамият” муҳитини яратиш вазифаси устувор қилиб қўйилди.

Чунки, энди рақамли технологияларнинг узоқ вақт давомида тараққий этиши иқтисодий ривожланиш тенденцияларини белгилайди ва жамиятни туб ўзгаришларга, интеграцион тараққий этишига олиб келади.

Бугунги кунда рақамли иқтисодиётни шакллантириш кўпгина мамлакатлар учун устувор йўналишлардан бири сифатида қаралиб, масалан, АҚШ, Буюк Британия, Германия, Япония каби етакчи мамлакатлар бунинг намунасидир[1].

Мазкур мамлакатлар қоида тариқасида “рақамли ривожланиш кун тартиби”ни амалга оширишнинг узоқ даври ва устуворликларнинг узлуксизлиги – асосий ахборот-коммуникация инфратузилмасини барпо этишдан то мувофиқлаштирилган инфратузилмани шакллантиришгача бўлган даври билан тавсифланади.

Бу соҳадаги сиёсат ва рақамли технологияларни кенг жорий этишни қўллаб-қувватлаш дастурлари янада жадал суратларда янги босқичларга ўтиб бормоқда.

Шу боис Ҳаракатлар стратегиясидан – тараққиёт стратегияси сари дастурида ҳам президентимиз томонидан рақамлаштириш ислохотлари олға сурилган. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасига қилган Мурожаатномасида “2020 йил – Илм- маърифат ва рақамли иқтисодиёт йили” деб эълон қилгани ҳам бежиз эмас эди.

Таъкидлаш жоизки, ушбу мурожаатномадан кейин аҳолимизда “рақамли иқтисодиёт” атамаси ҳақида кўплаб саволлар туғила бошлади.

Шундай бўлса-да, баъзи бировлардан “рақамли иқтисодиёт нима?”, деб сўрасанг аниқ ва ишонч билан таҳлилий жавоб айтолмаган ҳоллар ҳам учрамоқда.

Рақамли иқтисодиёт – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт ёки веб-иқтисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дастлаб, 1995 йилда америкалик дастурчи Николас Негропонтэ “рақамли иқтисодиёт” терминини амалиётга киритди. Ҳозирда бу истилоҳни бутун дунёдаги сиёсатчилар, иқтисодчилар, журналистлар, тадбиркорлар – деярли барча қўлламоқда. 2016 йилда Бутунжаҳон банки дунёдаги рақамли иқтисодиётнинг аҳволи ҳақида илк марта маъруза эълон қилди “Рақамли дивидендлар” ҳақида[2].

Рақамли иқтисодиёт амалда: масалан, харидорга пойафзал керак. Уни бозорга тушиб ўзи бевосита танласа ва нақд пулга сотиб олса, бу анъанавий иқтисод саналади. Телеграмдаги бирон савдо боти орқали ўзига маъқул товарни танлаб, товар эгасига пулни электрон тўлов тизими орқали тўлаш ва товарни етказиб бериш хизмати орқали олиш – рақамли иқтисодиёт дейилади. Бу масалани энг содда маиший мисол орқали тушунтиришдир. Аслида, ҳаммамиз аллақачон рақамли иқтисодиёт ичидамиз, унинг қулайликларидан фойдаланиб келмоқдамиз. Хусусан, ойликларимиз пластик карталарга тушади, электрон тўлов орқали коммунал хизматлар, телефон, интернет ва бошқа маҳсулот ва хизматларга тўлов амалга оширамиз, электрон тарзда солиқ декларацияси топширамиз, картадан картага пул ўтказамиз, таомларга ўтирган жойда буюртма берамиз ва ҳоказо.

Рақамли иқтисодиётни илмий жиҳатдан тавсифласак – бу нолдан бошлаб яратилиши лозим бўлган қандайдир бошқача иқтисодиёт эмас, янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари яратиш ҳамда уларни кундалик ҳаётга жорий этишдир. Бу эса, мавжуд иқтисодиётни янгича тизимга кўчириш деганидир.

Белгилари:

юқори даражада автоматлаштирилганлик;

электрон ҳужжат алмашинуви;

бухгалтерлик ва бошқарув тизимларининг электрон интеграциялашуви;

маълумотлар электрон базалари;

CRM (мижозлар билан ўзаро муносабат тизими) мавжудлиги;

корпоратив тармоқларни ўз ичига олади.

Рақамли платформаларнинг ривожланиш соҳасидаги ёрқин мисолни “Алибаба” электрон савдо тизимига эга бўлган Хитой компаниясини келтириб ўтиш мумкин. Ундан фойдаланиш тажрибаси шуни кўрсатадики, маълумотлар тўплаш жараёнида иқтисодиётнинг турли секторларига экспансия учун ўта

рақобатли устунликлар яратилади. “Алибаба” бу – оддийгина рақамли платформа эмас, балки платформалар экотизимидир.

Рақамли иқтисодиёт инсонларнинг турмуш даражасини сезиларли даражада оширади, бу унинг асосий фойдасидир.

Рақамли иқтисодиёт коррупция ва “қора иқтисодиёт” нинг асосий кушандасидир. Чунки, рақамлар ҳамма нарсани муҳрлайди, хотирада сақлайди, керак пайтда маълумотларни тез тақдим этади. Бундай шароитда бирон маълумотни яшириш, яширин битимлар тузиш, у ёки бу фаолият ҳақида тўлиқ ахборот бермасликнинг иложи йўқ, компьютер ҳаммасини намоён қилиб қўяди. Маълумотлар кўплиги ва тизимлилиги ёлғон ва қинғир ишларга йўл бермайди, чунки тизимни алдаш имконсиз. Натижада “ифлос пулларни” ювиш, маблағларни ўғирлаш, самарасиз ва мақсадсиз сарфлаш, ошириб ё яшириб кўрсатиш имкони қолмайди. Бу эса иқтисодиётга легал маблағлар оқимини оширади, солиқлар ўз вақтида ва тўғри тўланади, бюджет тақсимоти очиқ бўлади, ижтимоий соҳага йўналтирилган маблағлар ўғирланмайди, мактаблар, касалхоналар, йўлларга ажратилган пуллар тўлиқ етиб боради.

Рақамли иқтисодиёт фани ҳақида Ўзбекистон таълим тизимида ҳам бир қатор ўқув-қўлланмалар, дарсликлар ва турли адабиётлар яратилган бўлиб, хусусан, С.С. Гулямов, Р.Ҳ. Аюпов, О.М. Абдуллаев, Г.Р. Балтабаева “Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялари” ўқув қўлланмасини ёзганлар (С.С. Гулямов, Р.Ҳ. Аюпов, О.М. Абдуллаев, Г.Р. Балтабаева. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия” нашриёти, 2019, 447 бет.)

Саккиз боб, 443 саҳифадан иборат мазкур қўлланма ҳозирги пайтда тезкорлик билан ривожланаётган ва бир қанча шов-шувларга сабаб бўлаётган рақамли иқтисодиёт соҳасига ва унинг инфратузилмасини тавсифлашга бағишланган. Унда рақамли иқтисодиётнинг асоси бўлган муаммолар билан боғлиқ масалалар, рақамли иқтисодиётга ўтиш механизми, криптографиянинг муҳим элементи бўлган хешлаштириш функциялари ҳақида бир қанча маълумотлар берилган. Ундан сўнг, криптографиядан рақамли валюталарга ўтиш мантиқи, криптовалюталарнинг асосий турлари ва уларнинг хоссалари баён этилган. Турли ҳилдаги лойиҳаларга инвестициялар жалб қилиш учун ишлатиладиган ISO ҳақида тушунча ва унинг моҳияти кўрсатилган. Ўқув қўлланма охирида криптовалюталар бўйича бир қанча саволларга жавоблар ва глоссарий берилганки, улар ёрдамида бу соҳани янада чуқурроқ ўрганиш мумкин бўлади. Қўлланма олий таълимнинг бакалавр ва магистр мутахассисликларида

таълим олаётган талабаларга тавсия этилиб, шу йўналишда тадқиқот ишлари олиб бораётган банк-молия ва илмий ходимларга ҳамда криптовалюта соҳасидаги инновациялар билан қизиққан барча тадбиркорлик субъектлари фойдаланиши учун мўлжалланган.

“Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари” (– Тошкент: Бинзес ва тадбиркорлик олий мактаби 2020. – 979 б.)” чоп этилган бўлиб, “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида белгиланган устувор вазифалардан келиб чиқиб, рақамли иқтисодиёт, рақамли трансформациялашув шароитида корпоратив ва лойиҳавий бошқарув, бизнес стратегиялари ва моделлари, тадбиркорлик кўникмалари, камбағалликни қисқартириш, электрон тижорат ва маркетинг масалалари бўйича янги фикр ва тажриба алмашиш борасида илмий мақолалар ёритилган.

Шу билан бирга, ёшларнинг илм-фанга бўлган интилишлари ва ғояларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабида 2020 йил 24 декабр куни “Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти” халқаро илмий-амалий онлайн конференцияга келиб тушган маъруза тезислари жамланган.

Давлатнинг рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўлини танлаганлиги ахборот технологиялари соҳасида ва умуман, электрон ҳужжатлар айланмаси соҳасида янги йўналишлар очиб беради. “Рақамли технологиялар” томон бурилишга бутун жаҳон интернет тармоғи ва сифатли алоқанинг ривожланиши сабабчи бўлди.

Рақамли иқтисодиёт назарияси ўз ривожланишининг бошланғич давридадир. “Рақамли иқтисодиёт” атамаси илмий амалиётга испаниялик ва америкалик сотсиолог, ахборотлашган жамиятнинг етакчи тадқиқотчиси Мануел Кастелс томонидан киритилган. Бу борада у ўзининг “**Ахборот даври: иқтисод, жамият ва маданият**” уч жилдли монографиясини чоп этган. Ҳозирги вақтга келиб, рақамли иқтисодиёт назарияси тўлалигича ҳали шакланмаган ва кўпчилик иқтисодчилар томонидан кенг миқёсда ўрганилмоқда. Илмий адабиётларда



ҳозирги замон “Янги рақамли иқтисодиёти” турли атамалар билан номланади. Масалан, “Постиндустриал иқтисодиёт” (Д.Белл), “Ахборотлашган иқтисодиёт” (О.Тоффлер), “Мегаиқтисодиёт” (В.Кувалдин), “Ахборот ва алоқага асосланган иқтисодиёт” (И.Ниинилуто), “Техноиқтисодиёт ёки рақамли 9 иқтисодиёт” (Б.Гейтс), “билимларга асосланган иқтисодиёт” (Д.Тапскотт). Ушбу тушунчаларни боғлаб турадиган омил – бу иқтисодий жараёнларнинг глобаллашув жараёнида ахборот технологияларининг бирламчи ўринни эгаллаши бўлиб ҳисобланади. Рақамли иқтисодиёт ҳақида сўз борар экан, ахборотлашган жамиятга таъриф бериб ўтиш ўринлидир. Ахборотлашган жамият деб, унда фаолият юритаётган кишиларнинг кўп қисми ахборотни, айниқса, унинг энг олий шакли бўлган билимларни ишлаб чиқариш, сақлаш, қайта ишлаш ва сотиш билан банд бўлган жамиятга айтилади. Жамият ва иқтисодиёт ривожланишининг бу босқичига жамият ҳаётида ахборот, билим ва ахборот технологиялари аҳамиятининг янада ошиши хосдир. Рақамли иқтисодиёт устивор бўлган ахборотлашган жамиятга таъриф беришда иқтисодчилар турли технологик, иқтисодий, меҳнат, фазовий, истеъмол ва креатив мезонлардан фойдаланадилар.

Баъзилар рақамли иқтисодиёт нега керак ва нима беради, деб ўйлаши мумкин. Рақамли иқтисодиёт деганда, фақатгина Блокчейн (Blockchain) технологиясини ва улардан халқаро молия бозорларида фойдаланиш масалаларини ёки криптовалюталарни тушуниш керак эмас. Албатта, Блокчейн технологияси, криптовалюталар ҳам рақамли иқтисодиётнинг бир бўлаги. Лекин рақамли иқтисодиёт (Digital Economy) деганда, рақамли коммуникациялар, ИТ ёрдамида олиб бориладиган иқтисодиёт тушунилади. Бунда, яширин иқтисодиётга барҳам бериш воситаси сифатида ҳам қараш мумкин. Чунки биринчидан, барча операциялар электрон рўйхатдан ўтилишига, иккинчидан шаффоф бўлишига эришилади. Қолаверса, ишлаб чиқаришда янги ИТ технологиялар қўлланилиши туфайли маҳсулот ва хизматларнинг таннархи пасаяди. Рақамли иқтисодиётнинг ўз валютаси (криптовалюта, биткоин), пул сақлайдиган кармони (блокчейн), ҳисоблаш усуллари (майнинг) каби терминлари мавжуд. Мазкур дастурлар ҳақида янада батафсил илмий тадқиқотлар олиб бориш бугуннинг долзарб масаласи.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш

вазирлиги ахборот хизмати маълумотларига кўра, телекоммуникация инфратузилмасини ривожлантириш йўналишида ва муаммоин ҳал қилиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, Интернет тармоғига уланишнинг умумий ўтказувчанлик қобилияти 1 200 Гбит/с.ни ташкил этиб, коммутация маркази орқали 750 Гбит/с тезликда Интернет тармоғига чиқиш имконияти яратилди ва тармоқнинг юкланиш даражаси 76,6 фоизни ташкил этмоқда.

2020 йилнинг 1 январидан оператор ва провайдерларга Интернет хизматлари учун тариф 2021 йилга нисбатан 34 фоизга арзонлаштирилиб, 1 Мбит/с учун 56,0 минг сўмни ташкил этди. Интернет хизматидан фойдаланувчилар сони бугунги кунда 22 млн. дан ортди, шундан, мобил Интернет фойдаланувчилари сони 19 млн.ни ташкил этади. Республика бўйича 237 та объектда магистрал телекоммуникация тармоқлари кенгайтирилиб, телекоммуникация ускуналари модернизация қилиниб, магистрал телекоммуникация тармоқлари ўтказувчанлик қобилияти вилоятлараро даражада 200 Гбит/с.га, туманлараро даражада эса 40 Гбит/с.га етказилди. Ижобий натижалар бор, бироқ бу етарли дегани эмас.

Зеро, рақамли иқтисодиёт ақл бовар қилмас катта ҳажмда рақамли маълумотларни тўплашда давом этмоқда.

2022 йилда глобал IP трафик ҳажми 150 700 Гбит/с(солиштириш учун 2017 йил 45 000 Гбит/с) чиқиши кутилаётгани даврдан ортда қолмасликка чақиради(1-жадвал).

1-жадвал. Ўзбекистонда интернет тазимидан фойдаланувчилар ҳақида жадвал.

№	Номи	Рақам	Гбит/с.	Ҳудуд
1	Интернет тармоғи ўтказувчанлиги	1 200	750	Ўзбекистон
2	Интернет хизматидан фойдаланувчилар сони	22 млн.	750	Ўзбекистон
3	Мобил Интернет фойдаланувчилари сони	19 млн.	750	Ўзбекистон

Рақамли бизнес бу – жисмоний ва рақамли дунёларни бирлаштирадиган янги бизнес-моделлар пайдо бўлишидир. Фарба School of Management рақамли ўзгаришни “Корхоналар қиймати ва унумдорлигини тубдан ошириш учун замонавий технологиялардан фойдаланиш”

сифатида таърифлайди. Ижтимоий тармоқлар, смартфонлар бозори, интернетга кенг полосали уланиш, машинали ўқитиш технологиялари ва сунъий интеллектнинг “портлаб” ўсиши компаниялар фаолият юритаётган дунёни ўзгартириб юборади. Улар ёки янги бозордаги бўш жойларни эгаллашлари ёки мавжуд бўш ўринларни ўзгартирган ҳолда, ўзларини ўзгаришларга мослаб олиши лозим бўлади. Шундай бўлиб чиқадики, ташкилотларнинг 22 рақамли ўзгартириш бу – янги ахборот технологияларининг ривожланиши ва бутун дунё бўйлаб фаол тарқалишига жавоб ҳисобланади.

Рақамли ўзгартириш турли даражаларга эришиб, улар ўртасидаги фарқ иккита атама – “рақамли кўринишга келтириш” ва “рақамлаштириш” ўртасидаги фарқ билан бир хил маънога эга бўлади. Рақамли кўринишга келтириш бу – ахборотни жисмоний воситалардан рақамли воситаларга ўтказишдир. Рақамли кўринишга келтиришга мисоллар – электрон китоблар, видеокурслар, суратнинг рақамли нусхасини яратиш ва бошқалар. Бунда ахборот структурасининг ўзгариши рўй бермайди: у фақат электрон шаклга эга бўлади, холос.

Рақамли кўринишга келтириш кўпинча мавжуд бизнес-моделни такомиллаштириш ва бизнес-жараёнларни оптималлаштириш учун фойдаланилади. Рақамлаштириш эса – рақамли шаклда бўлган бутунлай янги маҳсулотлар яратишдир. Масалан, мултипликацияли динамик ўқув курси ёки ҳужжатни шарҳлашнинг интерактив тизими – бу рақамлаштиришдир. Рақамлаштириш асосида яратилган маҳсулотни унинг сифатини жиддий йўқотмасдан туриб, техник воситаларга ўтказишнинг имкони йўқ, шу сабабли рақамлаштириш, рақамли кўринишга келтиришдан фарқли равишда, бизнесга сезирарли даражада кескин ривожланиш ва янги рақобатли устунликлар қўлга киритишга имкон беради.

Президент Ш.Мирзиёв таъкидлаганидек, “Албатта, рақамли иқтисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Бироқ, қанчалик қийин бўлмасин, бу ишга бугун киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади. Шу боис, рақамли иқтисодиётга фаол ўтиш – келгуси 5 йилдаги энг устувор вазифаларимиздан бири бўлади”.

Аҳолининг барча қисмида ҳам рақамли малаканинг етарли эмаслиги рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўлдаги яна бир тўсиқ бўлиб қолмоқда. Шунингдек, рақамли товар айланмаси ҳам паст даражада. Бу борада технология оламида

кўпчиликка маълум бўлган «Microsoft» корпорацияси асосчиси Билл Гейтснинг бир фикрини эслаш ўринли: “Тез орада Ер шарида фақат икки тур компаниялар мавжуд бўлади. Биринчиси, интернет орқали бизнес қилувчи ва иккинчиси, бизнестан чиққан компаниялар”. Тадбиркорлар мана шу жиҳатни инобатга олган ҳолда, дунёга машҳур бизнес истеъмолчи учун, “бизнес бизнес учун”, “истеъмолчи истеъмолчи учун” тамойиллари асосида ўз фаолиятини ташкил этиши мақсадга мувофиқ.

Айни пайтда Click, Payme, M-bank, Uray, Oson ва бошқа онлайн тўловларга имкон берувчи тўлов тизимлари мавжуд бўлишига қарамай мобил тўловлар, интернет, коммунал тўловлар учун онлайн тўловларни амалга ошириш кўрсаткичи юқори эмас. Ўтган давр мисолида айтсак, 2017 йилда 34 фоиз ҳисоб эгалари рақамли тўловни амалга оширган. Солиштириш учун бу кўрсаткич Буюк Британияда 96 фоизга тенг. Эътиборлиси, терминал орқали тўловлар сон ошиб бормоқда. Масалан, 2018 йилда терминал орқали тўловлар 53 триллион сўмни ташкил этган.

Шунингдек, узоқ вақт давомида бюджет ташкилотларида техник ходим ҳисобланган ахборот технологиялари мутахассисларига юқори маош берилмагани ҳам рақамли иқтисодиётни жорий этишдаги муаммо бўлмоқда. Сабаби малакали дастурчилар ойлик юқори бўлмаса ташкилотлардаги бу лавозимда узоқ қолмаган. Улар халқаро ташкилотлар, қўшма корхоналар, чет эллик буюртмачилар учун ишлашни маъқул кўрадилар. Эндиликда уларга устама бериш механизми жорий этиш, уларни хаолқаро бозорларда ишлашга ўргатиш ва бунинг илмий асосларини яратиш биз учун кечиктириб бўлмас ягона йўлдир.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Рақамли иқтисодиёт атамаси икки хил турли тушунчаларни ифодалаш учун ишлатилади. Биринчидан, рақамли иқтисодиёт – бу ривожланишнинг замонавий босқичи ҳисобланиб, у ижодий меҳнат ва ахборот неъматларининг устувор ўрни билан тавсифланади. Иккинчидан, рақамли иқтисодиёт – бу ўзига хос назария бўлиб, унинг ўрганиш объекти, ахборотлашган жамият ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа бошқаруви миллий агентлиги рақамли иқтисодиётни жорий этиш ва ривожлантириш соҳасида ваколатли орган ҳисобланади. Бундан ташқари Иқтисодиёт, Молия, Ахборот

технологиялари, Адлия вазирликлари ва бошқа қатор давлат тузилмалари рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун ўзига хос масъулият ва вазифаларга эга[3].

Ақл-заковат ва илм — тараққиёт қанотидир. Замонавий илм-фаннинг чўққиси юқори технологияларда, рақамли оламда кўзга ташланади. Тўртинчи саноат инқилоби тараққиётнинг янги кўриниши — “рақамли иқтисодиёт” бошлангани англатади. Бугунги кунга келиб жаҳонда рақамли иқтисодиёт тараққий этган 20 мамлакатда 2 триллион АҚШ долларини ташкил этаётгани ҳисоблаб чиқилган. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда дунёда пешқадам Буюк Британияда эса у ҳозирнинг ўзида миллий ялпи ички маҳсулотнинг 12 фоизига етди. Рақамли иқтисодиёт технологик ва бизнес жараёнлари, ишлаб чиқариш, логистика ва тайёр маҳсулотларнинг савдосини рақамлаштиришни назарда тутди.

Мамлакатимизда 2020 йилнинг ўзида транспорт, геология, таълим, архив каби соҳаларни тўлиқ рақамлаштириш белгиланган ва бу борадаги ишлар жадал олиб борилмоқда. Замонавий инфратузилмага эга бўлган “IT-парк”лар ҳам фикримиз далилидир.

Аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг давлат органлари билан контактсиз алоқа шакллари янада ривожлантириш мақсадида Ягона интерактив давлат хизматлари порталининг янги версияси, Бош вазирнинг тадбиркорлар мурожаатларини кўриб чиқиш виртуал қабулхонаси “business.gov.uz” портали ишга туширилгани рақамли иқтисодиёт ривожини йўлдаги муҳим қадамлардир.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини барча манфаатдор вазирликлар, идоралар, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларига кўриб чиқиш, электрон рақамли имзодан фойдаланган ҳолда келишиш (виза қўйиш) учун, шу жумладан, бир вақтнинг ўзида кенг жамоатчилик ва мутахассислар муҳокамасини ўтказиш ва тезкор жўнатиш учун вақтни ва меҳнат ресурсларини сезиларли даражада тежаш мақсадида ягона электрон тизими “project.gov.uz” жорий этилгани ҳам қувонарли [4].

“Рақамли тенгсизлик тенгсизликларнинг дояси” бўлиб турган бир пайтда иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамлаштириш жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув, дунё бозорида ўз ўрнига эга бўлиш, иқтисодий раванқ топиш, аҳолига қулайликлар яратишнинг асосий шартидир.

Қувонарлиси, бу мамлакатимизда асосий кун тартибидаги масала. Рақамлаштириш борасида Ўзбекистон дадил одимлар билан илдамламоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги ПФ5349-сонли “Ахборот технологиялари ва коммуникатсиялари соҳасини янада такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони ижро этиш борасида, шунингдек, республикаимизда рақамли иқтисодиётни, давлат бошқарув тизимида замонавий ахборот технологияларини жадал ривожлантириш бўйича шароитлар яратиш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси 2018 йил 31 августда рақамли иқтисодиётнинг мақсад ва вазифаларини белгилаб берадиган «Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни жорий қилиш ва янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 4 та қарор қабул қилинди.

Рақамли иқтисодиётни ташкил қилишга режа асосидаги ёндашув давлат раҳбарлиги кўрсатмалари асосида рақамли инфратузилманинг босқичма босқич ривожланишни ва мос келувчи секторларни турли иқтисодиёт субъектлари билан мақсадли йўналтирилган тарзда “тўлдириш”ни назарда тутди.

Бунда рақамли иқтисодиёт фаолият кўрсатиши учун технологик база ва инфратузилма шакллантириш хусусий бизнеснинг (биринчи навбатда, кичик ва ўрта бизнеснинг) ривожланишига хизмат қиладиган шароитлар яратиш билан бир вақтда (ёки ундан олдин) рўй беради.

Режали ёндашув доирасида технологик йўналишда, режа асосидаги рақамли иқтисодиётнинг устувор йўналишларига мувофиқ ривожланади. Қолган технологиялар ёки суст ривожланган бўлади ёки импорт қилинади. Иккинчи ёндашувнинг асосий устунлиги яратилаётган инфратузилма базасининг универсаллиги ва тезкорлиги ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиётни ташкил қилиш қоғозсиз электрон ҳужжат алмашинуви ва иш юритишни ташкил қилган ҳолда, барча маъмурий тартиб-таомилларни ва операцион жараёнларни рақамлаштириштириш имконини беради.

Корхоналар, аввало, бошидаёқ фақат маълум вақтдан кейингина ўзини оқлайдиган катта харажатларга тайёр бўлиш зарур. Баъзида компаниялар дарҳол самара бўлишини кутадилар, бунинг эса ҳар доим ҳам иложи йўқ. Жараёнлар босқичма-босқич йўлга қўйилади, ходимлар янгича ишлашга кўникадилар, мижозлар эса жорий этилган маҳсулотлар тўғрисида хабардор бўладилар ва улардан фойдалана бошлайдилар.



Иккинчидан, раҳбарият ва ходимларнинг рақамли саводхонлигини ошириш устида ишлашга тўғри келади. Бу ундовлар ноёб нарса эмас. Бутун жаҳондаги компаниялар уларга доимий равишда дуч келадилар.

Фаолиятнинг очиқлиги ва шаффофлиги ҳамда аҳоли пунктларида давлат хизматларидан фойдаланишнинг кафолатланганлигини таъминлаш, идоралараро электрон ҳамкорлик жараёнларини автоматлаштириш, ва “Рақамли идора” лойиҳасини амалга оширишнинг амалий тажрибасини бошқа давлат органлари ва ташкилотларида уларнинг фаолияти хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда жорий этишни тақозо этади.

Ўзбекистонда давлат иштирокидаги компаниялар иқтисодиётнинг анчагина улушини эгаллайди. Шунинг учун уларни рақамлаштириш мамлакат ЯИМ ўсишига бевосита таъсир қилмоқда. Бошқача қилиб айтганда, давлат секторининг рақамли трансформацияси Ўзбекистонда иқтисодий ўсишнинг муҳим драйверларидан биридир.

Яқин келажакда Рақамли технологиялар иқтисодиётга боғлиқ 50 фоиздан ортиқ соҳаларни кескин ўзгартириб юборади. Ушбу қараш ахборот технологиялари ва рақамли платформалар бизнес моделларни кескин ўзгартириб, уларнинг самарадорлигини воситачиларни бартараф этиши ва жараёнларни оптималлаштиришига асосланган.

Жаҳон банки ҳисоб-китоблари биноан, тезкор интернет фойдаланувчиларининг 10 фоизга кўпайиши йиллик ЯИМ кўламини 0,4 фоиздан 1,4 фоизгача ошириши мумкин экан.

Шунингдек, рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ЯИМдаги улуши ҳар йили тахминан 20 фоизга ўсиши (ривожланган мамлакатларда бу кўрсаткич 7 фоиз атрофида) унинг аҳамияти белгилайдиган кўрсаткич сифатида қаралади.

2010 йилда Boston Consulting Group компанияси рақамлаштириш кўламини 20 та мамлакатдан иборат гуруҳ учун 2,3 триллион долларга (4,1 фоиз ЯИМ) баҳолаган. Агар бу тенденция сақланиб қолса, 10-15 йилдан кейин бундай иқтисодиётнинг жаҳон ЯИМдаги улуши 30-40 фоизга яқинлашади.

Ривожланаётган иқтисодиётларда ИТ соҳасида тахминан 1 фоиз аҳоли меҳнат қилади, ушбу сектор иш ўринларини бошқаларга солиштирганда нисбатан камроқ яратади. Бироқ ИТ йўналишининг юксалиши янги технологияларни ўзлаштираётган бошқа соҳаларда иш ўринларининг яратилишига туртки беради (ИТ соҳасида яратилган ҳар 1та янги иш ўрни учун ёндош соҳаларда 4,9та иш ўрни тўғри келади).

Рақамли иқтисодиёт тадбиркорлар ва ўзи учун ишлайдиган инсонларга янги уфқларни дадил очиб бермоқда.

Кўпинча IT соҳасининг ривожига қўшилган ҳисса иқтисодиётнинг ривожланиши, янги иш ўринларининг яратилиши, одамлар ва бизнес учун янги турдаги хизматларнинг пайдо бўлиши, электрон ҳукумат лойиҳалари доирасида харажатларининг қисқаришига замин яратади.

Шу билан бир вақтда, ахборот технологияларини татбиқ этишдан ҳосил бўлган умумий эффект кутилганидан самарасизроқ бўлиб чиқади ва бир хил тартибда тақсимланмайди.

Бу каби инвестициялардан максимал натижа олиш учун технологияларнинг Жаҳон банки тайёрлаган маърузасида «аналог тўлдирувчилар» деб номланган бошқа омиллар билан ўзаро таъсирини яхши тушуниш талаб этилади.

Улар қаторида:

фаол ишбилармонлик муҳитини қўллаб-қувватлайдиган ҳамда бизнес ва инсонларга рақамли иқтисодиёт технологияларидан рақобат ва инновациялар, харажатларни қисқартириш, шунингдек, турмуш фаровонлигини ошириш учун фойдаланишга имкон берадиган норматив-ҳуқуқий база;

бизнес менежменти ва давлат хизматчиларида ахборот технологияларини қўллашга доир тўлақонли кўникмалар;

ахборот технологияларидан фойдаланиш йўналишида консалтинг хизматларини кўрсатадиган институтлар (давлат ва хусусий) ўрин олган.

Рақамли иқтисодиёт ҳосил қиладиган эффектларни тўлиқ санаб ўтиш анча мураккаб иш, бинобарин, электрон сервислар ва метамаълумотлардан фойдаланиш имконияти иқтисодий объектларга тақдим этадиган алоқаларни тўлақонли тарзда баҳолаш анча мушкулдир. Шу боис ахборотлаштиришга сарфланадиган инвестицияларнинг муҳимлигини, айниқса давлат даражасида асослаш бир қадар қийин вазифа ҳисобланади. У ёки бу соҳада яратилган гигабайт ахборотни реал ҳолатда ҳар доим ҳам ҳисоблаб чиқишнинг имконсизлиги ўз-ўзидан тушунарли ҳодисадир.

Ахборот платформаларини бирлаштириш натижасида пайдо бўлган мулоқот моделлари янги иқтисодий технологияларнинг (ЯИТ) пайдо бўлишига тўртки беради.

ЯИТ – бу ташкилий бошқарув тизимларига бирор мақсадга хизмат қиладиган ахборот (маълумотлар, ғоялар ва билимлар) маҳсулотларини яратиш, уларни узатиш, сақлаш

ва акс эттириш учун яхлит технологик платформага бирлашувчи ва иқтисодий агентлар мулоқотига сарфланадиган тракзакцион харажатларни максимал даражада камайтирувчи маълумотларни қайта ишлашга доир ҳар жиҳатдан янги «созланувчи» воситалар ва методлар йиғиндисидир.

ЯИТнинг асосий тамойиллари:

тубдан янги бизнес моделларни яратиш;

ҳар хил ИТ хизматларни оқилона бирлаштириш ва улардан фойдаланиш методларини реал иқтисодиёт секторидаги ташкилий ва технологик жараёнларда қўллаш;

транзакцион харажатлар ва ишлаб чиқаришда қўлланиладиган моддий ресурсларни минималлаштириш.

ЯИТ рақамли технологиялар асосида мавжуд иқтисодий реалияларда ривожланиб боради. Аввалроқ ишлаб чиқариш, савдо ва молияга оид технологиялар пайдар-пай такомиллашиб келган бўлса, ҳозир юзага келган ЯИТлар горизонтал муносабатларга (ўз-ўзини ташкил қилиш ва сингулярлик), инновацион тадбиркорлик (ўз-ўзини ривожлантириш), ахборот муҳандислиги (ўз-ўзини такомиллаштириш) ва иқтисодий жараёнларнинг автоформализациясига (автоматик тузилиш) таянч вазифасини ўтамоқда.

ЯИТнинг чинакам асосини ахборотни тизимлаштириш ва таҳлилий қайта ишлашга мўлжалланган data-марказлар ва замонавий АТ платформалари шакллантиради. Бунда бошқарувга доир консалтинг ва бизнес таҳлилга алоқадор хизматларни тақдим қилиш йўналишини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Ахборот-консалтинг хизматлари ва давлат тараққиёт агентликлари сингари янги институтлар ишбилармонлик муҳитини такомиллаштиришнинг ташкилий асоси бўлиб хизмат қилади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йилнинг 3 июлида «Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3832 сон қарори С.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. С. Гулямов, Р.Х. Аюпов, О.М. Абдуллаев, Г.Р. Балтабаева. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Т.: ТМИ, "Иқтисод-Молия" нашриёти, 2019, 447 бет.

4. Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари – Тошкент: Бинзес ва тадбиркорлик олий мактаби 2020. – 979 б.
5. Евгений Филиппов. Криптовалюта от А до Я. СТФОРЕХ, 2017
6. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitishda Fahriddin Roziyning ontologik qarashlarining o‘rni va ahamiyat. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 1029-1038.
7. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g‘iyosiyot” qo‘lyozma asarida aql va e‘tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1058-1068.



СПОРТ МАКТАБЛАРИДАГИ КУРАШ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Гулёр Комилжон қизи Атажанова

Урганч давлат университети

gulyar.atajanova2001@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларини ташкил этишнинг шакл, усул ва воситалари ишлаб чиқиш ва амалиётда асослашга бағишланган.

Калит сўзлар: БЎСМ, машғулот услублари, усул, восита, техника, хужум, мусобақа

ABSTRACT

This article is devoted to the development and practical substantiation of the forms, methods and means of organizing wrestling lessons in children and youth sports schools.

Keywords: SSCYT, teaching methods, method, tool, technique, attack, competition.

КИРИШ

Дунёда аҳоли саломатлигини мустаҳкамлашда спорт турларининг оммабоплигини ошириш, болалар ва ўсмирларни спортга қизиқтиришнинг педагогик шарт - шароитлари ва дидактик параметрларини аниқлаштириш, спорт муассасаларида ёш спортчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришнинг педагогик, психологик ёндашувларини такомиллаштириш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Айниқса, пандемия шароитида ўқувчиларда фаол ҳаракат режимига риоя этиш кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларини кенгайтириш, шуғулланувчининг ёш, физиологик ва психологик тараққиёти мезонларига асосланган индивидуал жисмоний ривожлантириш дастурларини халқаро ва миллий мусобақалар талаблари асосида ишлаб чиқиш долзарблик касб этади.

Республикамизда сўнгги йилларда болалар спортини ривожлантириш, узлуксиз таълимнинг ҳар бир бўғинида таълим олувчиларнинг жисмоний саломатлигини мустаҳкамлаш ва



кўллаб-қувватлашнинг анъанавий, инновацион шакллари жорий этишга катта эътибор қаратилмоқда. Бундан ташқари болалар ва ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларининг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг кураш машғулотларига бўлган қизиқишларини янада кучайтиришнинг инновацион ёндашувларини жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Республикамизда Ж.М. Нуршин, Р.С. Саламов, Ф.А.Керимов, Т.С. Усмонхўжаев, А.Ш. Абдуллаев, Ш.Х. Ханкелдиевларнинг тадқиқотларида жисмоний тарбия дарсларининг таълим мазмунини бойитиш шакл ва методлари ёритилган Ф.А. Керимов, Н.М. Юсупов, Ш.А, Абдуллаев, Р.Д. Халмухамедов, В.Н. Шин, Г.Б. Абдурасулова, С.С.Тажибаев, Ж.М. Нуршин, Ш.А. Мирзақулов, А.Р.Таймуратов, Н.А.Тастанов,З.С.Артиковларнинг илмий ишларида спортнинг якка кураш турларининг тарихи, ташкилий асослари ва методикаси масалалари ўз аксини топган. А.Атоев, Ж.Нуршин,Р.Саломов, Ф.Керимов, О.Тоймуродов, Ж.Тошпўлатов, Ҳ.Бобобеков,М.Содиқов, Н.Азизов, Х.Ахмедовлар кураш спортининг ривожланиш тенденциялари, кураш анъаналари, усулларига боғлиқлигининг илмий методик асосларини ишлаб чиққанлар. Спортнинг якка кураш турлари тарихи, ташкилий асослари ва методикаси, машғулотлар жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш, жисмоний сифатларини ривожлантириш масалаларини ёритиш борасида илмий ишларини олиб боришган.

БЎСМларда кураш машғулотларининг ташкил этишнинг ташкилий-педагогик асослари такомиллаштириш лозимлигини кўрсатди. Ўқувчиларнинг кураш бўйича натижаларга эришганлик даражасини қуйидаги мезонлар ёрдамида аниқлашга ҳаракат қилдик: ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарликлари заминида уларнинг тактик, стратегик тайёргарлиги, ўзига хосликлари, етакчи имкониятлари, онглилик даражалари, баҳоловчи муносабатлари, объектив тушуниш кўламлари, барқарор мақсадлари, қизиқишлари ҳамда ҳиссий, интеллектуал қувватларининг ифодаланганлиги; кураш қоидаларини тушуна олишлари; ушлаб олиш қоидаларини билиш; рақиб билан ўзаро таъсирни амалга ошириш; ҳужум қилиш; ўзини ҳимоя қилиш ва қарши усулни амалга ошириш кўникмасига эгаликлари; мусобақа қоидаларига риоя қилишлари; белбоғли кураш техникасини билиш; ҳаракатли фаолият техникаси



илмий таҳлил қила олиш; жисмоний тайёргарлик даражаси; умумий жисмоний ҳолати; махсус жисмоний ҳолати; спортдаги мувафакиятлари.

НАТИЖАЛАР

БЎСМлардаги кураш машғулотларининг педагогик шарт-шароитларини ўрганишга йўналтирилган мазкур тадқиқотнинг тажриба-синов иши учун Хоразм вилояти Шовот туманидаги БЎСМ, Урганч шаҳари 2-сонли БЎСМ, Боғот туманидаги БЎСМларда амалга оширилиб, унда жами 13 нафар мураббийлар ва 160 нафар ўқувчилар иштирок этдилар. Тажрибалар даврида ташкилий-педагогик фаолиятини амалга ошириш учун ўқувчиларда анкета, суҳбатлар, машғулотлар ўтказиш, савол-жавоб каби методлардан фойдаланган ҳолда, БЎСМларида ўқувчиларнинг кураш бўйича ахборотли-баҳоловчи, амалий ва башоратловчи даражалари бўйича қиёсий таҳлил қиламиз. Юқоридаги фикр мулоҳазаларни тизимли таҳлил қилиш натижаларига асосланган ҳолда болалар ва ўсмирлар спорт мактабларида ўқувчиларнинг белбоғли кураш бўйича ахборотли-баҳоловчи, амалий ва башоратловчи даражалари юзасидан ўзлаштиришларини таҳлил этдик (1-жадвал).

Болалар-ўсмирлар спорт мактабларида шуғуллаувчиларининг кураши бўйича ахборотли-баҳоловчи, амалий ва башоратловчи даражаларини аниқлаш юзасидан ўзлаштириш натижалари

1-жадвал

Босқичлар	гурuhlар	n	Ўзлаштириш даражалари		
			яхши	Ўрта	кичик
ахборотли-баҳоловчи	тажриба	80	39	25	16
	назорат	80	28	27	24
Амалий	тажриба	80	55	43	12
	назорат	80	25	31	24
Башоратловчи	тажриба	80	60	13	7
	назорат	80	27	26	27

Юқоридаги натижаларга асосланган ҳолда ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини узлуксиз ривожлантиришнинг умумлашган, амалий назарий концептуал, амалий-моделлаштирувчи ва ижодий-таҳлилий даражаси математик-статистик таҳлил қилиниб, олинган натижалардан ўқитиш самарадорлигини баҳолаш мезони бирдан катталиги ва билиш даражасини баҳолаш мезони нолдан катталигини кўриш мумкин. Бундан маълумки, тажриба синфидаги ўзлаштириш назорат синфидаги ўзлаштиришдан юқори экан. Шунини таъкидлашимиз жоизки, болалар-ўсмирлар спорт мактабларида ўқувчиларнинг

кураши бўйича ахборотли-баҳоловчи, амалий ва башоратловчи даражалари юзасидан ўзлаштиришларининг самарадорлик даражасини аниқлаш бўйича ўтказилган тажриба-синов ишлари самарадор эканлиги статистик таҳлилдан маълум бўлди.

МУҲОКАМА

Ўрганилган илмий-педагогик манбалар шундан далолат берадики, болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларининг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш бугунги кунда таълим жараёнининг устувор мақсадларидан бирига айланмоқда. Бу жараёнда ўқув-машғулотларнинг техника ва тактикасини ўрганиш ва такомиллаштириш муаммосига етарлича эътибор қаратилмаганлиги кузатилди. Такидлаш жоизки Болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларининг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш ўзининг қуйидаги таркибий тузилишига эга: ушлаб олиш қоидаларини билиш, рақиб билан ўзаро таъсирни амалга ошириш, хужум қилиш, ўзини ҳимоя қилиш ва қарши усулни амалга ошириш кўникмасига эгалликлари, мусобақа қоидаларига риоя қилишлари, кураш техникасини билиш, ҳаракатли фаолият техникасини илмий таҳлил қила олиш, жисмоний тайёргарлик даражаси, умумий шуғулланганлик даражаси, махсус шуғулланганлик даражаси, спортдаги мувафақиятлари кабилар. Ушбу қисмлар орасидаги ўзаро алоқадорлик, болалар-ўсмирлар спорт мактаблари тарбияланувчиларининг спортдаги барқарор ютуқларга эришишларини таъминлайди. Бунинг натижасида спортчилар амалий тажриба ва назарий билимларга таянган ҳолда интеллектуал ҳамда жисмоний фаолият кўникмаларини эгаллайдилар.

Педагогик таълим жараёнида кураш машғулотларида ўқувчиларнинг тайёргарлик даражаларини аниқловчи мезонлар сифатида машғулотлар жараёнида тақдим этилган кураш қоидалари, тушунчалар ва ахборотларни фаол ўзлаштирганликлари, жисмоний ва тактик тайёргарлиги, ўзининг кураш услубига эгаллиги; кураш усулларини ўрганишга нисбатан барқарор қизиқишнинг вужудга келганлиги кабиларни кўрсатиш мумкин.

ХУЛОСА

Ўтказилган тажрибалар натижасида болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларининг ҳар бир



муайян босқичи ўзининг аниқ белгиланган мақсадларига эга бўлиб, улар таълим олувчиларнинг тактик тайёргарликларининг мунтазам бир босқичдан иккинчисига ўтиб, узлуксиз ривожланишини таъминлайди ва такомиллаштирилади. Шу билан бирга, ёш авлодни, болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги кураш машғулотларининг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштиришда бир қатор умумий характердаги дидактик шароитларнинг амал қилиши кузатилади. Хусусан, спортчиларда болалар-ўсмирлар спорт мактабларидаги жисмоний фаолияти, уларда махсус тайёргарликни шакллантиришнинг муҳим воситаси сифатида кураш қоидалари, рақиб билан ўзаро таъсирни амалга ошириш, ҳужум қилиш, ўзини ҳимоя қилиш ва қарши усулни амалга ошириш кўникмасига эгалликлари, ўз ҳаракатларини онгли ва чуқур ўйлаган ҳолда амалга ошириш имконини беради.

REFERENCES

1. Нуршин Ж.М., Саламов Р.С., Керимов Ф.А. Ўзбекча миллий спорт кураши // Дарслик. Т.: 1993. – Б.14-17.;
2. Усмонходжаев Т.С. Миллий ҳаракатли ўйинлар. Тошкент. «Ўқитувчи» 2000. – Б. 53-54. Абдуллаев. А. Ш., Ханкелдиев Ш.Х Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. – Т.: ЎзДЖТСУ. – 2019. –232 б.
3. Керимов Ф.А., Юсупов Н.М. Подвижные игры для кураша. - Т.: Абу Али ибн Сино, 2003. – 72 с.
4. Абдуллаев Ш.А, Ёш курашчиларни тайёрлашнинг илмий-услубий асослари / Ўқув-услубий қўлланма. Т.,2012. – Б. 32-35
5. Халмухамедов Р.Д., Шин В.Н., Абдурасулова Г.Б., Тажибаев С.С. Ёш яккакурашчиларни кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меъёрлари/ Ўқув-услубий қўлланма - ЎзДЖТИ., 2013. – 166 б.;
6. Нуршин Ж.М., Мирзакулов Ш.А. Ёш белбоғли курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги// Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва услубиятининг замонавий муаммолари/ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. II қисм. – Тошкент. 2015. – Б. 83-84
7. Таймуратов А.Р. Курашчиларга хос куч турлари ва уларни ривожлантирувчи машқлар таснифи // журнал. “Фан-спортга”, - Т., 2016. - №2. – Б. 29-32.
8. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiati. / Darslik. –Т.: Sano-Standart. 2017. – 480 b.
9. Artikov Z.S. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (Belbog’li kurash). / O’quv qo’llanma. - Т.: O’zkitobsavdo, 2018. – 148 b.

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (CLIL)

Гульнара Рафаиловна Ташматова

Преподаватель Ферганского государственного университета

АННОТАЦИЯ

Являясь одним из наиболее эффективных методов обучения как языку, так и предметам, Предметно-языковое Интегрированное Обучение (CLIL) за последние несколько лет распространилось по всему миру. Большинство учебных заведений начали интегрировать эту технологию в свои учебные программы и нанимать преподавателей с соответствующим уровнем владения языком. Однако внедрение данной технологии не так просто, как может казаться, поскольку такое решение требует планирование новой учебной программы, новой педагогики и поиска квалифицированного персонала. В статье раскрываются основные проблемы внедрения предметно-языкового интегрированного обучения в преподавании, а также основные соображения при разработке учебного плана. Цель статьи - выявить основные проблемы внедрения CLIL и указать наиболее целесообразные пути перехода к этому новому интегрированному способу преподавания и обучения.

Ключевые слова: Предметно-языковое Интегрированное Обучение, контентное обучение, двуязычное образование, учебная программа, учебный план, разработка материалов, оценка, принятие учебной программы.

ABSTRACT

Being one of the most effective teaching methods of both language and content subjects, Content and Language Integrated Learning (CLIL) has spread all over the world in the past few years. Most of the educational institutions have started to integrate this technology in their curriculum and hire content teachers with appropriate language level. However, the implementation of CLIL is not easy as it may seem as this decision requires new curriculum, new pedagogy and qualified staff. The article reveals the main problems of implementing Content and Language Integrated Learning in teaching as well as primary considerations while designing the curriculum. The purpose of the article is to identify the main problems of CLIL implementation and point at the most viable ways of shifting to this new integrated way of teaching and learning.

Keywords: Content and Language Integrated Learning, content learning, bilingual education, curriculum, syllabus, materials design, assessment, curriculum adoption.

ВВЕДЕНИЕ

Внедрение Предметно-языкового интегрированного обучения в контексте Узбекистана в частности и в контексте изучения иностранного языка в целом сталкивается с рядом проблем. Эти проблемы упоминаются следующим образом. CLIL — это достаточно новый подход в обучении, и не все учителя знают, как интегрировать его в свой процесс преподавания. Использование данного подхода требует квалифицированных учителей, которые могут решать проблемы, связанные с языком и образовательными предметами. Таким образом, одна из самых больших проблем, с которыми учителя могут столкнуться при внедрении CLIL, — это способность учителей применять этот метод. Большинство преподавателей предметной области в Узбекистане не владеют английским языком на необходимом уровне, поэтому преподавание содержания своего предмета на иностранном языке невозможно без подготовленного преподавательского состава. Прежде всего, учителя должны уметь хотя бы объяснять и общаться на языке обучения. Кроме того, эти учителя должны адаптироваться к новой системе, учебному плану и правилам, что обычно может занять один или два семестра/четверти в зависимости от учителя и его/ее способности понять и применять новый подход к обучению. Возможно легко проверить уровень языка учителей, но трудно проверить их способности и их базовые знания о преподавании. На самом деле, определение уровня учителей отнимает много времени, и нет никаких реальных руководящих принципов для оценки их практики. Хоар (2010) утверждает, что когда учебные заведения выбирают учителей для CLIL, они, как правило, выбирают тех, кто отлично владеет английским языком и тех, кто может принять новые методы обучения. По нашему опыту, это не всегда так, школам и колледжам иногда приходится восполнять нехватку учителей, игнорируя уровень подготовленности этих учителей к новому методу преподавания.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Хоар (2010) и Лоренцо (2008) утверждают, что учителя имеют ограниченное понимание теорий и обоснований предметно-языкового интегрированного обучения и из-за отсутствия достаточной и эффективной подготовки учителей иностранных языков. Кроме того, Коста и Анджело (2011) иллюстрируют, что одной из причин неудач англоязычного образования являются неправильные методы обучения учителей. Грэфф и др. (2007) предполагают, что



преподаватели CLIL должны облегчать обучение, используя задания, ориентированные как на смысл так и на форму, а также принимать во внимание использование различных стратегий и ожидаемые результаты. Точно так же отсутствие надлежащей подготовки поставило учителей в довольно неудобное положение (Moate, 2011). Учителя даже чувствуют себя «усталыми, напряженными и напуганными», когда пытаются внедрить подход к обучению, опосредованный иностранным языком.

Оценивание, разработка учебного плана и материалов

Учащиеся, обучающиеся по программе CLIL в школах, изучают свои предметы на английском языке. Понятно, что для каждого предмета/специальности потребуются свои уникальные материалы, включая учебники, учебные пособия и оценки, разработанные для каждого из них. Основной проблемой внедрения CLIL в учебных заведениях является нехватка или отсутствие ресурсов. Учителям иногда приходится разрабатывать свои собственные материалы, что отнимает много времени. Далтон-Паффер (2007) утверждает, что совершенно очевидно, что классы предметно-языкового интегрированного обучения не предназначены для языковых целей, но в таких классах все еще существуют языковые ожидания. Опасность материалов CLIL заключается в том, что они должны охватывать как лингвистические, так и содержательные аспекты (Coyle et al., 2010). Это означает, что существующая учебная программа должна быть пересмотрена, и должны быть разработаны новые учебники, которые соответствуют потребностям и целям каждой специальности. Согласно Ласагабастеру и Сиерра (2010: 372), «материалы, используемые в программах погружения (immersion programs), предназначены для носителей языка, в то время как преподаватели CLIL часто используют сокращенные материалы». Это предполагает еще одно различие между CLIL и другими подходами, используемыми в билингвальном образовании.

Оценивание в предметно-языковом интегрированном обучении также может быть проблематичным. Система оценивания в CLIL различается в зависимости от того, оценивается ли язык или содержание, а также какой тип оценивания используется (Coyle et al., 2010). Учителей просят создать новые способы оценивания, которые подходят для реализации данного подхода. Текущие критерии оценки CLIL зависят от регулярных тестов (Morgan, 2006). Однако, согласно Коломбо и Фурбушу (2009), недостатком регулярных тестов является то, что они не позволяют оценить различные уровни владения английским языком. Регулярные

тесты в основном сосредоточены на содержательных областях и мало внимания уделяют языковым особенностям (Морган, 2006; Коломбо и Фурбуш, 2009). В результате Коломбо и Фурбуш (2009) перечислили три принципа оценивания. Первое: оценивание уровня понимания как предмета, так и языка, проводимого учителем. Второе: использование различных способов оценивания. Третье: сопоставление оценок с выступлениями учащихся.

Содержание, уровни и ресурсы

Большинство учителей в средних государственных школах очень мало знают о предметно-языковом интегрированном обучении или понятия не имеют, что такое CLIL. Таким образом, содержание новой учебной программы и вопрос о том, следует ли сосредоточиться на языке или содержании, является вопросом, который необходимо обсудить и решить. Например, если содержание сложное, учащиеся будут склонны использовать свой родной язык. Поэтому возможности использования иностранного языка могут быть ограничены (Bruton, 2011; Seikkula-Leino, 2007). Кроме того, Лоренцо (2008) утверждает, что учителя в классах CLIL, как правило, тратят больше времени на содержание, чем на использование иностранного языка. Мы считаем, что это зависит от того, является ли учитель преподавателем иностранного языка или преподавателем предметного содержания. Опять же, это отразится на выборе учителей, следует ли сосредоточиться на учителях языка или учителях-предметниках.

Другой вопрос – уровень новой программы и критерии перехода с одного уровня на другой в некоторых учебных заведениях. Это потребует консультаций и внесения поправок в правила некоторых школ и колледжей. Вот почему образовательная система школы также может повлиять на внедрение CLIL (Bruton, 2011).

Внедрение CLIL, конечно же, потребует новых ресурсов. Образовательные учреждения должны организовать и подготовить все материалы, необходимые как для студентов, так и для преподавателей. Студентам в основном потребуются новые учебники и новые ресурсы для размещения в библиотеке. Учителям каждой специальности потребуются определенные материалы и инструменты. Например, учителям биологии могут потребоваться некоторые материалы для демонстрации на своих занятиях, и это относится ко всем другим специальностям. Кабинеты учителей должны быть полностью оборудованы всем необходимым. Другая причина почему профессиональная



подготовка может быть недоступна для большинства преподавателей - финансовые обстоятельства (Bruton, 2011). В целом, для реализации этого подхода потребуются дополнительные затраты, но все же этого можно достичь, если CLIL внедрять постепенно, а не по внезапному решению.

Педагогические требования и квалифицированные преподаватели CLIL

Во-первых, хорошо известно, что учителей, которые имеют право использовать CLIL в обучении, обычно нет. Более того, уровень учителей и то, как они преподают, очень важны для внедрения данного подхода в классах (Coyle et al, 2010). Это говорит нам о том, что нам необходимо обучать и развивать наши нынешние ресурсы — учителей — чтобы они стали первым столпом внедрения CLIL. Очевидно, что образовательное учреждение должно включать в процесс планирования и предполагаемые достижения за определенный период и дать учителям понять, что с внедрением предметно-языкового интегрированного обучения институт предлагает новые возможности обучения, а не рутинную работу.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Отсутствие подготовки поставило учителей в довольно неудобное положение (Moate, 2011). Руководство центра английского языка должно принимать во внимание групповое обучение, взаимное наблюдение и постоянное повышение осведомленности в университете вместе с руководством образовательного учреждения. Это также дает руководству колледжа возможность сохранить нынешних учителей, а не просить новых учителей. Брутон (2011) предлагает эффективную подготовку учителей по развитию их педагогических способностей, направленных на совместное обучение содержания и языка. Обучение должно быть направлено на развитие у учителей необходимых навыков для реализации надлежащего CLIL. Каждому учителю будет выделен репетитор-предметник (mentor) с начала его работы в колледже/ школе. Это позволяет учителю приобретать и получать знания о содержании специализации. Мехисто, Марш и Фриголс (2008) предлагают учителям-предметникам и преподавателям иностранных языков сотрудничать и участвовать в решении проблем в своих классах.

Осведомленность студентов

Студенты часто склонны сравнивать с другими системами, применяемыми в других колледжах, и могут

спросить, почему они изучают английский именно по этой методике, а не по обычным общеобразовательным предметам. Поэтому необходимо провести конференцию о внедрении предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL), чтобы проинформировать студентов и повысить осведомленность о его пользе, а также развеять любые сомнения, возникающие у студентов. Внедрение CLIL для учащихся имеет важное значение, поскольку они будут знать и иметь причины для изучения контента и того, как он может облегчить их обучение. Это может быть неделя ориентации в начале семестра или академической четверти или может быть объяснена учителями. Информирование учащихся привлечет их внимание и приведет к качественному внедрению данного подхода.

Разработка учебных программ

Новая программа должна следовать целям и видению школы или колледжа. Поэтому очень важно соблюдать правила и устав колледжа/школы. В результате создание некоторых стандартов, касающихся применения CLIL, будет способствовать фактическому и эффективному применению. Политика учебных заведений должна быть пересмотрена таким образом, чтобы она устраивала все три стороны: учебное заведение, преподавателей и учащихся. Новая структура внедрения CLIL должна представлять собой новую систему образования, которая удовлетворяет практике учителей и потребностям учащихся. Сотрудничество с другими колледжами, университетами и учреждениями повысит уровень передовой практики. Принятие взглядов и идей из других подобных контекстов принесет пользу реальной практике этой технологии.

Материалы, система оценивания и ресурсы

Учителя могут подготовить свои собственные материалы, как только они смогут рассмотреть важность как изучения языка, так и содержания. Они также могут модифицировать текущие материалы в соответствии с конкретными целями и использовать их по согласованию с учителем-предметником. Учителя могут использовать все представленные материалы, включая журналы, статьи и учебные пособия. Учителя могут предоставить учащимся возможные ресурсы для их обучения и поощрять учащихся к самостоятельному изучению. Преподаватели иностранных языков и предметов должны регулярно встречаться и обсуждать, что следует включить, а что опустить. Совместная работа учителей-предметников и преподавателей иностранных языков поможет определить

потребности учащихся, новые тенденции в этой области и разработать эффективные и правильные материалы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Предметно-языковое интегрированное обучение является многообещающей областью обучения и представляет собой уникальные методы преподавания языка с содержанием различных предметов. Это также сложный метод, и в этот процесс вовлечены различные стороны: учащиеся с разным уровнем знаний и владением языком и преподаватели с разным уровнем подготовленности и опыта. Поэтому будущие исследования должны учитывать все аспекты и пути внедрения предметно-языкового интегрированного обучения. Это повлияет на окончательный вывод и успех правильного внедрения CLIL, а также на разработку текущих практик этого метода. В данной статье были представлены четыре аспекта внедрения CLIL в образовательных учреждениях, который начался с обсуждения места CLIL в билингвальном образовании и его связи с другими подходами. Затем были освещены возможные проблемы внедрения CLIL в Узбекистане. После этого он завершился эффективными способами и практиками внедрения этой технологии в обучение.

REFERENCES

1. Baker, C., & Jones, S.P. (1998). Encyclopedia of Bilingualism and Bilingual Education. Clarendon: Multilingual Matters Ltd.
2. Bruton, A., (2011). Is CLIL so beneficial, or just selective? Re-evaluating some of the research. System, 39, 523-532.
3. Colombo, M., & Furbush, D., (2009). Teaching English Language Learners: Content and Language in Middle and Secondary Mainstream Classrooms. London: Sage.
4. Coyle, D. (2006). Content and Language Integrated Learning: Motivating learners and teachers. Scottish Languages Review.
5. Coyle, D. (2007). Content and Language Integrated Learning: Towards a Connected Research Agenda for CLIL Pedagogies. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 10(5), 543-562.
6. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Dalton-Puffer, C. (2007). Discourse in content and language integrated learning (CLIL) classrooms. Amsterdam: John Benjamins Publishing.



8. Dupuy, B., (2011). CLIL: Achieving its goals through a multiliteracies framework. *Latin American Journal of Content and Language Integrated Learning*, 4(2), pp. 21-32.
9. Fernández, D.J. (2009). CLIL at the University Level: Relating Language Teaching with and through Content Teaching. *Latin American Journal of Content & Language Integrated Learning*, 2(2),10-26.
10. Graaff, R.D., Koopman, G.J., Anikina, Y., & Westhoff, G., (2007). An Observation Tool for Effective L2 Pedagogy in Content and Language Integrated Learning (CLIL).
11. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 10(5), 603-624.
12. Hoare, P. (2010). Content-based language teaching in China: contextual influences on implementation. *Journal of Multilingual and Multicultural Development*, 31(1), 69-86.
13. Lasagabaster, D., & Sierra, J.M. (2010). 'Immersion and CLIL in English: more differences than similarities'. *ELT Journal*, 64 (4), 367–75.
14. Lemberger, N. (1997). *Bilingual Education: Teachers' Narratives*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
15. Lorenzo, F. (2008). Instructional Discourse in Bilingual settings: An empirical study of linguistic adjustments in content and language integrated learning. *The language Learning Journal*, 36(1), 26-33.
16. Moate, J.M. (2011). The impact of foreign language mediated teaching on teachers' sense of professional integrity in the CLIL classroom. *European Journal of Teacher Education*, 34 (3), 333-346.
17. Morgan, C. (2006). Appropriate Language Assessment in Content and Language Integrated Learning. *Language Learning Journal*, 33, 59-67.
18. Munoz, C. (2007). CLIL: Some thoughts on its psycholinguistic principles. *Volumen Monografico*, Available from: <http://scholar.google.com/scholar?q=Munoz%2C+2007++CLIL&hl=zhCN&btnG=%E6%90%9C%E7%B4%A2&lr> [Accessed 10 April 2013].
19. Seikkula-Leino, J. (2007). CLIL Learning: Achievement Levels and Affective Factors. *Language and Education*, 21(4), 328-341
20. Somers, T., & Surmont, J. (2012). CLIL and immersion: how clear-cut are they? *ELT*, 66(1), 113-116.
21. Tashmatova Gulnara Rafailovna. (2021). PRINCIPLES OF APPLYING CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 111-114. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/1616>
22. Wannagat, U. (2007). Learning through L2 – Content and Language Integrated Learning (CLIL) and English as Medium of Instruction (EMI). *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 10 (5), 663-682.

ОНТОЛОГИЯДА СУБСТАНСИЯ ВА АКЦИДЕНСИЯГА ДОИР ТАЪЛИМОТНИНГ ФАХРИДДИН РОЗИЙ ТОМОНИДАН РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ

Соҳибжон Сойибжон ўғли Умаржонов

Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти (PhD)

fenomen1993@bk.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Фахриддин Муҳаммад ар-Розийнинг борлиқ фалсафаси (онтология) га доир Осиё ва Еврўпалик олимларнинг тадқиқотлари ва Розийнинг “Латоиф ул-ғиёсийот” асаридаги онтологик қарашлари, хусусан субстансия ва Акциденсияга доир таълимотлар таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: Борлиқ, субстансия, акциденсия, жавҳар, пантеистик фалсафа, ваҳдат ул-мавжуд ва ваҳдат ул-вужуд, материя, руҳ ва жасад.

ABSTRACT

This article analyzes the studies of Fahriddin Muhammad ar-Razi on the philosophy of existence (ontology) of Asian and European scientists and ontological views of Razi in “Latoif ul-ghiyosiyot”, in particular his doctrine of substance and accident.

Keywords: Universe, substance, accident, javkhar, pantheistic philosophy, wajib ul-wujud, mumkin ul-wujud, matter.

КИРИШ

Фалсафа фанининг борлиқ масалаларини ўрганувчи бўлими Онтология деб аталади. Онтология сўзи юнонча онтос (мавжудлик) ва логос (таълимот) сўзларининг бирикмасидан ташкил топган бўлиб, “мавжудлик ҳақидаги таълимот”, яни борлиқ ҳақидаги фан маъносини ифодалайди.[1;191] Шарқ фалсафасида онтология кўпроқ илоҳий борлиқнинг моҳиятини акс эттирувчи таълимот тарзида, шарқ пантеистик фалсафасида эса ваҳдат ул-мавжуд ва ваҳдат ул-вужуд кўринишидаги таълимотлар шаклида вужудга келган. Борлиқ ҳақидаги муоммо фалсафада тарихан марказий ўрин эгаллайди. Фалсафа ўрганадиган қайси бир масалани олмайлик, у борлиқ борлиқ муоммоси билан боғлиқ эканлигини кўрамиз. Ҳақиқатдан ҳам, борлиқ, унга муносабат масаласи фалсафий қарашлардан

муҳим аҳамиятга эгадир чунки борлиқ муоммоси фалсафадаги ҳар қандай дунёқараш гносеологик ва методологик муоммоларнинг асоси ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Фахриддин Розийнинг фалсафий дунёқарашини кенг камровли ва мантиқий, теологик, фалсафий, ахлоқий асарларни ўз ичига олади. Унинг асарлари ижтимоий ҳаётнинг турли жабҳаларига доир долзарб муоммоларга қаратилганлиги боис нафақат Осийё балки Еврўпа олимларининг ҳам тадқиқот объектига айланган. Хусусан Фахриддин Розийнинг теологик ва Қуръон тафсирига доир диний – фалсафасий қарашлари Еврўпалик олимлар Айман Шихадеҳ [2], Тарик Жаффер [3] ва Ясин Сейлан [4] томонидан тадқиқ қилинган. Розийнинг ахлоқий қарашларини М. Сағир Ҳасан Масуми ўз тадқиқотларида баён этиб ўтган [5]. Шунингдек профессор М.Н.Болтаев[6] ва Н. Наимовлар[7] илмий асарлари ва диссертацияларида Розийнинг онтологик, гносеологик ва мантиқий дунёқарашини биринчи манбалар асосида аниқ ва муқаммал таҳлил қилган. Тадқиқот объектидан келиб чиққан ҳолда ушбу мақоламизда юқоридаги муаллифлар асарлари ва бугунги кунгача ўрганилмаган Розийнинг “Латоиф ул-ғийёсиёт” асаридаги борлиқ фалсафасига доир фикрларни фалсафий нуқтаи назардан таҳлил қиламиз. Ушбу асар тўғрисида олдинги изланишларимизда ҳам тўхталиб ўтган эдик. [8]

Мазкур мақолада ўрганилаётган мавзу илмий тадқиқотнинг тарихийлик ва мантиқийлик, анализ ва синтез, умумлаштириш, таққослаш каби мантиқий методлари асосида ёритилишга ҳаракат қилинди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Борлиқни шаклларга ажратишда унинг асосида, моҳиятида нималар ётишига этибор қаратиш лозим. Шу тариқа фалсафада субстансия категорияси шаклланган. Субстансия (лотин. субстантия - моҳият, асосида ётувчи нимадир) муайян нарсалар, воқеалар, ҳодисалар ва жараёнлар хилма-хиллигининг ички бирлигида намоён бўлувчи моҳият.[1; 193]

Субстансия дейилганда фалсафада дастлабки пайтларда борлиқ, табиат, жамият, инсон ва дунёдаги барча нарса ва ҳодисаларнинг асосида ётувчи моддий ёки руҳий моҳият анланган. Ўрта аср Шарқ фалсафаси намояндалари ал-Киндий, Закариё Розий, Форобий, Ибн Сино, Ибн Рушд асарларида субстансия деб ҳамма нарсанинг моддий ёки маънавий асоси, моҳияти тушунилган. Субстансияга қарама-

қарши тушунча “Аксиденсия” деб аталган. Аксидентция (лот. ассидентиа - ўтқинчи, тасодифий) нарса ва ҳодисаларнинг ўтқинчи сифатларини ифодалайди.[1; 194] Форобийнинг ёзишича, “оламда субстансия ва аксиденсия ҳамда уларни яратувчи марҳаматли ижодкордан бошқа ҳеч нарса йўқдир.” «Аксиденсияни сезгилар орқали ҳис этиш мумкин, субстансияни эса фақат ақл англаб етади»; «Масалан, олма - субстансия бўлса, унинг қизиллиги эса аксиденсиядир»[9; 50].

Розий аввал ўтган файласуфларнинг субстансия ва аксидентларга дахлдор таълимотини янада ривожлантирган ҳолда, доимий ҳаракатдаги борлиқ субстансия ва аксидент кўринишидаги предметларга бўлинганлигини айтади. Унинг кўрсатишича, субстансия, мустақил, ўз-ўзича мавжуд бўлган нарсадир ва ўз мавжудлигида бирон нарсага муҳтож эмас, ўз мавжудлигида бошқа нарсага боғланмаган. Аксидентия, бу – мустақил тарзда мавжуд бўлмаган, ташқи таъсирлар натижасида юзага келган нарсадир. Бу туғрида у шундай ёзади: “Олам борлиқдан иборатдир ва бу борлиқ, ўз навбатида, икки қисмдан: субстансия ва аксидентиядан иборат. Ўзи мустақил мавжуд бўлган нарса, ўз-ўзидан субстансия деб аталади, ўзи мустақил мавжуд бўлмагани эса аксидентия деб”. (“Олам ҳар он чи мавжуди аст ва он бар ду қисмат: Жавҳар ва ораз. Жавҳар ҳар он чизл бувад, ки Мутахаййир бувад. Ораз ҳаар он чиз бувад. Ки коим бузад ба жавҳар”)[10; 55-56].

Мутафаккирнинг қарашларига кўра, субстансия ва Аксидентия, бу – бир хил тушунча эмас, балки, ўзаро яқин боғланган иккита турли хил тушунчалардир. Субстансия нарсаларнинг асосини, моҳиятини, аксидентия эса – нарсаларнинг кўриниши, сифатини ташкил қилади. Шу боис, Розийнинг таъкидлашича, уларни бир-биридан ажратиш ва уларнинг сифатини бир хил тушунча деб тан олиш мумкин эмас. “Зеро, субстансия нарсалар, ташқи олам асосининг моҳиятидир, шунга кўра, ўз шакли ва таркибига эга. Маълумки, ўрта асрнинг бир қатор файласуфлари, шу жумладан, ислом ғоялари вакиллари ҳам табиатдаги сабабий-узвий алоқаларни инкор этадилар, Аксидентия эса – нарсаларнинг сифатини инкор этадилар. Демак, субстансия ва аксидентия бир хил тушунча эмас, балки, иккита турли хил тушунчалардир”. [10; 20]

Жисм ҳақида сўз юритганда, Розий жисм субстансия ва Аксидентияларнинг бирикиши натижасида ҳосил бўлади, субстансия ва Аксидентия, моддий дунёнинг нарсаларида бирикади. Уларнинг ҳар иккиси ҳам узвий алоқада ва ўз бирликларида жисмни ҳосил қиладилар деб ҳисоблайди. “Агар субстансия

ва акциденция биргаликда қўшилган бўлсалар,— бу жисм деб номланади”.[10; 55] Моддий нарсалар сифати уларнинг моҳиятидан ажралмас бўлгани боис, субстанция ва Акциденцияларнинг бирлиги моддий дунёнинг мавжуд бўлишининг мажбурий шартини ташкил қилади.[10; 55] Розий жисмларни оддий ва мураккабларга ажратади. Оддийлари деб, ўз табиати ва моҳиятига кўра турли хил бирикмалардан иборат бўлмаган жисмлардир Мисол учун, самовий жисмлар ва унсурлар. Мураккаб жисмлар деб эса руҳ ёки сезги органларининг бештаси берилган ёки бундай туйғулардан йироқ жисмлар тушунилади. Мисол учун, дарахтлар. Туйғу органлари берилган жисмлар — жониворлар, агар нутқ қобилияти бўлса, бу — инсонлардир, агарда бундай қобилият бўлмаса, бу — бошқа жониворлар. (“Жисм ё басит бошад, ё мураккаб. Муродимо мо аз басит он аст”, ки хаки кати у фароҳам наёмада бошад аз жисмхо, ки мухталиф бошад ба табиат ва моҳият. Басит ё фалаки бувад, ё унсури. Мураккаб нафс бошад, ё ғайри нафс. Аммо ғайри нафс жимодаст, чунмаъдан ва ғайри он. Ва нафс ё хиссос бузад, ё ғайри хисос. Ва ғайри ҳисос набот аст, мисли ашжар за хисоси хайзон аст. За агар бо у нотик бувад, инсон аст ва агар ғайри нотик бувад, диган ҳайвон аст”).[11; 29//12; 378]

Дунёнинг ҳаракатдаги манзараси ҳақидаги ушбу тасаввур, профессор М.Н. Болтаевнинг такидлашича, мутафаккирнинг қарашларида ижобий ҳисобланади, зеро у чиндан ҳам реал мавжуд моддий буюмлардан келиб чиқади, гарчи, самовий жисмлар ва унсурларни оддий жисмлар рўйхатига киритиш асло мумкин эмас. Айни пайтда, шуни унутмаслик керакки, мутафаккир томонидан таркибий бўлмаган деган қарашда эмас, балки, юқорида кўрсатилган мазмунда баён этилган. Розий оддий жисмлар таркиби ҳақида гапирганда эса ҳар битта оддий жисм ўзида бир неча жисмларни ўзида мужассамлаштиришини иккиланишсиз айтиб ўтган. [6; 197]

Розий оддий ва мураккаб жисмларга алоқадор бўлган масалаларни таҳлил қилган ҳолда, моддий зарраларнинг тузилиши ва структурасига оид материалистик қарашларга ижобий фикр билдиради.

Мутафаккир моддий жисмлар таркиби ва тузилиши ҳақидаги ўз фикрини такомиллаштирган ҳолда таъкидлайдики, “жисмлар таркибий бўлинувчанлигига кўра оддий ва мураккаб турларга бўлинади”. Мураккаб жисм ўзининг табиати ва моҳиятига кўра бошқа жисмларга қарама-қарши бўлган жисм ҳисобланади. Мисол учун, мураккаб қарама-қарши қисмлардан таркиб топган инсонлар танаси. Оддий жисмлар эса табиатига кўра бошқа жисмларга қарама-қарши

ҳисобланмайдиган нотаркибий жисмлардир. Масалан, сув ва ҳаво. [11; 75-76]

У оддий ва мураккаб жисмлар ҳақидаги фикрини давом эттириб, улар шундай жисмларки, улардан ҳар бири ўзига хослиги ва хусусиятига эга ва шу билан бир-бирдан фарқ қилишини таъкидлайди. Ушбу фикрни тасдиқлаш учун Розий шундай ёзади: “Оддий (нотаркибий) жисмларнинг бир қисми олиб ташланса ҳам ўзларининг моҳиятига кўра ўзининг бутунига ўхшаш ҳолда қолган аъзо ёки тана қисми саналади. Бунинг мисоли сифатида, суяк, эт ва тери бўлиши мумкин. Уларнинг ҳар биридан ҳеч бўлмаганда битта қисмини олиб қўйсак ҳам, улар барибир суяк, гўшт, тери бўлиб қолавериши ўз бутунлигига (умумийлигига) мувофиқ (тенг) эканлигини исботлайди”. [12; 48-49]

Бироқ Розий оддий таналарнинг (мисол учун тери ва эт) ҳаммаси ҳам оддий эмаслигини, улар ҳаммага маълум тўрт унсур (сув, олов, тупроқ, ҳаво) билан таққосланганда улар мураккаб таркибий бўлиши мумкинлигини баён этади.”[12; 249]

Кўриб турибмизки, Розий икки оддий унсурни таққослашда, шундай ҳулосага келадикки, ҳеч бўлмаганда биттаси ўз-ўзича берилса ва оддий ҳисобланса, бироқ, бошқа предмет билан таққослаганда, энди у оддий ҳисобланмайди, балки мураккаб, таркибий ҳисобланади. Розийнинг фикрларига мувофиқ агар мураккаб жисмлардан бирининг бир қисми етишмаса, улар ўзларининг бутунига ўхшай олмайдилар ёки ўзларининг бутуни билан тенглаша олмайдилар. Бунга қўллар ва оёқлар мисол бўла олади. Зотан қўл ва оёқлардан бири бўлмаса, бу ўзининг бутунлигига (умумийсига) мувофиқ бўла олмайди. [12; 248]

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Розийнинг оддийларга (элементар) ва мураккабларга (таркибий) нисбатан айтган фикрлари бизга араб файласуфларнинг юқоридаги масала бўйича айтган фикрларини эслатади. Маълумки, моддий субстансияларнинг мавжудлигини тан олувчи аксарият араб файласуфлари уларнинг оддийлиги ва мураккаблиги мазмунида улар ўртасидаги фарқни тан оладилар. Шу боис улар моддий субстансияларни икки гуруҳга бўлганлар: мураккаб ва оддийларга. Улар таъкидлаганидек оддий материя ўзининг кимёвий ва физик таркибига кўра ўз бутунлигига тенг материядир, мураккаб материяни эса турли унсурларлардан иборат, қисми ўз бутунлигига тенг бўла олмайдиган материя сифатида белгилаганлар. Мисол учун, сув, ер, олов ва ҳаво каби материя, уларнинг тушунчасига кўра, оддий материя

ҳисобланади, турли хил металллар, жониворлар ва инсон мураккаб моддий субстансиялар ҳисобланади.

Инсон мураккаб моддий субстансия эканлиги тўғрисида Фахриддин Розий ўзининг “Латоиф ул-ғиёсиёт” асарида инсон фалсафасига доир мукамал фикрларини, ўз қарашларини бериб ўтган. У инсонни Аллоҳ томонидан яратилганлиги ва енг улуг – зоти шариф даражасига кўтарилганлигини таъкидлайди ва инсон сифатлари хусусида шундай фикр билдиради: “Инсон мураккаб мавжудод. У икки жавҳардан иборат: руҳ ва жасад яъни тана. Одам танаси егулик истемол қилиш, ҳаракатланиш вазифасини бажарса, руҳ ақлий нарса, унга маънавий хусусиятлар хосдир.”[8; 70] Инсон ҳам маънавий руҳдан ҳам бадандан тузилганлиги учун уни мураккаб деб атайди. Розийнинг асарларини ўрганиш давомида унинг мантиқ илмида моҳир эканлигини, ўз фикрларини баён этишда исботлаш, хулоса қилишда осон бўлиши учун диалектика қонунидан моҳирона фойдаланганлигини кўришимиз мумкин. Юқоридаги билдирган фикрида ҳам руҳ ва тана қарама – қаршилиги орқали ўз қарашларини ифодалаган. Яъни унда инсон мураккаб мавжудод эканлиги, унинг моҳияти чексиз эканлигини англашимиз мумкин. Инсон мураккаблигига далил сифатида унинг икки жавҳардан руҳ ва танадан иборат бўлганлигидадир. Аллоҳ яратган бошқа мавжудодлар инсондан жуда кўп жиҳатдан фарқ қилади. Мисол учун фаришталарни назарда тутадиган бўлсак, нурдан яратилганлиги уларнинг танаси мавжуд эмаслигидадир. Инсондан ташқари турли хил мавжудодлар, ҳайвонларда еса тана мавжуд, руҳ мавжуд лекин уларнинг руҳига ақлий, маънавий хусусият хос эмаслигини кўришимиз мумкин. Инсон танаси руҳ ва жасаддан иборат ва руҳ ақлий, маънавий хусусиятга егадир.

Жисмлар қисмларга бўлинади деган тушунчага нисбатан олимлар ва файласуфлар ўртасида бир-бирига қарама-қарши фикрлар мавжуд. Бироқ таналар қисмларга бўлиниши борасида ҳеч қанақа шубҳа бўлмаслиги керак. “Оддий тана, – ёзади Розий, – ўз моҳиятига кўра, ягона ва узлуксиз бўлинишга қодир бўлиши мумкин.”[11; 78]

Фахриддин Розий оддий жисмларнинг структураси, тузилиши ҳақидаги турли гипотезаларни тадқиқ қилар экан, оддий деб аталадиган жисм ўз структурасига кўра асло оддий эмас, балки элементар зарраларнинг туганмас микдоридан иборат, мураккаби эса ҳаракатланадиган, фаол жисмлар каби узлуксиз бўлинади ва битмас-туганмасдир деган хулосага келади. М.Н. Болтаевнинг таъкидлашича, материянинг қурилишига оид мазкур халқона қараш замонавий табиатни

билишнинг барча назарий ютуқлари томонидан тасдиқланади.

ХУЛОСА

Розий ўзининг фалсафий асарларида субстансия ва материянинг Аксиденсия ва шаклга нисбатан устувор роли, уларнинг ўзаро алоқаси ва бирига боғлиқлигини тан олган, реал дунёдаги предмет ва ҳодисаларнинг сабабий алоқасини, ҳаракат, макон, замон ва уларнинг узлуксиз ўзаро алоқаси объектив борлигини тан олган. Бунинг барчаси, шубҳасиз, унинг таълимотидаги рационал марказни ташкил этади. Ва у, шубҳасиз, улкан ижобий роль ўйнади, зеро, бу – исломнинг асосий доғмаларига зиддир. Шунинг учун ҳам Розийни Яқин ва Ўрта Шарқ халқларининг илғор фалсафий фикрларини ривожлантиришда катта роль ўйнаган ўрта асрлар даврининг эркин фикрловчи ва илғор мутафаккир-файласуфлардан, шунингдек, Ўрта Осиё ва мусулмон Шарқининг бир қатор кейинги мутафаккир-файласуфларнинг дунёқарашига улкан ижобий таъсир кўрсатганлардан бири деб бемалол ҳисоблаш мумкин.

REFERENCES

1. Axmedova, M. “Falsafa”. Toshkent, 2006. – bet 354
2. Ayman Shihadeh. “The Teleological ethics of Fahr al-Din al-Razi”. Brill Leiden Boston, 2006. – bet 275
3. Tariq Jaffer. “Razi Master of Qur'anic Interpretation and Theological Reasoning”. Oxford University Press, 2015. – bet 244.
4. Yacin Ceylan. “Theological and Tafsir in the major works of Fakhr al-Din al-Razi”. Thesis presented for the degree of Ph.D. in the Faculty of Arts, University of Edinburg. 1980. – p 264
5. M. Saghir Hasan Masumi, “Imam Razi’s Ilm al-akhlaq”. Kitab Bhavat.: New Delhi, 1992. – p 333
6. Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн-Сины и его школы. Душанбе, 1965. – с 295.
7. Наимов Н. Философские и логические воззрения Фахриддин Розии; Дис. канд. фил. наук – Тошкент, 1975. – с 203.
8. Umarjonov S. Fahriddin Muhammad ar-Roziyning (1149-1209) “Latoif ul-g’iyosiyot” asarining falsafiy-germenevtik tahlili. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.:2020. –bet 121. // Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g’iyosiyot” qo’lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining



- qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1058-1068.
9. Форобий. Рисолалар. Т.:Фан, 1975.- bet 235.
10. Фахриддин Розий “Чахордах рисола” Тегеран, 1340 г. хиджри, 185 стр.
11. Фахриддин Розий. Ар-рисолат-ул-камолия. Тегеран, 1335 г. хиджри,- с 215.
12. Фахриддин Розий. Жомеъ ул-улум. Тошкент, 1331 г хиджри, 490 б.
13. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitishda Fahriddin Roziyning ontologik qarashlarining o'rni va ahamiyat. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 1029-1038.
14. Safarov, M.K., Umarjonov, S.S. (2022). Matter of consciousness in the philosophy of ar-Roziy and its current importance. 3rd International scientific and practical internet conference. "Integration of education, science and business in modern environment: Winter debates", 135-138.
15. Umarjonov, S. (2021) Ijtimoiy fanlarni o'qitishda Fahriddin Roziy asarlarining o'rni va ahamiyati. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy-innovatsion yo'nalishlari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 116-123.
16. Umarjonov, S. (2019) Kalom va uning Fahriddin Roziy falsafiy qarashlaridagi ahamiyati. Asian civilization and Silk Road. the 20th International conference of East Asian humanities society, 3, 405-407.

YENGIL ATLETIKA DARSLARI ORQALI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH USULLARINI O‘RGANISH

S. X. Xabibullayev

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

A. N. Xusanboyev

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini maxsus testlar yordamida tekshirish orqali o‘rganilgan. Tadqiqot davomida to‘garak mashg‘ulotida tezkorlik, kuch, chidamlilik va chaqqonlik qobiliyatlarining ko‘rsatkichlari o‘zgarishi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Yengil atletika, sport malikasi, jismoniy tayyorgarlik, maxsus testlar, to‘garak mashg‘uloti.

KIRISH

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifa ekanligi, sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat berilishi hamda yosh avlod orasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o‘smirlar sport maktablari tashkil etilishi aytib o‘tildi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini maxsus testlar yordamida aniqlash va tahlil qilish.

Tadqiqotimizning maqsadiga erishishda biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

1.Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va ilmiy maqolalarni o‘rganish.

2.O‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini testlar asosida baholash hamda tahlil qilish.

Yengil atletika atamasi shartli bo‘lib, mazkur sport turiga kiruvchi hamma mashqlarning tabiiy ahamiyatini yoritib

bera olmaydi. Shu bilan birga, yengil atletika qadimiy yunoncha «atletika» soʻzidan olingan boʻlib, «mashq», «kurash», «bellashuv» mʼnonisini anglatadi. Qadimgi Gretsiyada kuch va chaqqonlikda musobaqalashgan kishilarni atletlar deb ataganlar.

Hozirgi kunda ham jismoniy kamolotga erishgan barkamol insonlar atletlar deyiladi. Ayrim mamlakatlarda yengil atletikani «atletika» (Frantsiyada) yoki «yoʻlka va maydondagi mashqlar» (AQSH, Angliyada) deb ataydilar [2].

Yengil atletika hayotiy zarur va keng tarqalgan mashqlarni — yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlarini birlashtirgan eng ommaviy sport turi hisoblanadi.

Yengil atletika mashqlarining aksariyati umumiy omma — eng kichik yoshdagi bolalardan boshlab, to kattalargacha bajara oladigan va kundalik turmushda uchraydigan mashqlardan iborat. Yengil atletika bilan yil davomida shugʻullansa boʻladi. Shu sababga koʻra, yengil atletika mashqlari (yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish) «Alpomish» va «Barchinoy» deb nomlangan maxsus testlar majmuasining katta qismini tashkil etadi.

Yengil atletikaning «sport malikasi» deb atalishi bejiz emas.

Uning turlari Respublika, xalqaro musobaqalar, Olimpiya oʻyinlari dasturlaridan munosib oʻrin egallagan hamda oʻynaladigan medallar majmuasi va soniga koʻra eng koʻp hisoblanadi [2].

Yengil atletika musobaqa mashqlarining turli-tumanligi bilan farqlanach va ularni bajarishning turli usullari hamda variantlari mavjud.

Yengil atletika mashqlarini aniq tasniflash uchun uni besh boʻlimga ajratib (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, koʻpkurash) qarash maqsadga muvofiqdir. Ular, oʻz navbatida, turlarga, turning xillariga hamda variantlar va masofalarga ajratiladi [2].

Tadqiqot ishlarimizni 2022 yil sentabr va oktabr oylarida Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 11-maktabning 8-9-sinf oʻquvchilarida olib bordik.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalaridan aniqlangan natijalar shuni eʼtirof etishga imkon berdiki, oʻquvchilarning jismoniy tayyorgarlik hamda jismoniy rivojlanish koʻrsatkichlarini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba tekshiruvlari oʻtkazildi va quyidagi nazorat testlari qoʻllanildi. Tadqiqot 2022 yil sentyabr oyining boshida oʻtkazildi. 8-9 sinf oʻquvchilarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida maxsus testlar qabul qilindi.

1-jadval

№	O'quvchilarning familiyasi va ismi	60-metrga yugurish. (soniya).	Yugurib kelib uzunlikka sakrash. (metr)	1000 metrga yugurish. (soniya).	"4x10 metrga mokisimon yugurish" (soniya)
1	J. T.	9,5	380	3,50	9,9
2	Y.A.	9,3	390	3,45	9,8
3	A.A.	9,4	380	3,46	9,8
4	A.S.	9,6	370	3,52	10,0
5	B.T.	9,4	390	3,44	9,9
6	A.S.	9,5	390	3,42	9,8
7	R.J	9,3	390	3,46	9,7
8	M.A	9,1	400	3,40	9,7
9	J.Sh	9,2	390	3,44	9,8
10	A.A.	9,4	380	3,45	9,9

2022 yil oktabr oyining oxirida ya'ni ikki oydan keyin qabul qilib olingan testlarni yana qayta qabul qildik. O'tgan ikki oy ichida o'quvchilar Yengil atletika sport turidan muntazam to'garaklarda shug'ullanishdi olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam berdi. Buni 2-jadvaldagi najalardan ko'rish mumkin.

2-jadval

№	O'quvchilarning familiyasi va ismi	60-metrga yugurish. (soniya).		Yugurib kelib uzunlikka sakrash. (metr)		1000 metrga yugurish. (soniya).		"4x10 metrga mokisimon yugurish" (soniya)	
		oldin	keyin	oldin	keyin	oldin	keyin	oldin	keyin
1	J. T.	9,5	9,0	380	390	3,50	3,43	9,9	9,7
2	Y.A.	9,3	9,0	390	400	3,45	3,40	9,8	9,6
3	A.A.	9,4	9,1	380	395	3,46	3,41	9,8	9,5
4	A.S.	9,6	9,2	370	385	3,52	3,45	10,0	9,8
5	B.T.	9,4	9,0	390	400	3,44	3,40	9,9	9,6
6	A.S.	9,5	9,0	390	405	3,42	3,35	9,8	9,5
7	R.J	9,3	8,9	390	400	3,46	3,41	9,7	9,4
8	M.A	9,1	8,7	400	410	3,40	3,35	9,7	9,3
9	J.Sh	9,2	8,6	390	400	3,44	3,39	9,8	9,5
10	A.A.	9,4	9,0	380	395	3,45	3,41	9,9	9,6
O'rtacha ko'rsatkich		9,3	8,9	386	398	34,5	34	9,8	9,5

2-jadvalda 60 metrga yugurish , tadqiqotdan oldin o'rtacha ko'rsatkich 9,3 soniya bo'lsa tadqiqotdan keyin 8,9 soniyani tashkil etib o'sish samaradorligi 0,4 % ni tashkil qildi. Yugurib kelib uzunlikka



sakrash testi bo'yicha tadqiqotdan oldin 386 sm , tadqiqotdan keyin 398 smni tashkil etib o'sish samaradorligi 12 sm ni tashkil qildi. 1000 metrga yugurish testida tadqiqotdan oldin 34 minut, 30 soniya, tadqiqotdan keyin 34 minutni tashkil qilgan bo'lsa o'sish samaradorligi 30 soniya natija qayd etildi. 4*10 metrga mokisimon yugurish testida tadqiqotdan oldin 9,8 soniya, tadqiqotdan keyin 9,5 soniyani tashkil qilgan bo'lsa o'sish samaradorligi 0,3 soniyani tashkil qildi.

Shunday qilib, o'quvchilarning to'garak mashg'ulotlarida qo'llanilayotgan yangiliklar tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch ko'rsatkichlarining o'sishiga yordam berdi.

XULOSA

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lishi, harakat vazifalarini tez va to'g'ri yecha olish uchun, kuchli tezkor, chaqqon, chidamli va mustahkam irodali bo'lish talab etiladi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda asosan hozirgi talablarga javob beradigan vosita va usullar orqali takomillashtirish oldinga qo'ygan maqsadga tezroq yetishga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 29 dekabr Toshkent.
2. Quدراتov R.Q. / Darslik. Yengil atletika. - T.: 2012 y. 384 b.
3. Shakirjanova K.T. Oliy ta'lim muassasalarida yengil atletika bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar (qisqa masofalarga yuguruvchilar uchun). O'quv qo'llanma. T., 2009. -S. 104.
4. Xabibullayev, C. X. (2019). Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funktsional holatini baholash uslubiyati. Mug'allim , 1(4), 148-153.
5. Xabibullayev, C. X. (2020/10). Futbol bo'yicha yillik va oylik o'quv mashg'ulotlar ish rejasini tuzishning samarali usuli. Academic research in educational sciences (ares), volume 1, issue 2, 325-332.
6. Xabibullayev, C. X. (2020/11). Jismoniy tarbiya darslarida sport o'yinlari qoidalarini o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Academic research in educational sciences (ares), volume 1, issue 3, 1150-1156.
7. S.X.Xabibullayev. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning samarali usuli. Maktab va hayot, №2, 23-25.
8. Xabibullayev, S. X. (2020). Jismoniy tarbiya darslarida sport o'yinlari qoidalarini o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Mug'allim , №6, 143-146.



KUCHLANISH O'ZGARISHINI REAKTIV QUVVATNI AVTOMATIK KOMPENSATSIYALASH QURILMASIDA ROSTLASH

I. X. Xolidinov

Farg'ona politexnika instituti dotsenti

A. A. Qodirov

Farg'ona politexnika instituti assistenti

S. Kamoliddinov

Farg'ona politexnika institute assistenti

i.xolidinov@ferpi.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektr tarmoqlarida kuchlanishning o'zgarishini reaktiv quvvat hisobiga rostdash hisoblashlari keltirilgan. Bundan tashqari reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiyalash qurilmasini joriy etishdan oldingi va keying holati uchun matematik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kuchlanish o'zgarishi, reaktiv quvvat, kompensasiya, ruxsat etilgan qiymat, chegaraviy qiymat.

ABSTRACT

This article presents calculations for regulating voltage in electrical networks due to reactive power. In addition, a mathematical model of the state before and after the introduction of an automatic reactive power compensation device has been developed.

Keywords: Voltage change, reactive power, compensation, allowable value, limit value.

KIRISH

Elektr energiyani muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri kuchlanishni haqiqiy qiymati hisoblanib u iste'molchini ulanish sxemasiga bog'liq holda faza yoki liniya kuchlanishi bo'lishi mumkin.

Transformatsiyalashni bir pog'onasi orasida tarmoq kuchlanishi nisbatan kichik oraliqda o'zgaradi, shuning uchun

Ushbu maqolada Tritikale o'simligi yaratilish tarixi va xalq ho'jaligidagi ya'ni oziq-ovqat, chorvachilik va parrandachilikdagi ahamiyati bo'yicha dunyo olimlari tomonidan yozilgan adabiyotlar tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kleykovina, seleksiyasida, optimal, evolyutsiya, xromosomalar, amfidiploid, sitologiya, genetika, fiziologik, biokimyoviy.

KIRISH

Tritikale bug'doy va javdar gibridiga asoslangan birinchi sun'iy donli ekin. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilik va parrandachilikda ozuqa sifatida ishlatiladigan bug'doy o'rniga tritikaledan foydalanish muhim ahamiyatga ega [11].

Qishloq xo'jaligida tritikaledan foydalanishning 3 ta asosiy yo'nalishi (em-xashak, non, yashil oziq-ovqat) mavjud. Tritikale oziq-ovqat tayyorlashda noyob tarkibiy qism bo'lishi mumkin. Chorvachilik va parrandalar ratsionidagi tritikale donlarining 50% ni oddiy ovqatlar (bug'doy, arpa va boshqalar) bilan almashtirish tavsiya etiladi. Tritikale arpa bilan birgalikda o'zining yaxshi ozuqaviy afzalliklarini ko'rsatadi [14].

Tritikaleni em-xashak o'simligi sifatida tanlash alohida e'tiborga loyiqdir, chunki tarkibida birinchidan bu kleykovina mavjudligi. Biroq, bugungi kunga kelib, glyuten miqdori past bo'lgan yangi namunalari, shuningdek, glyutensiz navlar mavjud bo'lib, bu em-xashak navlarini tanlashda yordam beradi. Ikkilamchi sezgi nuqsoni - yirik hayvonlarda mikroorganizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan 5-p-alkil rezorsinolonlarning fenolik antimetabolitlari mavjudligi.

Bu xususiyat tritikaledan 5-p-alkil rezorsinol mavjudligida keskin farq qiluvchi navlar tomonidan meros bo'lib o'tadi. Shuning uchun em-xashak seleksiyasida duragaylashda bug'doy va javdarni duragaylashdan olinadigan va shu moddaning optimal miqdoriga ega bo'lgan tritikale navlaridagina foydalanish kerak [12].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tritikale - juda qisqa vaqt ichida inson tomonidan yaratilgan ekin. Boshqa barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining shakllanishiga olib kelgan ming yillik evolyutsiya jarayoni uni chetlab o'tdi. Shuning uchun seleksionerlar oldida tritikale genofondini sezilarli darajada oshirish vazifasi turibdi. Buning uchun olimlar embrionni sun'iy muhitda o'stirish, duragaylash va xromosomalar sonini ikki baravar oshirish usullaridan foydalanadilar [19].

Birinchi unumdor bug'doy-javdar amfidiploidlari 1888 yilda nemis seleksioneri Rimpau tomonidan F1 bug'doy-javdar duragay nasllarini ota-bobolari bilan kesishishi natijasida olingan. Hosil bo'lgan amfidiploid morfologik jihatdan juda yassi va doimiy bo'lib, 120 yil davomida shundayligicha qoldi. Ushbu kashfiyotdan so'ng dunyoning ko'plab mamlakatlarida tritikaleni yaratish va o'rganish bo'yicha ishlar boshlandi. E. Chermak bug'doy-javdar duragaylarining asoschisi edi [16; 9].

Bug'doy amfidiploidlarini olish bo'yicha A.Munzing tomonidan 28 xromosomal F1 gibridini sun'iy changlatish yo'li bilan tritikale olish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi. Uning ishida turli kelib chiqishi tritikalening biologiyasi, sitologiyasi, genetikasi va seleksiyasi batafsil yoritilgan. Aynan A. Munzing tritikale olishning ikkita usulini ishlab chiqdi. Birinchisi, F₁ F₂ duragaylari tomonidan o'z-o'zini changlatish va ikkinchisi, F₁ duragaylarining mavjud tritikale turlari bilan o'z-o'zini changlatishdir [2; 4; 5; 9; 15].

Seleksionerlar har doim javdarning qimmatli xususiyatlarini bug'doyga o'tkazish g'oyasi bilan qiziqishgan. Javdar - oziq-ovqat, ozuqaviy va texnik maqsadlarda keng qo'llaniladigan universal o'simlik. Uning xilma-xilligi donning yuqori hosildorligi va biologik jihatdan to'liq biokimyoviy tarkibi bilan izohlanadi. Javdarning afzalliklaridan biri shundaki, u yuqori sharoitlarga bardosh bera oladi. 1913 yilda javdar va bug'doyni aralashtirish yo'li bilan duragaylar olingan, keyinroq 1931 yilda ular *Triticum* va *Secale* lotincha nomlaridan olingan Tritikale deb nomlangan [3].

O'zbekiston sharoitida tritikalening tez o'sadigan navlarini yaratish respublika seleksionerlari oldida turgan asosiy

muammolardan biridir. Tez o'sadigan navlar qurg'oqchilik va jazirama boshlanishidan oldin kerakli hosilni olishga qodir bo'lib, tuproqning tez bo'shashishi tufayli yiliga 2-3 marta hosil olish mumkin [1; 6; 7].

Tritikaledan foydalanishning ikkinchi usuli - non pishirish. Hozirgi vaqtda dunyoda hayvon oqsillarini iste'mol qilish 25-35% gacha kamaydi. Protein etishmovchiligini kamaytirish uchun o'simlik oqsili bilan boyatilgan ovqatni olish kerak. Tritikale bu maqsad uchun juda mos keladi, chunki u bug'doy va javdardan aminokislotalar miqdori bilan farq qiladi va nafaqat keng qo'llaniladigan non mahsulotlarini tayyorlash uchun, balki parhez va dorivor oziqlanish uchun ham mos keladi [13].

Tritikale navlarining fiziologik hamda biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish usullarining qimmatli xo'jalik belgilari bilan birgalikdan tadqiq etish natijasida, o'zida ko'p miqdorda oqsil saqlaydigan serhosil navlarni qishloq xo'jaligiga tavsiya qilish, chorvachilikda yemga bo'lgan extiyojni qondirish, tuproq va iqlimning noqulay sharoitlariga bardoshli va kasalliklarga chidamli bo'lgan navlarini tanlash imkonini beradi. Tritikale darajasi bo'yicha mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab tadqiqotlarning asosiy qismi oz sonli navlar bo'yicha olib borilgan. Yangi navlarning texnologik parametrlari va pishirish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan [8; 17; 18; 21].

Tritikalening biotik va abiotik tasirlarga yuqori bardoshlilik ekologi xavfsiz texnologiyalarni qo'llashni osonlashtiradi. Tritikale egallagan pasttekisliklar Fransiya, Germaniya, Vengriyada joylashgan. Maydoning qisqarib borishi bo'yicha Avistraliya, Boltiqbo'yi davlatlari, Chexiya, Daniya turadi [10].

Tritikale dunyoning barcha mintaqalarida sinovdan o'tkazilgan va hozirgi kungacha yetishtirilib kelinmoqda [20].

Tur ichida har xil darajali sifatga ega kuzgi va bahorgi shakillarining duragaylanishi natijasida yaxshilangan kleykovinali tritikale navlari yaratilgan [22].

XULOSA

Dunyoda aholini oziq-ovqat xavfsizligi taminlashda tarkibida oqsil miqdori ko'p va ozuqa sifati yaxshi bo'lgan tritikale o'simligining turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirish, stress omillarga chidamliligini oshirish hamda chorvachilik va parandachilikda yem uchun islatoladigan bug'doy o'rniga foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitiga moslashgan tritikale namunalarning tezpishar va hosildor turlarini tanlash va seleksiya uchun boshlang'ich manbalarini yaratish dolzarb hisoblanadi.



REFERENCES

1. Ақида Авлақуловна Эшмуродова, Акмал Қаландар Ўғли Бўронов ТРИТИКАЛЕ МОРФОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ // Academic research in educational sciences. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tritikale-morfologiyasi-va-uning-kelib-chi-ishi>
2. Бабоев, С. К., Холлиев, О. Э. Ў., Бурунов, А. К., Маткаримов, Ф. И., & Бузуруков, С. С. (2021). ЯСМИҚНИНГ МАЙДА УРУҒЛИ ХАЛҚАРО ЭЛИТА КЎЧАТЗОРИ ЎСИМЛИКЛАРИДА ҲОСИЛДОРЛИК БЕЛГИЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
3. Бободжанов В.А., Курбанова М.Б., Боротова М.М. Продукционный процесс гексаплоидных тритикале // Вести с.-х. науки. 1990. - № 9. – С. 101-105
4. Бурунов, А. Қ. Ў., Зияев, З. М., Холлиев, О. Э. Ў., & Файзуллаев, А. З. Ў. (2021). КУЗГИ ВА ДУВАРАК БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ ЮҚОРИ АВЛОД ЛИНИЯЛАРИДА МИҚДОРИЙ ВА СИФАТ БЕЛГИЛАРИ БЎЙИЧА КЛАСТЕР ТАҲЛИЛ. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1481-1488.
5. Бурунов, А. Қ. Ў., Бабоев, С. К., & Холлиев, О. Э. Ў. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ҚАДИМИЙ МАҲАЛЛИЙ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ГЛИАДИН ОКСИЛЛАРИ ПОЛИМОРФИЗМИ. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
6. Бўронов, А. Қ. Ў. (2022). ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ МАҲАЛЛИЙ НАВЛАРИНИ ГЛИАДИН ОКСИЛЛАРИ ЁРДАМИДА ПОЛИМОРФИЗМИНИ АНИҚЛАШ. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 401-407.
7. Буранов, А. К., Бабоев, С. К., Мелиев, С. К., Моргунов, А. И., & Муминжонов, Х. (2014). ХАРАКТЕРИСТИКА СТАРОДАВНИХ МЕСТНЫХ СОРТОВ ПШЕНИЦЫ УЗБЕКИСТАНА ПО КАЧЕСТВУ ЗЕРНА И ЗАПАСНЫМ БЕЛКАМ. *The Way of Science*, 20.
8. Ведерникова Е., Чумак Т., Поляк М. Поляк Трёхвидовые тритикале - перспективное сырьё для хлебопекарной промышленности // Селекция и семеноводство. - Киев: Урожай, 1983. - Вып. 55. – С. 64-65.
9. Грабовец А.И., Крохмаль А.В. Тритикале: монография // Ростовна-Дону: ООО «Издательство «Юг», 2019. – С.240.
10. Гончаров С.В. Европейский семенной рынок тритикале // Тритикале. Материалы научно-практич. конференции —Тритикале и его роль в условиях нарастания аридности климата. – Ростов н/Д, 2012. – С. 141-145



11. Досчанов Ж.С. Ўзбекистоннинг шимолий худудларига мослашган тритикале навларини танлаш ва уларнинг физиологик хусусиятларини ўрганиш, Дисс. Тошкент-2021 йил
12. Кайдалов А.Ф., Лукьянчук В.Н. Тритикале на зерно и корм // Современные достижения биотехнологии: матер. 2-ой Всеросс.научно-практ. конф. – Ставрополь. 2002. – С. 93–94.
13. Кондратенко Е.П., О.Б.Константинова, О.М.Соболева, Е.А.Ижмулкина, Н.В.Вербицкая, А.С.Сухих. Содержание белка и аминокислот в зерне озимых культур произрастающих на территории лесостепи Юго-Востока Западной Сибири//Химия растительного сырья. 2015. №3. – С. 143-150.
14. Мазуров В.Н., Санова З.С., Джумаева Н.Е., Еремеев В.И. Руководство по использованию тритикале озимой в кормлении высокопродуктивных молочных коров – Калуга, 2014. – С. 29.
15. Мюнцинг А., Некоторые фазы эволюции тритикале // Проблемы экспериментальной биологии. - М.: Наука, 1977. – С. 86-97.
16. Пыльнев В.В., Коновалов Ю.Б., Хупацария Т.И. и др.; Частная селекция полевых культур: Учебник Под ред. В. В. Пыльнева. – СПб.: Изд-во «Лань», 2016. – 544 с.
17. Baboev, S. K., Buranov, A. K., Bozorov, T. A., Adylov, B. S., Morgunov, A. I., & Muminzhonov, K. (2017). Biological and agronomical assessment of wheat landraces cultivated in mountain areas of Uzbekistan. *Sel'skokhozyaistvennaya Biologiya*, 52(3), 553-560.
18. Baboev, S., Muminjanov, H., Turakulov, K., Buronov, A., Mamatkulov, I., Kos, E., ... & Morgounov, A. (2021). Diversity and sustainability of wheat landraces grown in Uzbekistan. *Agronomy for Sustainable Development*, 41(3), 1-13.
19. Varughese G., Barker T., Saari E. Triticale.1987. – P. 31.
20. Gedamu-Gobena A. Triticale production in Ethiopia: its impact on food security and poverty alleviation in the Amhara region. 2008. – P. 178.
21. Kalandarovic, B. A., & Kimsanbaevic, B. S. (2018). Polymorphizm of gliadin proteins among wheat landraces of Uzbekistan. *European science review*, 2(11-12), 15-17.
22. The Peace corps: perspectives for the future // Ad Hoc committee on development assistance opportunities in the next decade for the Peace corps. 1974.- P. 55.

TIL - XALQ TARIXINING SOLNOMASI

Shuhratbek Qaxxarov

Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Til tarixiga oid mazkur maqolada til, tilning tarixi, uning yaratilish bosqichlari, inson va jamiyat hayotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Unda dastlabki tilning paydo bo'lishi, davrlashtirish bosqichlari, milliy til, shu bilan birgalikda Abdulla Avloniyning til tarixiga doir nazariy qarashlari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: til, ona tili, til tarixi, o'zbek adabiyoti tili tarixi, tilni davrlashtirish bosqichlari, til va jamiyat, tilning funksiyalari.

ABSTRACT

This article on the history of language provides information about language, the history of language, its stages of creation, and its role in human and social life. It covers the emergence of the first language, the stages of chronology, the national language, as well as Abdullah Avloni's theoretical views on the history of language.

Keywords: language, mother tongue, language history, stages of language chronology, language and society, functions of language.

KIRISH

Tildagi har qanday so'zlar, iboralar yo'q joydan paydo bo'lishi mumkin emas. Har bir so'z odamlar hayotining muhim bir qismidir. Tilning har bir inson va butun jamiyat hayotidagi ahamiyati inkor etib bo'lmaz darajada yuqori. Til odamlar orasidagi asosiy aloqa vositasi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, til ko'plab funksiyalarni bajaradi, ularning asosiylari: ma'lumot uzatish usuli va o'z fikrlarini rasmiylashtirish usuli. Ya'ni shuni ta'kidlash kerakki, tilning ma'lum sakkiz ma'nosidan biri xalqdir. Til, eng avvalo, jamoaviy mehnat mahsuli bo'lib, u kishilarni birlashtirish maqsadida yaratilganligi diqqatga sazovordir. Bu uning jamiyat bilan asosiy aloqasini ko'rsatadi. Til o'z xalqining tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Avvalo, til qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar, ona yurtimiz boshidan kechirgan taraqqiyoti haqida hikoya qiladi. Aynan mana shu muloqot vositasi ma'lum bir xalqning taraqqiyotini aks ettiradi, unda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'rganib, uning mamlakatining tarixiy merosiga qo'shiladi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilning, dastlabki tilning paydo bo'lish masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko'plab nazariyalar, ta'limotlar paydo bo'ldi. Lekin bu nazariya va ta'limotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil-kesil hal qilib bera olgani yo'q. Til davr bilan, zamon bilan hamohang ravishda o'zgarib boradi, ba'zan turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar oqibatida, muomaladan chiqib ketishi ham mumkin. Masalan, o'tmishda jahon madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan feklar va rimliklar so'zlashgan qadimgi grek va lotin tillari davrlar o'tishi bilan muomaladan chiqib o'lik tilga aylanib qolgan.

XI asrdan boshlab o'zbek tili til sifatida shakllana boshladi. Turli taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi va XIII asrda eski o'zbek adabiy tili ma'lum darajada shakllandi. Eski o'zbek tilining til sifatida shakllanishida buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos. Navoiy o'zbek tilining rivojiga o'z asarlari bilan katta hissa qo'shgan. Til kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi. Olimlarning fikricha, til besh yuz ming yil avval paydo bo'lgan. Barcha narsalar singari til ham o'zgaruvchidir. Shunday ekan, mana shu o'tgan yillar mobaynida qanchalik darajada o'zgarganligini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish mushkul. Lekin ba'zi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini bildirib o'tganlar. Demokrit, Platon singari yirik faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqani to'g'risida bahs-munozaralar olib borganlar va o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Qadim zamonlardan beri tilning kelib chiqishi to'g'risida turli nazariyalar yaratilgan. Ba'zi olimlar til tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgan deb hisoblaydilar. Ya'ni narsa va so'z o'rtasida tabiiy bo'g'lanish bo'lganligi sababli insonlar uni o'zlari bilib olishgan degan fikrni ilgari surishadi. Ba'zi olimlar esa til kishilarning bir-biri bilan kelishishlari natijasida vujudga kelgan deb hisoblaydilar. Diniy qarashlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonlarga berilgan.

Hech bir inson o'z ona tilisiga bo'lgan hurmatini hech qachon yo'qotmasligi kerak. Zero tilga hurmat bu- xalqqa bo'lgan hurmatdir. Millat va elatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Har bir inson o'z tilini bilishi, ulug'lashi, shuningdek, boshqa millatlarning ona tilisiga ham hurmatda bo'lishi lozim. Shuningdek, jadidlar o'zlarining rang-barang janrdagi asarlarida jamiyat taraqqiyotining turli muammolarini aks ettirish bilan birga, milliy tilning shakllanishi va ravnaqiga ham befarq bo'lmadilar.

Ular qatorida Abdulla Avloniyning ham o'ziga xos o'rni va mavqei bor. Abdulla Avloniy o'zining deyarli barcha asarlarida ona tilini ulug'lash, uni e'zozlash, unga g'amxo'rlik qilish, tilni egallash, nutq madaniyati va nutq axloqi haqidagi fikrlarini ifoda etagan. U tilning xalq tarixi va taqdiridagi o'rni va rolini yuksak baholaydi: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur". Tilni boyitish va me'yorlash haqida gapirilganda hozirda tilshunoslikda, birinchi navbatda uning o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanish tamoyili oldinga suriladi. Mana shu nazariy tamoyilni Abdulla Avloniy o'ta sodda qilib, quyidagicha talqin qiladi: "Yoxud! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketdik." Yaxshi qo'shningdan olg'uncha yomon uyingni qidir", - demishlar. Bobolarimizga etushgan va yaragan muqaddas til va adiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qotganlarimizni ham toparmiz." Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshing'a tor edi", -deb Ovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdir. Payg'ambarimiz: "Erlarda jamol, lison va tildir", - demishlar". Abdulla Avloniy har bir millat o'z tiliga e'tibor bilan qaramog'i, uning iqboli uchun qayg'urmog'i lozimligini bayon qiladi. O'zbek tilining arabiy, forsiy unsurlar bilan to'lib-toshib ketgani, shuning uchun bu tilni o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, xalq tiliga yaqinlashtirish zarurligi to'g'risida qayg'uradi va yoshlarni o'z tiliga hurmat va muhabbat qo'yish va uni chuqur o'rganish bilan birga boshqa tillarni bilishga chorlagan. Muallif ijtimoiy-ruhiy til va xususiy bevosita voqelangan nutqni juda chiroyli ifodalar bilan farqlaydi: "Umumiy milliy tilni saqlamoq ila barobar xususiy, og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur". Bu bilan Abdulla Avloniy til va nutq o'rtasida mavjud bo'lgan umumiylik-xususiylik dialektikasini ochib berishga intilgan. Bundan tashqari, o'zbek tilining haqiqiy fan sifatida shakllanishida juda ko'p olimlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, A. Kanonov, Y. Polivanov, K. Yudaxin, D. Klason, A. Borovkov, N. Bashokov, K. Menges, Y. Ekman, S. Mutallibov, A. Rustamov, V. Reshetov, M. Asqarova, O. Usmonov, Shu. Shukurov, A. Muxtorov, B. Bafoyev, H. Ne'matov kabi qator olimlarining hissalarini beqiyos. Bir qator olimlar o'zbek adabiy tili tarixini 4 davrga bo'lib o'rganadilar: Jumladan, tilshunos olimlardan biri hisoblangan O. Usmonov o'zbek tili tarixini 5 davrga bo'lgan:

1. Qadimgi turkiy tili davri (VI- IX)
2. Qadimgi o'zbek tili davri (IX-XII)
3. Eski o'zbek tilining ilk davri (XIII- XIV asrlar)
4. Eski o'zbek tili (XIV-XIX asr)
5. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

Shuningdek, Turkiya tilshunoslik jamiyati faxriy a'zosi, xalqaro finugar jamiyatining muxbir a'zosi, filologiya fanlari doktori hisoblangan turkiyshunos olim A.M. Shcherbak ham til tarixini, xususan o'zbek tilining tarixini o'rganishda ko'plab tadqiqot ishlari olib borgan. Olim o'zbek adabiyoti tili tarixini 4 davrga bo'lib o'rganadi.

1. O'zbek adabiyoti tilining eng qadimgi davri (X-XIII asrlar)
2. O'zbek adabiyoti tilining o'rta "Chig'atoy tili" davri (XIV-XVII asrlar)
3. O'zbek adabiyoti tilining yangi davri (XVII-XVIII asrlar)
4. O'zbek adabiyoti tilining eng yangi davri (XIX-XX asrlar)

Darhaqiqat, til-hayotning boshlanishi. Inson o'z ona tili yordamida yangi tushunchalar va munosabatlarni anglay boshlaydi. Mashoyixlaridan biri: "Ko'p tilni bilish bitta qulfga tushadigan bir nechta kalitga ega bo'lish kishidagi ma'rifat va ma'naviyatning muhim belgisidir. Shuning uchun ham bundan ko'p yillar oldin ma'rifatparvar olim Avaz O'tar tilni bilish to'g'risida:

Lozim siza har tilni bilib ona tilidan,
Bilmakka oni g'ayrat eting foidai kondur deb ta'kidlaydi.

She'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy bobomiz ham o'z asarlarida til o'tkirqurol ekanligini, so'zning kuch qudratini ko'rsatib berganidek asrlar osha sayqal topib kelgan boy, serjilo va go'zal tilimizni qadrlash, uni yanada rivojlantirish lozim ekanligini aytib o'tgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tilni sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytib o'tganlaridek: "Ona tilimiz-milliy ma'naviyatimizning tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

REFERENCES

1. Ne'matova D. O'zbek ilmiy tilshunosligi. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.- 160 b
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar.- Toshkent: Akademnashr, 2012. Jild II.

ЎҚИТУВЧИ НУТҚИ МАДАНИЯТИМИ ЁКИ НОТИҚЛИК САНЪАТИ

Қодиржон Мўйдинов

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти доценти

АННОТАЦИЯ

Нутқ маданияти тилшуносликнинг соҳаси сифатида адабий тил меъёрлари, нутқ, нутқнинг коммуникатив сифатлари, нутқ услублари, нутқда учраши мумкин бўлган камчилик ва хатолар, нутқ талаффузига доир муаммолар юзасидан баҳс юритади. Нотиқлик кўпроқ нутқнинг мазмунига, мантикий асосларига ва тузилишига эътибор қаратади. Шу билан бирга тилшунослик, фалсафа, мантиқ каби фанлардан олинган назарий билимларга суянган ҳолда тўғри, таъсирли нутқ тузиш йўллари ўргатади.

Калит сўзлар: ўқитувчи, нутқ маданияти, нотиқлик, санъат.

КИРИШ

Маълумки, ҳар қандай давлат мустақиллигининг асосий белгиларидан бири унинг давлат тилига эга эканлигидир. Ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши мустақиллигимиз пойдеворининг асосларидан бири бўлди. Ўзбек тилининг мавқеи янада тикланди, барча соҳаларида давлат тили талабларига амал қилинишига катта имкониятлар яратилди. Хуллас, барча жабҳаларда “Давлат тили ҳақида”ги қонуннинг ижроси бўйича кўламли ишлар қилинмоқда. Олий ўқув юртларининг таълим йўналишлари ўқув режаларига мутахассисликларидан Ўзбек тилини соҳага йўналтириб ўқитиш фани киритилди. Педагогика олий ўқув юртларида “Ўқитувчининг нутқ маданияти” каби фанларнинг ўқитилиши ҳам фикримизнинг далилидир. Мазкур фанларнинг ўқитилиши ҳар томонлама етук, маҳоратли ва айни пайтда, рақобатбардош мутахассисларнинг жамиятда ўз ўрнини топишида муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Кейинги пайтларда нутқ маданияти ва нотиқлик санъатини айни бир тушунча сифатида қарашлар ҳам туради. Фикримизча, бу икки тушунча, айни пайтда бири иккинчисини тўлдирувчи, лекин бошқа-бошқа соҳа эканлиги ифодаловчи муносабатлар ҳам мавжуд. Нутқ маданияти нутқнинг ҳам оғзаки, ҳам ёзма шакли учун



тааллуқли тушунча бўлса, нотиклик санъати эса, асосан, нутқнинг оғзаки шакли. Нутқ маданияти маданий нутқ, тилшуносликнинг соҳаси сифатида адабий тил меъёрлари, нутқ, нутқнинг коммуникатив сифатлари, нутқ услублари, нутқда учраши мумкин бўлган камчилик ва хатолар, нутқ талаффузига доир муаммолар юзасидан баҳс юритади. Унда энг аввало, фикрнинг аниқ, равон, мантиқан тўғри, соф, таъсирли ва мақсадга мувофиқ бўлиши талаб қилинади. Нотиклик нутқ воситасида кишиларга муайян ғоя ва мақсадларни етказишни, тушунтиришни, таъсирлантиришни, уларни маълум мақсадда сафарбар қилишни кўзда тутади. Нотик нутқи кўпчилик тингловчиларга, кенг аудиторияга мўлжалланган бўлади. Нотиклик кўпроқ нутқнинг мазмунига, мантиқий асосларига ва тузилишига эътибор қаратади. Шу билан бирга тилшунослик, фалсафа, мантиқ каби фанлардан олинган назарий билимларга суянган ҳолда тўғри, таъсирли нутқ тузиш йўллари ўргатади.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Нотиклик санъатида эътиборни тортиш, таъсирчанликни ошириш мақсадида маълум ўринларда диалектал, жаргон сўзларни ишлатилиш ҳолати кузатилади. Нутқ маданиятида бу ҳолатга йўл қўйилмайди. Нотиклик санъатида интонация, градация, жест (қўл, юз ҳаракатлари)га кўп эътибор қаратилади. Лекин, ҳар иккисида ҳам фикр ўқувчи ёки тингловчига етиб бориб, маълум таъсир кўрсатса, яхши нутқ саналади. Демак, нотик нутқ маданиятини мукамал эгаллаган бўлиши, тил воситалардан энг мувофиғини танлай билиши лозим. Бунинг учун у, албатта, ўз она тилини пухта билиши, унинг барча бойликларидан усталик билан фойдалана олиши зарур. Нутқ аниқ ва равшан бўлиши билан бирга тоза бўлиши ҳам шарт, акс ҳолда фикрнинг кучи кетади, сўзловчининг нутқи тингловчига яхши таъсир қилмайди. Ўзбек тилида гапира олиш бу тилни яхши билади дегани эмас. Тилни яхши билиш тилнинг грамматик қонун-қоидаларини, луғат бойлигини ҳамда фонетик ва стилистик хусусиятларини пухта ўзлаштириб олиш билан белгиланади. Кўпинча нотик сўзга чиқишдан олдин фикрларини ёзма шаклда тайёрлайди: нималар ҳақида тўхталмоқчи, қандай мисоллар келтирмоқчи, ана шуларни ёзиб чиқади. Айрим кишилар, айниқса, талаба-ёшлар мақсадларини оғзаки сўзлаб бермоқчи бўладилар-да, кўпчиликнинг салобати босиб, гапларини йўқотиб қўядилар ёки ёзганларини бош кўтармай ўқиб берадилар. Белгиланган қисқа вақт ичида фикрни оғзаки

тарзда аниқ, тушунарли қилиб сўзлаш учун мунтазам равишда, қунт билан ишлаш лозим. Нутқда жумлаларни қайта тўғрилаш, ўзгартириш бўлмаслиги керак. Шунингдек, ўқитувчининг сўз бойлиги бўлиши лозим. Бунда сўзларнинг фақат миқдори назарда тутилмайди, уларнинг маъноси ҳам асосий ўринда бўлади. Сўзловчи маънодош (синоним) сўзлардан ҳам моҳирлик билан фойдаланиши зарур. Бундай сўзларни ишлатиш нутқнинг ранг-баранглигини таъминлайди. Педагог тилнинг грамматикасини ҳам яхши ўзлаштириб олган бўлиши керак. Грамматика қоидаларига риоя қилишгина нутққа мазмун ва мантиқ киритади. Баъзан ўқитувчилар нутқида диалектал сўзлар ишлатилади. Аслида ўқитувчи нутқида бундай диалектал сўзлар ишлатилмаслиги лозим. Баъзи сўзловчилар нутқида эса “демак”, “хўш”, “иннайкейин”, “яъни”, “масалан”, “мисол учун”, “айтайлик” каби сўзлар кўп қўлланади-ки, ўринсиз равишда ишлатилган бундай “бекорчи” сўзлар нутқни сийқа қилиб қўяди. Баъзан тингловчилар, талабалар, ўқувчилар педагогнинг сўзини эшитгандек кўринишадию, лекин фикрнинг мазмунини ҳис қилишмайди, улар сўзловчи нутқидаги мана шундай кераксиз сўзларни санаш, ҳисоблаш билан банд бўлиб қоладилар. Керак бўлса лақаб ҳам қўйиб олишади. Бундан ташқари рус тили ёки у орқали бошқа тиллардан кириб келган сўзларнинг ўринсиз ишлатилиши ҳам нутқни хиралаштиради. Бундай сўзлар мияга ҳам, юракка ҳам озуқа бермайди, кишига қаттиқ таъсир қилиб, унинг эътирозига сабаб бўлади. Абдулла Қодирий: “Сўз сўзлашда ва улардан жумла тузишда узоқ андиша керак”,- деган эди. Таниқли адибнинг ёзувчиларга қарата айтган бу сўзлари барчага бирдек тааллуқлидир. Абдулла Қаҳҳорнинг “Оғрик тишлар”, “Нотиқ”, “Қуюшқон” ҳикояларида ҳам ана шундай нўноқ нотикнинг қиёфаси жуда яхши чизиб берилган.

ХУЛОСА

Шундай экан, ўқитувчи барча тушуна оладиган, содда ва рагон гапириши керак. Дабдабали, баландпарвоз сўзларни, четдан кирган сўзларни, талабаларга тушунарсиз бўлган сўзларни ишлатмагани маъқул. Ўқитувчи ўз соҳасидаги илмий ютуқлар ва ижтимоий ҳаётда бўлаётган ўзгаришлардан доимий хабардор бўлиб турмаса, ўз устида ҳар кун, ҳар соатда мустақил ва муттасил ишламаса, у чин маънодаги замонавий ўқитувчи бўлиши қийин.

REFERENCES

1. Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Тошкент, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2007.
2. Бекмирзаев Н. Муаллимнинг ён дафтари. Тошкент, “Мухаррир” нашриёти, 2011.
3. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. Тошкент, “Маънавият” , 1999.
4. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Тошкент, “Алишер Навоий номидаги ”Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
5. Нусратилла Жумахўжа. Истиқлол ва она тилимиз. Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 1998.
6. Нусратилла Жумахўжа. Қонун тили мезонлари. Тошкент, “Мухаррир” нашриёти, 2010.
7. Каримов С, Маматов Х, Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Тошкент, 2004.



EFFICIENT WASHING WOOL FIBRES

Z. Sh. Islamova

I. A. Nabieva

Z. U. Saidmurodova

X. O. Murotova

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

ABSTRACT

The influence of the nature of the surfactant on the quality of the local wool fiber washing process was studied. Based on the results of the experiments, it was recommended to use Sulfanol NP-1 as a surfactant in terms of increasing the wettability of the fiber, maintaining its length and the efficiency of removing non-protein impurities from wool.

Keywords: wool, protein, fiber, wettability, degree of whiteness, color intensity.

INTRODUCTION

At present, the necessary legal framework and a favorable environment for the development of the textile and sewing and knitwear industry have been formed in the Republic of Uzbekistan. This presents great opportunities for the development of all textiles in general, in particular for expanding the range of textile products from natural protein fibers of local origin [1]. In light industry, sheep, camel and goat wool are used as wool raw materials. For the textile industry, sheep wool is of the greatest importance [2]. The texture of wool fiber has significant features in contrast to other natural and chemical fibers. Wool fiber is a horn formation of epidermal origin, consisting of keratin protein.

MATERIALS AND METHODS

Wool fiber has positive properties such as its thickness, length, tensile strength, tensile strength, elasticity, smooth color formation, thickening, adhesion ability. High-quality woolen fabrics are made from fine fibers, suit and coat fabrics from semi-fine fibers, coarse-thick suit and coat fabrics from semi-coarse fibers, and movut fabrics and felt from coarse fibers.

In this paper, black and dark brown local wool fibers and white goat hair were taken as the object for research. The washing

process of local coarse wool fiber was carried out for 30-150 minutes at a temperature of 45-50°C in a 1:50 modular solution containing sodium carbonate and surfactant (SFM).

It was then washed in warm and cold water for 5 minutes in a 1: 100 module, then dried. To carry out the bleaching-discoloration process, the samples were sampled for 45-60 minutes at a temperature of 45-50°C in a solution containing 2% hydrogen peroxide (30%) relative to the mass of wool fiber, the same amount of sodium silicate and 1% SFM of different activity. processed in the module. The bleached sample was washed, dried and the whiteness of the sample was determined before and after bleaching.

The length of the washed samples was determined in accordance with GOST 21244-75 [3], the degree of whiteness and color intensity [4]. To determine the wettability, the washed fibers were determined according to the Dreivza sedimentation method [5], i.e., the washed wool fibers were sequentially immersed in an aqueous solution of SFM and the time of their complete immersion in the solution was determined.

The processes of washing, dripping and bleaching-bleaching are of special importance in the initial processing of wool fibers [6]. The purpose of washing is to remove various types of waste, natural oil residues, mineral waste from wool fiber materials. The complex composition of the waste, in addition to natural waste, requires the selection of special technology [7] and equipment for the preparation of starch, its hydrolysis products, PVS, PAA, mineral oil, etc., which are also used in enterprises. The composition of the washing solution consists of surfactant and soda. Under the influence of soda, the fat-wax substances in the fiber become soluble, the surfactant emulsifies the fat-wax substances in this soluble state and ensures their release from the fiber. In this study, various surfactants and soap solutions were used to wash local wool fibers.

RESULTS AND DISCUSSION

The washing quality was assessed by maintaining the fiber length and increasing the wettability. Anionactive - Sulfanol NP-1, noionogen - Prevotse V-OF were used as surfactants in the experiments. Table 1 presents the results of a study on the effect of a surfactant type on the washing quality of wool fibers.

Table 1.

The effect of the type of surfactant on the washing quality of wool fibers

Surfactant	Decrease in wool fiber length, %	Fiber wetness, min		Wool fiber mass, g	
		first	after washing	first	after washing
Sulfanol NP-1	6	12	21 sek	2,0	1,6
Prevotse V-OF	11	it did not sink for 15 min	5	2,0	1,3

From the results obtained, when anionic surfactant is used as a detergent, not only the nature of the surfactant but also the pH of the solution may have affected the fiber length with noionogenic SFMs. Therefore, subsequent studies have studied the dependence of the quality of wool fiber on the environment of the washing solution (Fig. 1), in which the anionic - sulfanol NP-1 was used as SFM.




Figure 1. The dependence of the fiber length and wettability on the pH environment of the washing solution

From the given diagram we can see that the fiber length and its wettability are proportional when the washing solution medium is 9. When the pH of the solution exceeds 10, the wettability of the fiber gives a good result, but its size decreases sharply, as well as the brittleness of the fiber is felt on organoleptic analysis. In the study of the effect of washing process duration on wool fiber quality (Fig. 2), it was observed that increasing the process duration had a negative effect on fiber wetting.




Figure 2. Dependence of fiber moisture on washing duration

This is due to the consumption of solution components during the process, i.e. most of the wax-oil substances are emulsified under the influence of SFM in the washing solution and leave the fabric in the emulsion state. The other part is hydrolyzed under the influence of soda. Under the influence of soda, the water softens, the swelling of the fiber improves, as a result it is quickly cleared of waste, neutralizes acidic fats. In summary, the effect of the type of surfactant on the washing quality of the local wool fiber, the fiber length, and the wettability of the washing solution were found to depend on the pH environment.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5285 dated November 14, 2017 "On measures for the intensive development of the textile and sewing and knitwear industry." president.uz
2. Mohammad Mahbubul Hassan //Wool Fabrics Coated with an Anionic Bunte Salt-Terminated Polyether: Physicomechanical Properties, Stain Resistance, and Dyeability / OCS Omega / American Chemical Society – 2018. № 3.
3. GOST 21244-75 Sherst natural sortirovannaya. The method of determining the length.
4. Abdukarimova M.Z., Nabiyeva I.A., Ismoilova G.X. Textbook for laboratory and practical training in the field of chemical technology of textile decoration. T.: "TTYeSI Publishing House", 2015. 346 p.

5. T. E. Balanova and V. V. Safonov. Influence of the structure of surfactants on the removal of contaminants from textile materials in a non-aqueous environment // Tekhnologiya tekstilnoi promyshlennosti. - 2012. - No. 1. - P. 75–78.
6. Enkhzhargalyn Oyuunzaya. Development of technology for the production of yarn using camel wool to obtain high-quality knitwear. Abstract of candidate of technical sciences. Ivanovo. 2005. - 16 p.
7. M.Z.Abdukarimova, I.A.Nabieva, M.Sh.Khasanova. Chemical technology of textile products. - Tashkent - 2017. - 214 p.



МУВАШШАҲЧИЛИК АНЪАНАСИ

Арофатой Муйдинова

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада мувашшаҳ асарлар ҳақида сўз боради. Мувашшаҳ ўзбек мумтоз шеърлятида кенг тарқалган шеърлий санъатлардандир. Ижоди ўрганилаётган шоирнинг адабий давраси, яқин дўстлари ким бўлганини ўрганишда мувашшаҳлар муҳим манба бўлиши мумкин.

Калит сўзлар: шеър, шеърлий санъат, мувашшаҳ, тавших, ғазал, қитъа, мухаммас, тазмин, ҳашв.

КИРИШ

Ўзбек миллий уйғониш адабиёти вакиллари яратган мувашшаҳлар адабиётшуносликда деярли тадқиқ этилган эмас. Шу боис уларни ўрганиш шоирлар адабий-эстетик оламини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, бу давр ижодидаги мувашшаҳларни илмий асосда ўрганиш адабиёт тарихининг қоронғи жиҳатларини ёритишда муайян даражада хизмат қилади. Мақсуд Шайхзода, Азиз Қаюмов, Шариф Юсупов, Қўлдош Пардаев сингари олимларнинг бу мавзуга оид тадқиқотлари мувашшаҳнинг ўзига хос хусусиятларини ёритгани, унга доир мунозараларга ойдинлик киритгани жиҳатидан аҳамиятлидир. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида Феруз, Камий, Мискин, Ҳазиний, Муқимий, Фурқат каби улуғ шоирлар мувашшаҳчиликда шуҳрат қозонишган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мувашшаҳ шеърлий санъати арабча “ташвех” сўздан олинган, асоси “вашшаҳа” “белни боғламоқ”, “безамоқ”, “зийнатламоқ” маъноларини ифодалайди. Мувашшаҳ жанр эмас, шеърлий санъатлардан бири, шунинг учун ғазал, мухаммас, мураббаъ, мусамман, мустаҳзод, маснавий, қитъа, рубой, фард каби жанрларда яратилиши мумкин. Мувашшаҳнинг ҳар бир мисра, байт ёхуд бандининг бошланиш ҳарфларидан бирор кишининг исми келиб чиқади. Баъзан исм мисралар таркибидаги сўзлар орасига яширинган бўлади. Бундай ҳолда мувашшаҳ муаммо усулида ечилади.



Мувашшаҳнинг келиб чиқиши ҳақида турли фикрлар мавжуд. Чунончи рус шарқшунос олими И.Ю.Крачковскийнинг ёзишича, илк мувашшаҳ, унинг шакли шамойили ва муайян тартибда тузилиши борасидаги фикрлар X асрда Арабистонда яшаб ижод этган шоир Муқаддам ибн Муъафа ал-Кабрий қаламига мансуб [2, 123].

Мувашшаҳ адабиётларда *тавишх санъати* деб ҳам аталади. XV асрда яшаб ижод этган олим Атоуллоҳ Ҳусайний ўзининг “Баъдойиъ – ус санойиъ” асарида бу санъатга куйидагича таъриф беради: “Тавших ажам шуароси наздида андин ибораттурким, шоир мисра ёки байтларнинг бошида ё аларнинг ўртасида бир неча ҳарф ёки бир неча сўз келтирурким, ул ҳарф ёки сўзларни жамъ қилинса, бир исм ё бир лақаб ё бир мисра ё бир байт бўлур ёки анга ўхшаш бир нима ҳосил бўлур ва бу санъатни ўз ичига олган шеърни мувашшаҳ дерлар...”[1,85] Олим бунга мисол қилиб Алишер Навоийга бағишланган куйидаги қитъани келтиради:

Иззату давлат, *илоҳий*, бод бо фатҳу зафар,
Шаҳриёр-и мулк-и донишро *ҳамеша* бешумор!

(Илоҳим, илм мулкининг шаҳриёрига ҳамиша ҳисобсиз фатҳу зафар билан иззату давлат келсин.)

Лутф кун дар зилл-и шах, ё раб, *бидораиш* то магар
Ёбад оромиш *ба иззу* адл-и эшон рўзгор.

(Ё раб, лутф қил, уни шоҳ соясида сақла, токи уларнинг қудрату адлидан замона тинч бўлсин!)

Ё раб, эҳсон кун *ба фазилат* давлат-и уқбо, ки ў
Расм-и эҳсон кард дар дунё *ба давлат* ошкор.

(Ё раб, фазлинг билан унга охират давлатини эҳсон қил, чунки у давлатга бу дунёда эзгулик расмини бунёд қилди.)

Мазкур қитъанинг биринчи мисраларнинг бошидаги ҳарфларни жамъ қилинса, Али ҳосил бўлур, иккинчи мисраларнинг олдидаги ҳарфларни жамъ қилинса, шер ҳосил бўлур. Биринчи мисраларнинг ҳашвидаги сўзларни жамъ қилинса, куйидаги мисра ҳосил бўлур:

Илоҳий бидораиш ба фазилат.
(*Илоҳий, уни фазлингда тут.*)

Иккинчи мисраларнинг ҳашвидаги сўзларни жамъ қилинса, куйидаги иккинчи мисра ҳосил бўлур:

Ҳамеша ба иззу ба давлат
(*Ҳамиша қудрату давлатда.*)

Агар сўзларни мисра ва байтларнинг тартиби билад жамъ қилсалар, ушбу байт ҳосил бўлур:

Илоҳий ҳамеша бидораиш

Ба иззу ба фазилат ба давлат [1,85].

(Илоҳий, ҳамеша тут ани

Қудрату фазлингда, давлатда) [1,320].

Шоир тавших санъатига батафсил тўхталиб, барча турларига қатор мисоллар келтиради ва тавшихни қасидада қитъа шаклида қўлланишини таъкидлайди. Шунингдек, олим *тавших* сўзининг луғавий маъносини ҳам изоҳлаб, шундай асослайди: “Тавших луғатта вишоҳ, яъни бўюнбоғни бировнинг бўйнига илмактур. Шеърға ҳарф ёки сўзларни киритмак анга ўхшагани учун бу маънода анга тавших деб ном кўюптурлар” [1,87].

Мувашшаҳ-ғазаллар хусусида академик Азиз Қаюмов қуйидагича фикр билдирган: “Мувашшаҳ-ғазалда келтирилган сифатлашлар, шоирона тасвирлар кўпроқ шарқ адабиётига хос анъанавий характерга эга. Мувашшаҳ шоир маҳоратининг бир намоиши” [9,45].

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

XV аср шеърятда мувашшаҳнинг мисралар ичида қизил сиёҳ билан ажратиб ёзилган сўзларни жамланганда бир ёки бир неча байт шеър пайдо бўладиган туридан кенг фойдаланилган бўлса, XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари адабиётда эса кўпроқ ҳар бир мисра, байт ёхуд бандининг бошланиш ҳарфларидан ном келиб чиқадиган туридан фойдаланилган. Бу даврда мувашшаҳчилик анъанаси шу даражада оммалашганки, ҳатто, шоирлик ва назмчилик ҳунари мувашшаҳчиликдаги маҳорати билан ўлчангани манбаларда таъкидланади [7,91-92]. Бу давр адабиётининг кўзга кўринган намояндаларидан, Қўқон адабий муҳитининг пешқадам вакиллари билан бири Зиёвуддинхон Каттахожа ўғли Ҳазиний Хўқандий ижодини ўрганган адабиётшунос О.Жўрабоев шоирнинг давр анъанасига кўра мувашшаҳчиликда ҳам баракали ижод қилганини, шеърларининг 25 тасида мувашшаҳ санъати акс этганини, шулардан тўрттаси мураббаъ, биттаси мухаммасда, қолгани эса ғазалларда эканини таъкидлайди [3,86]. Юқорида мувашшаҳлар турли жанрларда яратилиши мумкинлигини айтиб ўтган эдик. Демак, Ҳазиний мувашшаҳларини нафақат ғазал ва мухаммасларда, балки мураббаъларда ҳам қўллаган. Жумладан, Тўтихон-Тўти номига 3 мураббаъ, Иброҳимхон номига 1 мураббаъ

боғлаган. Шоирлар, асосан ишқи мажозий акс этган шеърларини мувашшаҳ қилишган. Проф. Ш.Юсупов ишқи ҳақиқийга бағишланган ғазални мувашшаҳ тарзида яратилганига мумтоз шоирлар орасида фақатгина Ҳазиний тўра меросида дуч келганини ёзади[8,147]. Шоирнинг ишқи илоҳий куйланган “Фироқ” радифли ғазали Қўлдошхон номига мувашшаҳ қилинган. Ғазал куйидаги мактаб билан яқунланади:

Нақди умрингни дилингга олгуча тоатда бўл,
Эй Ҳазиний, айтасан зикру саноларни фироқ.

Шунингдек, мувашшаҳлар кўпинча эркаклар номига боғланган, жуда кам шоирларгина аёл номларига мувашшаҳ боғлаганлар. Ҳазиний тўра ижодида Тўфахон, Ашуройхон, Ойшахон, Назирхон, Ҳамраҳхон, Тўтихон-Тўти каби бир неча аёллар номларига мувашшаҳ боғлаганлигини кузатиш мумкин. Булар эса Ҳазиний мувашшаҳларининг ўзига хослигини таъминлайди. Шоир мувашшаҳ боғлаган шахсларнинг кимлигини аниқлаш мушкул бўлса-да, айримлари ҳақидаги маълумотларни О.Жўрабоевнинг илмий тадқиқотларида учратиш мумкин. Жумладан, номига тўққизта ғазалда мувашшаҳ боғланган Қўлдошхон шоирнинг Қумбосди қишлоғилик яқин дўсти, хофиз бўлганлиги у билан боғлиқ хотира-хикоя орқали аён бўлади[3,87].

Хива адабий муҳити намояндаларидан Муҳаммад Раҳимхон Феруз ҳам давр анъанасига мувофиқ мувашшаҳ-ғазалларнинг ўзига хос намуналарини яратган. Мувашшаҳлар, асосан эркаклар исмларига битилгани, жуда кам шоирлар ижодида аёллар номига мувашшаҳ боғлаганини юқорида айтиб ўтган эдик. Феруз ижодида ҳам аёллар номига мувашшаҳ-ғазаллар боғлаганини кўриш мумкин. Жумладан, шоирнинг:

Фурқатинг солди дилу жон ичра ўт,
Куфри зулфинг дину иймон ичра ўт, –

матлаъси билан бошланувчи ғазали Фаножон исмига мувашшаҳ қилинган. Хоразмда аёллар исмига “жон” қўшимчаси қўшиб айтилиши ҳисобга олинса, ушбу мувашшаҳ-ғазал аёл номига ёзилган бўлиши ҳақиқатга яқиндир[4,25].

Тошкент адабий муҳити вакилларида Мулла Қўшоқ Мискин ижодида ҳам ғазал жанридаги мувашшаҳлар кўп учрайди. Шоирнинг “Юсуфхон”, “Холмуҳаммадхон”, “Муҳаммаджон”, “Исмоил махзум”, “Зиёвуддинхон”, “Алихон”, “Омилхон” сингари замондошлари номига битилган мувашшаҳ-ғазаллари маълум. Номлари зикр этилган кишилар исмига Мискин билан бир даврда яшаб

ижод қилган яна қатор шоирлар ҳам мувашшаҳ боғлаганлар. Камийнинг Холмуҳаммадхон, Алихон, Мирзо Шошийнинг Алихон, Хислатнинг Юсуфхон, Алихон кабиларнинг номларига мувашшаҳ боғлаганларидан кўринадики, исмлари мувашшаҳ қилинган кишиларнинг Мискин ва унинг ижодий давраси учун яқин шахслар бўлгани ҳақидаги хулосага олиб келади. Хусусан, шоирнинг Зиёвуддинхон исмига мувашшаҳ қилинган “Зое айлаб ғамза тийрин отма кўп бегонага” мисраси билан бошланувчи ғазали замондоши шоир Ҳазиний исмига боғланган, деган мулоҳаза бор. Чунки “Ҳазиний ўз замондошлари Муқимий, Муҳйи, шайх Сулаймон Маҳжур, Ножий(Қаландар), Насимий, тўрақўрғонлик Ибрат, тошкентлик Камий, Мискин, Хислат, Сидқий Хондайлиқий каби шоирлар билан ижодий мулоқотда бўлган”. Мискин ва Ҳазиний ўртасидаги ижодий мулоқот Ҳазинийнинг кўп шоирлар мухаммас боғлаган машҳур “Ё ҳаёт ан-набий” радифли ғазалининг оҳанги ва радифини сақлаган ҳолда ёзган мухаммасида ҳам кўринади. Мискин ижодидаги:

Ҳуснингни, эй париваш, эълон этайму этмай?

Ё дил уйида сақлаб, пинҳон этайму этмай? –

байти билан бошланувчи ғазал Камийнинг Ҳусайнбек исмига мувашшаҳ қилинган “Ҳуснингни, эй париваш, эълон этайму этмай?” мисраси билан бошланувчи ғазалига тазмин қилинган. Эътиборлиси, Мискиннинг бу ғазали Холмуҳаммадхон исмига мувашшаҳ ҳам. Демак, Мискин нафақат ғазалга тазмин боғлаган, балки асос бўлган ғазалдаги бадиий унсурни ҳам сақлаган[5,79-80].

ХУЛОСА

Умуман, Миллий уйғониш даври адабиёти вакиллари ижодидаги мувашшаҳлар тадқиқи шоирларнинг яқин дўстлари кимлар бўлгани, шунингдек, бу давр ижтимоий ва адабий ҳаёти, шоирнинг адабий давраси, ижодий ҳамкорлиги каби кўплаб масалаларга ойдинлик киритиши жиҳатидан аҳамиятлидир.

REFERENCES

1. Атоуллоҳ Ҳусаиний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент, “Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1981.
2. Аширбоев С., Азимов И., Раҳматов., Ғозиев А. Эски ўзбек тили ва ёзуви практикуми – Т.: “Ижод”нашриёт уйи, 2006,123-бет.

3. Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Тошкент, “Фан”, 2007.
4. Махаммадиева Ю.Я. Ферузнинг бадий маҳорати. Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Т.: 2021, 25-бет.
5. Нуриддинов Ш.Б. Мулла Қўшоқ Мискин ҳаёти ва унинг адабий мероси. Филол.фан.ном... дис. – Т.: 2011, 79-80-бетлар.
6. Пардаев Қ. Муқимий шеърят: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Тошкент, “Муҳаррир” нашриёти, 2019.
7. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972, 91-92 бетлар.
8. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Тошкент, “Маънавият”, 2003.
9. Қаюмов А. Шеърят жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. 45-бет.



G. HERBACEUM L. ТУРИЧИ F₁-ЎСИМЛИКЛАРИДА АЙРИМ ҚИММАТЛИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ ИРСИЙЛАНИШИ

Хасан Алиқулович Мўминов

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада *G. herbaceum* L. турининг туричи хилма-хилликларини ўзаро чатиштириш асосида олинган 4 та F₁ авлод дурагай комбинацияларида «битта кўсақдаги пахта вазни», «1000 дона чигит вазни», «тола узунлиги» белгиларининг гибридологик таҳлили натижалари келтирилади. Олинган натижаларига кўра, ёввойи, рудерал, тропик, маданий шакллар иштирок этган subsp. *africanum* x subsp. *frutescens* va subsp. *pseudoarboreum* f. *harga* x subsp. *frutescens* ўртасидаги дурагай комбинацияларда ушбу белгининг ирсийланиши ўта доминант ($hp = 2,02$; $hp = 9,00$) даражада ва ижобий гетерозис ҳолда номоён бўлиши аниқланди.

Калит сўзлар: тур, кенжа тур, шакл, ёввойи, рудерал, тропик, маданий, дурагай.

ABSTRACT

In this article was presented the results of hybridologic analysis of trait «weight of raw cotton by one boll», «weight of 1000 seeds», «fiber length» at 4 intraspecific hybrid combinations F₁ *G. herbaceum* L. On the basis of the received results was determined that at hybrid combinations where wild, ruderal, tropical, cultivated forms participated: subsp. *africanum* x subsp. *frutescens* and subsp. *pseudoarboreum* f. *harga* x subsp. *frutescens* inheritance of the given trait occurs at level superdominance level ($hp = 2,02$; $hp = 9,00$) with positive heterosis.

Keywords: species, subspecies, form, wild, ruderal, tropical, cultivated, hybrid.

КИРИШ

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач пахтачиликни ривожлантириш борасида кенг кўламли ислохатлар олиб борилиб, бу борада, айниқса, ғўзанинг тезпишар ва ҳосилдор янги навларини яратишга алоҳида эътибор қаратилди. Мазкур йўналишда амалга оширилган дастурий чора-тадбирлар асосида муайян натижаларга,



жумладан, ғўзанинг тетраплоид турлари асосида тола сифати юқори бўлган навларни яратиш борасида муайян ютуқларга эришилди. Шу билан биргаликда биотик ва абиотик стресс омилларга чидамли навларни яратишда ғўзанинг диплоид хилма-хилликларидан селекция жараёнида фойдаланилмаган. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегиясида «касаллик ва зараркунандаларга чидамли, маҳаллий тупроқ-иқлим ва экологик шароитларга мослашган қишлоқ хўжалиги экинларининг янги селекция навларини яратиш» алоҳида таъкидлаб ўтилган [1, 3, 4]. Бу ўринда, жумладан *G. herbaceum* L. туричи хилма-хилликларини турли услублар ёрдамида баҳолаш, улардан ноқулай омилларга бардошли бўлган рекомбинантларини ажратиш олиш ва амалиётга жорий этишга йўналтирилган илмий изланишлар алоҳида аҳамиятга эга.

Ўзанинг энг муҳим қимматли хўжалик белгиларидан бири - битта кўсакдаги пахта вазнидир. Бу борада кўплаб олимлар [11, 17, 8, 9, 13, 14, 20, 21] илмий изланиш олиб борганлар. Уларнинг изланишларида F_1 -ўсимликларда кўсак вазни юқорилигининг ирсийланиши тўлиқ устунлик ҳолатда кечишини эътироф этганлар.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

